

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

# FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

DARSLIK



«YURIDIK ADABIYOTLAR PUBLISH»

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**Z.N. ESANOVA**

# **FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI**

**(UMUMIY QISM)**

*(60420100 – yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi  
talabalari uchun)*

**DARSLIK**

**Toshkent  
«Yuridik adabiyotlar publish»  
2022**

UO'K: 347.9(07)  
KBK: 67.410ya7  
E 86



O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT  
DAVLAT YURIDIK  
UNIVERSITETI

## FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

Darslik.

Z.N. Esanova – Toshkent:  
Yuridik adabiyotlar Publish,  
2022-y. – 328 bet.

O'zbekiston Respublikasi Oliy  
va o'rta maxsus ta'lim vaziri-  
ning 2021-yil 25-dekabrda  
538-sonli buyrug'iga asosan  
nashrga tavsiya etilgan.

### Muallif:

**Z. Esanova**, yu.f.d., prof.

### Taqrizchilar:

**M.M. Mamasiddiqov** –

O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokuratura  
Akademiyasi boshlig'ining  
ilmiy va axborot-tahliliy  
ishlar bo'yicha o'rinbosari,  
y.f.d, professor

**T.A. Umarov** –

O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokuraturasi  
bo'lim boshlig'i, adliya katta  
maslahatchisi,  
y.f.d, dotsent

Darslik «Fuqarolik protsessual huquqi» fanidan yurisprudensiya sohasi bakalavriat yo'nalishi talabalariga bag'ishlangan bo'lib, unda fanning umumiy qismi mavzulari o'rin olgan. Darslikda fuqarolik protsessual huquqining umumiy qoidalari, prinsiplari, taalluqliligi va sudlovligi, protsess ishtirokchilarining huquqiy maqomi, da'vo, isbotlash va dalillar, muddatlar, xarajatlar, protsessual majburlov choralari, shuningdek sudda ish qo'zg'atish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va mazmunan ko'rish, sud qarorlari haqidagi masalalar amaliyot materiallari asosida sharhlab berilgan.

ISBN 978-9943-7580-8-7



© Z.N. Esanova, 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

## MUNDARIJA

<b>So'zboshi</b> .....	9
<b>1-mavzu. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIGA KIRISH</b> .....	12
1-§. Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi va predmeti .....	12
2-§. Fuqarolik protsessual huquqining tizimi va manbalari.....	13
3-§. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi, vazifalari va turlari.....	18
4-§. Fuqarolik protsessining bosqichlari .....	26
5-§. Fuqarolik protsessual huquqining boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi.....	29
<b>2-mavzu. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING PRINSIPLARI</b> .....	34
1-§. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasi va ahamiyati .....	34
2-§. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari tizimi va tasnifi.....	35
<b>3-mavzu. FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI..</b> .....	57
1-§. Taalluqlilik tushunchasi va turlari .....	57
2-§. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash asoslari .....	60
3-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sudga qadar (suddan tashqari) himoya qilish shakllari .....	61
<b>4-mavzu. FUQAROLIK ISHLARINING SUDLOVLIGI</b> .....	66
1-§. Fuqarolik ishlarining sudlovligi tushunchasi va uning taalluqlilikdan farqi .....	66

2-§.	Sudlovlikning turlari: turdosh va hududiy sudlovlik .....	68
3-§.	Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi.....	73
4-§.	Fuqarolik ishlari bo'yicha taalluqlilik va sudlovlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlari.....	75
<b>5-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIY MUNOSABATLAR</b> .....	<b>78</b>
1-§.	Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi va elementlari.....	78
2-§.	Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga kelish asoslari va mazmuni .....	80
3-§.	Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari va ularning tasnifi .....	80
4-§.	Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari .....	87
5-§.	Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy maqomi .....	91
<b>6-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA TARAFLAR</b> .....	<b>102</b>
1-§.	Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi va turlari.....	102
2-§.	Taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari.....	103
3-§.	Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishning maqsadi, asoslari va turlari.....	105
4-§.	Ishga daxldor bo'lmagan taraflar tushunchasi va ularni almashtirish tartibi .....	106
5-§.	Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi .....	107

<b>7-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA UCHINCHI SHAXSLAR ISHTIROKI</b> .....	110
1-§.	Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va turlari .....	110
2-§.	Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, ularning ishga kirishish asoslari, protsessual tartibi, protsessual huquq va majburiyatlari .....	114
3-§.	Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, ularni ishga jalb qilish (kirishish) asoslari, protsessual tartibi, protsessual huquq va majburiyatlari.....	115
<b>8-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKIL ISHTIROKI</b> .....	118
1-§.	Fuqarolik protsessida vakillik tushunchasi, ahamiyati va asoslari .....	118
2-§.	Sudda vakillik qilish turlari.....	121
3-§.	Suddagi vakilning vakolatlari.....	125
4-§.	Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar.....	128
<b>9-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA PROKUROR ISHTIROKI</b> .....	130
1-§.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki tushunchasi, ahamiyati va vazifalari .....	130
2-§.	Prokurorning birinchi instansiya sudida ishtirok etish asoslari va shakllari .....	133
3-§.	Prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari.....	137
4-§.	Sud hujjatlari ustidan protest keltirish.....	139
<b>10-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA BOSHQA SHAXSLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI VA TASHKILOTLAR VA AYRIM FUQAROLARNING ISHTIROKI</b> .....	145

1-§.	Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessda ishtirok etish asoslari va maqsadi .....	145
2-§.	Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning sudda ishtirok etish shakllari .....	147
3-§.	Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquq va majburiyatlari .....	151
<b>11-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR</b> .....	<b>156</b>
1-§.	Isbotlash tushunchasi, maqsadi va vazifalari ...	156
2-§.	Dalillar va ularga qo'yilgan talablar .....	159
3-§.	Isbotlash vositalari .....	160
4-§.	Dalillarni ta'minlash .....	161
5-§.	Sud topshiriqlari .....	163
<b>12-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK PROTSESSIDA DA'VO</b> .....	<b>166</b>
1-§.	Sudda da'vo tartibida ko'riladigan ishlar .....	166
2-§.	Da'vo tushunchasi, elementlari va turlari .....	168
3-§.	Da'vo talablarini birlashtirish va ajratish .....	170
4-§.	Javobgar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalari: e'tiroz va qarshi da'vo .....	176
5-§.	Da'voni ta'minlash tushunchasi, choralari va huquqiy oqibatlari .....	182
<b>13-mavzu.</b>	<b>SUD XARAJATLARI</b> .....	<b>194</b>
1-§.	Sud xarajatlari tushunchasi va turlari .....	194

2-§.	Davlat boji va uning turlari.....	195
3-§.	Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar ....	198
4-§.	Sud xarajatlarini to'lashda imtiyozlar .....	201
<b>14-mavzu.</b>	<b>PROTSESSUAL MUDDATLAR.....</b>	<b>210</b>
1-§.	Fuqarolik protsessida muddatlar tushunchasi va ahamiyati.....	210
2-§.	Protsessual muddatlarning turlari .....	212
3-§.	Protsessual muddatlarni hisoblash, to'xtatib turish, kechiktirish, uzaytirish va tiklash, uni o'tkazib yuborish oqibatlari.....	214
<b>15-mavzu.</b>	<b>PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI.....</b>	<b>218</b>
1-§.	Protsessual majburlov choralari tushunchasi va maqsadi .....	218
2-§.	Protsessual majburlov choralari turlari.....	219
3-§.	Majburiy keltirish .....	220
4-§.	Ogohlantirish.....	225
5-§.	Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish.....	226
6-§.	Sud jarimasi .....	228
<b>16-mavzu.</b>	<b>SUDDA FUQAROLIK ISHINI QO'ZG'ATISH.....</b>	<b>231</b>
1-§.	Fuqarolik ishini qo'zg'atish asoslari va tartibi.....	231
2-§.	Da'vo arizasi, uning tuzilishi va mazmuni .....	234
3-§.	Arizani qaytarish va rad qilish asoslari .....	241
<b>17-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK ISHLARINI SUD MUHOKAMASIGA TAYYORLASH.....</b>	<b>248</b>
1-§.	Fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlash tushunchasi, maqsadi va vazifalari .....	248
2-§.	Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar .....	251



3-§.	Ishni sud muhokamasiga tayinlash. Sud xabarnomalari va chaqiruvlari.....	256
<b>18-mavzu.</b>	<b>FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA MUHOKAMA QILISH .....</b>	<b>266</b>
1-§.	Sud muhokamasi tushunchasi va uning ahamiyati.....	266
2-§.	Sud majlisi va uning qismlari.....	267
3-§.	Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisi .....	271
4-§.	Sud majlisining bayonnomasi.....	274
<b>19-mavzu.</b>	<b>BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HUJJATLARI .....</b>	<b>280</b>
1-§.	Sud hujjatlari tushunchasi va turlari .....	280
2-§.	Sudning hal qiluv qarori tushunchasi, mazmuni va ahamiyati.....	282
3-§.	Hal qiluv qaroridagi kamchiliklarni tuzatish va tushuntirish .....	296
4-§.	Qo'shimcha hal qiluv qarori .....	298
5-§.	Darhol ijro qilinadigan sud hal qiluv qarorlari .....	301
6-§.	Birinchi instansiya sudining ajrimlari tushunchasi va turlari.....	307
	«Fuqarolik protsessual huquqi» modulini o'rganish uchun tavsiya etiladigan pedagogik-texnologik usullar.....	314
	Tavsiya qilingan adabiyotlar .....	318

## SO'ZBOSHI

*O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi,  
Toshkent davlat yuridik universitetining  
30 yillik yubileyiga bag'ishlanadi.*

Hurmatli kitobxon! Bugun Sizning e'tiboringizga «Fuqarolik protsessual huquqi» (umumiy qism) darsligini havola qilayapman. Kitob asosan yangi avlod ta'lim dasturi asosida tayyorlangan, yurisprudensiya yo'nalishida bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan manba bo'lib, unda ilmiy qarashlar, bahsli holatlar va muammoli fikr-mulohazalar emas, balki o'quv-amaliy ahamiyatga ega, fanni o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan nazariy qoidalar va amaliy xulosalar berilgan.

Hozirgi zamonaviy yurisprudensiya har tomonlama strategik ahamiyatga ega bo'lgan islohotlarni amalga oshirishni va ustuvor yo'nalishlar ijrosini ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan. Ushbu maqsad va vazifalar sohada yuqori bilimli, malakali, keng dunyoqarashga ega, jahon standartlariga to'la javob beradigan, eng asosiysi, o'qishga va o'rganishga ishtiyoqi baland, mustaqil fikr lay oladigan, mushohada va tahlil qilishga qobiliyatli kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Shu ma'noda zamonaviy yuridik fanning yutuqlarini inobatga olgan holda o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish bugungi kun ijodkorining birlamchi vazifasi sanaladi.

Yuridik fan va ta'lim tizimini tubdan takomillashib borayotganligi, milliy yurisprudensiya ilmiy maktablarining shakllana boshlagani, o'zbek olimlarining xalqaro maydondagi nufuzi tobora oshib borayotganligi, milliy ishlanmalarning jahon miqyosida reytingi yuqori bazalarga kiritib borilishi, respublikamizda yanada raqobatbardosh, milliy ilmiy tadqiqotlar yaratishni taqozo etmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning «Biz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz» degan purma'no so'zlari har sohada har bir kasb egasiga yaratuvchanlik va ijodkorlik tuyg'usini bag'ishlashi ayni haqiqat.

Darslik «Fuqarolik protsessual huquqi» fani yuzasidan o'quv rejasi va o'quv dasturida belgilangan yuklamalarni o'zlashtirishga mo'ljallangan. Biroq ushbu darslik yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida sud-huquq tizimida, xususan fuqarolik sud ishlarini yuritish tizimidagi o'zgarishlar mazmuni bilan bog'liq bo'lib, uni ikki qismda «Fuqarolik protsessual huquqi» umumiy va maxsus qismlar shaklida alohida chop etishni maqsad qildik.

Shuningdek, global pandemiya sharoiti talablari ham ta'lim tizimini qulay, tezkor, o'zlashtirish va o'rganish oson bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlashni, o'quv adabiyotlarini masofaviy o'qitish shakliga moslashtirish, talaba (o'quvchi) ning onlayn platformalarga joylashtirilgan adabiyotlardan foydalana olish ko'nikmasini va mustaqil o'rganish qobiliyatini hisobga olgan holda yaratish muallifdan katta tajriba, zamonaviy yondashuv va yaratuvchanlik munosabatini talab etadi.

Darslikda umumiy qismga daxldor bo'lgan 19 ta mavzu doirasida mavzu nomi, qisqacha tavsifi (annotatsiyasi), tayanch so'zlar, nazariy qoidalari, amaliyot materiallari tahlili, sud hujjatlari namunalari, eslatmalar, slaydlar, qiyosiy jadvallar hamda nazorat savollari, shuningdek interfaol pedagogik usullar o'rin olgan.

Kitob yakunida protsessual huquq sohasiga tegishli adabiyotlar ro'yxati, soha rivojiga o'z hissasini qo'shgan va qo'shayotgan milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalari ham o'rin olgan. Shuningdek, kitobda mavzularni o'qitishning ayrim pedagogik interfaol usullari sharhi ham berilgan.

Eng asosiysi, tayyorlangan darslik ona yurtimiz – O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi, qolaversa men o'qigan va ishlayotgan, mubolag'asiz qadrli bo'lgan TDYU tashkil topganligining 30 yilligiga munosib tuhfadir.

Yangi avlod darsligini tayyorlash mas'uliyati va hissiyotlari barobarida shu kunga qadar o'zbek yurisprudensiyasining munosib darg'alari bo'lgan, butun hayotlari va ilmiy-ijodiy faoliyatlari bilan bizlarga namuna bo'la olgan marhum fan fidoiylari: akademik, professor, xizmat ko'rsatgan yurist darajalariga erishgan Ustozlarimiz: H. Raxmonqulov, I. Zokirov,

Sh. Shorahmetov, Ya. Pesin, F. Otaxo'jayev, Z. Islomov, A. Azizxo'jayev, S. Yakubov, E. Egamberdiyev, M. Azimov, M. Usmonaliyev, T. Abduvohitov kabi ko'plab olimlarning ilmiy ishlanmalari ko'z oldimga keldi, ularning o'chmas xotiralari oldida hamisha ta'zimdaman.

Fikrlarim yakunida darslikni batafsil muhokama qilishda qatnashgan, ijobiy fikr-mulohazalarini bildirgan, tahliliy taq-rizlarini berib qo'llab-quvvatlagan, yuridik fan va ta'limni rivojlantirishga o'zlarining munosib hissasini qo'shayotgan Ustozlarga, hamkasblarga, sud va prokurorlik amaliyoti mate-riallarini taqdim etgan soha vakillariga o'zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

**Z.N. ESANOVA,**  
*O'zbekiston Respublikasida*  
*xizmat ko'rsatgan yurist,*  
*yuridik fanlar doktori,*  
*professor*

# 1-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI MODULIGA KIRISH

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik protsessual huquqining umumiy qoidalari, tizimi, manbalari, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, xususiyatlari, fuqarolik protsessining bosqichlari, boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligiga doir fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** fuqarolik protsessual huquqi, fuqarolik protsessi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud, sud ishlarini yuritish, fuqarolik protsessi bosqichlari, manbalari, tizimi, vazifalari.

## 1-§. Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi va predmeti

**Fuqarolik protsessual huquqi** deganda fuqarolik ishlarini ko'rishda odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va protsess ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy huquqiy munosabatlarning fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan tartibga solinishi va bu boradagi fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tizimini o'rganuvchi huquq tarmog'i, fan sohasi tushuniladi.

**Fuqarolik protsessi** – fuqarolik protsessual huquqining yashash shakli, asosiy tarkibiy qismi bo'lib, sof protsessual harakatlar tizimini o'zida ifodalaydi. Ayrim ilmiy ishlanmalarda fuqarolik protsessi atamasi fuqarolik protsessual huquqi tushunchasining qisqartmasi ham deyiladi.

**Fuqarolik protsessual huquqi** o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra nazariy, amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, huquqning bir tarmog'i sifatida maxsus fan sifatida o'rganiladi.

Fuqarolik protsessual huquqi **nazariy jihatdan** fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari (moddiy va protsessual qonun normalari) da belgilangan va fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida vujudga keladigan protsessual harakatlar haqidagi, shuningdek ilmiy adabiyotlarda keltirilgan g'oyalar, qoidalar, qarashlar, tahlillar, xulosalar, taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Fuqarolik protsessual huquqi **amaliy jihatdan** fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida vujudga keladigan va qo'llaniladigan protsessual harakatlarni o'rganadi va shu orqali amaliyotdagi muammolarni aniqlab, ularga har tomonlama asoslangan yechim beradi.

Fuqarolik protsessual huquqi **ilmiy jihatdan** strategik maqsadga yo'naltirilgan dolzarb va muammoli mavzularni aniqlaydi, yangi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilaydi, nazariyotchi olimlar va soha mutaxassislarining fikrlarini o'rganadi, milliy va xorijiy tajriba qiyosiy tahlilini beradi, mulohazali va munozarali fikrlar, g'oyalar, taklif-tavsiyalarni umumlashtiradi, yangi ilmiy ishlanmalar yaratishga xizmat qiladi.

**Fuqarolik protsessual huquqining predmetiga** faqat sudning faoliyati emas, balki taalluqlilik instituti nuqtai nazaridan boshqa organlar (davlat xizmatlari agentligi, hokimliklar, hakamlik sudlari, notarial idoralar va boshq.) ning ham faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq jihatlari mavjud. Shu bois fanning predmeti keng doirada bo'lib, tom ma'noda fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud va boshqa organlar tomonidan qonunda belgilangan usullar orqali himoya qilishni nazarda tutadi.

**Fuqarolik protsessual huquqining predmeti** – fuqarolik ishlarini sud va boshqa organlar tomonidan ko'rish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, ilmiy qarashlarni o'rganadi, sohadagi muammolarga yechim beradi, bu boradagi nazariy va amaliy qoidalarni tahlil qiladi, ilmiy xulosalar va takliflar, yangi g'oyalar ishlab chiqadi va tatbiq etadi.

## **2-§. Fuqarolik protsessual huquqining tizimi va manbalari**

**Fuqarolik protsessual huquqining tizimi** ushbu huquq sohasining tizimlashtirilgan faoliyatini o'zida ifodalab, umumiy va maxsus qismlardan iborat. Mazkur qismlarda umumiy va maxsus protsessual qoidalar (harakatlar) ketma-

ketligi ko'rsatilgan bo'lib, bunda protsessual institutlar va uning elementlarini chuqur o'rganish imkoniyati bo'ladi. **Fuqarolik protsessual huquqi tizimi** – protsessual huquqiy munosabatlar va protsessual harakatlarni tartibga solishga qaratilgan protsessual huquq normalari va huquqiy institutlar tushuniladi. **Umumiy qism** fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha turlari va bosqichlariga tegishli bo'lgan normalardan iborat. **Maxsus qism** fuqarolik protsessi bosqichlarining institut va normalarini birlashtiradi va o'z navbatida aniqlashtiradi. Masalan, **umumiy qism** deganda FPK ning 1-bo'lim. Umumiy qoidalari (1–17-bob) dagi institutlar (normalar) nazarda tutilsa, **maxsus qismda** esa 2-bo'lim. Birinchi instansiya sudida ishlarni yuritish (1-kichik bo'lim. Buyruq tartibida ish yuritish; 2-kichik bo'lim. Da'vo ishini yuritish; 3-kichik bo'lim. Alohida tartibda ish yuritish; 4-kichik bo'lim. Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish); 3-bo'lim. Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki; 4-bo'lim. Sud hujjatlarini qayta ko'rish; 5-bo'lim. Sud hujjatlarining ijrosi nazarda tutiladi.

**Fuqarolik protsessual huquqi manbalari** – fuqarolik protsessual huquqi (protsessual huquqiy institutlar) ning huquq tarmog'i va sohasi sifatida yashashi, faoliyat yuritishi uchun asos bo'ladigan, strategik vazifalar qo'ya oladigan va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar bera oladigan manba, makon, qonun, dastur, nizom, qaror va umuman normativ-huquqiy hujjatlar majmui tushuniladi.

**Fuqarolik protsessual huquqining bosh manbasi** – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sanaladi. Jumladan, Konstitutsiyaning qator moddalarida huquq va manfaatlar himoyasi, sud va boshqa organlar faoliyati bilan bog'liq vazifalar, prinsiplar belgilangan bo'lib, ular konstitutsiyaviy normalar sifatida odil sudlov faoliyatini to'g'ri va to'liq ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi

**(11-modda)**; Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi **(43-modda)**; Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi **(44-modda)**; O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati **(XXII bob. 106–116-modda)**; Prokuratura **(XXIV bob. 118–121-modda)**. атилган.

**O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi** mustaqillikning ilk yillaridan shu kunga qadar (1997, 2018-y.) yangi tahrirda qabul qilinib, turli yillarda ularga bir necha marotaba o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Uy-joy kodeksi va boshqa kodekslar ham borki, ular orqali kelib chiqayotgan nizolar moddiy va protsessual-huquqiy jihatdan tartibga solinib, nizolarni bartaraf etish, ish bo'yicha qonuniy, asoslangan va adolatli sud qarorlari chiqarish imkoniyati vujudga keladi.

Bundash tashqari, sohaviy qonunlar ham borki, ular ma'lum yo'nalishni yoki institutni huquqiy tartibga solishga qaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «**Prokuratura to'g'risida**»gi qonuni **(34–36-modda)** fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda prokuror vakolatini ta'minlashga, O'zbekiston Respublikasining «**Advokatura to'g'risida**»gi qonuni **(1–17-modda)** fuqarolik ishlari bo'yicha vakillik, jumladan sudga qadar va sudda nizolarni hal qilishda advokat ishtiroki bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasining «**Sud ekspertisasi to'g'risida**»gi qonunida «Sud ekspertisasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat» ekanligi, sud ekspertizasini o'tkazish asoslari va muddatlari, sud ekspertining xulosasi va unga qo'yilgan talablar haqidagi masalalar o'rin olgan.



**O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»**gi qonunida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish, ijro hujjatlari, ijro ishi yurituvchi ishtirokchilari, ijro harakatlari, muddatlari, majburiy ijro etish choralari, ijro ishi yurituvchi chiqariladigan hujjatlar va boshqa harakatlar fuqarolik protsessining yakuniy bosqichi sifatida ijro ishshu yurituvchi faoliyati mazmunini belgilaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari** fuqarolik protsessual huquqning muhim va yetakchi manbasi ekanligi haqida turli qarashlar va fikrlar mavjud.

**O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»**gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining maqomi, tuzilishi va vakolatlariga bag'ishlangan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raislaridan iborat tarkibda ish yuritadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining** majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, Bosh prokurori, adliya vaziri, Advokatlar palatasi raisi, sudyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

Plenum zaruriyatga qarab, lekin to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Qonunchilikni qo'llash masalalariga doir qarorlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Plenumi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida bayonnoma yuritiladi. Plenum majlisining bayonnomasi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibi tomonidan imzolanadi.

Qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo'llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 24-iyundagi «Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlarni ko'rishda sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishning ayrim masalalari to'g'risida»gi 23-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 19-maydagi «Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 14-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida»gi 2018-yil 24-avgustdagi 26-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi «Sudning hal qiluv qarori haqida»gi 12-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 25-oktabrdagi «Fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to'g'risida»gi 19-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 21-fevraldagi «Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida»gi 04-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 28-apreldagi «Sudlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olishga qaratilgan choralar joriy etilishi munosabati bilan qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 08-son qarori.

### **3-§. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi, vazifalari va turlari**

**Fuqarolik sud ishlarini yuritish** tushunchasi bevosita fuqarolik ishlarini sudda ko'rish mazmuni va shaklini ifodalaydi hamda fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida uning quyidagi turlari: buyruq tartibidagi ishlarni, da'vo tartibidagi ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ish yuritish turlari mavjudligi ko'rsatilgan. Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan «23<sup>1</sup>-bob. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni yuritish» ham sud ishlarini yuritishning bir turi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 4-moddasida **fuqarolik sud ishlarini yuritish** vazifalari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muas-

sasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish; qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlashga ko'maklashish; qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat.

**Fuqarolik sud ishlarini yuritish** turlarining har biri sudga murojaat qilish shakli, subyektlar tarkibi, ish ko'rish tartibi, ijro qilish usuliga ko'ra o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

### *Masalan*

*Sud buyrug'i nizosiz ishlar bo'yicha sud muhokamasi o'tkazilmasdan chiqarilsa, da'vo tartibida ish yuritishda nizoli ishlarni deyarli cheklovsiz bosqichma-bosqich barcha protsessual harakatlar orqali ko'rib hal qilish amalga oshiriladi. Alohida tartibda yuritiladigan ishlarda esa arizachi va manfaatdor shaxsning manfaatlari, talabni (fakti) faqat sudda belgilash imkoniyati mavjudligi va belgilanayotgan faktlarning ma'lum maqsad va oqibatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Hakamlilik sudining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq ish yuritishda ushbu turdagi qarorlarni fuqarolik sudida ko'rib chiqilishi va ijroga qaratilishiga oid vakolatning shu sudga (fuqarolik, iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarga) berilganligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlilik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ish yuritishda subyektlar va sud qarorlarining o'ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi.*

### **Da'vo tartibida ish yuritishning xususiyatlari:**

- Ishlar (talablar) ning nizoli ekanligi;
- Sudga tegishli nizolar toifasida cheklovlar yo'qligi;

- Sudga murojaat qiluvchi taraflar, uchinchi shaxslarning mavjudligi;
- Boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga prokuror, davlat boshqaruvi organlari vakillarining protsessual da'vogar sifatida murojaat qilishi;
- Sudga da'vo arizasi asosida murojaat qilinishi;
- Ish ko'rishning protsessual tartibida istisno va cheklovlar mavjud emasligi;
- Ish ko'rish jarayonida da'vodan voz kechish, da'voni tan olish, da'voni ta'minlash, da'vo talablarini birlashtirish yoki ajratish, kelishuv bitimi, uchinchi shaxs, qarshi da'vo, e'tiroz va boshqa protsessual institutlardan foydalanishi va boshq.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Zangiota tumanlararo sudida da'vogar U.U.U.ning javobgar U.Z.M.ga nisbatan turmushlari davrida olingan uy-joyni umumiy mulk deb topish va umumiy mulkni natura shaklida bo'lish va uy-joyga kiritish haqidagi da'vo arizasi yuzasidan fuqarolik ishi ko'rib chiqilgan.*

### **Buyruq tartibida ish yuritishning xususiyatlari:**

- Qonunda belgilangan ishlar doirasida sud buyrug'i chiqariladi;
- Nizosiz ishlar toifasi bo'yicha chiqariladi;
- Sud muhokamasi o'tkazmasdan chiqariladi;
- Taqdim etilgan dalillar doirasida sud buyrug'i chiqariladi.
- Sud buyrug'ini qabul qilish va bekor qilishning o'ziga xos tartibi mavjud;
- Yakka sudya tomonidan chiqariladi va boshq.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudida undiruvchi – Toshkent shahar, Yashnobod tumani, M.Ashrafiy 2-tor ko'cha, 22-uyda yashovchi, 17.08.1994-yilda tug'ilgan M.M. ning qarz-dor – Toshkent shahar, Yashnobod tumani, M.Ashrafiy*

2-tor ko'cha, 22-uyda yashovchi, 05.07.1988-yilda tug'ilgan N.N.ga nisbatan voyaga yetmagan farzandi ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi arizasini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 177–178-moddalari hamda Oila kodeksining 96, 99-moddalarini qo'llab, qarzdor N.N.dan undiruvchi M.M.ning foydasiga 22.12.2015-yilda tug'ilgan N.N. ismli farzandi ta'minoti uchun u voyaga yetguniga qadar qarzdorning har oylik ish haqi va boshqa turdagi daromadlarining 1/4 qismi miqdorida 2020-yil mart oyining 19-kunidan boshlab aliment undirish haqida sud buyrug'i chiqarilgan va ushbu sud buyrug'i darhol ijroga qaratilgan.

### **Alohida tartibda ish yuritish xususiyatlari:**

- Nizosiz va alohida xususiyat kasb etgan ishlar yuzasidan sudga murojaat qilinadi;
- Arizachi va manfaatdor shaxslar ishtirok etadi;
- Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash vakolati berilgan;
- Ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli huquq haqidagi nizo kelib chiqsa, arizaning ko'rmasdan qoldirilishi va bunday holatda da'vo tartibida murojaat qilish imkoniyati belgilanganligi va boshq.

### **Masalan**

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudida arizachilar Sh.Sh.Sh. va M.S.M-ning bolani farzandlikka olish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi ko'rib chiqilib, aniqlanishicha, arizachilar 2012-yil 5-noyabrda qonuniy nikohdan o'tib, turmush qurganini, farzandlari yo'qligini, uzoq qarindoshlari A.A.A. va B.B.B.larning farzandi 2019-yil 11-fevralda tug'ilgan Abdullayeva Umidaxon Abdukurim qizini tanlashganligini, uning ota-onasi farzandlikka olishga rozilik berishganini, farzandlikka olishga*

*to'sqinlik qiluvchi omillar yo'qligini bayon qilib, suddan 2019-yil 11-fevralda tug'ilgan Abdullayeva Umidaxon Abdukarim qiziga nisbatan farzandlikka olishni belgilab berilishini va uning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlar kiritishni so'ragan.*

### **Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish xususiyatlari:**

- Sudga murojaat qilish talabi faqat hakamlik sudlari hal qiluv qarorlari bilan bog'liq ekanligi;
- hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish va majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish haqidagi arizalar bo'yicha ishlar ko'riladi;
- arizani ko'rish tartibida sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi;
- hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas;
- ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilishi, xususan ijro varaqasi berish to'g'risidagi ajrim darhol ijro etilishi kerakligi va boshqa.

### ***Masalan***

*Da'vogar B.A. javobgar A.A.ga nisbatan qarz undirish haqidagi hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi arizasi bilan sudga murojaat qilib, unda O'zbekiston HSA Toshkent shahar filiali huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tuman hakamlik sudining 2014-yil 17-maydagi hal qiluv qarori bilan uning da'vo talablari to'liq qanoatlantirilganligini, mazkur hal qiluv qarori nusxasi unga 2014-yil 23-may kuni taqdim qilinganligini, javobgarga 2014-yil 24-mayda mazkur hal qiluv qarorini ixtiyoriy ravishda ijro etish haqida taklif va hal qiluv qarorining to'liq matni yuborilgan*

*bo'lsa-da, javobgar tomonidan hal qiluv qarori ixtiyoriy ravishda ijro etilmaganligini bayon qilib, arizasini qanoatlantirishni hamda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqa berishni so'ragan.*

**Chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ish yuritish xususiyatlari:**

- Aynan subyekt (sud) ning chet davlat sudlari ( hakamlik sudlari, arbitraj sudlari) ekanligi;
- Sudga murojaat qilish va ish yuritishning chet el sudlari hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liqligi;
- Ariza asosida ish qo'zg'atilishi va bunday arizani qarzdorning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi sudga, agar yashash joyi va turgan joyi noma'lum bo'lsa, uning mulki turgan joydagi sudga berilishi;
- Sud arizani ko'rib chiqishda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqishga haqli emasligi;
- Bunday turdagi arizani qabul qilish, arizani qaytarish, rad etish bo'yicha alohida asoslar belgilanganligi va boshq.

**Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni yuritish (FPKning 23'-bob) xususiyatlari:**

- Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolar;
- Bunday turdagi nizolar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'rib chiqiladi;
- Mazkur turdagi nizolar bo'yicha da'vo arizasi asosida sudga murojaat qilinadi;



● Da'vo arizasi fuqaroning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi to'g'risida unga ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida sudga berilishi mumkin.

● FPKning 270<sup>3</sup>-moddasida faqat shu ish bo'yicha da'vo arizasining shakli hamda mazmuniga qo'yilgan talablar berilgan.

● Ishni ko'rib chiqish chog'ida sud nizolashilayotgan qarorning yoki uning ayrim qismlarining, harakatlarning (harakatsizlikning) qonuniyligini, nizolashilayotgan qarorni qabul qilgan korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasining yoxud nizolashilayotgan harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etgan mansabdor shaxsning vakolatlarini tekshiradi, harakatlar (harakatsizlik) hamda qaror kimning manfaatlarini buzgan-buzmaganligini aniqlaydi.

● Ish bo'yicha chiqariladigan sudning hal qiluv qarori o'ziga xos xususiyatlari (maxsus talablari bilan) bilan alohida majburiyat yuklaydi.

### **Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish<sup>1</sup>.**

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga «Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish» 25<sup>1</sup>-bob (279<sup>1</sup>–279<sup>5</sup>-modda) 2021-yil 16-sentabrdagi Qonun bilan kiritildi.

Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish – da'vo tartibida ish yuritish, sirdan ish yuritish, buyruq tartibida ish yuritishning umumiy va maxsus qoidalariga bo'ysunadi, shu orqali o'xshash jihatlarini ko'rsatadi. Ammo ba'zi farqli jihatlar ham borki, ular ushbu ish yuritishning bir-biridan alohida va mustaqil ekanligidan dalolat beradi.

### **Ushbu ish yuritish turini kiritish maqsadlari:**

- o'zini oqlagan xorij amaliyoti;
- sud va protsess ishtirokchilari vaqtini tejash;
- ortiqcha xarajatlarning oldini olish;
- sud amaliyotidagi yuklamalarni kamaytirish;

---

<sup>1</sup> Ushbu ish yuritish FPK ga yangi kiritilgan institut bo'lganligi bois, uni fuqarolik sud ishlarini yuritish turi va ish yuritish shakli sifatida baholash haqidagi fikr-mulohazalar yuzasidan hali yagona to'xtamga kelinmagan bo'lsa-da, ushbu bobda qisqacha tavsif berilishi lozim deb hisoblandi. (Muallif)

- ishlarni toifalarga ajratib ko‘rishda da‘voning bahosi miqdoriga tayanish;
- da‘vogar va javobgarning erki-ixtiyorini hisobga olgan holda ish yuritish;
- da‘vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga ko‘ra sudda ishni ko‘rib chiqish;
- sud muhokamasini o‘tkazmasdan, taraflarni chaqirtir-masdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan ishni ko‘rib chiqadi.

### **Soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning protsessual xususiyatlari:**

- da‘vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga ko‘ra, belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

- FPKning 2792-moddasida «Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar» doirasi ko‘rsatilgan bo‘lib, jumladan da‘voning bahosi cheklangan doirada (miqdorda) belgilangan (yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan o‘n baravaridan, jismoniy shaxslarga nisbatan esa besh baravaridan oshmasa);

- da‘vogarning iltimosnomasiga ko‘ra, javobgarning roziligiga asosan ish yuritiladi.

- soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilayotgan ish arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish haqida ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran yigirma kundan oshmagan muddatda sudya tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

- ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish muddati uzaytirilmaydi.

- soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarori FPKning 23-bobida nazarda tutilgan umumiy qoidalarga ko‘ra, mazkur bobda belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda sud tomonidan qabul qilinadi.

- soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati

(protesti) berilmagan bo'lsa, qabul qilinganidan keyin o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

- apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

- soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori FPKning IV bo'limida nazarda tutilgan qoidalarga asosan apellyatsiya va kassatsiya tartibida, shu jumladan kassatsiya instansiyasi sudida takroran, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi mumkin;

- soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ish bo'yicha hal qiluv qarori sud tomonidan FPK V bo'limining qoidalariga ko'ra beriladigan ijro varaqasi asosida ijro etilishi lozim.

### **Soddallashtirilgan ish yuritishda ikki jihat:**

- da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalari;
- FPKning 25<sup>1</sup>-bobida belgilangan o'ziga xos xususiyatlar e'tiborga olinadi.

#### **4-§. Fuqarolik protsessining bosqichlari**

**Fuqarolik protsessi bosqichlari** deb fuqarolik ishlarini sudda ko'rish jarayonida vujudga keladigan, fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan, fuqarolik protsessual huquq normalari bilan tartibga solinadigan, fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqish hamda hal etish kabi maqsadlarga yo'naltirilgan protsessual harakatlarning tizimlashtirilgan yig'indisiga aytiladi.

**Fuqarolik protsessi bosqichlari** – fuqarolik sud ishlarini yuritishning tarkibiy qismi bo'lib, ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

- fuqarolik ishini qo'zg'atish;
- ishni sudda ko'rishga tayyorlash;
- sud muhokamasi;
- sud hujjatlarini qayta tekshirish;
- sud hujjatlarini ijro etish.

Shu bilan birga fuqarolik sud ishlarini ko'rib hal qilish jarayonida birinchi instansiya sudida ish yuritish bosqichlari, sud majlisi bosqichlari, sud qarorlarini qayta tekshirish bosqichlari ham borki, o'z navbatida ular ham bir necha kichik bosqichlarga bo'linadi<sup>1</sup>.

### **Birinchi instansiya sudida ish yuritish:**

Arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi masalani hal etish (arizani qabul qilish; arizani qabul qilishni rad etish; arizani qaytarish);

Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish (bir nechta talabni birlashtirish, bir necha talabni alohida ish yurituvga ajratish, qarshi da'vo arizasini qabul qilish);

ishni sud muhokamasiga tayyorlash;  
sud muhokamasi.

Ushbu bosqichlar va ularning tasnifi hamma fuqarolik sud ishlarini yuritish turlariga nisbatan birdek qo'llanilmaydi.

### *Masalan*

*Sud buyrug'ida nizosiz talablar bo'lganligi bois sud muhokamasi o'tkazilmaydi. Biroq sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni rad etish, arizani qaytarish harakatlari amalga oshiriladi. Sud buyrug'i ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida sudya tomonidan chiqariladi. Sud buyrug'i sudya tomonidan undiruvchi va qarzdorni sudga chaqirmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan, yakka tartibda, sud muhokamasisiz chiqariladi. Boshqa sud ishlarini yuritish turlarida barcha protsessual harakatlar ketma-ketlikda amalga oshiriladi.*

<sup>1</sup> Izoh: ushbu tasniflar muallifning tahlillari asosida tayyorlangan, boshqa protsessual adabiyotlarda farqli fikrlar ham berilgan bo'lishi mumkin. (Muallif)

### **Sud muhokamasiga tayyorlash:**

- taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi faktlar, ishga oid dalillar doirasini aniqlash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash;
- ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi to'g'risidagi masalani hal qilish;
- taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan zarur bo'lgan dalillarni taqdim etilishini va ularni so'roq qilinishini ta'minlash;
- taraflarni yarashtirish (kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish), da'vodan voz kechish, da'voni tan olish tartib-taomillari va ularning oqibatlarini tushuntirish.

### **Sud muhokamasi qismlari:**

- Sud majlisining tayyorlov qismi.
- Sud majlisining muhokama qismi.
- Sud majlisining munozara qismi.
- Sud majlisining hal qiluv qarorini qabul qilish va e'lon qilish qismi.

### **Sud hujjatlarini qayta ko'rish:**

- birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatini (sud buyrug'i; sirdan hal qiluv qarori) shu sud tomonidan javobgar (qarzdor) ning arizasi bo'yicha;
- Apellyatsiya shikoyati (protesti) ga ko'ra;
- Birinchi instansiya sudining qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) ga ko'ra;
- Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyati (protesti) iga ko'ra;
- Kassatsiya shikoyati (protesti) ga ko'ra;
- Ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida protest kiritish to'g'risidagi arizaga ko'ra;
- Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizaga ko'ra.

### **Sud hujjatlarini ijro etish:**

- ijro ishini qo'zg'atish;
- majburiy ijro choralarini qo'llash;
- ijro ishini yakunlash.

## 5-§. Fuqarolik protsessual huquqining boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi

**Fuqarolik protsessual huquqi** – yurisprudensiya yo‘nalishida protsessual huquq fanlari tarmog‘iga kiradi.

**Fuqarolik protsessual kodeksining** 26-moddasida ko‘rsatilgan sudga taalluqlilik qoidalariga ko‘ra, fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to‘g‘risidagi va boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha ishlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga tegishli.

Tahlillarga ko‘ra, **fuqarolik protsessual huquqi** mazmunida moddiy va protsessual huquqiy normalar o‘z ifodasini topgan va ular bir-birini to‘ldiradi va tartibga soladi, ammo alohida faoliyat yurita olmaydi. Shu sababli fuqarolik protsessual huquqi fanning sohasi va huquqning tarmog‘i sifatida ommaviy-huquqiy fanlar (davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma‘muriy huquq va boshq); moddiy-huquqiy fanlar (fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer, jinoyat va boshq); protsessual-huquqiy fanlar (iqtisodiy protsessual huquqi, jinoyat protsessual huquqi va boshq.).

**Davlat va huquq nazariyasi** fani yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida namoyon bo‘ladi va yuridik fanlarning metodologik poydevorini tashkil etadi. Chunki ushbu fan doirasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimida huquqning o‘rni; huquq prinsiplari, shakllari, manbalari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquq normalari, normativ-huquqiy hujjatlar, huquq tizimi, huquqiy munosabatlar, huquq ijodkorligi, huquqni amalga oshirish va shu kabilar institutlar o‘rganiladi. Aynan mazkur tushunchalar fuqarolik protsessual huquqida ham qo‘llaniladi.

### *Masalan*

*Sud va protsess ishtirokchilari o‘rtasidagi fuqarolik ishini mazmunan ko‘rish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarning fuqarolik protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar deyiladi. Fuqarolik protsessual huquqiy*

prinsiplar ham «bosh g'oya», «rahbariy asos», «yo'nalish», «tayanch», «qoida» kabi ma'nolarini anglatib, umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarga bo'linadi. Xususan, ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish (umumhuquqiy); qonun va sud oldida tenglik, sud hujjatlarining majburiyligi; sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi; sud muhokamasining oshkoraligi (sohalararo); taraflar tortishuvi va teng huquqliligi (sohaviy).

Huquq normasi uch element (gipoteza, dispozitsiya va sanksiya) dan iborat bo'ladi. Masalan, Jinoyat kodeksi normalarida uchta element ham bitta normada o'z ifodasini topgan. FPK normalarida esa bitta normada uch element bir vaqtda vujudga kelmaydi. Ba'zi normalarda gipoteza va dispozitsiya, ba'zi normalarda gipoteza va sanksiya, ba'zilarida gipoteza, dispozitsiya va sanksiya ifodalangan bo'ladi.

**Jinoyat huquqi** bilan bog'liq jihatlari shundaki, **Jinoyat kodeksining** bir qator moddalarida, jumladan **Jinoyat kodeksida sud hujjatini** bajarishdan bo'yin tovlash va uning ijro etilishiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq qator jinoyatlar, jumladan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (**JK 122-moddasi**), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (**JK 123-moddasi**), mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-moddasi), sud hujjatini ijro etmaslik (**JK 232-moddasi**), band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish (**JK 233-moddasi**) uchun **jinoiy javobgarlikni** nazarda tutadi. Shuningdek, **JKning V bob.** Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar (122-modda. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash; 123-modda. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash; 125-modda. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish; 1251-modda. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish. VII bob. **Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq**



**va erkinliklariga qarshi jinoyatlar** (141-modda. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish») kabi jinoyat uchun javobgarlik va jazo masalalari o'rin olgan.

### **Jinoyat tufayli yetkazilgan zararlar to'g'risidagi fuqarolik ishining sudlovga tegishliligi**

Jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilganda ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliligiga doir umumiy qoidalar bo'yicha taqdim etiladi (**FPKning 38-modda**).

**Isbotlashdan ozod qilish asoslari.** Sud hammaga ma'lum deb topgan holatlar isbotlashga muhtoj emas. Jinoyat ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi sud tomonidan hukm etilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari to'g'risidagi ishini ko'rib chiqayotgan sud uchun faqat shu harakatlar sodir etilganligi yoki sodir etilmaganligi va ular mazkur shaxs tomonidan sodir etilganligi yoki etilmaganligi masalalari yuzasidan majburiydir (**FPKning 75-modda**).

### **Ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari**

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning hukmlari, ajrimlari va qarorlarining mulkiy undirishga oid qismi, shuningdek jarima tariqasidagi jazoni nazarda tutuvchi hukmlari, ajrimlari va qarorlari (**O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonuni 5-moddasi**).

### **Jinoyat va jinoyat protsessual huquqining farqli xususiyatlarini ko'rsatuvchi ayrim normalar:**

- Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish vakolatiga ega;

- Ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay'atda ko'rilganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kiradi;

- Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart;

- Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi;

- Fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish haqida va fuqaroviy javobgar sifatida jalb qilish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

**Iqtisodiy protsessual huquqi** va fuqarolik protsessual huquqi protsessual huquq sohasiga mansub bo'lib, iqtisodiy ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligi, iqtisodiy sud ishlarini yuritish turlari, ishni sudga qadar hal qilish usullari, davlat boji miqdori borasida farqlanadi, ammo boshqa barcha protsessual harakatlar deyarli o'xshaydi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi (2021-yil 6-noyabr) da sud-huquq tizimini rivojlantirish strategiyasiga doir qaysi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi? Eng asosiy ustuvor nuqtalarni ayting.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining qabul qilinish zaruratini tushuntiring hamda ushbu Qarorning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyatidagi vazifalarini tahlil qiling.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida «....fuqarolik ishlari*

*bo'yicha Yangiyo'l tumanlararo sudini, fuqarolik ishlari bo'yicha Urgut, So'x, Xatirchi, Paxtakor tumanlari sudlarini tashkil etish....» belgilandi, sabab va oqibatlarini tahlil qiling.*

*4. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 95-moddasida «Sudyalarning maxsus kiyimi» ko'rsatilgan. Mazkur norma huquqiy hujjatlarga qachon kiritilgan edi va maxsus kiyim rasman qachon tasdiqlandi? Munosabat bildiring!*

*5. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 60-moddasida «Sudyaning qasamyodi» normasi mavjud. Uning matnini va qasamyod qilish tartibini izohlang.*

## **2-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING PRINSIPLARI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari, tushunchasi va ahamiyati, tizimi va tasnifi haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** fuqarolik protsessual huquqi, prinsip, umumiy prinsip, maxsus prinsip, konstitutsiyaviy prinsip, sohaviy prinsip, mustaqillik, tenglik, oshkoralik, milliy til, bevositalik prinsipi.

### **1-§. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasi va ahamiyati**

Barcha huquq sohalari kabi fuqarolik protsessual huquqining ham oʻziga xos prinsiplari mavjud. «Prinsip» soʻzining asl maʼnosi «bosh gʻoya», «rahbariy asos», «yoʻnalish», «tayanch», «qoida» kabi juda koʻp maʼnolarni anglatadi.

**Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari** – Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Sudlar toʻgʻrisida»gi qonuni, Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa fuqarolik sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida mustahkamlangan, bevosita fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida tayaniladigan, foydalaniladigan, tatbiq etiladigan, yoʻnaltiradigan, zarur hollarda muvozanatni saqlaydigan, ayrim harakatlarni cheklaydigan, tartib, qoida va talablarni belgilaydigan va amal qilinishini taʼminlaydigan qoidalar yigʻindisi.

Yangi qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining «Sudlar toʻgʻrisida»gi qonuni sudlar faoliyati, tuzilmasi va sud ishlarini yuritishga doir prinsiplarni yanada takomillashtirdi.

**Fuqarolik protsessual huquqining 2-bobi (7–16-moddalari)** «Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari»ga bagʻishlangan boʻlib, ushbu prinsiplar fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonini ichki va tashqi tarafdin himoya qiladi, tartibga soladi va yoʻnaltiradi.

## **Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari ahamiyati:**

- sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov faoliyatiga singdiradi;

- fuqarolik sudlari faoliyatini Konstitutsiyada va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida tashkil qiladi;

- fuqarolik sud ishlarini yuritish faoliyatining eng ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi;

- nizolarni hal qilishda yarashtiruv tartib-taomillarini qo'llash, protsessual muddat, protsessual xarajat, protsessual tartibga rioya qilish va boshqa protsessual harakatlarni bajarishda taraflarning huquq va manfaatlari ustuvorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

## **2-§. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari tizimi va tasnifi**

Fuqarolik protsessual huquqiy prinsiplar shakli (tashqi ko'rinishi) va tatbiq etiladigan sohasiga ko'ra, umumhuquqiy, sohalararo va sohaviy prinsiplarga bo'linadi. Xususan, ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish (umumhuquqiy); qonun va sud oldida tenglik, sud hujjatlarining majburiyligi; sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi; sud muhokamasining oshkoraligi (sohalararo); taraflar tortishuvi va teng huquqliligi (sohaviy).

### **Umumiy**

- Maxsus
- Konstitutsiyaviy
- Sud ishlarini yuritishga doir (funktsional)

### **• Tashqi**

### **• Ichki**

**Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi** (FPKning 7-moddasi) da ifodalangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov faqat sud tomonidan, protsessual qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu prinsip

mazmunida odil sudlov faoliyatining faqat sudga xosligi, boshqa idoralar ushbu vakolatni amalga oshira olmasligi, sud o'z faoliyatida odillik (haqqoniylik) bilan ish ko'rishi, ko'rilgan ish natijalari bo'yicha faqat qonuniy, asosli, adolatli sud hujjatlari chiqarishi tushuniladi.

Ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining «**Sudlar to'g'risida**»gi **Qonuni 8-moddasida «Qonuniylik» deb nomlanib**, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga qat'iy muvofiq holda amalga oshiriladi, deb mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasi, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi 8-moddasi.

**Qonun va sud oldida tenglik FPKning 8-moddasi**-da ifodalangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan, tashkilotlarning esa tashkiliy-huquqiy shaklidan, mulkchilik shaklidan, joylashgan yeri, shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi. **Ushbu prinsip mazmunida qonun va sud oldida barcha** (jismoniy va yuridik shaxslar) barobarligi, hech kimga hech qanday alohida imtiyoz yoki cheklov berilmaganligi (qonunlarda berilgan protsessual imtiyozlar yoki cheklovlar bundan mustasno), protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmatsizlik qilinmasligi, qonun va sud oldida tenglik hamohangligi (birligi) nazarda tutiladi.

Jinoyat kodeksining «**Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar**» nomli **VII bobi, 141-moddasida** Fuqarolarning teng huquqliligini buzish» kabi jinoyat uchun javobgarlik masalalari o'rin olgan.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud

fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi va keyingi qismida jazo chorasi yanada kuchaytirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi; O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonuni 11-moddasi; Fuqarolik protsessual kodeksining 8-moddasi.

**Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi FPKning 9-moddasida** ifodalangan bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga ko‘ra javobgarlikka sabab bo‘ladi. Ushbu modda mazmunida sudyaning mustaqilligi, ularning faqat qonun (moddiy va protsessual qonun) larga bo‘ysunishi, sudlov faoliyatiga hech kimning aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi va bu javobgarlikka asos bo‘lishi tushuniladi.

### *Masalan*

*Jinoyat kodeksining «XVI bob. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar»ning 236-moddasida «Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish» deb nomlanib, unda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, ya‘ni ishni har tomonlama, to‘la va xolisona o‘rganilishiga to‘sqinlik qilish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga yoxud adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarilishiga erishish maqsadida sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta‘sir o‘tkazish uchun javobgarlik choralari belgilangan, jumladan uch*

*yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi; O'sha harakat mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.*

Ushbu prinsip **O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasida «Sudyalarning mustaqilligi»** deb nomlanib, unga ko'ra sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.


**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106, 112-moddalari; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasi; 9-bob. Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlari; «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasi; Fuqarolik protsessual kodeksining 9-moddasi.**

**Taraflar tortishuvi va teng huquqliligi FPKning 10-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi. Mazkur prinsip maxsus, sud ishlarini yuritishga doir prinsip sanaladi. Unga ko'ra, taraflar (da'vogar va javobgar; undiruvchi va qarzdor, arizachi va manfaatdor shaxs va boshq;) sud jarayonida tortishuvchanlik va teng huquqlilik qoidalariga amal qiladi. Aynan taraflar maqomi FPK ning 43-moddasida ko'rsatilgan. Shuningdek, FPKning 44-moddasida taraflar protsessual huquqlardan



teng foydalanishi va teng majburiyatlarga ega bo'lishi mustahkamlangan. **Taraflarni tor ma'noda** faqat da'vogar va javobgar deb ham tushunish mumkin. Ular o'zlarining huquq va manfaatlarini o'zlari sudda himoya qiluvchi shaxslar sifatida ko'rinadi. Ammo ilmiy ishlanmalarda protsessual ma'nodagi taraflar (da'vogarlar) (Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari yoki ayrim fuqarolar) ham borki, ularga ham taraflar (taraflardan biri) sifatida qaraladi. Shuningdek, vakillar ham boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga malakali yuridik yordam ko'rsatish maqsadida sudda qatnashadi. **Keng ma'noda** taraflar sifatida sherik da'vogarlar, sherik javobgarlar, qonuniy va shartnomali vakillar, uchinchi shaxslar taraflar sifatida baholanadi. Biroq ularning protsessual huquq va majburiyatlarida o'ziga xos protsessual xilma-xillik mavjud.

#### **Taraflar tortishuvchanligi komponentlari:**




#### **Taraflarning teng huquqliligi:**

- Subyektlar maqomiga ko'ra tenglik;
- Huquq va majburiyatlariga ko'ra tenglik;
- Protsessual harakatlarga ko'ra tenglik;
- Protsessual imtiyozlarga ko'ra tenglik;
- Protsessual manfaatdorligiga ko'ra tenglik;
- Protsessual oqibatlariga ko'ra tenglik.

## Masalan

*Prokuror va advokatning ishga kirishish asoslari, tartibi, protsessual vakolatlari, protsessual harakatlari, protsessual manfaatdorligiga ko'ra fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida ayrim tafovutlar (istisnoliklar) bo'lishi mumkin, ammo sud jarayonida protsessual tenglik ta'minlanadi. E'tiroz bildirish, iltimosnoma bilan murojaat qilish, shikoyat berish (protest keltirish); protsessual majburlov choralarini qo'llash va boshq.*



O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 8, 44, 244-moddalari; 18-bob. Sud buyrug'i; 22-bob. Sud muhokamasi; 26-bob. Sirdan Ish yuritish.

**Sud ishlari yuritiladigan til FPKning 11-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi.

**O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni 13-moddasida «Sud ishlari yuritiladigan til»** deb nomlanib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida

yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish huquqi va sudda ona tilida yoki ular biladigan boshqa tilda so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, sudda ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda so'zlash, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, arz bilan murojaat etish, iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek **protsessual Kodeksda** belgilangan tartibda tarjimonning xizmatlaridan foydalanish huquqi ta'minlanadi.

Ishda ishtirok etuvchi va sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxs ishdagi sud hujjatlari berilishini so'rab yozma ariza bilan murojaat etgan taqdirda, unga sud hujjatlari uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

Prinsip mazmunida odil sudlovni amalga oshirishda sudlov tiliga alohida ahamiyat berilishi, taraflarning sudlov olib boriladigan tilni batafsil tushunishi va sud ishlarini yuritishda tarjimonning alohida protsessual subyekt (Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs) sifatida ishtirok etishi ifodalangan.

Protsessual qonunda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan tayinlangan tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni biladigan shaxs tarjimondir. Sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas.

Agar ish ko'rilayotganida ish yuritilayotgan tilga doir qoidalar buzilgan bo'lsa, **FPKning 399<sup>3</sup>-moddasiga** ko'ra, ushbu holat protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash sifatida malakalanib, sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslaridan biri sifatida sud hujjatini apellyatsiya tartibida bekor qilishga yoki o'zgartirishga asos bo'ladi (**FPKning 399<sup>1</sup>-moddasi**).

Moddiy va protsessual qonun hujjatlarida tarjimonga nisbatan va uning vazifalarini bajarishi bilan bog'liq javobgarlik choralari belgilangan.

### *Masalan*

*Tarjima qilishdan asossiz ravishda bosh tortganlik, shuningdek sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmaganlik uchun tarjimon FPKning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortiladi. Jarima solinishi tarjimonni sudga kelish va tarjima qilish majburiyatidan ozod etmaydi.*

*Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq jinoiy javobgar bo'ladi, bu haqda u sud tomonidan tilxat olib ogohlantiriladi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasi; O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 11, 54, 63–64; 214; 399<sup>1</sup>–399<sup>3</sup>-modda, Jinoyat kodeksining 238-moddasi.

**Sud muhokamasining oshkoraligi FPKning 12-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra barcha sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o'tkaziladi.

**O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni 12-moddasi** «Sud ishlarini yuritishning oshkoraligi» deb nomlanib, unga ko'ra, barcha sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkin.

Davlat siriga, farzandlikka olish siriga taalluqli ma'lumotlar mavjud bo'lgan ishlar bo'yicha va qonunda nazarda tutilgan

boshqa hollarda ishning muhokamasi yopiq sud majlisida o'tkaziladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishining oldini olish, yozishmalar sirini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash maqsadida yopiq sud muhokamasi o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Ish sudning yopiq majlisida ko'rilayotganida ishda ishtirok etuvchi shaxslar, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham hozir bo'ladi.

Ishni sudning yopiq majlisida eshitish fuqarolik sud ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda olib boriladi. Sudning yopiq majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o'qib eshittiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari taraflarning roziligi bilan yoki shaxsini ko'rsatmagan tarzda sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi mumkin, bundan sudning yopiq majlisida qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

### **Sud muhokamasining oshkoraligi mazmuni:**

- Sud faoliyatining ochiqligi;
- Sud muhokamasining oshkoraligi;
- Sud ishlarini yuritishda jamoatchilik nazoratining ta'minlanishi;
  - Ochiq ko'rilayotgan sud jarayonlarida ommaviy axborot vositalari vakillarining ishtirok etishi;
  - Belgilangan tartibga ko'ra, sud majlisini fototasvirga tushirish, audio- va videoyozuvini amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarida translyatsiya qilinishi;
  - Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish;
  - Sayyor sud majlislarining o'tkazilishi;
  - Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini belgilangan shaklda rasmiy veb-saytda e'lon qilinishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 12-moddasi; O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 12, 208, 209-moddalari. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sud muhokamasi oshkoraligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida»gi Qarori.

**Sud muhokamasining bevositaligi va og'zakiligi FPKning 12-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra sud fuqarolik ishini ko'rayotganda ishga oid dalillarni bevosita tekshirishi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko'rsatuvlarini, ekspertlarning xulosalarini va mutaxassislarning maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishi shart.

Garchi ishning muhokamasi og'zaki ravishda o'tsa-da, amalga oshirilgan protsessual harakatlar sud muhokamasi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

**Sud muhokamasining bevositaligi** – sud muhokamasida dalillarni jalb qilish va tekshirish, solishtirish va asoslantirish, mustahkamlashga qaratilgan. Da'vo arizasini qanoatlantirishda yoki da'vo talablarini rad etishda sud qo'llaydigan dalillarni asoslashi va hal qiluv qarorida ko'rsatishi lozim.

#### **Sud muhokamasining bevositaligi:**

- Sud majlisi qismlariga tizimli (ketma-ketlikda) rioya qilgan holda ishni mazmunan ko'rish;
- Sud muhokamasida da'vo asosi, ilova hujjatlari, isbotlash predmeti va doirasi, ishni sud muhokamasida tayyorlashda to'plangan dalillar, sud muhokamasida isbotlash vositalari orqali vujudga kelgan dalillarni bevosita ko'rib chiqishdan iborat.

**Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish FPKning 14-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa qonun hujjatlarini ham qo'llaydi.

Nizoli munosabatni tartibga soladigan huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llaydi, bunday normalar mavjud bo'lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqqan holda hal etadi.

Sud O'zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi.

Bu haqda FPKning 1-moddasida «Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari» ko'rsatilgan. Buning izohida Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlari nazarda tutiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish:**

- Moddiy-huquqiy qonun hujjatlari;
- Protsessual-huquqiy qonun hujjatlari;
- Xalqaro-huquqiy hujjatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori.

Sudya ishni mazmunan hal qilish jarayonida nizoli huquq (munosabat) ning to'g'ri malakalanganligi; sud muhokamasi

jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqiy normalar; hal qiluv qarorining asoslantirish qismida sud qo'llagan va tayangan qonun normalarini nazarda tutadi.

**Masalan, «Alimentga oid fuqarolik ishlari» misolida**

## **TAHLIL**

### **MODDIY-HUQUQIY QONUN HUJJATLARI:**

- O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
- O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonuni.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-oktabrdagi 808-son qaroriga ilova sifatida ishlab chiqilgan «Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

### **PROTSESSUAL-HUQUQIY QONUN HUJJATLARI:**

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.

### **XALQARO-HUQUQIY HUJJATLAR:**

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 26-avgustdagi «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida»gi konvensiyaga (Kishinev, 2002-yil 7-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida»gi O'RBQ-554-sonli qonuni.

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY SUDI PLENUMINING QARORI:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi «Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi 11-sonli qarori.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasi; Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasi; 14-moddasi;

**Ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi FPKning 15-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatlarini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to'liq va xolisona aniqlash uchun qonunga muvofiq choralar ko'rishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik oqibatlarini to'g'risida ogohlantirishi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishida ko'maklashishi kerak.

Ishning haqiqiy holatini aniqlash sud tomonidan, shuningdek taraflar va protsess ishtirokchilari tomonidan ham aniqlanishi mumkin.

**Ishning haqiqiy holatini sud tomonidan aniqlanishi deganda** nizoni vujudga keltiruvchi omillar (sabablar), mazkur nizoning to'g'ri malakalanishi, sudga taalluqliligi va sudlovligi to'g'ri belgilanishi; ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomini to'g'ri belgilash hamda ishning haqiqiy holatini ochish tushuniladi. Ishning haqiqiy holatini ochish – isbotlash rejasini to'g'ri tuzish, suddagi protsessual harakatlarni tizimli olib borish, da'vo arizasidagi da'vo asosi bilan sud muhokamasidagi isbotlash vositalarini to'g'ri tahlil qilish, ish bo'yicha barcha dalillarni ishga jalb qila olish va boshqalar tushuniladi.

#### **Ishning haqiqiy holatini aniqlash bosqichlari:**

- arizani qabul qilish va ish qo'zg'atish;
- ishni sudga ko'rishga tayyorlash;
- sud muhokamasi;

- sud hujjatlarini qayta tekshirish;
- yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rish kabi bosqichlarda isbotlash vositalaridan samarali va tizimli foydalanish va qo'llash orqali ishga oid dalillar jalb qilinadi.

**Ishning haqiqiy holatini aniqlashda quyidagi komponentlar muhim:**

- da'vo asosi to'liqligini ta'minlash;
- isbotlash predmetini to'g'ri belgilash;
- dalillarni ta'minlash;
- sud topshiriqlari berish;
- e'tiroz va qarshi da'vo nisbatini o'rganish;
- qo'shimcha ekspertiza o'tkazish;
- qayta ekspertiza o'tkazish;
- isbotlashga oid boshqa harakatlar.

**Fuqarolik ishlari** birinchi instansiya sudlarida mazmunan ko'rilganda ishning haqiqiy holatini ochishga to'liq harakat qilinadi, ammo protsessual qonun normalarida sud hujjatlarini qayta tekshirish; yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rish imkoniyatlari mavjud bo'lib, qonunda ko'rsatilgan tartibga muvofiq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat va protestlar asosida yana bir marotaba ishning haqiqiy holatini ochishga protsessual sharoit yaratiladi.

**Tarflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi** – bunda sud tomonidan nafaqat protsessdagi huquq va majburiyatlar, balki nizo vujudga kelgan moddiy-huquqiy munosabatda tarflarning mavqei, vakolati, huquq va majburiyatlarining ham to'g'ri aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ishning haqiqiy holati, tarflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi prinsipi-ning ahamiyati:**

- sudga murojaat qilish sabab va oqibatlarini o'rganish;
- da'vo talabi bilan sud muhokamasida aniqlangan holatlarni solishtirish;
- dastlabki, qo'shimcha, qarshi da'vo talablarini tahlil qilish;

- aniqlangan talab va e'tirozlarni taqqoslash;
- ishning haqiqiy holatini aniqlash – ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud hujjatlari chiqarishga kafolat ekanligini mustahkamlashda ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 15-moddasi.

**Sud hujjatlarining majburiyligi FPKning 16-moddasida** ifodalangan bo'lib, unga ko'ra sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni 10-moddasi «Sud hujjatlarining majburiyligi» deb nomlanib, unga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sud hujjatining majburiyligi manfaatdor shaxslarni o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun, basharti bularga daxldor nizo sudda ko'rib chiqilmagan va hal etilmagan bo'lsa, sudga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari zimmasiga yuklatiladi. Qonunda belgilangan tartibda berilgan ijro varaqalari ijroni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi. Ijroni ta'minlashda majburiy ijroga tegishlilik, ijro hujjatlariga qo'yilgan talablar, ijroga berish muddati va ijroni ta'minlash muddati, ijro usuli muhim ahamiyat kasb etadi.

**Sud hujjatlarining majburiyligi** ijroning muqarrarligi bilan kafolatlanadi. Davlat ijrochisi ijro hujjatlari asosida ijro harakatlarini boshlaydi, jumladan, ijro hujjatini olgan paytdan e'tiboran bir ish kuni ichida ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqaradi.

### *Masalan*


*Ijro hujjatlari: sudlar o'zlari qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqalari; hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari; chet el sudlari va arbitrajlar qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari; sud buyruqlari; alimentlar to'lash to'g'risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar; notariuslarning ijro xatlari; mehnat nizolari komissiyalari o'z qarorlari asosida beradigan guvoynomalar; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar; o'zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma'muriy tartibda ko'chirish to'g'risidagi prokurorlarning qarorlari; davlat ijrochilarining qarorlari va boshq.*

Davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda ijro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun ijro ishi yuritish qo'zg'atilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan o'n besh kun muddat belgilaydi. Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror nusxasi u chiqarilgan kunning ertasidan kechiktirmay undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek hujjati ijro etilishi lozim bo'lgan sud yoki boshqa organga yuboriladi. Ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish yoki protest bildirish mumkin.

Sud hujjatini bajarmaslik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka (masalan, protsessual (jarima hamda majburiy ijro etish choralarini qo'llash), ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik) sabab bo'ladi.

**Sud hujjati deganda,** qonuniy kuchga kirgan sud buyrug'i, ajrim, qaror, hal qiluv qarori, hukm tushunilishi lozim.

**Sud hujjatini bajarmaslik uchun javobgarlik choralari**




**Ma'muriy organ**

Sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash, uning ijro etilishiga to'sqinlik qilish odil sudlov obro'siga putur, davlat va jamoat manfaatlariga zarar yetkazadi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari tiklanishiga qaratilgan faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash uchun jinoiy javobgarlikka tortishning majburiy sharti bo'lib, ma'muriy jazoga tortilganidan va jinoiy javobgarlik to'g'risida yozma tarzda ogohlantirilganidan so'ng shaxs tomonidan sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash bo'yicha harakat (harakatsizlik)ning davom ettirilishi hisoblanadi.

Shaxs tomonidan sud hujjati hisoblanmaydigan ijro hujjatini majburiy ijro etish bo'yicha xizmat vazifasini bajarayotgan davlat ijrochisiga qarshilik ko'rsatilganda, bunday shaxsning harakatlari JKning 219-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.



Ma'muriy organ

**Jinoyat kodeksida** sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash va uning ijro etilishiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq qator jinoyatlar, jumladan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-moddasi), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-moddasi), mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-moddasi), sud hujjatini ijro etmaslik (JK 232-moddasi), band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish (JK 233-moddasi) uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Jinoyat kodeksi 232-moddasi dispozitsiyasi mazmuniga ko'ra, sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilganlik uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun sud hujjatining xususiyati ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois, sud hujjatini ijro etilishiga to'sqinlik qilinganlik uchun jinoiy javobgarlik sud hujjatining mulkiy yoki nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan-bo'lmaganligidan qat'i nazar yuzaga keladi.

Sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash va uning ijro etilishiga to'sqinlik qilish (**JK 232-moddasi**) uchun jinoiy javobgarlik o'n sakkiz yoshdan yuzaga keladi.

**Sud hujjatini bajarishdan** bo'yin tovlashning subyekti sud hujjati bilan muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyati yuklatilgan shaxslar (qarzdorlar) hisoblanadi.

**Sud hujjatining ijro** etilishiga to'sqinlik qilishning subyekti nafaqat qarzidor hisoblangan shaxs, balki boshqa har qanday jismoniy (mansabdor) shaxs bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 10-moddasi; O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 181, 198<sup>1</sup>, 198<sup>2</sup>-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi. O'zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunning 81–82-moddalari. 4–5 boblari. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining «Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi qarori.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasida «Odil sudlovni amalga oshirishda malakali yuridik yordam» deb nomlanib, unga ko'ra, odil sudlovni amalga oshirishda har bir kishiga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Ushbu prinsip Qonunda alohida modda sifatida ko'rsatildi. Bu esa fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham malakali yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi, qonuniy va shartnomali vakillik turlari mavjudligi belgilangan<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasi; O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni 1–3-moddalari; O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 7-bob. Sudda vakillik.

---

<sup>1</sup> Izoh: ushbu prinsip haqida «Fuqarolik protsessida vakil ishtiroki» mavzusida batafsil tanishish mumkin. (Muallif)



O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 17-moddasida «Sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi» belgilangan bo'lib, taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega. Aynan ushbu normada taraflarning shikoyat qilish huquqi mavjudligi va ushbu huquqning protsessual kafolatlanganligi mustahkamlangan. Ammo fuqarolik sud ishlarini yuritishda shikoyat, e'tiroz, qayta ko'rish haqidagi arizalar beriladi.

### **Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud hujjati ustidan shikoyat berish shakllari:**

- Qarzdor arz qilingan talabga qarshi e'tirozlarini buyruqni bergan sudga sud buyrug'ining ko'chirma nusxasini olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda yuborishga haqli **(Qarzdorning sud buyrug'i ustidan e'tiroz bildirish huquqi. FPKning 181-moddasi).**

- Javobgar sirtidan hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga shu hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n besh kun ichida uni qayta ko'rib chiqish to'g'risida ariza berishga haqli **(Sirtidan hal qiluv qarori ustidan javobgarning ariza berish huquqi. FPKning 285-moddasi).**

- Taraflar sirtidan qabul qilingan hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilishga haqli **(Sirtidan hal qiluv qarori ustidan taraflarning shikoyat berish huquqi. FPK 285<sup>1</sup>-modda).**

- Taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar, shuningdek tadbirkorlik subyekti vakili hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida apellyatsiya tartibida shikoyat qilishi mumkin. **(Apellyatsiya shikoyati berish huquqi. FPK 383-modda).**

- Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan sud

tomonidan ajrim topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida apellyatsiya instansiyasi sudiga sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilishi mumkin (**Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berish huquqi. FPK 400-modda**).

- Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha birinchi instansiya sudining qarori ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati kabi shikoyat berish mumkin (**Birinchi instansiya sudining qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berish huquqi. FPK 402<sup>1</sup>-modda**).

- Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar, shuningdek tadbirkorlik subyekti vakili birinchi instansiya sudining apellyatsiya tartibida ko'rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil ichida kassatsiya shikoyati berishga haqli (**Kassatsiya shikoyati berish huquqi. FPK 403-modda**).

- Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar, shuningdek tadbirkorlik subyekti vakili O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori yoki ularning o'rinbosarlariga ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida protest kiritish to'g'risidagi ariza bilan kassatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ichida, mazkur muddat o'tgan hollarda esa – ajrim qabul qilingan kundan boshlab bir oy ichida murojaat qilishga haqli (**Ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqida ariza berish. FPK 419<sup>3</sup>-modda**).

- Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizani hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran uch oy

muddat ichida berishi mumkin (**Sud hujjatlarini qayta ko'rish to'g'risida ariza berish. FPK 439-modda**).

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Fuqarolik protsessual huquqining aynan qaysi prinsiplari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi bilan bog'liq?*

2. *Oliy Majlis Senati tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma'qullangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 28-iyulda imzolangan O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, sud faoliyatiga doir qanday yangi prinsiplar kiritildi? Sharhlab bering.*

3. *O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 28-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha sudylar bir xil maqomga ega», deb berilgan. Ushbu normani tushuntiring.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Sudylar oliy kengashining tuzilishi va vakolatlari haqida tushuncha bering.*

5. *2021-yil 12-yanvardagi «Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-661-sonli Qonuniga asosan Fuqarolik protsessual kodeksida qanday yangiliklar vujudga keldi?*

### **3-mavzu: FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash asoslari, tartibi va shartlari, turlari, nizolarni sudga qadar hal qiluvchi organlar va ularning vakolatlariga doir fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** taalluqlilik, shartli taalluqlilik, qatʼiy taalluqlilik, huquqni himoya qilish shakllari, protsessual vakolat, xulosa, ajrim, ariza, iltimosnoma, shikoyat.

#### **1-§. Taalluqlilik tushunchasi va turlari**

**Taalluqlilik** – kelib chiqayotgan nizolarni sud va boshqa organlar tomonidan koʻrib hal qilish vakolatining chegaralanishiga aytiladi.

**Taalluqlilik** sudlovlikka nisbatan keng tushuncha boʻlib, taalluqlilikda nafaqat sud, balki barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, uyushmalar, fuqarolarni oʻzini oʻzi boshqarish organlari tomonidan vakolatiga koʻra nizolarni hal qilishda ishtirok etadi. Sudlovlikda esa nizolarni sud organlariga tegishli ekanligi va sud tizimi boʻgʻinlari oʻrtasida nizoning turi, subyektlar maqomi (tarkibi), taraf sifatida ishtirok etayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning yashash manzili va joylashgan joyi, nizo predmetining turgan (joylashgan) yeri boʻyicha sudga murojaat qilinishi belgilangan.

Jahon miqyosida nizolarni hal qilishning hozirgi zamon tendensiyasi shuni koʻrsatayaptiki, kelib chiqayotgan nizolarni vujudga kelish sabablarini oʻrganish, nizolarni oldini olishda taʼsirchan va manzilli huquqiy targʻibot tadbirlarini kuchaytirish, nizolarni sudga qadar hal qilish mexanizmlarini (Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi huzuridagi komissiyalar, hakamlik sudlari, mediativ kelishuv protseduralari, kasaba uyushmasi va boshqa mehnatga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga koʻmaklashuvchi tuzilmalar, turli agentliklar

va idoralar, hokimliklar bo'limlari va boshq.) joriy etish, o'z vaqtida va o'z joyida muammoni bartaraf etishda, nizolarga chek qo'yishda muhim omil bo'la oladi.

**Taalluqlilik shaxslar** (jismoniy va yuridik) ning huquq va manfaatlarini himoya qilishning shakllari (sud yoki sudsiz tartibda hal qilish) ni belgilaydi. Chunki hozirgi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan va nizolashayotgan subyektiv huquqlari va ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan bir qator davlat organlari va tashkilotlar mavjud. Ularning vakolatlarini bir-biridan ajratib olishda ishlarning taalluqliligi asosiy rol o'ynaydi.

Agar ishning **taalluqliligi** nizosizlikka asosan belgilansa, bu taalluqlilikning umumiy mezonlari deb ataladi va bunday talablar asosan ishni sudga qadar hal qilish vakolati berilgan organlar (hokimlik, FHDYO, MFY, notariat, xalq ta'limi va boshqa organlar) tomonidan hal etiladi.

Agar **taalluqlilik tarafilar** o'rtasida nizoning mavjudligi bilan belgilansa, bu taalluqlilikning maxsus mezonlari deb atalib, bunday talablar sud orqali hal etiladi. Masalan, er yoki xotindan birortasining talabi bo'yicha nikohdan ajratish to'g'risidagi talabning nizoli ekanligi yoxud otalikni belgilash to'g'risida bir tomonning arizasi bo'lmasligi, bunday talablarning sudga taalluqliligidan dalolat beradi. Shu bois taalluqlilikning umumiy va maxsus mezonlari buzilgan huquqni qanday himoya qilishning shakllarini belgilashga xizmat qiladi. Lekin oila huquqiga oid nizolar ichida shunday fuqarolik ishlari mavjudki, ularni hal qilish faqat sudga taalluqlidir. Bunday ishlarga nikohni haqiqiy emas deb topish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan turib, bolani olib qo'yish, ota-onalik huquqini tiklash kabilar misol bo'ladi.

Fuqarolik protsessual huquqida **taalluqlilikning turlari**:

- Alternativ;
- Shartnomali;
- Imperativ;
- Mustasno.

**Alternativ** – da’vogarning tanlovi asosida tanlanadi. Da’vogar xohlasa sudga, xohlasa boshqa organga nizoni (muammoni) hal qilish uchun qayerga murojaat qilishni o’zi tanlaydi. Kelib chiqqan nizoni faqat sud emas, balki boshqa organ ham hal qilishi mumkin, masalan hokimlik, FHDYO, notariat, hakamlik sudlari, mediator va boshq.

### *Masalan*

*Nikohdan ajrashgan ona bolasi ta’minoti uchun aliment undirish yuzasidan sudga emas, notariat organiga murojaat qilib, aliment to’lash to’g’risida kelishuvni notarial tartibda tasdiqlatdi yoki bank muassasasi mijozdan kredit qarzdorligini undirish yuzasidan sudga emas, hakamlik sudiga murojaat qildi.*

**Shartnomali** – shartnoma subyektlari (taraflar) ning kelishuviga binoan tanlanadi.

### *Masalan*

*Turli shartnoma ishtirokchilari nizo kelib chiqsa, avvaldan shartnoma shartlarida qaysi organga murojaat qilish haqida yoki nizo kelib chiqish jarayonida sud yoki tegishli organlarda (sudga qadar hal qilish imkoniyati) hal qilish haqida o’zaro kelishib oladilar.*

**Imperativ (shartli)** – qonun hujjatlarida nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilish majburiyligi ko’rsatilgan bo’ladi, aks holda FPKning 122-moddasiga ko’ra, da’vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo’lsa, sud arizani ko’rmasdan qoldiradi.

### *Masalan*

*Yakka tartibdagi mehnat nizolarini hal qilish, kommunal to’lovlar bo’yicha qarzdorlikni undirish, kreditga sotib olingan tovarlar bo’yicha qarzni undirish, fuqarolar-ning telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanganlik*

uchun abonent to'lovi, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilganligi uchun va abonent to'lovini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun penya to'lash bo'yicha qarzdorligini undirish yoki notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish.


**Mustasno** – nizolarni hal qilishning sudgacha tartibiga rioya qilish talab etilmaydi, mazkur muammoga faqat sud yechim bera oladi. Nizoni hal qilish suddan boshqa organ vakolatiga kirmaydi va bu mumkin ham emas.

### *Masalan*

*Ota-onalik huquqidan mahrum qilish; nikohni haqiqiy emas deb topish, otalikka e'tiroz bildirish, ishga tiklash, oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish; fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish va boshqalar faqat sudning vakolatiga qat'iy tegishli.*



**Qonun hujjatlaridagi qarama-qarshiliklar**



## **2-§. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash asoslari**

**Taalluqlilik** – protsessual institut bo'lib, u turli organlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish vakolatini chegaralanishini huquqiy tartibga soladi.

### **Taalluqlilikni chegaralash mezonlari:**

- Tarmoqlararo huquqiy institut sifatida qaraladi;
- Davlat organlari vakolatini taqsimlash bo'yicha mexanizmga ega;
- Sudga yoki boshqa organga murojaat qilish yo'nalishini aniq ko'rsatadi;
- Nizo predmetiga qaraladi;
- Nizoli yoki nizosizlik holati o'rganiladi;
- Ishning xususiyati (vujudga kelish manbalari) e'tiborga olinadi;
- Subyektlar tarkibiga ahamiyat beriladi;
- Ishni sudga qadar hal qilish imkoniyati o'rganiladi;
- Qonun yoki shartnomada nizoni hal qilish haqida berilganligi e'tiborga olinadi.

### **Taalluqlilikni belgilash asoslari:**

- Qonun
- Shartnoma
- Da'vogar tanlovi
- Sudgacha hal qilishning majburiy tartibi.

### **3-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sudga qadar (suddan tashqari) himoya qilish shakllari**

Dunyo amaliyotida nizolar (kelishmovchiliklar) ni hal qilishning muqobil usullari (kelishuv, mediativ kelishuv, hakamlik muhokamasi va boshq.) tobora kengayib bormoqda. Buning asosiy maqsadi – yarashtiruv tartib-taomillarini (kelishuv, mediatsiya) keng targ'ib etish, qolaversa xorijiy davlatlar amaliyotida o'zini oqlagan institut ekanligini e'tirof etgan holda hamda nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, shuningdek sud va boshqa organlar yuklamalarini o'zaro muvofiqlashtirish (soddalashtirish, kamaytirish) dan iborat.

Odatda, sud-huquq tizimidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarilgan sari, nizolar (muammolar) ni hal qilishga oid protseduralar (tartib-taomillar) yangicha ma'no kasb etaveradi.



Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi respublikamizda hakamlik sudlarining tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunga binoan O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlari tashkil etilishi ko'rsatilgan.

**O'zbekistonda hakamlik sudlarini tashkil etish zarurati:**

**Birinchi**dan, o'zini oqlagan xorijiy davlatlar tajribasi;

**Ikkinchi**dan, milliy amaliyotda nizolarni muqobil tarzda (sudga qadar va suddan tashqari) hal qilish zarurati mavjudligi;

**Uchinchi**dan, vakolatli sudlar (iqtisodiy sud yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sud) amaliyotida yuklamalarning ko'pligi va bu holat bir qator muammolarga olib kelganligi;

**To'rtinchi**dan, kelib chiqayotgan nizolar (ayniqsa, fuqarolik huquqiy munosabatlarga doir, shuningdek iqtisodiy nizolar) ning ma'lum bir qismini davlat sudlari ishtirokisiz, tezkorlik bilan, kam xarajat evaziga hal qilinishi;

**Beshinchi**dan, nizolarni ko'rib chiqish muddatining qisqaligi, protsessual jarayonlarning soddaligi, taraflar o'rtasida yarashtiruv (kelishtirish va murosa) prinsipining ustuvorligi;

**Oltinchi**dan, taraflarning ish natijalariga ko'ra, vakolatli davlat sudlariga ham murojaat qilish huquqi mavjudligi (cheklanmaganligi) ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuniga binoan hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ;

Hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi.

**Hakamlik sudyasi** – hakamlik sudida nizoni hal etish uchun hakamlik bitimi taraflari tomonidan saylangan yoki

belgilangan tartibda tayinlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

**Mediatsiya.** Jahonda keyingi yillarda (oxirgi 15 yillikda) nizolarni hal qilish va bartaraf etishda mediatsiya institutining o'rni, ahamiyati va huquqiy tartibga solish doirasi dolzarb ahamiyat kasb etib, tobora kengayib bormoqda. Buning isboti sifatida dunyo miqyosida deyarli barcha davlatlar (rivojlangan va rivojlanayotgan), shu jumladan MDHga a'zo davlatlarda mediatsiya sohasini tartibga soluvchi maxsus qonunlar (xususan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) qabul qilinayotganligi hamda soha rivojiga hissa qo'shayotgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Ayni paytda sudlarda taraflarni kelishtirish, majburiy ijro jarayoniga mediatsiya institutini joriy etish, ishlarni tinch protsessual vositalar bilan hal qilishning maqsadi ham aslida tinchlik, xolislik, tezkorlik, samaradorlik va kelishtirish prinsiplarini amalda qo'llashga qaratilgan. Hozirgi zamon fuqarolik va boshqa sudlar faoliyatining asosiy tendensiyasi ham yuqoridagi maqsadlarni ko'zlaydi.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda nizoli masalalar (muammolar) ni hal qilishda taraflarni murosaga keltirish (yarashtiruv) natijalari kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, da'vogarning da'vodan voz kechishi, javobgarning da'voni tan olishi kabi protsessual harakatlarda ko'rinadi. Masala (muammo) ning bunday hal qilinishi sud qarori (ajrimi) ijrosini ta'minlashda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi, ijroni majburiy ta'minlash choralari qo'llashga hojat qolmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra, amaldagi 17-bob. Yarashtirish tartib-taomillari deb nomlanib, unda kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzish asoslari va tartibi ko'rsatildi.

Ilmiy tadqiqotlarda mediatsiya – bu nizolashuvchi taraflar o'rtasida nizolarni mustaqil, xolis (betaraf) bo'lgan uchinchi shaxslar (mediatorlar) tomonidan ikkala tarafga ham o'zaro foydali hal qilish (o'zaro maqbul qarorga kelish) usuli ekanligi ta'kidlangan.

Qonunning 4-moddasida ko'rsatilganidek, mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli.

Ilmiy ishlanmalarda hamda Qonunda mediatsiyaning quyidagi, xususan **suddan tashqari (vnesudebnaya)**, **sudga qadar (dosudebnaya)**, **suddagi (sudebnaya)**, **suddan keyingi (poslesudebnaya)** turlari mavjudligi ko'rsatilgan.

Mediatsiyaga o'z-o'zidan murojaat qilib bo'lmaydi, Qonunda uni qo'llash shartlari mavjud bo'lib, unga muvofiq,

**Birinchidan**, mediatsiya taraflarning xohish-istagi asosida qo'llaniladi;

**Ikkinchidan**, mediatsiya suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

**Uchinchidan**, mediatsiya nizoni hakamlik sudida ko'rish jarayonida ham hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin.

**To'rtinchidan**, mediatsiya sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilgan taqdirda faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi mediatorning albatta ishtirok etishi talab etiladi.

**Mediatsiya** – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli hisoblanadi.

#### **Mediatsiyani qo'llash shartlari:**

- Mediatsiya taraflarning xohish-istagi asosida qo'llaniladi.
- Mediatsiya suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar, shuningdek, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

- Mediatsiya nizoni hakamlilik sudida ko'rish jarayonida ham hakamlilik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin.

- Mediatsiya sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilgan taqdirda faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi mediatorning albatta ishtirok etishi talab etiladi.

- Mediatsiyada ishtirok etganlik fakti aybni tan olish dalili bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

*1. Nizolarni sudga qadar hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlarning faoliyati (xatti-harakatlari, qarorlari) ustidan qaysi organlarga murojaat qilinadi? Tahlil qiling.*

*2. Nizolarni hal qilishda notariat organining o'рни haqida tushuntirish bering.*

*3. Mehnatga oid nizolarning taalluqliligiga izoh bering.*

*4. Fuqarolik protsessual huquqida mediatio kelishuv institutini tahlil qiling.*

*5. Mualliflik huquqiy munosabatlariga oid nizolarning taalluqliligini izohlang.*

## 4-mavzu: FUQAROLIK ISHLARINING SUDLOVLIGI

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlarining sudlovligi tushunchasi va uning taalluqlilikdan farqli jihatlari, sudlovlikning turlari, turdosh va hududiy sudlovlik tavsifi, ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibiga doir fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili o'rin olgan.

**Tayanch so'zlar:** sudlovlik, taalluqlilik, turdosh sudlovlik, hududiy sudlovlik, qarshi da'vo, kelishilgan sudlovlik, umumiy sudlovlik, ajrim, ariza, iltimosnoma.

### 1-§. Fuqarolik ishlarining sudlovligi tushunchasi va uning taalluqlilikdan farqi

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi va amaliyotida taalluqlilik va sudlovlik bo'yicha juda ko'p tushunchalar ishlatiladi. Masalan, taalluqlilik, sud va boshqa organlarga taalluqlilik, sudga taalluqlilik, sudlovlik, sudga tegishlilik, sudlovga tegishlilik va boshqalar.

Ammo amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksi bo'yicha tahlil qilsak, aynan 5-bob. «Sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik» deb nomlanadi.

#### **Ishlarning sudga taalluqliligi (FPKning 26-mod-dasi).**

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga quyidagi ishlar taalluqlidir:

1) fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno;

2) Alohida tartibda yuritiladigan ishlar;

3) Buyruq tartibida hal etiladigan ishlar;

4) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar;

5) chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar.

6) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar.

Sudlarga qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlar ham taalluqlidir.

Mazkur norma nomi va mazmuniga ko'ra, ishlarning fuqarolik sudlariga taalluqli ekanligi ko'rinadi va bu aynan fuqarolik sudlari vakolatini (fuqarolik sudlari tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan ishlar) ko'rsatadi.

**Sudga taalluqlilik** – aynan ishlarning fuqarolik sudlari vakolatiga taalluqli (tegishli) ekanligini anglatadi.

**Sudlovga tegishlilik** – fuqarolik sudlariga taalluqli bo'lgan ishlarning aynan hudud yoki nizo predmeti bo'yicha qaysi fuqarolik sudiga tegishli ekanligini bildiradi. Masalan, javobgar joylashgan joydagi sudgami yoki da'vogar joylashgan joydagi sudgami yoxud nizo predmeti joylashgan hududdagi sudga tegishli bo'lishini belgilab beradi.

«**Sudlovga tegishlilik**», «**Sudga tegishlilik**», «**Sudlovlik**» tushunchalarini bir xil ma'nolarda ishlatish o'rinli.

**Sudlovlilik** deb fuqarolik sudlariga taalluqli bo'lgan ishlar (nizoli va nizosiz) ning sud tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishiga aytiladi. Ishning sudlovliligini belgilash mazkur ishni aynan qaysi sud tomonidan ko'rishga va hal etishga vakolatli ekanligini bildiradi.

**Sudlovga tegishlilik**, birinchidan, hal qilinadigan masalaning sudga tegishli bo'lishini belgilasa, ikkinchidan, mazkur ishni sud tizimi bo'g'inlari vakolatiga kirishini ifodalaydi.

**Sudlovlikni** aniqlashda nizoning predmeti, nizolashuvchi subyektlar maqomi, ularning yashash yoki mol-mulkingning turgan joyi e'tiborga olinadi.

**Sudlovlikni taalluqlilikdan** farqli jihatlari. Ushbu tushunchalar nizolarni qaysi organ tomonidan hamda qaysi sud tomonidan hal qilinishi belgilab beradi. Nizolarni (nizosiz ishlarni) hal qilish vakolatini aynan organlar hamda sudlarga tegishli ekanligini chegaralaydi.




**Taalluqlilik** – ish-

larni sud va boshqa organlar o'rtasida hal qilish vakolati va chegarasini belgilovchi institut.

**Sudlovlik** – ishlarni aynan sudga tegishli va sud instansiyalari hamda hududlari bo'yicha vakolati va chegarasini belgilab beruvchi institut.

Mazkur tushunchalar moddiy va protsessual huquq sohalarining muayyan yo'nalishlarida, xususan iqtisodiy protsessual huquqi, jinoyat va jinoyat protsessual huquqi, ma'muriy sud ishlarini yuritishda uchraydi va qonun hujjatlarining o'zida belgilanadi.

## 2-§. Sudlovlikning turlari: turdosh va hududiy sudlovlik



Fuqarolik protsessual qonunchiligida sudlovga taalluqlilikning quyidagi ikki turi mavjud: **turdosh va hududiy**.

**Turdosh sudlovlilik qoidalarini** belgilashda:

- subyekt tarkibi;
- ishning turi;
- nizoning predmeti;
- ayrim holatlarda da'vo miqdori (hajmi) ham e'tiborga olinadi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar sudlari chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ariza beruvchi bo'lgan farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni, shuningdek qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'radi (FPKning 29-moddasi).*

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar sudlari alohida holatlardan kelib chiqib, har qanday ishni fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olishga va birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yurituviga qabul qilishga yoki ishni bir suddan boshqa fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga o'tkazishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudloviga tegishli ishlar (FPK ning 30-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda o'z vakolatiga kiritilgan ishlarni ko'rib chiqadi, shuningdek alohida holatlarni hisobga olib, har qanday ishni O'zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olishga va uni birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yurituviga qabul qilishga yoki ishni bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli.

### **Hududiy sudlovlikning quyidagi turlari mavjud:**

- umumiy sudlovlik;
- da'vogarning tanlovi bo'yicha (muqobil) sudlovlik;
- alohida hollar bo'yicha (mustasno) sudlovlik;
- kelishilgan sudlovlik;
- qarshi da'voning sudlovligi;
- o'zaro bog'liq bir nechta talabning sudlovligi;
- jinoyat tufayli yetkazilgan zararlar to'g'risidagi fuqarolik ishining sudlovligi.

Protsessual qonunchilikda umumiy hududiy sudlovlik qoidalariga ko'ra, da'volar javobgar yashab turgan joydagi



sudda, yuridik shaxslarga nisbatan da'volar ular yoki uning mol-mulki joylashgan hududdagi sudda qo'zg'atiladi. **Turdosh sudlovlik** deganda ishning turiga ko'ra sud instansiyalari o'rtasida vakolatning taqsimlanishi (tuman, shahar, tumanlararo, viloyat, respublika); **hududiy sudlovlik** deganda taraflarning manzili yoki nizo predmeti joylashuviga ko'ra ishlarning tuman, shahar va tumanlararo sudida taqsimlanishi tushuniladi.

Umumiy sudlovlik qoidalariga ko'ra, da'volar taqdim etilishi mumkin:

**Javobgarning yashash joyi ma'lum bo'lganda:**

- javobgarning yashab turgan joyi bo'yicha sudga;
- javobgarning doimiy mashg'ul bo'lgan joyi bo'yicha sudga;

**Javobgarning yashash joyi noma'lum bo'lganda<sup>1</sup>:**

- javobgarning oxirgi yashash (turish) joyi bo'yicha sudga;
- javobgarning mol-mulki turgan joydagi sudga;
- javobgarning oxirgi mol-mulki turgan joydagi sudga.

**Da'vogarning tanlovi bo'yicha sudlovga tegishlilik**

Da'vogarning tanloviga ko'ra amalga oshiriladi: javobgarning yashash manzili bo'yicha sudga yoki qonunda belgilangan ishlar bo'yicha o'zining yashash joyi bo'yicha sudga murojaat qilishni da'vogar tanlaydi.

- Yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar uning mol-mulki turgan joydagi yoki uning ma'lum

---

<sup>1</sup>Javobgarning yashash joyi noma'lumligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi (mahalladan yoki aloqa tashkilotidan ma'lumotnoma yoxud sud chaqiruv qog'ozi ikkinchi nusxasiga yashash joyi noma'lumligi (bu manzilda yashamasligi) qayd etiladi.

bo'lgan so'nggi yashagan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

- O'zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo'lmagan javobgarga nisbatan da'volar O'zbekiston Respublikasida uning mol-mulki turgan joydagi yoki ma'lum bo'lgan so'nggi yashash joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

- Aliment undirish to'g'risidagi, otalikni belgilash haqidagi va mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik yoxud boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar da'vogar tomonidan o'zi yashab turgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Kemalar to'qnashuvi natijasida yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi, shuningdek suvda yordam berganlik va qutqarganlik uchun haq undirish to'g'risidagi da'volar ham javobgarning kemasi turgan yoki kema ro'yxatga olingan port joylashgan yerdagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Ijro etish joyi ko'rsatilgan shartnomalardan kelib chiqadigan da'volar shartnomani ijro etish joyidagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Fuqaroning yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar zarar yetkazilgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Yuridik shaxsning filiali faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar filial joylashgan yerdagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Turli joylarda yashovchi yoki turuvchi bir nechta javobgarga nisbatan yoki yuridik shaxs bo'lib, turli manzilda joylashgan javobgarlarga nisbatan da'vo javobgarlardan biri yashaydigan yoxud davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga da'vogarning tanlovi bo'yicha taqdim etiladi.

- Fuqaroning mehnat, pensiya va uy-joyga doir huquqlarni tiklash, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarib berish, g'ayriqonuniy hukm qilish, g'ayriqonuniy ravishda jinoy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida g'ayriqonuniy qamoqqa olish yoxud hibsga olish tarzida g'ayriqonuniy ma'muriy jazo qo'llash natijasida yetkazilgan zararning o'rnini

qoplash to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashash joyidagi sudga ham taqdim etilishi mumkin.

- Agar da'vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek nogironligi yoki og'ir kasalligi tufayli u javobgar yashab turgan joyidagi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga borishga qiynalsa, nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning yashaydigan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

- Bedarak yo'qolgan deb yoxud ruhiy holati buzilganligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'volar da'vogarning xohishiga ko'ra o'z yashash joyidagi sudga ko'rilishi mumkin.

### **Sudlovga tegishlilikning alohida hollari**

Hududiy sudlovlikni boshqa turlaridan farq qiladi, qonunda muayyan turdagi ishlar bo'yicha chegaralangan holda nizo predmeti joylashuviga ko'ra belgilangan. Kelishilgan sudlovlik bo'yicha o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

- Imoratga bo'lgan huquq to'g'risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to'g'risidagi da'volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan yerdagi sudning sudloviga taalluqlidir.

- Meros qoldiruvchining kreditorlari vorislar tomonidan meros qabul qilinguniga qadar taqdim etgan da'volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan yerdagi sudning sudloviga tegishlidir.

- Yo'lovchilarni, yuklarni yoki bagajni tashish shart-nomalaridan yuk tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da'volar belgilangan tartibda talabnoma taqdim etilgan

transport tashkilotining organi davlat ro'yxatidan o'tgan yerda taqdim etiladi.

## **Kelishilgan sudlovga tegishlilik**

Taraflar o'zaro kelishuv asosida hududiy sudga murojaat qilishni kelishadi, kelishuv faqat hududiy sudlovlik doirasida amalga oshiriladi. Bunda faqat ikkita sudlovlikni o'zgartirishi mumkin: umumiy va muqobil (alternativ); mustasno va predmetli sudlovlikni o'zgartira olmaydi.

- Taraflar o'zaro kelishib, muayyan ish uchun hududiy sudlovga tegishlilikni o'zgartirishi mumkin.
- Alohida hollar bo'yicha sudlovga tegishlilik taraflar kelishuvi bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas.

## **Qarshi da'voning sudlovga tegishliliigi**

- Qarshi da'vo sudlovga tegishliliigidan qat'i nazar, dastlabki da'vo ko'rilayotgan joydagi sudga taqdim etiladi.
- Jinoyat tufayli yetkazilgan zararlar to'g'risidagi fuqarolik ishining sudlovga tegishliliigi Jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilganda ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliliigiga doir umumiy qoidalar bo'yicha taqdim etiladi.

## **3-§. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi**

Fuqarolik protsessual kodeksining 31–32-moddalarida sudning o'z ish yuritishiga qabul qilib olgan ishni boshqa sudga o'tkazishi asoslari va tartibi ko'rsatilgan.

Sud sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilgan holda o'zining ish yurituviga qabul qilib olgan ishni, garchi keyin-

chalik bu ish boshqa sudning sudloviga tegishli bo'lib qolsa ham, mazmunan hal qilishi kerak.

Sud quyidagi hollarda ishni ko'rish uchun boshqa sudga o'tkazadi:

1) mazkur ish boshqa sudda, xususan dalillarning ko'pchilik qismi joylashgan yerdagi sudda o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqiladi deb hisoblasa;

2) bir yoki bir nechta sudya rad qilinganidan so'ng bu sudda ularni almashtirish imkoni bo'lmasa;

3) ish mazkur sudda ko'rilayotganda, u sudlovga tegishlilik qoidalari buzilgan holda ish yurituviga qabul qilinganligi ma'lum bo'lib qolsa.

Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish sudning ajrimiga asosan, bu ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) muddati o'tganidan keyin, shikoyat (protest) berilgan taqdirda esa shikoyatni (protestni) qanoatlantirmay qoldirish haqida ajrim chiqarilganidan keyin amalga oshiriladi.

Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish u yuborilgan sud tomonidan ko'rish uchun qabul qilinishi kerak.

Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslarini obyektiv va subyektiv asoslar sifatida qarash mumkin. Chunki asoslarning ushbu bandi bo'yicha mazkur ish boshqa sudda, xususan dalillarning ko'pchilik qismi joylashgan yerdagi sudda o'z vaqtida va har tomonlama ko'rib chiqiladi deb hisoblasa; aksariyat hollarda taraflarning arizalariga ko'ra va sudning ajrimi asosida tegishli sud o'zgartirilishi mumkin.

**Sudlovga tegishlilik yuzasidan nizolashishga yo'l qo'yilmaydi.**

**Tahlili quyidagicha:**

- bu sudlovlik qoidasi qonun hujjatlarida aniq belgilangan;
- turdosh va hududiy sudlovlik qoidalari bo'yicha vakolatlar qat'iy ko'rsatilgan;

- taqrlarga umumiy va muqobil sudlovlik qoidalarini tanlash imkoniyati ham berilgan;
- boshqa sudlovlik qoidalari ham Fuqarolik protsessual kodeksida aniq mustahkamlangan;
- taqrlarga nizoni sudga qadar kelishuv asosida hal qilish va tegishli organni tanlash imkoniyati ham berilgan;
- hattoki zarurat tug'lsa, ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi ham belgilangan;
- protsessual qonun hujjatlarida sudlovlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlari qat'iy belgilangan.

#### **4-§. Fuqarolik ishlari bo'yicha taalluqlilik va sudlovlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatlari**

Taalluqlilik va sudlovlik qoidalariga rioya qilish muhim va majburiy talablardan biri sanaladi. Shu bois Fuqarolik protsessual kodeksda taalluqlilik va sudlovlik qoidalariga rioya qilmaslik muayyan oqibatlarga sabab bo'lishi va bu haqda tegishli ajrimlar chiqarilishi nazarda tutilgan.

##### **Masalan, agar:**

1) ish sudga taalluqli bo'lmasa, ish yuritish tugatiladi (FPKning 124-moddasi).

Ish yuritish sudning ajrimiga binoan tugatiladi. Agar ish yuritish ish sudga taalluqli bo'lmaganligi sababli tugatilsa, sud arizachining qaysi organga murojaat qilishi kerakligini ko'rsatishi shart.

##### **Masalan, agar:**

4) taraflar o'rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to'g'risida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa;

10) da'vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10<sup>1</sup>) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya

etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10<sup>3</sup>) taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa (FPKning 122-moddasi), sud arizani ko'rmasdan qoldiradi.

4-bandda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirib, ajrimda davlat bojini qaytarish va da'voni ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralarni bekor qilish haqida ko'rsatadi. 10-bandda sanab o'tilgan holatni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishi shart. Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

**Masalan, agar:**

1) arz qilinayotgan talab sudga taalluqli bo'lmasa, arizani ish yurituvga qabul qilish rad etiladi (FPKning 194-moddasi).

Arizani ish yurituvga qabul qilishni rad etishi sudga ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qiladi.

Agar talab sudga taalluqli bo'lmasa, ajrimda sudya arizachi qaysi organga murojaat qilishi lozimligini ko'rsatishi shart.

**Masalan, agar:**

3) ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo'lmasa;

9) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ariza qaytariladi (FPKning 195-moddasi).

Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Fuqarolik protsessual kodeksining 197-moddasida «Sudyaning bir turdagi ishlarni birlashtirish huquqi» sudlovlik qoidalariga ta'sir ko'rsatadi (mi?).*

2. *Kelgusida turdosh sudlovlikni kengaytirish bo'yicha qanday protsessual g'oyalarni ilgari sura olasiz?*

3. *Fuqarolik protsessual kodeksining 38-moddasida «Jinoyat tufayli yetkazilgan zararlar to'g'risidagi fuqarolik ishining sudlovga tegishliligi» ko'rsatilgan. Aynan qaysi jinoyatlar va ularning oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan taraflar sudga murojaat qiladilar. Tahlil bering.*

4. *Fuqarolik protsessual kodeksining 36-moddasida «Taraflar o'zaro kelishib, muayyan ish uchun hududiy sudlovga tegishlilikni o'zgartirishi mumkin»ligi belgilangan. Bunday harakatlar aynan qaysi fuqarolik ishlari bo'yicha uchraydi?*

5. *Fuqarolik protsessual kodeksining 27-moddasida ko'rsatilgan «Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar sudlari alohida holatlardan kelib chiqib, har qanday ishni fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olishga va birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yurituviga qabul qilishga haqli» mazmunidagi normani tahlil qiling. «Alohida holatlar»ni izohlang.*



## 5-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIY MUNOSABATLAR

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi va elementlari, vujudga kelish asoslari, munosabat subyektlari, ularning tasnifi, protsessual huquqiy maqomi haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** fuqarolik protsessual huquqiy munosabat, subyekt, obyekt, mazmun, protsessual huquq, protsessual muomala layoqati, protsessual maqom, protsess ishtirokchilari.

### 1-§. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi va elementlari

Fuqarolik protsessual huquqi fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy, jumladan moddiy va protsessual huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik protsessual huquqi oʻz mazmunida moddiy va protsessual huquqiy xususiyatlarni ifodalaydi.

Fuqarolik protsessual huquqining **moddiy xususiyatlari** shundaki, vujudga kelayotgan fuqarolik ishlari turli moddiy-huquqiy munosabatlardan (oilalar, mehnat, uy-joy, yer, fuqarolik huquqiy) vujudga kelganligi bilan izohlanadi.

Fuqarolik protsessual huquqining **protsessual xususiyatlari** deganda moddiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqayotgan nizolarni fuqarolik sudlarida fuqarolik protsessual huquqiy normalar asosida koʻrib chiqilishi va mazmunan hal qilinishi tushuniladi.

**Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlari:**

**Birinchi**dan, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar huquqiy xarakterga ega ekanligi va ushbu munosabatlarning boshqa moddiy huquqiy munosabatlardan farqlanishi bilan izohlanadi;

**Ikkinchidan**, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar bajarilishi shart bo'lgan xarakterga ega ekanligi bilan izohlanadi;

**Uchinchidan**, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda huquqni qo'llash amaliyotining mavjudligi;

**To'rtinchidan**, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda sud tizimi bosqichlarining majburiyligi;

**Beshinchidan**, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar ko'p subyektliligi;

**Oltinchidan**, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar o'suvchi (rivojlanuvchi) xarakterga ega ekanligi bilan izohlangan.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat **subyekt**, **obyekt** va mazmun kabi **elementlardan** iborat.

**Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning elementlari** – mazkur munosabatlarni vujudga keltiruvchi va harakatlantiruvchi, fuqarolik sud ishlarini yuritishni ta'minlashga xizmat qiluvchi, ushbu munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi tushuncha hisoblanadi.

**Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyekti** deganda fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi va mazkur munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni tushunish mumkin.

**Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat obyekt** deganda protsessual munosabat subyektlarining harakatlari (faoliyati) qaratilgan huquqlar (mulkiy va nomulkiy huquqlar), majburiyatlar (qoidalar), erkinliklar, sudga murojaat etishga asos (sabab) bo'lgan talablar (narsa, predmet, talab, fakt va boshq), keng ma'noda sudga tegishli fuqarolik ishi tushuniladi.

**Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat mazmuni** deganda protsessual munosabat subyektlarining fuqarolik ishini hal qilish jarayonida amalga oshiradigan protsessual harakatlarining mazmuni va protsessual harakatlarni bajarish davomida vujudga keladigan protsessual huquq va burchlar (protsessual huquq va muomala layoqati) ga aytiladi.

## **2-§. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari va mazmuni**

Zamonaviy protsessual doktrinada **fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga** kelish asoslari sifatida quyidagilar keltiriladi:

- Nizo (nizosiz talab) ning mavjudligi;
- Nizolashuvchi subyektlarning mavjudligi;
- Nizo (talab) ning sudga taalluqli ekanligi;
- Nizo (talab) ning sudning sudloviga tegishli ekanligi;
- Sudga murojaat qilishda da'vogarning ma'lum protsessual yosh (protsessual muomala layoqati) ga ega bo'lishi;

- Sudga murojaat qilishda da'vogarning ish yuritishga vakolatligi;

- Ish qo'zg'atishga asos bo'luvchi ariza (da'vo ariza) ning protsessual qonun talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi;

- Belgilangan davlat bojining to'langanligi.

Mazkur talablardan tashqari, yana qo'shimcha yoki boshqa talablar (faktlar) ham borki, ular arizani qabul qilish va ish qo'zg'atishda muhim asos bo'lishi mumkin. Masalan, talablarni hal qilish vakolati to'g'ridan-to'g'ri sudga tegishli bo'lishi va boshq. Shuningdek, buyruq tartibda ish yuritish uchun qonunda cheklangan doiradagi ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish va sud buyrug'i chiqarish mumkinligi yoki sirdan ish ko'rish uchun qonunda javobgar kelmasligi bilan bog'liq bir qator asoslarning mavjudligi va boshq.

Shu bilan birga, protsessual qonunchilikda birinchi instansiya sudining hujjatlari ustidan shikoyat yoki protestning taqdim etilishi, yangi ochilgan holatlar bo'yicha arizaning berilishi ham fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni takroriy vujudga keltiradi.

## **3-§. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari va ularning tasnifi**

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat **subyekt, obyekt va mazmundan** iborat.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning elementlari – mazkur munosabatlarni vujudga keltiruvchi va harakatlantiruvchi, fuqarolik sud ishlarini yuritishni ta'minlashga xizmat qiluvchi, ushbu munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi tushuncha hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi va mazkur munosabatlarda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari deb atash mumkin. Ushbu subyektlarni majburiy (birlamchi) va nomajburiy (ikkilamchi) xarakterga ega shaxslar sifatida tasniflash lozim, chunki ularning sud jarayonidagi faoliyati (ishtiroki) shunday tasniflashni taqozo etadi. Masalan, «sud bilan taraflar», «sud bilan ekspert», «sud bilan prokuror», «sud bilan vakil» va boshqa shaxslarni ko'rsatish mumkin.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda (M.K. Treushnikov, V.V. Yarkov) «Sud – fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning majburiy subyekti» sifatida ko'rsatilgan. Chunki sud faoliyatisiz fanning tizimi, bosqichlari va hattoki nizoni hal qilish vakolati, umuman fuqarolik protsessini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Barcha fuqarolik ishlarida sud va taraflar yoki sud va arizachilar, manfaatdor shaxslar ishtiroki majburiy (birlamchi) sanaladi. Ammo sud protsessida har doim ham prokuror, davlat boshqaruv organlari, ekspert, mutaxassis ishtiroki ishning holatiga ko'ra yoki qonunda belgilangan asoslarga muvofiq ta'minlanadi, shuning uchun ushbu subyektlarni nomajburiy (ikkilamchi) xarakterga ega deb baholash mumkin.

Manbalarda sud protsessida ishtirok etuvchi subyektlar ikki toifaga, ya'ni ishda ishtirok etuvchi shaxslar (FPK ning 39-moddasi) hamda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar (FPKning 54-moddasi) sifatida ajratilgan. Biroq sud majburiy subyekt bo'lishiga qaramay, Fuqarolik protsessual kodeksida unga alohida norma ajratilmagan.

**Sud.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi

hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-bobi O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyatiga bag'ishlangan bo'lib, jumladan, Konstitutsiyasining 106–107-moddalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasida sud orqali himoyalanih huquqi ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o'z huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishga haqli.

Birinchi instansiya sudining va qonunda belgilangan asoslarga ko'ra, yuqori bosqich sud qarorlarini qayta tekshirish bosqichlari sifatida apellyatsiya, kassatsiya instansiyalari, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritishga vakolatli sud tizimi faoliyat yuritadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda sudning vakolatini shartli ravishda ikki guruhga bo'lib tushuntirish mumkin:

**Birinchidan**, sud majlisini boshqarish va tashkiliy ta'minlash orqali protsessning barcha bosqichlarida protsessual talablarga rioya qilishni nazorat qilish;

**Ikkinchidan**, ishni mazmunan hal qilish, dalillarni jalb qilish, ularning to'liqligini ta'minlash, tekshirish va baholashdan iborat protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Lekin sud isbotlashning majburiy subyektini emas.

**Obyekt.** Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat obyektini deganda protsessual munosabat subyektlarining harakatlari (faoliyati) qaratilgan huquqlar (mulkiy va nomulkiy huquqlar), majburiyatlar (qoidalar), erkinliklar, sudga murojaat etishga asos (sabab) bo'lgan talablar (narsa, predmet, talab, fakt va boshq), keng ma'noda sudga tegishli fuqarolik ishi tushuniladi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat obyektini deganda protsessual munosabat subyektlarining harakatlari qaratilgan narsa, **predmet, talab, fakt va boshqa holatlar tushuniladi**. Shu ma'noda obyektini ikkiga: umumiy va maxsus obyektga ajratish to'g'ri bo'ladi.

**Umumiy obyekt** deganda fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va manfaatlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari tushuniladi.

**Maxsus obyekt** deganda subyektlarni sudga murojaat etishga sabab bo'lgan nizoli yoki nizosiz talab, fakt, munosabat, tom ma'noda esa hal qilinishi lozim bo'lgan fuqarolik ishi sanaladi.


**Mazmun.** Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat mazmuni deganda protsessual munosabat subyektlarining fuqarolik ishini hal qilish jarayonida amalga oshiradigan protsessual harakatlarining mazmuni va protsessual harakatlarni bajarish davomida vujudga keladigan protsessual huquq va burchlar (protsessual huquq va muomala layoqati) ga aytiladi.

Ushbu tushunchalar mazmunida sudning (sudya) ning, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq va

majburiyatlari (FPKning 40, 42, 44, 48, 51, 53, 57, 59, 60, 62, 64-moddalar) o'z ifodasini topgan.

### **Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar mazmuni quyidagi elementlardan iborat:**

- protsessual huquq va protsessual muomala layoqati;
- ish yuritishga vakolatlilik;
- protsessual huquq va protsessual majburiyatlar.



Odatda protsessual huquq va muomala layoqati tushunchalarini fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va ayrim istisnoliklar bilan protsessual Kodekslarda uchratish mumkin. Protsessual huquq va muomala layoqati huquqni himoya qilish vositasi, murojaat qilish talablari demakdir va sudlarda da'vo arizasi, ariza va shikoyatlar berishda muhim atributlardan biri sanaladi. Protsessual qonun hujjatlari talablariga rioya qilinmasa, muayyan oqibatlar yuz berishi ma'lum.

Fuqarolik kodeksining 41-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Ushbu huquq barcha fuqarolarga berilgan. Ammo fuqarolik protsessual muomala layoqati (FKning 42-moddasi) faqat voyaga yetgan fuqarolarga berilgan. Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir.

Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rtidan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Ota-onalardan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha, shuningdek mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega. Bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlarni yoki homiylarni jalb qilish to'g'risidagi masala sud tomonidan hal qilinadi.

O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to'la layoqatli deb e'lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda, sudda o'z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkin.

O'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi bolalarning, shuningdek ruhiy holati buzilganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari – ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi.

**Oqibatlariga ko'ra**, arizani qabul qilish va ish qo'zg'atish jarayonida, yoxud ishni ko'rish jarayonida fuqaroning huquq va muomala layoqati bilan bog'liq muammolar kelib chiqsa:

- arizani ish yuritishga qabul qilish rad etiladi (deyarli asoslarida to'g'ridan to'g'ri uchramaydi);

- ariza qaytariladi;
- ko'rmasdan qoldiriladi;
- ish yuritish to'xtatib turiladi.



*FPKning 122-moddasiga ko'ra, 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa; 2) manfaatdor shaxs nomidan ariza ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldiriladi va bu haqda sudyaning ajrimi chiqariladi. Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.*

*FPKning 195-moddasiga ko'ra, 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa; 2) manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, arizani qaytarish haqida ajrim chiqariladi. Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi. Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.*

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning **yashash shakli va doirasi** fuqarolik protsessi bosqichlarining ko'lami bilan belgilanadi. Ushbu munosabatlar birinchi instansiyada ish yuritishdan boshlanib, apellyatsiya va kassatsiya instansiyasida ish yuritish, yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritish, ijro ishini yuritish bosqichlarida davom etadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar – rivojlanuvchi, harakatlanuvchi huquqiy munosabat demakdir. Mazkur munosabatlarda protsess ishtirokchilarining protsessual huquq va burchlari taqsimlanadi va ta'minlanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar vujudga keladi, o'zgaradi, tugatiladi. Shundan kelib chiqib, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar mazmuniga ko'ra murakkab,

harakatiga ko'ra murakkab, tuzilishiga ko'ra ko'psubyekтли sanaladi.

Fuqarolik ishlarining ko'payib borishi va xilma-xilligi, nazariya va amaliyotdagi muammolarning vujudga kelishi va bartaraf etilishi fuqarolik protsessual qonunchilikning takomillashuviga, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar doirasining kengayishiga va uning mazmun-mohiyatiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

#### **4-§. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari**

Fuqarolik protsessual kodeksining 6-bobi «Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari» deb nomlanadi va unda 39-64-moddalardagi subyektlar haqida ko'rsatilgan.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar (FPKning 39-moddasi) deganda taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko'rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi.

#### **Ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagi umumiy huquqlarga ega:**

- ✓ Ish materiallari bilan tanishish;
- ✓ Ulardan ko'chirmalar olish;
- ✓ Nusxalar ko'chirish;
- ✓ Rad etish to'g'risida arz qilish;
- ✓ Dalillar taqdim etish;
- ✓ Dalillarni tekshirishda ishtirok etish;
- ✓ Ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish;
- ✓ Arz qilish;
- ✓ Iltimosnomalar taqdim etish;
- ✓ Sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish;

✓ Sud muhokamasida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish;

✓ Boshqa shaxslarning arz, iltimosnoma, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish;

✓ Sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish;

✓ Sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish;

✓ Davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadir.

*Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44, 51, 53, 57, 59, 62, 64, 69-moddalari.*

**Ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagi majburiyatlarga ega:**

✓ qonun va sudga nisbatan hurmat munosabatida bo'lish;

✓ barcha protsessual huquqlardan adolatli ravishda foydalanishi;

✓ o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi;

✓ sudning chaqiruviga binoan o'z vaqtida yetib kelishi;

✓ suddagi protsessual tartibga rioya qilishi;

✓ raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishi;

✓ protsessual majburlov choralariga amal qilishi;

✓ isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyatini bajarishi;

✓ sud xarajatlarini to'lash majburiyatiga rioya qilishi;

✓ sud hujjatining majburiyligi talablariga amal qilishi;

✓ protsessual muddatlardan oqilona foydalanishi;

✓ taraflar teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

*Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44, 51, 53, 57, 59, 60, 62, 64, 69-moddalari.*

**Taraflar.** Da'vogar (ariza beruvchi) va javobgar fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflaridir.

O'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs da'vogardir.

O'ziga nisbatan talab taqdim etilgan shaxs javobgardir. Alohida tartibda yuritiladigan ishlar va buyruq tartibidagi ishlar

bo'yicha ariza bergan shaxs arizachidir. Taraflar shaxsan o'zlari yoki vakillari orqali sudga murojaat etadilar va qatnashadilar.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi ish yurituvida davogar Xalimov Xolmat Xojiboy o'g'lining javobgar Toshtemirov Temur To'xtamurot o'g'liga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi d'avo arizasi bo'yicha fuqarolik ishi ko'rilgan.*

**Uchinchi shaxslar.** Da'vogar va javobgar o'rtasidagi nizoli talab, mulkiy yoki nomulkiy huquqqa nisbatan mustaqil talab yoki mustaqil bo'lmagan talab bilan arz qiluvchi shaxslarga uchinchi shaxs (lar) deb aytiladi. Uchinchi shaxslar ham o'zlari yoki vakillari orqali sudga murojaat qilishlari yoki boshlangan sud jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

**Ariza beruvchilar (arizachilar) va manfaatdor shaxslar.** Ariza beruvchilar (arizachilar) va manfaatdor shaxslaratamasi alohida tartibda ish yuritishda qo'llaniladi.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudida arizachilar Maxammatov Mirshod Maxmud o'g'li va Maxammatova Manzura Murot qizining bolani farzandlikka olish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishini ko'rib chiqdi.*

Fuqarolik protsessida (sud jarayonida) shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslarning ishtirokini **ikki guruhga** ajratish to'g'ri bo'ladi:

– o'zlarining huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar (prokuror, davlat boshqaruv organlari);

– o'zlarining yoki boshqa shaxslarning nomidan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar (prokuror, davlat boshqaruv organlari, vakillar).

## **Masalan**

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudida ko'rilgan da'vogar Dovudova Durдона Duniyobek qizining javobgar Ashrapov Azizjon Asilbek o'g'liga nisbatan bolani olish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha Bektemir tumani Vasiylik va homiylik organi vakili, taraf (da'vogar Dovudova Durдона Duniyobek qizi) ning turar-joy sharoitini o'rganib chiqqanligini, uy sanitariya-gigiyena talablariga javob berishini, bolaning ulg'ayishi uchun uyda barcha sharoitlar yaratilganligini bildirib, suddan da'vo arizasini qonuniy hal qilishni so'ragan*

Manfaatdor shaxslar deganda sudga beriladigan arizadan manfaatdor bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tushuniladi. Ba'zi fuqarolik ishlarida arizachi va manfaatdor shaxs bir xil bo'ladi. Ayrim fuqarolik ishlarida arizachi alohida shaxs, manfaatdor shaxs esa alohida shaxs bo'ladi. Bunday turdagi ishlar alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladi.

## **Masalan**

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudida Raislik etuvchi: sudya Ibatov I.I., sudya yordamchisi Sh.Sh. Shotursunovning kotibligida, Yashnobod tuman prokurori yordamchisi S.S. Sodikovning ishtirokida, arizachi Ne'matova Sadoqat Sadriddinovnaning Sharipova Salima Sadriddinovnani muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan №2-1002-0000/19-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, aniqlanishicha, Ne'matova Sadoqat Sadriddinovna sudga ariza bilan murojaat etib, unda opasi 1954-yilda tug'ilgan Sharipova Salima Sadriddinovnani muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ariza bilan murojaat etgan.*

Yuridik manfaatdorlikning moddiy va protsessual huquqiy turlari mavjudligi haqida fikr bildiriladi. Jumladan, bolalar

manfaatlari bilan bog'liq faktlarni (nizoli talablarda ham) belgilashda vasiylik va homiylik organlari, uy-joyga bo'lgan faktlarni (nizoli talablarda ham) belgilashda hokimiyat organlari moddiy va **protsessual manfaatdor subyektlar** sifatida ham qaraladi.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi shaxslar (prokuror, davlat boshqaruv organlari)ning protsessual huquqdagi manfaatdorligini ishning borishidan protsessual-huquqiy manfaatdor shaxslar deyish mumkin.

O'zining huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilishni so'rab murojaat qilgan shaxslarning manfaatdorligini moddiy va protsessual manfaatdor shaxslar toifasiga kiritish to'g'ri bo'ladi.

O'zlarining yoki boshqa shaxslarning nomidan shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi **shaxslar (vakillar) ning manfaatdorligini** aralash manfaatdor shaxslar deyiladi, chunki bu yerda qonuniy (moddiy va protsessual) va shartnomali (protsessual) vakillik turlari mavjudligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Fuqarolik protsessual huquq qonun hujjatlariga ko'ra, ushbu organlar boshqa shaxslarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunda belgilangan asoslarga muvofiq va xizmat vakolatiga ko'ra ularning bergan arizalari bo'yicha fuqarolik ishi qo'zg'atiladi hamda ular sud jarayonida ishtirok etadilar.

#### **5-§. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy maqomi**

Fuqarolik protsessual kodeksining 54-moddasiga ko'ra, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqlovchilar, ijro ishi yuritish xolisleri va saqlovchilari odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar sifatida belgilangan. Garchi Fuqarolik protsessual kodeksining 54-moddasida «sud majlisi kotibi» odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar sifatida berilmagan bo'lsa-da, ammo aynan shu bobda (55-modda) «Sud majlisi

kotibi» berilgan. Tahlillarga ko'ra, **bir tomondan**, sud majlisi kotibi Sud tarkibiga kirs, **ikkinchi tomondan**, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida sudyaga ko'maklashadi.

Ishtirokchilarning **protsessual huquqiy holati (maqomi) deganda** to'rtta tushuncha muhim: vakolat, huquq, majburiyat, javobgarlik.

**Guvoh.** Ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Faqat istisno sifatida quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida – fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuvlar berishga layoqatsiz shaxslar.



**Guvoh sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud chaqiruvi bo'yicha kelmasa, shuningdek ko'rsatuvlar berishdan bo'yin tovlasa, FPK 146-moddasiga muvofiq jarimaga tortilishi mumkin**

**Guvoh bila turib yolg'on ko'rsatuvlar berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo'ladi.**

### *Masalan*

*Vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha meros qoldiruvchining mahalla-*

*doshlari; otalikni belgilash to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha bolaning onasi bilan birga o'qigan kursdoshlari; turar-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha «Namunal xizmat» shirkat xo'jaligi vakillari guvoh sifatida qatnashib, guvohlik ko'rsatuolarini bergan.*

**Ekspert.** Fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda xulosa berish uchun sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs. Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxonada, muassasa, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ekspert sifatida jalb etilishi mumkin emas.

**Sud eksperti** o'zining fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlarga muvofiq o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga asoslanib xulosa beradi.

**Sud ekspertining xulosasi** – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.

**Sud ekspertiga qo'yiladigan malakaga oid talablar** – Davlat sud eksperti lavozimini oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi egallashi mumkin.

**Sud eksperti** sifatida jalb etiladigan boshqa tashkilot xodimi va boshqa jismoniy shaxs oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lishi lozim.



**Sud ekspertizasi** – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat sanaladi.



### **Ekspert ikki turda xulosa beradi:**

- Ekspert xulosasi.
- Xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat.

**Sud ekspertining xulosasi (xulosa)** FPKning 23-moddasida berilgan bo'lib, unga ko'ra xulosa shakli va mazmuni haqida ko'rsatilgan. Sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin tegishincha sud eksperti yoxud sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir sud eksperti imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

Xulosada:

sud ekspertizasi o'tkazilgan sana va joy;

sud ekspertizasini o'tkazish asosi;

sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;

sud eksperti (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va sud ekspertizasini o'tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma'lumotlar;

bila turib noto'g'ri xulosa berganligi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek, xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun sud eksperti jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganligi;

sud ekspertining oldiga qo'yilgan savollar;

sud ekspertiga taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallari;

sud ekspertisasi o'tkazilayotganda hozir bo'lgan shaxslar haqida ma'lumotlar;

qo'llanilgan usullar ko'rsatilgan holda tekshirishlarning mazmuni va natijalari, shuningdek bu tekshirishlar, agar sud ekspertlari komissiyasi ishlagan bo'lsa, kim tomonidan o'tkazilganligi;

tekshirish natijalarining baholanishi, qo'yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan va sud ekspertining tashabbusiga ko'ra aniqlangan holatlar ko'rsatilishi lozim.

Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Xulosani va uning natijalarini tasvirlovchi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Tekshirishning olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa tashkilotda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim etiladi.

Agar taqdim etilgan tekshirish obyektlarining, materiallarning yoki sud ekspertining maxsus bilimlari yetarli emasligi tekshirish davomida ma'lum bo'lib qolsa, xulosa ayrim qo'yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Tekshirish tugaganidan so'ng xulosa, tekshirish obyektlari va ish materiallari sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

### *Masalan*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertiza markazi Davlat sud eksperti E.E.E. tomonidan berilgan «Sud qurilish-texnikaviy ekspertisasi bo'yicha Davlat sud eksperti xulosasi»ga ko'ra, Toshkent shahar Mirobod tumani 1-mavze, Oqdaryo ko'chasi 25-uy, 15-xonadonning sarf-xarajat va taqqoslash usullarini inobatga olgan holda 2021-yilning mart-aprel oylaridagi o'rtacha hisobiy bozor bahosi 410 600 230 so'mni tashkil etadi. Xonadonning umumiy maydoni 98 26 m<sup>2</sup>. Bunda qurilish zonasidagi joylashuvi uchun, mavze ichkarisida joylashuvi uchun, savdo shoxobchalariga yaqinligi uchun, turar-joylarning analogik sotuvdagi narxi e'tiborga olinishi va taqqoslanishi asoslangan.*

**Xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat** (FPKning 24-moddasi). Agar sud eksperti qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-expertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboradi.

FPKning 22, 23, 24, 54, 59, 60, 95–101, 240-moddalari, O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi Qonunining 1–10, 17–24-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi «Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarning qilgan xarajatlarini to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda «Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida»gi 24-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 17-yanvardagi «Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–4125 sonli qarori.

**Mutaxassis.** Dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda maslahatlar (tushuntirishlar) berish yo'li bilan ko'maklashish hamda ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda yordam berish maqsadida fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, ishning yakunidan manfaatdor bo'lmagan voyaga yetgan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin. Mutaxassisni jalb qilish to'g'risida ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrimda, sud majlisi davomida esa sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi. Sudning mutaxassis chaqirish to'g'risidagi talabi mutaxassis ishlab turgan tashkilot rahbari uchun majburiydir.

**Mutaxassis sifatida chaqirilgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:**

- o'zining nima maqsadda sudga chaqirila-yotganligini bilish;
- agar maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishni rad qilish;

- dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga ko'maklashayotganida, ilmiy-texnika vositalari qo'llanishi, ekspertiza tayinlanishi uchun materiallar tayyorlayotganida o'zi qilgan harakatlar bilan bog'liq holatlarga protsessual harakat ishtirokchilarining e'tiborini qaratish;
- o'zi ishtirok etgan protsessual harakat bayonnomasi bilan, shuningdek sud majlisi bayonnomasining tegishli qismi bilan tanishish hamda o'z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning kechishi va natijalari qayd qilinishining to'liqliligi va to'g'riligi xususida bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arzlari va fikrlarni bildirish;
- ish yuritishda protsessual harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etish bilan bog'liq holda qilgan xarajatlarning o'rni qoplanishi.

Mutaxassis etib tayinlangan shaxs: sudning chaqiruviga binoan kelishi; protsessual harakatlarni amalga oshirishda va sud muhokamasida maxsus bilim, ko'nikmalar va ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda ishtirok etishi; o'zi bajarayotgan harakatlar yuzasidan tushuntirishlar berishi shart. Mutaxassisning yuzaga kelgan barcha masalalar bo'yicha maslahatlari sudga yozma ravishda taqdim etilishi kerak,



sud muhokamasi davomida mutaxassis tomonidan berilgan tushuntirishlar esa sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudiga da'vogarlar Sotvoldiyev Damir Doltayevich va №18611ning HQ shirkat xo'jaligining javobgarlar Xamidov Eshondeda Maxmudovich va Artikova Idrisxon Xomutjonovnaga nisbatan xizmat turar-joyidan ko'chirish va kommunal xizmatlar yuzasidan sakkiz yillik qarzdorlikni to'lash haqidagi talabi yuzasidan da'vo arizasi kelib tushgan. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida sudya mutaxassis tayinlash haqida ajrim chiqarib, yo'llanma xati bilan birga Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hududiy bo'linmalari huzuridagi «Ta'mirlash-tiklash xizmati» DUK ga mutaxassis ajratish haqida yuborgan.*

**Tarjimon.** Sud tomonidan tayinlangan tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni biladigan shaxs tarjimondir. Sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas.

#### **Tarjimonning huquqlari:**

- tarjimani aniqlashtirish maqsadida sud majlisi ishtirokchilariga savollar berish;
- agar tarjima qilish uchun tegishli bilimga ega bo'lmasa, sud muhokamasida ishtirok etishni rad etish;
- sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish;
- sud majlisi bayonnomasiga kiritilgan tarjimaning to'g'riligi yuzasidan e'tirozlar taqdim etish.

#### **Tarjimonning majburiyatlari:**

- tarjimon tarjimani to'liq va to'g'ri amalga oshirishi shart;
- sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Moddiy va protsessual qonun hujjatlarida tarjimonga nisbatan va uning vazifalarini bajarishi bilan bog'liq javobgarlik choralari belgilangan.

*Tarjima qilishdan asossiz ravishda bosh tortganlik, shuningdek sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmaganlik uchun tarjimon ushbu FPKning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortiladi. Jarima solinishi tarjimonni sudga kelish va tarjima qilish majburiyatidan ozod etmaydi.*

*Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq jinoiy javobgar bo'ladi, bu haqda u sud tomonidan tilxat olib ogohlantiriladi.*

Agar ish ko'rilayotganida ish yuritilayotgan tilga doir qoidalar buzilgan bo'lsa, FPKning 3993-moddasiga ko'ra, ushbu holat protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash sifatida malakalanib, sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslaridan biri sifatidasud hujjatini apellyatsiya tartibida bekor qilishga yoki o'zgartirishga asos bo'ladi (FPKning 3991-moddasi).

### **Tarjimon ishtirokinging xususiyatlari:**

✓ Sud ishlarini yuritishda til prinsipini ta'minlashda ko'maklashadi (FPKning 13-moddasi);

✓ Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida sudga ko'maklashadi (FPKning 54-moddasi);

✓ Tarjimonga nisbatan qonunda belgilangan asoslarga binoan rad qilish tartibi mavjud (FPKning 21-22-modda);

✓ Tarjimonga sudda qatnashganligi uchun ish joyidagi o'rtacha ish haqi saqlanadi va tegishli tarjima faoliyati uchun haq to'lanadi (FPKning 134-moddasi);

✓ Sud muhokamasida birinchi marta tartibni buzgan tarjimon sud nomidan ogohlantiriladi ( FPKning 145-moddasi);

✓ Ishda ishtirok etayotgan tarjimon tartibni takroran buzgan taqdirda, sudning ajrimiga binoan, ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin (FPKning 145-moddasi);



✓ Tarjimon zaruratga ko'ra, videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida sudning ajrimiga ko'ra ishtirok etadi (FPKning 209-moddasi);

✓ Tarjimon sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni kelmagan tarjimon yo'qligida ko'rish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarini eshitadi va sud muhokamasini davom ettirish yoki ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida ajrim chiqaradi (FPKning 222-moddasi);

✓ Agar chaqirilgan tarjimon sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, ularga nisbatan FPKda nazarda tutilgan protsessual majburlov choralari qo'llanilishi mumkin (FPKning 222-moddasi);

✓ Agar ish ko'rilayotganida ish yuritilayotgan tilga doir qoidalar buzilgan bo'lsa, ushbu holat protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llash sifatida malakalanadi (FPKning 3993-moddasi).

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning boshqa huquqiy munosabatlar bilan aloqadorligini tushuntiring.*

2. *«Ayrim fuqarolar» bilan «vakillar»ning huquqiy maqomi va vakolatlarini tahlil qiling.*

3. *Protsessual huquqiy normalar tushunchasini sharhlang.*

4. *Protsessual huquq va protsessual majburiyat tushunchalarini izohlang.*

5. *Protsessual huquq va protsessual muomala layoqatini tushuntiring.*

## **6-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA TARAFLAR**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi, protsessual huquqiy maqomi, ularning turlari, sherik ishtirokchilik, ishga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish, protsessual huquqiy vorislik haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** taraflar, da'vogar, javobgar, sherik ishtirokchilar, ishga daxldorlik, ishga daxldor bo'lmagan taraf, almashtirish, protsessual huquqiy vorislik.

### **1-§. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi va turlari**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 43-moddasiga binoan taraflar deganda da'vogar (ariza beruvchi) va javobgar fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflaridir. O'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atilgan shaxs da'vogardir. O'ziga nisbatan talab taqdim etilgan shaxs javobgardir. Taraflar atamasi asosan da'vo tartibida yuritiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar, shuningdek, fuqarolik sudlariga talluqli korxonalar, tashkilotlar bilan bog'liq ish yuritishda qo'llaniladi.

Alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizachi va manfaatdor shaxs tushunchalari ishlatiladi. Buyruq tartibida ish yuritishda undiruvchi va qarzdor ishtirok etadi.

Keng ma'noda taraflar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida ta'riflanadi. Manbalarda taraflar huquq va manfaatlari buzilgan shaxslar, nizolashuvchi shaxslar, tomonlar, sudga murojaat qiluvchi shaxslar, protsess ishtirokchilari tushunchalari orqali ham ifodalanadi. Fuqarolik ishlarida taraflar yakka holda yoki bir necha shaxs bo'lib ishtirok etishi mumkin.

O'zlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qiluvchi shaxslar (asl da'vogarlar) sifatida, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslar (protsessual da'vogarlar) sifatida ko'rinadi.

### *Masalan*

*Da'vogar nikohni haqiqiy emas deb topish, yetkazilgan zararni undirish, uy-joydan ko'chirish, otalikni belgilash va boshqa da'vo talablari bilan sudga murojaat qiladi. Javobgar esa da'vo talabi yuzasidan javob berish maqsadida sudga jalb qilinadi.*

## **2-§. Taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44-moddasida taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. FPKning 40, 44-moddasida belgilangan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari ham taraflarga qo'llaniladi. **Taraflarning huquqlari:**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish,

arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish,

boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish,

sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadir.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar Fuqarolik protsessual kodeksida berilgan boshqa protsessual huquqlardan ham foydalanadi.

Da'vo ishini yuritishda taraflar sud protsessining har qanday bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlashga haqlidirlar.

### **Taraflarning majburiyatlari:**

- ✓ Sud chaqiruviga binoan o'z vaqtida kelishga;
- ✓ Belgilangan protsessual tartibga rioya qilishga;
- ✓ Sud xarajatlari to'lashga;
- ✓ Sud majlisida raislik qiluvchining protsessual talablariga bo'ysunishga;

✓ Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi va o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

**Da'vogar:** bildirilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar taqdim etishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli.

**Javobgar:** da'vogarning talabini to'liq yoki qisman tan olishga, qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

### **Taraflar (da'vogar va javobgar) maxsus huquqlarga ega:**

- ✓ Taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar;
- ✓ Da'vogar bildirilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar taqdim etishga, da'vo talablarining miqdorini oshirish yoki kamaytirishga, ulardan to'liq yoki qisman voz kechishga haqli;
- ✓ Javobgar da'vogarning talabini to'liq yoki qisman tan olishga, qarshi da'vo taqdim etishga haqli;
- ✓ Da'vo ishini yuritishda taraflar sud protsessining har qanday bosqichida ishni kelishuv bitimi tuzish yoki birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar mediativ kelishuv tuzish orqali tugallashga haqli.

### 3-§. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishning maqsadi, asoslari va turlari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi-ning 45-moddasida protsessda birgalikda ishtirok etish haqida ko'rsatilgan.

Da'vo bir nechta da'vogar tomonidan birgalikda yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilishi (protsessda birgalikda ishtirok etish) mumkin. Protssesda birgalikda ishtirok etishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi, agar:

nizo predmeti bir nechta da'vogarning yoki javobgarning umumiy huquqlari yoki majburiyatlari bo'lsa;

bir nechta da'vogarning yoki javobgarning huquq va majburiyatlari bitta asosga ega bo'lsa;

nizo predmeti bir turdagi huquq va majburiyatlardan iborat bo'lsa.

Yuridik adabiyotlarda birgalikda ishtirok etuvchilar sherik ishtirokchilar sifatida talqin qilingan hamda ularni faol va faol bo'lmagan, ixtiyoriy va majburiy turlari ko'rsatilgan.

Protsessual huquqda va qonun hujjatlarida **birgalikda ishda ishtirok etuvchilarning protsessual xususiyatlari** quyidagilarda ko'rinadi:

✓ Protssesda birgalikda ishtirok etishga nafaqat da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda, balki alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ham yo'l qo'yiladi;

✓ Da'vogarlar va javobgarlardan har biri boshqa tarafga nisbatan protsessda mustaqil ravishda ishtirok etadi;

✓ Uchinchi shaxslar ham protsessda birgalikda ishtirok etishlari mumkin;

✓ Protssesda birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishi mumkin;

✓ Sud nizolashilayotgan huquqiy munosabatning xususiyatini inobatga olgan holda ishga jalb etilmagan sherik javobgarni ishda ishtirok etish uchun o'z tashabbusiga yoki taraflarning iltimosnomasiga ko'ra jalb qilishga haqli;

✓ Boshqa sherik javobgar ishda ishtirok etish uchun jalb qilinganda ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

## **Birgalikda ishtirok etishning afzalliklari:**

- Sudga murojaat qilishda har birining mustaqil talabi bo'ladi;
- Ishda talabning moddiy va protsessual oqibatlari hal qilinadi;
- Ishning haqiqiy holati tekshiriladi.

Birgalikda ishtirok etuvchilar asosan mol-mulk, uy-joy, meros, yetkazilgan zararni undirish, ish haqi va boshqa to'lovlarni undirish kabi fuqarolik ishlarida uchraydi.

### *Masalan*

*Da'vogar Yusupaliyev Ravshan Mexmonovich javobgar Qarshiyeva Baxtinisa Atabayevnaga nisbatan uy-joydan ko'chirish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat etgan. O'z navbatida, Qarshiyeva Baxtinisa Atabayevnaning javobgarlar Yusupaliyev Ravshan Mexmonovich, Panjiyeva Shalola Sharipovna va Mirzo Ulug'bek tumani 1-sonli davlat notarial idorasiga nisbatan oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish, nizoli mulkni umumiy mulk deb topish haqidagi qarshi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.*

## **4-§. Ishga daxldor bo'lmagan tarafklar tushunchasi va ularni almashtirish tartibi**

Sud protsessida ishga daxldor bo'lmagan tarafklar ham uchraydiki, ularni qonunda belgilangan tartibda almashtirishga yo'l qo'yiladi. Bu haqda Fuqarolik protsessual kodeksining 46-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, sud da'vo bo'yicha javob berishi lozim bo'lmagan shaxsga nisbatan da'vo taqdim etilganligini aniqlasa, hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar da'vogarining roziligi bilan ishga daxldor bo'lmagan javobgarni ishga daxldor javobgar bilan almashtirishga yo'l qo'yishi mumkin.

Agar da'vogar javobgarining boshqa shaxs bilan almash-tirilishiga rozi bo'lmasa, sud bu shaxsni sherik javobgar sifatida ishga jalb etishi mumkin. Ishga daxldor bo'lmagan

javobgarni almashtirish haqida sud ajrim chiqaradi. Ishga daxldor bo'lmagan javobgar almashtirilgandan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi.

### *Masalan*

*FIB Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga da'vogar «Shirin savdo» MCHJ javobgar Nizomova Nadejda Narimovnaga nisbatan binoga yetkazilgan zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan. Ish bo'yicha aniqlanishicha, Mirzo Ulug'bek tuman «Alpomish» MFY hududidagi Nafosat ko'chasi 45-uyda yashovchi javobgar Nizomova Nadejda Narimovna vaqtinchalik oilasi bilan ijarada yashovchi shaxs ekanligini, xonadon haqiqiy egasi fuqaro Sunnatullayev San'at Salox o'g'li ekanligi, «Shirin savdo» MCHJ binosiga zarar yetkazuvchilar ushbu manzilda ishlayotgan qurilish pudratchilari ekanligi ma'lum bo'ldi va sud ish bo'yicha javobgarni almashtirish haqida ajrim chiqardi.*

### **5-§. Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi**

Protsessual huquqiy vorislik deb qonunda belgilangan asoslarga ko'ra obyektiv va subyektiv sabablar mavjud bo'lganda, protsessda bir shaxsning o'rniga boshqasining protsessual harakatlarni davom ettirishiga aytiladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 47-moddasiga ko'ra, nizoli yoki sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatda taraflarning biri, uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili chiqib ketgan taqdirda (fuqaroning o'limi, yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi va h.k.) sud bu shaxslarni ularning huquqiy vorislari bilan almashtirishga yo'l qo'yadi.

Huquqiy vorislik fuqarolik sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy

vorisning sud protsessiga kirishganligi haqida ajrim chiqariladi.

Taraf huquqiy voris bilan almashtirilgandan so'ng sud protsessi almashtirish amalga oshirilgan bosqichdan davom ettiriladi.

Huquqiy voris sud protsessiga kirishguniga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rnini bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir. Huquqiy voris ishga doir barcha materiallar bilan tanishishga haqli.

Fuqarolik protsessual kodeksining 116-moddasiga ko'ra, ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, ish yuritish to'xtatib turiladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

### *Masalan*

*«Davlat ehtiyojlari uchun turar-joy buzilishi natijasida fuqaroga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida»gi da'vo talabi bilan sudga murojaat qilgan da'vogar Aliyev K.A. vafot etdi. Sudga uning o'g'li fuqaro Aliyev K.K. ishga kirishish haqida murojaat qildi. Sud ariza va unga ilova hujjatlarini o'rganib, Aliyev K.K. talabini qanoatlantirdi.*

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Ishni sud majlisida mazmunan ko'rish jarayonida ishga tegishsiz da'vogar ishtirok etayotganligi ma'lum bo'ldi. Sudya qanday harakatlarni amalga oshirishi mumkin?*

2. *Ish bo'yicha da'vogar sudga ariza bilan murojaat qilib, o'zining ishtirokisiz ishni ko'rish haqida bildirgan.*

- *Protsessual harakat to'g'ri (mi?).*
- *Sud majlisida da'vogar manfaatlarini himoya qilishga doir protsessual normalar bor (mi?).*



- *Ishda prokuror yoki boshqa davlat organi boshqa shaxslar huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida murojaat qilgan bo'lsa-chi?*

*3. Huquqiy vorisni protsessga kirishishi to'g'risidagi ajrimni huquqiy tahlil qiling.*

*4. Pandemiya sharoitida koronavirusga chalingan da'vogar o'z hududida videokonferensaloqa vositalaridan foydalanish imkoniyati yo'qligini ro'kach qilib, sud majlisida ishtirok etish uchun sud binosiga keldi. Sudya sud majlisi zaliga kirish da'vogarga mumkin emasligini, uning qo'lida «manfiy» test javobi bo'lishini, sud binosiga kirish sud xodimlari uchun xavf keltirishini aytib, ish muhokamasini keyinga qoldirdi. Da'vogar bu holatdan norozi bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarda o'zining sudyaga nisbatan raddiyasini bildirdi. Vaziyatga huquqiy baho bering.*

*5. Sud majlisiga uchinchi shaxs kelishdan bosh tortdi. Sudya uchinchi shaxsga nisbatan majburiy keltirish haqida ajrim chiqardi. Holatni tahlil qiling.*

## **7-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA UCHINCHI SHAXSLAR ISHTIROKI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy maqomi, ishga kirishish asoslari, turlari haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** fuqarolik protsessual huquqi, ishda ishtirok etuvchi shaxs, uchinchi shaxs, ishga kirishish asoslari, protsessual huquq, protsessual majburiyat, ariza, ajrim.

### **1-§. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va turlari**

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda nizola-shilayotgan da'vo predmetiga nisbatan taraflardan tashqari yana bir boshqa subyektlar: uchinchi shaxslarning ham daxli bo'ladi. O'z nomidan ham ma'lum, uchinchi shaxslar da'vogar va javobgar o'rtasidagi predmet, talab, fakt, munosabatga nisbatan sud jarayonida uchinchi shaxs sifatida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasida uchinchi shaxslar boshqa subyektlar kabi ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi.

Ammo ish holatiga ko'ra uchinchi shaxslar yuqoridagi subyektlar bilan o'xshash va farqli jihatlarga ega.

Fuqarolik protsessual huquqida **uchinchi shaxslarning ikki turi** mavjud: mustaqil talablar bilan arz qiluvchi va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

#### **Ularning umumiy jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:**

- shdan manfaatdorligiga ko'ra;
- ishda ishtirok etish vaqtiga ko'ra;
- chiqariladigan hal qiluv qarori oqibatiga ko'ra.

## Uchinchi shaxslar ishtirokining ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

- ✓ ishning haqiqiy holatini ochish (ishga oid dalillar doirasini to'g'ri belgilash);
- ✓ ishga oid isbotlash vositalarini to'g'ri belgilash (ish bo'yicha uchinchi shaxslar va ularning vakillarining tushuntirishlarini olish);
- ✓ protsessual tejamkorlik vositasi sifatida foydalanish (dastlabki da'voga nisbatan qarshi da'vo berish maqsadida protsessual harakatlar va protsessual vaqtni tejash);
- ✓ moddiy va protsessual huquq normalariga rioya qilishni ta'minlash va boshq.



## UMUMIY JIHLTLARI



## Uchinchi shaxslar ishtirokining ahamiyati

ishning haqiqiy holatini ochish (ishga oid dalillar doirasini to'g'ri belgilash)

ishga oid isbotlash vositalarini to'g'ri belgilash (ish bo'yicha uchinchi shaxslar va ularning vakillarining tushuntirishlarini olish)

protsessual tejamkorlik vositasi sifatida foydalanish (dastlabki da'vo-ga nisbatan qarshi da'vo berish maqsadida protsessual harakatlar va protsessual vaqtni tejash)

moddiy va protsessual huquq normalariga rioya qilishni ta'minlash va boshq.

Uchinchi shaxslar taraflarning barcha protsessual huquq va majburiyatlaridan foydalanadilar, lekin ayrim istisnoliklar ham bor-ki, o'xshashliklar ko'proq mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarda uchrasa, farqli jihatlar mustaqil talablari bo'lmagan uchinchi shaxslarning protsessual huquqiy maqomida ko'rinadi.

**Fuqarolik protsessual kodeksinig 40-moddasiga asosan** uchinchi shaxslar barchaishda ishtirok etuvchi shaxslar singari ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Bundan tashqari, **Fuqarolik protsessual kodeksining 71-moddasiga ko'ra**, taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosasi isbotlash vositalari sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, sud majlisida taraflar va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining o'zlariga ma'lum va ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risidagi tushuntirishlari ish yuzasidan to'plangan boshqa dalillar qatori tekshirilishi va baholanishi lozimligi belgilangan (FPKning 68-moddasi).

**Fuqarolik protsessual kodeksining 278-moddasida ko'rsatilishicha**, taraflarning, uchinchi shaxslarning o'zleri qo'ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi haqidagi, qo'yilgan talablarni tan olishi, ishni kelishuv bitimi bilan tamomlash to'g'risidagi arizalari bayonnomaga kiritiladi. Bayonnoma sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanishi kerak.

**Qiyosiy tahlil.** Xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligiga e'tibor bersak, Latviya Respublikasi GPK ning 11-bobi (78–81-moddalar), Belarus Respublikasi GPK ning 8-bobi (65–69-moddalar), Qirg'iziston Respublikasi GPKning 5-bobi «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» (42, 43-moddalar), Qozog'iston Respublikasi GPKning 5-bobi «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» (52, 53-moddalar), Ukraina Respublikasi GPKning 4-bobi «Fuqarolik protsessi ishtirokchilari» (42, 43-moddalar), Xitoy Xalq Respublikasi GPK ning 5-bobi «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» (56-modda), Gruzziya Respublikasi GPKning 11-bobi «Uchinchi shaxslar» (88–91-moddalar), Ozarbayjon Respublikasi GPKning 5-bobi «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va boshqa protsess ishtirokchilari» (55–57-moddalar), Armaniston Respublikasi GPKning «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» 5-bobi (34–35-moddalar) da ko'rsatilgan bo'lib, tahlil natijalariga ko'ra barcha davlatlar protsessual kodekslarida uchinchi shaxslar «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» deb nomlangan

bobda mustahkamlangan, faqat Gruziya Respublikasi GPKda uchinchi shaxslarga 11-bob (88–91-moddalar) sifatida alohida o‘rin ajratilgan.

## **2-§. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, ularning ishga kirishish asoslari, protsessual tartibi, protsessual huquq va majburiyatlari**

**Fuqarolik protsessual kodeksining 48-moddasiga binoan** mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar deganda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin. Ular da’vogarning hamma huquqlaridan foydalanadilar va uning hamma majburiyatlarini o‘z zimmlariga oladilar.

**Mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning huquqiy holati quyidagilarda ko‘rinadi:**

- ishga jarayonning boshidan kirishadi;
- mustaqil talab bilan arz qiladi;
- da’vogarning hamma huquqlaridan foydalanadilar va uning hamma majburiyatlarini o‘z zimmlariga oladilar;
- da’vogar yoki javobgar tomonida turib ishga kirishishlari mumkin;
- sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin.

### *Masalan*

*Er-xotin o‘rtasidagi mol-mulkni bo‘lish haqidagi talab yuzasidan taraflar (er va xotin) bilan birgalikda uchinchi shaxs sifatida mol-mulkka nisbatan egalik huquqini asos qilib, erning onasi mustaqil talab bilan ishga kirishadi va ular yashayotgan uy-joy otasidan unga meros qoldirilganligini, uni bo‘lishga hech kimning huquqi yo‘qligini, bu uy-joy kelin va kuyovning nikoh davomida orttirilgan mol-mulki doirasiga kirmasligini ko‘rsatadi va ishga oid hujjatlarni sudga taqdim qiladi.*

*«Bolani olish to'g'risida»gi fuqarolik ishi bo'yicha da'vogar (bolaning otasi) javobgar (bolaning onasi) ga nisbatan da'vo arizasi bilan sudga murojaat qiladi. Bunda bolani qaramog'ida asrayotgan shaxs (bolaning buvisi) uchinchi shaxs (mustaqil talablari bo'lgan) sifatida protsessga kirib keladi.*

### **3-§. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, ularni ishga jalb qilish (kirishish) asoslari, protsessual tartibi, protsessual huquq va majburiyatlari**

**Fuqarolik protsessual kodeksining 45-moddasiga binoan** mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar deganda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, agar ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlariga ta'sir etadigan bo'lsa, sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar da'vogar yoki javobgar tomonida ishga kirishishlari mumkin. Shuningdek, ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar, arz qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish bundan mustasno.

Agar mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olsa, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga

yuklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishga haqli. Aynan shunday hollarda, da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

### *Masalan*

*Aliment undirish haqidagi da'vo yuzasidan ish ko'rilayotganda sud ish bo'yicha avval ham foydasiga aliment undirilayotgan undiruvchini sudga jalb qiladi va chiqarilayotgan hal qiluv qarorining oqibatlari uning aliment manfaatlariga ham ta'sir etishi mumkinligini e'tiborga oladi.*

**Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:**

- nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablari bo'lmaydi;

- taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar;

- tarablarga berilgan maxsus huquqlar (arz qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, ulardan voz kechish) dan foydalana olmaydi;

- taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin;

- sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin.

- tan olingan majburiyatni bajarish maqsadida da'vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yilishi.



## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Javobgar tomonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarni misollar orqali izohlab bering.*
- 2. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar majburiy subyektni? Javobingizni tushuntirib bering.*
- 3. «Manfaatdor shaxs» va «Uchinchi shaxs»ning o'xshash va farqli jihatlari nimada?*
- 4. Uchinchi shaxs va sherik taraflar: o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qiling!*
- 5. Uchinchi shaxs sud xarajatlari to'lashga haqlimi?*
- 6. Uchinchi shaxs dastlabki da'voga nisbatan qarshi da'vo bera oladimi?*

## 8-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKIL ISHTIROKI

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda vakillik qilish asoslari, tartibi, vakillik turlari, protsessual huquqiy maqomi, ishda ishtirok etish xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** ishda ishtirok etuvchi shaxs, vakillik, vakil, vakillik turlari, protsessual huquq, protsessual majburiyat, vakil vakolati, vakil bo'la olmaydigan shaxslar.

### 1-§. Fuqarolik protsessida vakillik tushunchasi, ahamiyati va asoslari

**Vakillik instituti** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44, 116-moddalarida mustahkamlangan sud orqali himoyalaniş va malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda ishda ishtirok etuvchi taraflar, uchinchi shaxslar, arizachilarning huquqlari va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatları himoyasining protsessual kafolati vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Fuqarolik ishlarini sud va boshqa organlarda yuritishda bir shaxsning topshirig'iga ko'ra ikkinchi shaxsning uning nomidan ishda qatnashuviga **vakillik qilish** deb ataladi. O'z navbatida bunday munosabatlar shartnoma (ishonchnoma, vakolatnoma, order) asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki esa ana shu vakillik institutining eng ko'p namoyon bo'ladigan turlaridan biri hisoblanadi.

**Suddagi vakillik** – bu sud himoyasiga bo'lgan huquqni amalga oshirish, malakali yuridik yordam olish vositasi sanalib, manfaatdor shaxslar shaxsan o'zlari ishni olib borishlari yoki bevosita vakillari orqali ish olib borishlari; bevosita ishda ham vakili, ham o'zining bir vaqtda qatnashuviga yo'l qo'yilishi kabilarni o'z ichiga oladi.

## **Vakillik institutining maqsadi va ahamiyati:**

- sud-huquq islohotlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- sud orqali himoyalaniish va malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash;
- fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarni tiklash mexanizmini kuchaytirish;
- fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlashga erishish;
- huquq va manfaatlar himoyasini protsessual kafolati vazifasini bajarish;
- fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishda sudlarga ko'maklashish;
- ishning haqiqiy holatini ochishga ko'maklashish;
- ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarorlari chiqarish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan.

## **Suddagi vakillikni vujudga kelish shartlari:**

- manfaatdor shaxsning topshirig'iga ko'ra;
- qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra.



Vakillik vujudga kelishi uchun kasallik, xizmat safarida bo'lish, tegishli huquq normalaridan yetarli darajada xabardor bo'lmaslik, voyaga yetmaganlik, muomalaga layoqatsizlik va boshqa holatlar **sabab bo'lishi mumkin**. Shuningdek, qonun hujjatlarida (yuridik shaxslarning ish yurituv hujjatlarida) vakillikdan foydalanish belgilab qo'yilgan bo'ladi yoki xizmat ko'rsatish davomida vakil olishga zarurat tug'iladi. Qonuniy vakillardan foydalanish ham qonun hujjatlarida vakillik asoslari va vakillik doirasi aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi.

### **Fuqarolik protsessual huquqida vakilning protsessual huquqiy holati:**

- vakil fuqarolik-protsessual huquqiy munosabatning subyekti;

- vakil ishda ishtirok etuvchi shaxs;

- vakil sud protsessining borishidan moddiy-huquqiy (ayrim istisnolar bilan) va protsessual-huquqiy manfaatdor shaxs;


- vakil barcha fuqarolik-protsessual huquq va majburiyatlardan foydalana oladi (shartnomali vakillikda huquq va majburiyatlarni amalga oshirish maxsus ko'rsatilganda amalga oshiriladi);

- isbotlash vositalarining subyekti (qonuniy vakilning tushuntirishlari);

- vakilga nisbatan protsessual majburiyatlarni bajar-maganlik uchun protsessual majburlov choralari belgilangan va h.k (sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, advokatlik tuzilmasiga xususiy ajrim yuborish).

## 2-§. Sudda vakillik qilish turlari

Sudda vakillik qilishning qonuniy va shartnomali turlariga yo'l qo'yilgan.



Vakillikning qonuniy, shartnomali, jamoat, ustavli hamda rasmiy turlari ham mavjudligi tadqiq etilgan.

**Qonuniy vakillik** – muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qiladi.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaro ishtirok etishi lozim bo'lgan ish bo'yicha uning vakili sifatida mazkur fuqaroning mol-mulkini qo'riqlash va boshqarish uchun tayinlangan shaxs qatnashadi.

Vafot etgan yoki belgilangan tartibda vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning merosxo'ri ishtirok etishi kerak bo'lgan ish bo'yicha, agar merosni hali hech kim qabul qilib olmagan bo'lsa, vasiy, homiy, yoxud meros mol-mulknini saqlash va boshqarish uchun tayinlangan saqlovchi shaxs merosxo'rning vakili sifatida qatnashadi.

Qonuniy vakil sudda ish olib borishni o'zi vakil sifatida tanlagan boshqa shaxsga topshirish huquqiga ega.

O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxsning, muomalaga layoqatsiz yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxsning qonuniy vakili vakillik qilinayotgan shaxsning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga taalluqli ishlar ko'rib chiqilayotganda uning manfaatlarini ko'zlab barcha protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxsning, muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxsning qonuniy vakili ishlar ko'rib chiqilayotganda shu shaxsning manfaatlarini ko'zlab barcha protsessual harakatlarni cheklangan huquqlar doirasida amalga oshiradi.

Qonuniy vakillar ham, shartnoma bo'yicha vakillar ham voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo'lishlari kerak.

Qonuniy vakillar ishga kirishishi uchun huquq beruvchi hujjatlar: bolaning tegishli ota-onadan paydo bo'lganligi, farzandlikka olinganlik faktlarini tasdiqlovchi hujjatlar; vasiy yoki homiyni, meros mulkini asrovchini tayinlash to'g'risida qarorlar va boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari kerak.

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida qonuniy vakillik majburiy vakillik deb yuritiladi. Chunki ushbu shaxslar (vakolat beruvchi) albatta qonuniy vakillar yordamidan foydalanishga majbur va ularning vakolatnomasida maxsus huquqlarni bajarish haqida alohida izoh talab etilmaydi.

### *Masalan*

*Voyaga yetmaganlar tomonidan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, muomalaga layoqatsiz shaxslarning uy-joyga, mol-mulkka, nafaqaga bo'lgan huquqlarini tiklash to'g'risidagi, vafot etgan shaxsning huquqiy vorisi deb topish to'g'risidagi, voyaga yetmaganlarning mulkiy va nomulkiy huquqlarini himoya qilishga oid ishlarda qonuniy vakillar qatnashadi.*

**Shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik** – ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan man-

faatlarini himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkin:

1) advokatlar;

2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;

3) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha;

4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a'zolarining ishlari bo'yicha;

5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;

6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig'i bo'yicha;

7) ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin.

### **Shartnoma bo'yicha vakillikning xususiyatlari:**

- vakillikning shartnoma bo'yicha ixtiyoriy asosda amalga oshiriladigan turi;

- vakillik munosabatlari ishonch bildiruvchi (vakolat beruvchi) va shaxs va vakil (advokat) o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosan, shuningdek qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnoma orqali vujudga keladi va faqat ishonch bildiruvchining bunga xohishi mavjud bo'lganda yuzaga keladi;

- vakillikning bu turida maxsus izoh talab qilingan holatlar (huquqlar ko'rsatilishi), vakolatni rasmiylashtirish tartibi (advokatlarning orderi, taraflarning ishonchnomalari, sherik ishtirokchilarning og'zaki arizalari) ga alohida ko'rsatilishi zarur.

Vakillarning ishga kirishishi masalasi sudya tomonidan ishni sudda ko'rishga tayyorlash paytida hal etilib, bu haqda ajrimda ko'rsatiladi. Agar vakilni ishga kiritish to'g'risidagi iltimosnoma sud majlisida bildirilgan bo'lsa, masala ishda qatnashuvchi boshqa shaxslar fikri eshitilgandan so'ng bayonnomada qayd etiladigan ajrim chiqarish yo'li bilan hal etiladi.

**Shaxsni sudda vakil** sifatida qatnashishiga ijozat berish (qatnashishini rad etish) to'g'risidagi ajrim ustidan, u ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmaganligi sababli, apellyatsiya (kassatsiya) shikoyatidan alohida tarzda shikoyat qilish mumkin emas.

**Jamoat vakilligi** ayrim turdagi fuqarolik ishlari bo'yicha vujudga kelib asosan korxonalar, tashkilot, muassasa va ayniqsa, xodimlar manfaatlarini, shuningdek mualliflik huquqiy munosabatlariga doir ishlar bo'yicha mualliflarning buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnatga oid ishlar bo'yicha xodimlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida faoliyat yuritadi.

**Rasmiy vakillik** asosan bedarak yo'qolgan, o'lgan deb e'lon qilingan shaxslarning mulkiy va nomulkiy huquqlarining himoyasini ta'minlash maqsadida qonuniy va shartnomali vakillar (vasiy va homiy, mol-mulki qo'riqlovchi va tanlangan advokatlar tomonidan) amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqida rasmiy vakillik alohida tur sifatida o'rganilmaydi.

**Ustav bo'yicha vakillik** yuridik shaxslar faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha korxonalar, tashkilot, muassasa, tegishli tuzilmaning ta'sis va ish yurituv hujjatlarida yuridik shaxs manfaatlarini himoya qilish vakolati (funktional vazifalari) kimga yoki qaysi shtat (lavozim) bo'yicha rasman birlashtirilganligi hamda vakillik doirasi ko'rsatilgan bo'ladi, shunga ko'ra yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha sudda ishtirok etadi.

Vakillikning ushbu turlari alohida vakillik turlari sifatida faqat ilmiy tadqiqot ishlarida (ilmiy ishlanmalarda) shunday tadqiq etilgan, ammo nazariya va amaliyotda vakillikning



qonuniy va shartnoma bo'yicha turlari rasman Fuqarolik protsessual kodeksida mustahkamlangan.

### **3-§. Suddagi vakilning vakolatlari**

Vakillar Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida 40-moddadagi huquq va majburiyatlarga ega. Shuningdek, yana maxsus 69-moddadagi vakilning protsessual vakolatlari ham ularga tegishli.

Vakillar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko'rish davomida tug'iladigan hamma masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish kabi protsessual huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Vakillik vakolatlari umumiy va maxsus vakolatlarga ajratiladi. Jumladan, umumiy vakolat deb, har qanday vakil tomonidan vakolatnoma bergan shaxs nomidan harakatlarni amalga oshirishga aytiladi va bunda vakolatlarga maxsus izoh berilishi talab qilinmaydi.

Maxsus vakolat deganda vakil tomonidan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish tushuniladi. Maxsus harakat (huquq va burch) lar deganda da'vo talab (lar)idan to'liq yoki qisman voz kechish; da'vo predmeti va asosini o'zgartirish; da'vo talab(lar)ining miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish; da'vo talab(lar)ini tan olish; kelishuv bitimi tuzish yoki mediativ kelishuvga erishish;

vakolatlarni o'zga shaxsga o'tkazish; sud qarorlari ustidan shikoyat qilish; ijro hujjatlarining bajarilishini talab qilish va boshqalar tushuniladi.

Sudda ish yuritish vakolatlari vakilga barcha protsessual harakatlarni vakolat beruvchi nomidan amalga oshirish huquqini beradi.

Shartnoma bo'yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan to'liq yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o'zgartirish, miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish, da'vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv yoki mediativ kelishuv tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sud hujjati ustidan shikoyat qilish, arizalarni imzolash, ijro varaqasini undiruvga taqdim etish, undirilgan mol-mulkni yoki pullarni olish vakolati har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

Litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonuni 3-moddasi).

Advokatlik faoliyati advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasida tuziladigan yuridik yordam

ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi.

Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi zarur, mazkur hujjatlar advokatga yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini beradi.

Birinchi instansiya sudida qatnashgan advokatning ish yurituvida ishga aloqador quyidagi ma'lumot va hujjatlarning bo'lishi tavsiya etiladi:

- sudga berilgan da'vo ariza, ariza, shikoyatlarning nusxalari;

- da'vo arizasiga nisbatan qarshi da'vo ariza yoki e'tiroznoma berilgan bo'lsa, mazkur hujjatlarning nusxalari;

- fuqarolik ishi bo'yicha taqdim etilgan yozma dalillarning nusxalari;

- sud majlisida aniqlash lozim bo'lgan holatlar yuzasidan tuzilgan savollar ro'yxati;

- ishni qonuniy hal etilishiga yordam beruvchi huquqiy hujjatlar va maxsus adabiyotlardan ko'chirmalar, ularning nusxalari (olingan manbalari ko'rsatilgan holda);

- sud majlisi davomida tomonlarning tushuntirishlari, fikrlarining qisqacha (asosiy) mazmuni, ekspert, mutaxassislarning fikrlari aks ettirilgan yozuvlar;

- sudga taqdim etilgan yozma iltimosnomalarning nusxalari, shuningdek, og'zaki berilgan iltimosnomalar va sudning iltimosnomalar bo'yicha chiqargan ajrimining mazmuni;

- sud muzokarasidagi advokat nutqining matni va ushbu bo'yicha tayyorlangan tezislari;

- agar sud majlisi bayonnomasi bilan tanishib, unga fikr-mulohaza bildirilgan bo'lsa, bildirilgan fikr-mulohazalar haqidagi ma'lumot;

- sudning ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori yoki ajrimi nusxalari va boshqalar.

## Advokat tomonidan ishni olib borishga

ORDER № \_\_\_\_\_

(advokatlik tuzilmasining nomi)

Berildi advokat \_\_\_\_\_  
(advokatning F.I.Sh.)

Advokatlik guvohnomasi: № \_\_\_\_\_, 20\_\_-yil «\_\_» \_\_\_\_\_  
kuni berilgan.

Order berishga asos: 20\_\_-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kunidagi bitim  
(shartnoma) yoki qaror (ajrim).

Order \_\_\_\_\_ ga  
(ishonch bildiruvchi shaxs (o'z himoyasi ostidagi shaxs)ning F.I.Sh.)

jinoyat, ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy yoki boshqa ish bo'yicha  
yuridik yordam ko'rsatish uchun berildi.

M.O'.

Berilgan sana: 20\_\_-yil «\_\_» Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Advokatlik tuzilmasining manzili : \_\_\_\_\_

Tel. (faks): \_\_\_\_\_ Orderni oldim \_\_\_\_\_  
(advokatning imzosi)

№ 000000

### 4-§. Sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar

Fuqarolik protsessual kodeksida (FPKning 70-moddasi)  
sudda vakillik qilishi mumkin bo'lmagan shaxslar toifasi  
ko'rsatilgan.

#### Quyidagilar sudda vakillik qilishi mumkin emas:

- 1) voyaga yetmagan shaxslar, bundan qonun hujjatlarida  
belgilangan hollar mustasno;
- 2) vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar;
- 3) sudyalalar, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar,  
sud devoni xodimlari, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar,  
farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek  
tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining  
vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno;

4) manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar;

4<sup>1</sup>) shu nizo bilan bog'liq mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etganlar, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va mediatorning ishtiroki yuzasidan o'zaro rozilik bo'lgan hollar mustasno;

5) sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan shaxslar.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Vakil o'z vakilligidan voz kechishi mumkin (mi?).*

2. *Sud hujjatlarini ijro etish bosqichida ham vakil ishtirok eta oladi (mi?). Tahlil qiling.*

3. *Qonun hujjatlarida «Vakilning muzokara nutqi»ga qo'yilgan talablar bor (mi?).*

4. *Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasida shartnoma bo'yicha vakillikning bir turi sifatida «... ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan shaxslar...» berilgan. Ushbu vakillik turini protsessual qonunga kiritish zaruratini tahlil qiling.*

5. *Advokatning yana qaysi faoliyat turlari bilan shug'ullanishiga qonun yo'l qo'yadi?*

## **9-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA PROKUROR ISHTIROKI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki tushunchasi, ahamiyati va vazifalari, ishga kirishish asoslari, shakllari, protsessual huquqiy maqomi, vakolatlari haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** ishda ishtirok etuvchi shaxs, prokuror, prokuror fikri, prokuror protesti, prokuror xulosasi, protsessual huquqiy maqomi, umumiy huquq, maxsus huquq, protsessual majburiyat.

### **1-§. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki tushunchasi, ahamiyati va vazifalari**

**Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki tushunchasi** – fuqarolik ishlarini sudda koʻrishda ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida protsessning barcha bosqichlarida alohida xususiyatlari va vakolatlari (ayrim istisnoliklari) bilan qonunda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ishtirok etishiga aytiladi.

Prokuror fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha turlarida qatnasha olmaydi, bu holat uning sudda ishtirok etish shakllarida namoyon boʻladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda, jumladan, fuqarolik sudlariga tegishli ishlar (nizoli va nizosiz ishlar) bilan bogʻliq ariza va shikoyatlarni oʻrganishda, nizolarni sudda hal qilishda, chiqarilgan sud hujjatlarining qonuniyligini taʼminlashda prokuror vakolatini amalga oshirish prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan.

**Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini taʼminlashga masʼul prokuratura organlari tizimi:**

- Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini taʼminlash bosh-qarmasi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi;

- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

### **Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlashning ahamiyati:**

- sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini bajarilishiga erishish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq hamda erkinliklarini to‘laqonli himoya qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta‘minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish;

- sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash orqali sud tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish;

- prokuror vakolatini ta‘minlashga doir protsessual hujjatlarning qonuniy, asosli, adolatli bo‘lishiga erishish, ularning ta‘sirchanligini yanada oshirish;

- har bir ish bo‘yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini ta‘minlashga ko‘maklashish;

- aholi o‘rtasida kelib chiqayotgan fuqarolik sudlariga tegishli nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy-tarbiyaviy ta‘sir choralari kuchaytirish va boshq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi PF–6034-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi «Sud qarorlarini qayta ko‘rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ–661-sonli Qonuni bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, sudlarda prokuror ishtirokiga oid qator yangiliklar belgilandi:

- sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish instituti tugatildi;
- O'zbekiston Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlarining sud hujjatlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor qilindi;
  - apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari isloh qilindi;
  - kassatsiya instansiyasida ishlar to'g'ridan-to'g'ri taraflar tomonidan berilgan shikoyatga asosan ko'rilishi belgilandi;
    - prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emasligi belgilandi;
    - prokuror uning ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha, shuningdek, taraflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli;
    - kassatsiya shikoyati (protesti) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi;
    - kassatsiya shikoyati (protesti) apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil ichida beriladi;
    - o'tkazib yuborilgan kassatsiya shikoyati (protesti) berayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra kassatsiya instansiya sudining sudyasi tomonidan, basharti iltimosnoma kassatsiya berish muddati o'tgan kundan e'tiboran uch oydan kechiktirmay berilgan bo'lsa va o'tkazib yuborilgan muddat sud tomonidan uzrli deb topilsa, tiklanishi mumkin;
    - viloyat (unga tenglashtirilgan) prokurorlari va uning o'rinbosarlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga kassatsiya tartibida protest keltirish vakolati berildi;
    - kassatsiya instansiyasi sudi yangi dalillarni o'rganib chiqish va yangi faktlarni aniqlash huquqiga ega emasligi belgilandi;
    - kassatsiya tartibida takroran ko'rish haqidagi protest O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokuror va ularning o'rinbosarlari tomonidan keltirilishi belgilandi;



- prokurorlar tomonidan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida ariza berilmasligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6034-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug'i da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, sudlarda fuqarolik sud ishlarini yuritishda **prokurorning vazifalari:**

- davlatimizda va jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash;

- fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash;

- fuqarolarning, tadbirkorlarning mulkiy huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish;

- Davlatga yetkazilgan zararni undirishga doir protsessual choralar ko'rish;

- sudlarda prokurorlik vakolatini ta'minlash orqali har bir fuqarolik ishi yechimi yuzasidan qonuniy, asoslangan, adolatli sud hujjatlari chiqarishga erishish;



- sudlarda qonunda belgilangan holatlarda ishtirok etish, da'vo qo'zg'atish, protest keltirish, fuqarolardan kelgan murojaat arizalarini o'rganish orqali moddiy va protsessual qonun buzilishi holatlariga chek qo'yish.

## **2-§. Prokurorning birinchi instansiya sudida ishtirok etish asoslari va shakllari**

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni «IV bo'lim. Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari (33–36-moddalari)» aynan sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning ishtirokiga bag'ishlangan.

## **Birinchi instansiya sudida prokuror ishtirok etish asoslari:**

- qonunda nazarda tutilgan holatlarda;
- prokurorning arizasiga ko'ra qo'zg'atilgan ishlar bo'yicha.



## **Yuqori sudlov instansiyalarida prokuror ishtiroki asoslari:**

- qonunda nazarda tutilgan holatlarda<sup>1</sup>;
- prokuror protestiga asosan ko'rilayotgan barcha ishlarda.

### **Qonunda ko'rsatilgan hollarda prokuror ishtiroki:**

- moddiy va protsessual qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda ariza (da'vo ariza) bilan murojaat qiladi;
- prokurorning arizasiga ko'ra qo'zg'atilgan ishlar bo'yicha fuqarolik ishining muhokamasida ishtirok etadi;
- prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolik ishining muhokamasida ishtirok eta oladi;
- prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo'yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagina, suddan chaqirib olib o'rganish;
- sud hujjatlari ustidan protest (apellyatsiya, kassatsiya protesti) keltirish huquqiga ega.

<sup>1</sup> Qonunda va Bosh prokuror buyrug'ida prokuror ishtiroki majburiyligi belgilangan ishlarning apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ko'rilishida ishtiroki tushuniladi.

## **Fuqarolik ishlarining sudlarda ko'rilishida prokuror ishtiroki majburiyligi:**

– prokurorning (da'vo) arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlarda;

– voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) to'g'risidagi ishlarda;

– fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlarda;

– farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarda;

– ota-onalik huquqidan mahrum qilish, shu huquqni tiklash yoki cheklash to'g'risidagi ishlarda;

– shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stasionariga yotqizish yoki uning stasionarda yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlarda;

– sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish haqidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlarda;

– mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish bilan bog'liq ishlarda;


Shuningdek, prokuror ishtiroki majburiyligi belgilangan ishlarining apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ko'rilishida, prokuror protesti asosida ko'rilayotgan barcha ishlarda katnashishi shart<sup>1</sup>.

## **Fuqarolik sud ishlarin yuritishda prokuror vakolatini ta'minlashga doir protsessual hujjatlar:**

- prokuror arizasi (da'vo arizasi);
- prokuror fikri;
- prokuror xulosasi;
- prokuror protesti;
- prokuror taqdimnomasi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 17.11.2015-yildagi «Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 124-sonli buyrug'i (11.09.2020-yildagi 222-sonli va 27.04.2021-yildagi 227-sonli buyruq bilan kiritilgan qo'shimchalar bilan birga)



**Prokuror arizasi** – fuqaro sog‘lig‘ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudda o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga ega.

**Prokuror fikri** – qonunda belgilangan tartibda ishda qatnashayotgan prokurorning ko‘rilayotgan fuqarolik ishi bo‘yicha da‘vo talablarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatligini o‘rgangan holda ish yuzasidan beradigan bahosi. Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek prokurorning arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atilgan ishlar bo‘yicha fuqarolik ishining muhokamasida ishtirok etishga haqli va shu jarayonda sudga prokuror fikrini beradi.

**Prokuror xulosasi** – jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan fuqarolik ishlarini chaqirib olib o‘rganish natijalariga ko‘ra sud hujjatining qonuniy, asosli va adolatli deb topilishi (oqibatida) natijasida tuziladigan va protest keltirish vakolatiga ega bo‘lgan prokurorlar tomonidan tasdiqlanadigan protsessual hujjat.

**Prokuror protesti** – prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha, shuningdek, taraflarning murojaati mavjud bo‘lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti yoki birinchi instansiya sudining apellyatsiya tartibida ko‘rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan kassatsiya shikoyati berishi, prokuror esa protsessual Kodeksda belgilangan hollarda **kassatsiya protesti** keltirishga haqli.

**Prokuror taqdimnomasi** – sud hujjatlari ustidan tuman va shahar prokurorlarining vakolati bo'lmaganida (kassatsiya protesti keltirishga) yuqori turuvchi prokurorga fuqarolik ishi bo'yicha sud qaroriga nisbatan taqdimnoma kiritiladi. Shuningdek, kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha qabul qilingan sud qarorlariga nisbatan, agar yetarli asoslar bo'lsa, takroran kassatsiya protesti keltirish masalasini ko'rib chiqish haqida Bosh prokuraturaga tarafning murojaati nusxasini ilova qilgan holda taqdimnoma kiritiladi.

### **3-§. Prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari**

Fuqarolik protsessida ishtirok etayotgan prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida umumiy va maxsus huquq va majburiyatlarga ega.

Prokuror – ishda ishtirok etuvchi shaxs (FPKning 39-moddasi).

**Ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida prokurorning umumiy huquqlari** (FPKning 40-moddasi):

- Ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish,
- rad etish to'g'risida arz qilish,
- dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish,
- ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish,
  - arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish,
  - sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajrlarini bayon qilish,
  - boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajrlariga qarshi e'tirozlar bildirish,
  - sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish),
  - sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish,

- davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadir.

Ushbu huquqlar prokurorning ariza (da'vo ariza) bilan sudga murojaat qilish holatlarida taraf (da'vogar) sifatidagi protsessual huquqiy maqomida ko'rinadi. Jumladan, ariza bergan prokuror da'vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi (ayrim istisnoliklari bilan) va barcha protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

### **Sud protsessida prokurorning maxsus huquqlari (FPKning 51-moddasi):**

- prokuror bergan arizasidan butunlay yoki qisman voz kechish;

- boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun o'zi arz qilgan talablar bo'yicha sudga tushuntirishlar berish;

- ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishning muhokamasi vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon etish;

- sud hujjati ustidan protest keltirish huquqiga ega.

### **Sud protsessida prokurorning majburiyatlari (FPKning 51-moddasi):**

- Prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida sud majlisida belgilangan tartibga rioya etishi va raislik qiluvchining farmoyishlariga so'zsiz bo'ysunishi shart.

- Prokuror, FPKning 21–23-moddalariga ko'ra o'zini o'zi rad qilish haqida arz qilishi shart. Prokurorni rad qilish sudning tashabbusiga ko'ra, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga asosan ham ko'rib chiqilishi mumkin.

- Prokurorning uzrsiz sabablar bilan kelmaganligi to'g'risida sud xususiy ajrim chiqaradi, bu haqda tegishincha yuqori turuvchi prokurorga ma'lum qiladi (FPKning 220-moddasi).

- Agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuror o'zi arz qilgan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha

talablar bildirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emas.

- Prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

- Prokuror tomonidan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida ariza berilishi mumkin emas.

- Agar da'vogar prokuror tomonidan arz qilingan talabni qo'llab-quvvatlamasa, agar bu uchinchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilmasa, sud da'voni (arizani) ko'rmasdan qoldiradi.

- Prokurorning boshqa shaxs manfaatlarini himoya qilish uchun taqdim etgan o'z da'vosidan (arizasidan) voz kechishi, ushbu shaxsni ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

#### **Prokuror huquq va majburiyatlaridagi mustasno-liklar:**

- kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi yo'q;

- sud xarajatlarini to'lash majburiyati yo'q;

- prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas.

- prokuror tomonidan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida ariza berilishi mumkin emas.

#### **4-§. Sud hujjatlari ustidan protest keltirish**

Prokuror yoki yuqori turuvchi prokurorlar qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lsa, sud hujjatlari ustidan protest keltiradi. Mazkur protest fuqarolik ishlarini sudga ko'rish jarayonida prokuror vakolatini ta'minlash natijasida, shuningdek, «Prokuratura to'g'risida»gi qonun (37-modda. Prokuror nazorati hujjatlarining turlari) ga ko'ra, qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi.

Prokurorlar prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha yoki taraflarning murojaati mavjud bo‘lgan taqdirdagina sud qarorlariga nisbatan protest keltirishga haqli.

**Prokuror protesti:**

- Apellyatsiya protesti;
- Kassatsiya protesti.

**Apellyatsiya protesti berish huquqi** – prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko‘rilgan ish bo‘yicha, shuningdek, taraflarning murojaati mavjud bo‘lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

**Kassatsiya protesti berish huquqi** – birinchi instansiya sudining apellyatsiya tartibida ko‘rilgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori hamda apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan kassatsiya shikoyati berishi, prokuror esa ushbu Kodeksda belgilangan hollarda kassatsiya protesti keltirishi mumkin.

**Ishlarni suddan chaqirib o‘rganish** – prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo‘yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo‘lgan holdagina, suddan chaqirib olib o‘rganishi mumkin.

**Apellyatsiya protesti** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar, tuman (shahar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o‘rinbosarlari tomonidan keltiriladi.

**Kassatsiya protesti** esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o‘rinbosarlari tomonidan keltirilishi lozim.

Fuqarolik ishini o‘rganishda birinchi instansiya sudlari tomonidan sud qarorlari moddiy va protsessual qonun talablariga amal qilinmasdan qabul qilingan sud qarorlari aniqlanganda 30 kun muddat ichida **apellyatsiya protesti** kiritilishi kerak.

Viloyat prokuraturasi fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi tomonidan fuqarolarning



arizalarni o'rganish davomida noqonuniy qarorlari ustidan 1 yil muddat davomida kassatsiya tartibida protest keltirilishi lozim.

Tuman va shahar prokurorlarining vakolati bo'lmaganida yuqori turuvchi prokurorga fuqarolik ishi bo'yicha sud qaroriga nisbatan taqdimnoma kiritiladi.

### **Protestni ko'rib chiqishning protsessual tartibi (apellyatsiya protesti misolida):**

- Prokuror, yuqori turuvchi prokuror prokurorning ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha, shuningdek taraflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

- **Apellyatsiya protestini ko'rib chiqadigan sudlar.** Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati – tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan.

- **Apellyatsiya protestini berish tartibi.** Apellyatsiya protesti apellyatsiya instansiyasi sudi nomiga yo'llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqargan sudga beriladi.

- **Apellyatsiya protestini berish muddati.** Apellyatsiya protesti hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida berilishi mumkin.

**Apellyatsiya protestining mazmuni. Apellyatsiya protestida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak (FPK 386-modda):**

- 1) protest yo'llanayotgan sudning nomi;
- 2) protest berayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), joylashgan yeri (pochta manzili);
- 3) protest keltirilayotgan hal qiluv qarori, ajrim, qaror va ushbu sud hujjatlarini chiqargan sud;
- 4) hal qiluv qarorining, ajrimning, qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi;
- 5) protest berayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati.

Apellyatsiya protestini prokuror yoki uning o'rinbosari keltiradi va imzolaydi. Apellyatsiya protestida protestni bergan shaxsning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin hamda prokurorning ishtirokisiz ko'rib chiqilgan ish bo'yicha apellyatsiya shikoyatiga protest keltirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan tarafning murojaati nusxasi ilova qilinadi.

**Apellyatsiya protestini harakatsiz qoldirish.** Agar protest bergan shaxs ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etsa, protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi.

**Birinchi instansiya sudining apellyatsiya protestini olganidan keyingi harakatlari.** Sudya yoki sud raisi apellyatsiya protestini olgandan keyin:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga protestning ko'chirma nusxasini yuborishi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni apellyatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rish vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilishi;

3) hal qiluv qarori ustidan protest keltirish uchun belgilangan muddat o'tgan vaqtdan e'tiboran o'n kun ichida ishni kelib tushgan protest bilan birga apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

**Apellyatsiya protestiga qo'shilish.** Taraf tomonida ishtirok etayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo'shilishi mumkin. Mazkur shaxslar keltirilgan apellyatsiya protestiga ham qo'shilishi mumkin.

**Apellyatsiya protesti yuzasidan tushuntirish berish (e'tiroz bildirish).** Ishda ishtirok etuvchi shaxslar protest yuzasidan sudga tushuntirishlar (e'tirozlar) ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib, taqdim etishga haqli.

**Apellyatsiya instansiyasi sudining ishni protest bilan birga olganidan keyingi harakatlari.** Zarur hollarda, apellyatsiya instansiyasi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga protest yuzasidan tushuntirishlar (e'tirozlar) taqdim etishni taklif qiladi. Sud tushuntirishlarning (e'tirozlarning) ko'chirma nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi (yuboradi);

**Apellyatsiya protestini to'ldirish, o'zgartirish, protestni qaytarib olish.** Apellyatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek yuqori turuvchi prokuror apellyatsiya instansiyasi sudi maslahatxonaga kirguniga qadar protestni to'ldirishga, o'zgartirishga yoki qaytarib olishga haqli.

**Apellyatsiya protestini ko'rish muddati.** Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan berilgan apellyatsiya protestini ish sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi.

**Sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari (FPKning 399<sup>1</sup>-moddasi).**

Sud hujjatini apellyatsiya tartibida bekor qilishga yoki o'zgartirishga quyidagilar asos bo'ladi:

1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;

2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

3) sudning hal qiluv qarorida bayon etilgan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;

4) moddiy huquq normalarining yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi.

Sudning mazmunan to'g'ri bo'lgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori faqat rasmiy asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin emas.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

*1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi qonun bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq, «...sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish instituti tugatildi...». Ushbu islohot mazmuni va zaruratini izohlang.*

*2. Mol-mulki (ashyoni) egasiz deb topish bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rishda prokuror ishtiroki majburiy. Ushbu toifadagi ishlar bo'yicha prokuror fikrida qanday holatlarga e'tibor qaratadi?*

3. *Prokuror tomonidan da'vo arizasi beriladigan ishlar soni cheklanganmi? Tahliliy fikr bering.*

4. *Qonun hujjatlarida va Bosh prokurorning sohaviy buyrug'ida va Ko'rsatmada «Boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida prokurorlar o'z tashabbusi bilan ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasin», deb ko'rsatilgan. Izohlab bering.*

5. *Prokuror protestida sud hujjatini bekor qilish yoki o'zgartirish haqida «aynan bir vaqtning o'zida» har ikkala asos haqida ko'rsatishi mumkin (mi?).*

## **10-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA BOSHQA SHAXSLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI VA TASHKILOTLAR VA AYRIM FUQAROLARNING ISHTIROKI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessda ishtirok etish asoslari, maqsadi, ishtirok etish shakllari, ishga doir protsessual hujjatlari haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** ishda ishtirok etuvchi shaxs, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, ayrim fuqarolar, vasiylik va homiylik organi, protsessual huquq, protsessual majburiyat, xulosa, ariza, iltimosnoma.

### **1-§. Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessda ishtirok etish asoslari va maqsadi**

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudga murojaat qiluvchi va ishtirok etuvchi subyektlarni ikki toifaga ajratish mumkin:

- Oʻzlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan jismoniy va yuridik shaxslar;
- Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan jismoniy va yuridik shaxslar;

Oʻzlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga hech qanday cheklov belgilanmagan, xususan xizmat vakolati, ish toifasi va boshq. Ammo ishlarning taalluqliligi va sudlovligiga alohida ahamiyat beriladi.

Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga ayrim cheklovlar mavjud, xususan, ularning davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ekanligi, xizmat vakolatiga

ko'ra, qonunda belgilangan hollarda, muayyan toifadagi ishlar bo'yicha ishtirok etishi nazarda tutilgan.

Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar deganda protsessual qonun hujjatlarida prokuror va davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishtiroki ko'rsatilgan. Ammo bu toifaga vakillarni ham kiritish muhim. Vakillar ham boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga qadar va sudda qatnashib, shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatadi. Biroq vakillik institutining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ilmiy adabiyotlarda boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtirokiga nisbatan «protsessual da'vogar», «protsessual ariza beruvchi» atamasi qo'llanilgan.

Ayrim manbalarda ishda ishtirok etish asoslari ish qo'zg'atishdagi shartlar sifatida talqin etiladi, masalan:

- qonunda ko'rsatilgan hollarda;
- xizmat vakolatiga ko'ra;
- manfaatdor shaxslarning arizasiga ko'ra va boshq.

Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning **protsessda ishtirok etish maqsadi**:

- fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;
- davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ijrosini ta'minlash;
- xizmat vakolati tufayli o'z zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish;
- fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirish;
- fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishda sudga ko'maklashish;
- sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishida ishning haqiqiy holatini ochishga yordam berish;
- sud hujjatlari ijrosini ta'minlashda ishtirok etish.

## **2-§. Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning sudda ishtirok etish shakllari**

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda ishtirok etuvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning **sudda ishtirok etish shakllari:**

- ariza (da'vo ariza) bilan sudga murojaat qilishi;
- ish yuzasidan xulosalar berish uchun sud tomonidan sud protsessida ishtirok etishga jalb qilinishi;
- ish yuzasidan xulosalar berish uchun o'z tashabbusi bilan protsessga kirishishi;
- yuqori sudlov instansiyalariga shikoyat berish orqali murojaat qilishi;
- yuqori sudlov instansiyalarida taraflarning shikoyati yoki prokuror protestiga asosan yuritilayotgan sud jarayonida xulosa berishi;
- sud hujjatlarini ijro etishda ishtirok etishi va boshq.

Oila kodeksining 11-moddasida oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha va Oila kodeksida nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida «Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

### *Masalan*

*O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 88-moddasida sudda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rishda vasiylik va homiylik organining ishtiroki shartligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra sud tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolar ko'rilayotganda,*

*bolaning himoyasi uchun kim da'vo taqdim qilganligidan qat'i nazar, ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi kerakligi belgilangan.*

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning (jumladan xalq ta'limi, bolalar muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshq.) **sudda ishtirok etish shakllari:**

**birinchidan, da'vo arizasi (ariza) bilan sudga murojaat qilish** (voyaga yetmagan bolalarga aliment undirish, aliment miqdorini o'zgartirish, bolaga qo'shimcha xarajatlar undirib berish, voyaga yetmagan bolaga tegishli uy-joyga nisbatan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqini cheklash, farzandlikka olishni bekor qilish va boshq);

**ikkinchidan, sudga xulosa berish** (alohida yashayotgan ota-onalar o'rtasida bolaning yashash joyini aniqlash, boladan alohida yashayotgan ota-onalarning ota-onalik huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, bolalar bilan bobo, buvi va boshqa qarindoshlarning uchrashishini ta'minlash, bolani qonunsiz ushlab turganlardan qaytarish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqini tiklash, cheklash, cheklashni bekor qilish, farzandlikka olish, farzandlikka olishni bekor qilish va boshq);

**uchinchidan, sud qarorlarini ijro etishdagi ishtiroki** (bola bilan uchrashuvni tashkil qilish, bolani qonunsiz ushlab turganlardan qaytarish, ota-onalik huquqini cheklanganda bolani olish, voyaga yetmagan bolaga tegishli uy-joydan qonunsiz egallovchilarni ko'chirish; soxta undirilgan aliment pullarini bolalar uyiga qaytarish va boshq).

### *Masalan*

*Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha Yunusobod tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan sudga taqdim etilgan xulosada xalq*



*ta'limi bo'limi vakillari tomonidan er-xotin B.B.lar, ularning bolalari, qo'shnilari va qarindoshlari bilan suhbat o'tkazilganligi, ushbu oila mahallada notinch oila sifatida ro'yxatda turganligi, ularning qonuniy nikohlaridan bir nafar farzandlari borligi, ikki xonali uyda er-xotin va bolasi yashayotganligi, bola maktab yoshiga yetgan bo'lishiga qaramay, haligacha o'qimayotganligi, ota-onalar muntazam ravishda spirtli ichimliklar iste'mol qilishi, bola har kuni qarovsiz qolib, ko'chada daydib yurishi, uylarida yashash sharoiti yomon ahvoldaligi, yotishga va dars qilishga sharoit yo'qligi aniqlangan.*

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha vasiylik va homiylik organlariga Oila kodeksining 83-moddasiga ko'ra da'vo qo'zg'atish huquqi va ishda ishtirok etish majburiyati yuklatilgan, shunga ko'ra da'vo arizada ko'rsatilgan nizo yuzasidan sudga taqdim etiladigan xulosada ota-onalik huquqini cheklashga olib kelgan sabablar o'rganilib, ish bo'yicha tekshirilgan holatlar ko'rsatilishi shart.

### *Masalan*

*Sud majlisida so'ralgan vasiylik va homiylik organi vakili N.Q. javobgar R.R. umuman bola tarbiyasi bilan shug'ullanmasligini, o'zi ijarada yashab, oshxonada ishlayotganligini, sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilib, amnistiya tufayli jazoni o'tashdan ozod etilganligini, u ishdaligida farzandi qarovsiz qolib ketayotganligini, bolalar uyidan farzandini qaytarib olganligini, ba'zi ruhiy xatti-harakatlari bilan bolaga xavf solayotganligini, shu sababli da'voni asosli deb topib, uni qanoatlantirishni so'ragan va o'zining yozma ravishda tayyorlangan xulosasini sudga taqdim etgan.*

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va boshqa organlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taqdim etiladigan **xulosasiga qo'yiladigan talablar:**

- xizmat vakolatlari doirasida tayyorlangan;
- qonunga muvofiq tuzilgan va rasmiylashtirilgan;
- har taraflama tekshirilgan, ishonchli dalillar bilan isbotlangan;
- moddiy va protsessual qonun normalari bilan asoslantirilgan;
- nizoni hal qilishda adolatli ahamiyatga ega bo'lishi shart.

### *Masalan*

*Vasiylik va homiylik organi xulosasida oiladagi muhit, oilaning mahallada notinch oilalar ro'yxatida turish-turmasligi, bolalarning yashash sharoiti, xonalarning sanitariya-gigiyenik holati, bolalarning ta'minot darajasi, ota-onalarning ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish darajasi, ota-onalarning bola(lar) ga munosabati, ular haqidagi bolalarning fikri va boshqa ma'lumotlar o'z ifodasini topishi zarur.*

Tahlillarga ko'ra, davlat boshqaruv organi xulosasi ish yuzasidan yozma dalil sifatida ham e'tirof etiladi. Chunki davlat boshqaruv organlari va tashkilotlarning xizmat vakolatiga ko'ra amalga oshirgan tekshiruvlari, kuzatishlari, olib borgan tadbirlari, qilingan suhbatlari, olingan tushuntirishlari, o'rganilgan hujjatlari natijasida asosli va ishonchli, har tomonlama tekshirilgan xulosa vujudga keladi. Aynan shu ma'noda davlat boshqaruv organi, tashkilotlar vakillarining suddagi protsessual maqomi turlicha ko'rinishda vujudga keladi:

- **Da'vogar**
- **Arizachi**
- **Manfaatdor shaxs**
- **Uchinchi shaxs**
- **Mutaxassis**

Davlat boshqaruv organi, tashkilotlar va ayrim fuqarolar nafaqat da'vo tartibida yuritiladigan ishlarni ko'rishda, balki alohida tartibda ishlarni ko'rishda ham faol ishtirok etadi.

*Tumanlararo sudda arizachilar Mamasobirov Muxammadjon Ma'murjon o'g'li va Mamasobirova Mastura Muzaffar qizining bolani farzandlikka olish haqidagi arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi ko'rib chiqilib, sudga jalb etilgan Bektemir tumani Vasiylik va homiylik organi vakili, arizachilarning shaxsini, oilaviy va moddiy ahvolini, turar-joy sharoitini o'rganib chiqqanligini, uy sanitariya-gigiyena talablariga javob berishini, bolaning ulg'ayishi uchun uyda barcha sharoitlar yaratilganligini bildirib, suddan arizani qonuniy hal qilishni so'ragan.*

### **3-§. Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquq va majburiyatlari**

Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquq va majburiyatlari doirasi ularning suddagi ishtiroki shakli bilan bog'liq. Masalan, ish qo'zg'atish jarayonidagi ishtiroki, ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonidagi harakatlari yoki boshlangan protsessda ishtirok etishi (xulosa berishi) **o'ziga xos xususiyatlarga ega.**

- Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi (**FPKning 39-moddasi**);

- Ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida **umumiy protsessual huquq va majburiyatlarga ega (FPKning 40-moddasi)**;

- Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan

davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar **maxsus protsessual huquqiy maqom va sudda ishtirok etish shakliga ega (FPKning 52-moddasi);**

• Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar **maxsus protsessual huquq va majburiyatlarga ega (FPKning 53-moddasi);**

### **Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxalar ko'chirish, rad etish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish), sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi toonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo'lish va o'z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadi.


### ***O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 40-moddasi***

### **Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessual huquq va majburiyatlari**

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar FPKning 40-moddasida nazarda tutilgan protsessual huquqlardan foydalanadi, shuningdek boshqa shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun arz qilingan talablarni to'liq yoki qisman qo'llab-

quvvatlash, ulardan voz kechish, o'zlari arz qilgan talablar bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega. Mazkur organlar, tashkilotlar va fuqarolarning boshqa shaxsning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga bergan arizasidan voz kechishi ushbu shaxsni ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi.

### ***O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 53-moddasi***



Ularning **protsessual da'vogar sifatidagi** ishtirok etish belgilari:

Moddiy-huquqiy manfaatning bo'lmasligi; davlat boji to'lashdan ozod etilishi va sud xarajatlari to'lamasligi; ularga nisbatan qarshi da'vo qo'zg'atilmasligi (Treushnikov 159)

### **Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishda ishtirok etishga bo'lgan huquq**

Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari aholi bandligini ta'minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega. Kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da'vo arizasi, shuningdek, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli.

***O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi Qonuni 27-moddasi***

**Palataning huquqlari**

Palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab sudlarga davlat boji to'lamasdan da'volar taqdim etish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishda tadbirkorlik subyektlarining jamoatchilik himoyachilari sifatida ishtirok etish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinganda tadbirkorlik subyekti nomidan sud muhokamasining istalgan bosqichida ishtirok etish (ikkala taraf Palata a'zolari bo'lgan hollar bundan mustasno), shuningdek da'vo arizalari bilan bir qatorda apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlari, arizalar, shu jumladan nazorat tartibida protest keltirish haqida iltimosnomalar berish.

***O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi Qonuni 21-moddasi.***

**Vasiylar va homiylarning majburiyatlari**

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan belgilangan tartibda ariza bilan sudga murojaat qiladi, mazkur masalalar yuzasidan ishlarni sud majlislarida ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

***O'zbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Qonuni 32-moddasi***

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlarining ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar (prokuror, uchinchi shaxslar, ekspert, mutaxassis, vakil va protsessning boshqa ishtirokchilari) dan farqli hamda o'xshash jihatlarini tahlil qiling.*

2. *Boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan «Ayrim fuqarolar» tushunchasini izohlang.*

3. *Davlat boshqaruvi organlarining xulosasiga qo'yilgan talablar haqida tushuntirish bering.*

4. *Davlat boshqaruvi organlari qaysi holatlarda uchinchi shaxs sifatida sudga qatnashadi?*

5. *Davlat boshqaruv organi xulosasi yozma dalil toifasiga kirishi-kirmasligi haqida fikr bildiring.*

## 11-mavzu: FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR

**Annotatsiya:** mazkur bobda isbotlash tushunchasi, maqsadi va vazifalari, isbotlash vositalari, isbotlash subyektlari, dalillar, dalillarni ta'minlash, sud topshiriqlari, dalillarni baholashga oid fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** isbotlash, isbotlash vositalari, dalillar, dalillarga qo'yilgan talablar, dalillarni ta'minlash, sud topshiriqlari, sudyaning ichki ishonchi, dalillarni baholash.

### 1-§. Isbotlash tushunchasi, maqsadi va vazifalari

Fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilishda **isbotlash instituti** muhim ahamiyatga ega. Isbotlash bu faoliyat, jarayon, harakat demakdir. Isbotlash jarayoni isbotlash vositalari orqali amalga oshiriladi. Isbotlash tufayli dalillar yuzaga chiqadi (vujudga keladi) va asoslantiriladi.

**Isbotlash** – sudlarda qonunda ko'rsatilgan subyektlar tomonidan qonunda ko'rsatilgan tartibda muayyan fuqarolik ishini hal qilish uchun isbotlashga oid protsessual harakatlarni amalga oshirish va ishning haqiqiy holatini ochishga qaratilgan mantiqiy, huquqiy va protsessual faoliyat.

**Isbotlashning maqsadi** – haqiqiy holatni ochish, haqiqatni aniqlash va ishga tegishli ma'lumotlarni asoslantirishga qaratilgan.

**Isbotlash elementlari** – isbotlash tushunchasi, predmeti, doirasi, usullari, subyektlari, obykti va mazmunidan iborat. Isbotlash elementlari isbotlashning muhim atributlari ham deyish o'rinli.

Fuqarolik ishlari bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari chiqarishning yagona yo'li bu – ish bo'yicha isbotlash jarayonining to'liq va aniq o'tkazilganligi bilan bog'liq. Bu esa bevosita **Fuqarolik protsessual kodeksining 15-moddasida** ko'rsatilgan ishning haqiqiy holatini ochishga hamda ishga oid dalillarni har taraflama, to'liq va xolisona aniqlashga yordam beradi.



Agar ishni ko'rish jarayonida isbotlash harakatlari to'liq o'tkazilmasa, ishga oid dalillar yetarli bo'lmasa, keyinchalik bunday sud qarorlari yuqori instansiya sudlari tomonidan berilgan shikoyat va protestlarga asosan qayta ko'rib, Fuqarolik protsessual kodeksining 312-moddasiga binoan, «ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi» yoki «sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi» kabi asoslarga muvofiq bekor qilinishi mumkin. Isbotlash va dalillarning maqsadi ishning haqiqiy holatini ochish; ishni har taraflama to'liq va xolisona ko'rish; ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari chiqarishga erishish; shaxslar (yuridik va jismoniy)ning sudga murojaat qilish maqsadlari va talablarini adolatli hal qilish choralarini ko'rishga qaratilgan. Ma'lumki, isbotlash jarayoni dalillar orqali amalga oshiriladi. Isbotlash va dalillarning maqsadi uning vazifalarini belgilaydi. Ushbu vazifalar esa bevosita fuqarolik sudlari oldiga qo'yilgan vazifalar bilan chambarchas bog'liq. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning vazifasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni hamda Fuqarolik protsessual kodeksining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, sudga berilgan ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida, to'g'ri ko'rish va hal qilishdan iborat. Mazkur tushunchalar isbotlash va dalillarning umumiy vazifalarini belgilasa, uning maxsus vazifalari esa, isbotlash predmetini to'g'ri belgilash; ishga oid dalillarni sudga jalb qilish borasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlarini aniqlash va tushuntirish; dalillarni to'plash, o'rganish va baholash harakatlarini qonunda belgilangan tartibda o'tkazish; isbotlash jarayonida qonunda ko'rsatilgan protsessual huquq normalariga rioya qilishni ta'minlash va h.k.larni nazarda tutadi.

**Isbotlash subyektlari** – ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar sifatida e'tirof etiladi. Sud va sud majlisi kotibi isbotlash faoliyatini olib borishda isbotlash subyektlariga ko'maklashadi. Sudga oid isbotlash – sud va boshqa protsess

ishtirokchilarining dalillarni aniqlashga doir faoliyatiga aytiladi. Ushbu faoliyat qonunda belgilangan shaklda va usulda, belgilangan protsessual tartibga rioya qilgan holda dalillarni taqdim qilish, yig'ish, tekshirish va baholashga oid protsessual faoliyatiga aytiladi. **Dalillarni yig'ish** – sudning protsessual faoliyati. **Isbotlash predmeti** – sud va protsess ishtirokchilari tomonidan aniqlanadigan faktlar, isbottalab holatlar, muammoli vaziyatlar, nizoni vujudga keltirishga sabab bo'lgan holatlar, isbotlanishi shart bo'lgan, isbotlashga muhtoj dalillar tushuniladi. Ish bo'yicha nima (qaysi holat) isbotlanadigan bo'lsa, shu isbotlash predmeti sanaladi. Ammo isbotlash predmeti ish uchun muhim ahamiyatli, isbotlashga muhtoj, nizoni hal qilishga qodir bo'lgan institut bo'lishi lozim. **Isbotlash predmeti** – o'rganilishi va isbotlanishi shart bo'lgan dalillar yig'indisi.

### *Masalan*

*Otalikni belgilash haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha sud Oila kodeksining 62-moddasida ko'rsatilgan dalillarni, xususan otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi.*

**Isbotlash doirasi** – isbotlash predmetini aniqlash uchun, ishga tegishli bo'lgan ma'lumotlar, holatlar va faktlarni isbotlash uchun zarur bo'ladigan dalillar yig'indisi (majmui) tushuniladi.

### *Masalan*

*Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin toulasa; uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona*

*yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa; muttasil ichkilikbozlik yoki giyovandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.*

**Isbotlash vositalari** – ishga oid holatlarni ochish, o'rganish, tekshirish, tahlil qilish va baholashga oid harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan isbotlash vositalari (texnikasi va usullari).

## **2-§. Dalillar va ularga qo'yilgan talablar**

**FPKning 71-moddasida ko'rsatilganidek**, tarflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalillardir.

### **Dalillarga qo'yilgan talablar:**


- ✓ Dalil o'zida ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holat (vaziyat, fakt va boshq) ni o'zida ifodalagan bo'lishi shart;
- ✓ Dalil qonunda belgilangan tartibda olingan bo'lishi kerak;
- ✓ Dalil yetarli darajada to'plangan bo'lishi zarur;
- ✓ Dalil har tomonlama ishonchli va maqbul bo'lishi lozim;
- ✓ Dalil ishga aloqador va tegishli manbalardan olingan bo'lishi kerak;
- ✓ Dalil qonunda belgilangan usullar yordamida o'rganilgan, tahlil qilingan, qiyoslangan, tasdiqlangan va baholangan bo'lishi lozim.

### 3-§. Isbotlash vositalari

Isbotlash faoliyati isbotlash vositalari orqali amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi.

**Isbotlash vositalari** – ishga oid holatlarni ochish, o'rganish, tekshirish, tahlil qilish va baholashga oid harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan isbotlash vositalari (texnikasi va usullari).

**FPKning 71-moddasida** isbotlash vositalari berilgan bo'lib, unga ko'ra, taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalillardir. Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar, ya'ni: taraflarning va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarining maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanadi.



**Taraflarning tushuntirishlari** – ikki turi mavjud: tasdiqlash va tan olish.

**Tasdiqlash** – taraflarning o‘zi tomonidan keltirilgan dalillarni (holatlarni), talab yoki e’tirozlarni tasdiqlash haqidagi tushuntirishlar;


**Tan olish** – boshqa shaxslar tomonidan keltirilgan dalillarni (holatlarni) tan olish haqidagi tushuntirishlar;

Tan olish (sudga qadar, suddan tashqari, sudda) turli shakllarda ifodalanib, sud majlisida asosan ishda ishtirok etuvchi shaxslar, xususan taraflar (uchinchi shaxslar) tomonidan amalga oshiriladigan harakat sanaladi.


**Tan olingan fakt**– boshqa shaxslarni (boshqa faktlarni) isbotlash majburiyatidan ozod qiladi.

#### 4-§. Dalillarni ta’minlash

**Dalillarni ta’minlash** – o‘zlari uchun zarur bo‘lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo‘lmay qoladi yoki qiyinlashadi, deyishga asosi bo‘lgan shaxslar ariza berishidan oldin ham yoki keyin ham suddan bu dalillarni ta’minlashni iltimos qilishi mumkin. Dalillarni ta’minlash sud yoki notariuslar tomonidan amalga oshiriladi. Chet davlatlar organlarida ish yuritish uchun zarur bo‘lgan dalillarni ta’minlash qonunda belgilangan tartibda notariuslar tomonidan amalga oshiriladi.



Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudgacha bo‘lgan jarayonda notarial tartibda dalillarni ta’minlash choralarini ko‘rishga haqli.



**Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza dalillarni ta'minlash bilan bog'liq protsessual harakatlar amalga oshirilishi kerak bo'lgan hududda faoliyat olib borayotgan sudga beriladi.**

**Arizada:**

- ta'minlanishi zarur bo'lgan dalillar
- bu dalillar bilan tasdiqlanishi zarur bo'lgan holatlar
- dalillarni ta'minlash to'g'risida

arizachini iltimosnoma bilan murojaat qilishga undagan sabablar

- shuningdek ta'minlanadigan dalillar zarur bo'lgan yoki ular keyinchalik asqatishi mumkin bo'lgan ish ko'rsatilishi kerak.



**Dalillarni ta'minlash tartibi.** Dalillarni ta'minlash protsessual tartibga binoan dalillarni to'plash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan amalga oshiriladi. Arizachi va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar dalillarni

ta'minlash vaqti va joyi haqida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Ammo ayrim holatlarda (kechiktirish, nizoli vaziyatlar (nizolashuvchi subyektlar masalasi) ga oydinlik kiritish maqsadida) dalillarni ta'minlash faqat arizachining o'zini xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dalillarni ta'minlash tartibida to'plangan barcha materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga yuboriladi yoki arizachiga beriladi.

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas. Dalillarni ta'minlashni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Dalillarni ta'minlash tartibida to'plangan barcha materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga yuboriladi yoki arizachiga beriladi.

### *Masalan*

*FIB Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudida yetkazilgan zararni undirish haqidagi da'vo talabi yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishi bo'yicha xorijiy davlatga o'qishga ketayotgan fuqaro A.Sh.ning guvohlik ko'rsatuvlarini oldindan olish, ta'minlab qo'yish maqsadida da'vogar shu sudga dalillarni ta'minlash haqidagi ariza bilan murojaat qiladi va sudyaning dalilni ta'minlash haqidagi ajrimi asosida A.Sh.ning ko'rsatuvlari olinib, protsessual rasmiylashtiriladi.*

## **5-§. Sud topshiriqlari**

**Sud topshiriqlari** – dalillarni sudga jalb qilish, isbotlash faoliyatini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, tezkorlikni oshirish, ishning haqiqiy holatini ochishga qaratilgan protsessual harakat va protsessual faoliyat ko'rinishi.

Ishni ko'rayotgan sud dalillarni boshqa tumanda yoki shaharda to'plash zarur bo'lgan taqdirda, tegishli sudga

muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirishni topshiradi.

Sud topshirig'i ajrim bilan rasmiylashtirilib, unda ko'rib chiqilayotgan ishning mohiyati, aniqlanishi zarur bo'lgan holatlar, topshiriqni bajaradigan sud to'plashi lozim bo'lgan dalillar ko'rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yo'llangan bo'lsa, o'sha sud uchun majburiy bo'lib, o'n besh kunlik muddat ichida bajarilishi kerak.

Sud topshirig'i axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

**Sud topshirig'ini bajarish tartibi.** Sud topshirig'ini bajarish Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan qoidalarga ko'ra sud majlisida amalga oshiriladi. Ishda ishtirok etayotgan shaxslar majlisning vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi topshiriqni bajarishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud topshirig'i tartibida taraflarning va uchinchi shaxslarning yoxud ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish hamda tekshirish orqali aniqlanadigan faktik ma'lumotlar to'planishi mumkin.

Bayonnomalar va sud topshirig'ini bajarishda to'plangan materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga darhol yuboriladi.

Agar sud topshirig'ini bajarayotgan sudga tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar bergan ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki guvohlar ishni ko'rib chiqayotgan sudga kelsa, ular umumiy tartibda tushuntirishlar yoxud ko'rsatuvlar beradi.

### *Masalan*

*Meros bo'yicha vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha FIB Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi tomonidan FIB Andijon viloyat Andijon tumanlararo sudiga shu tumandagi «Eski Chorsu» MFY hududida yashovchi meros qoldiruvchining yaqin qarindoshlarining ko'rsatuvlarini olish maqsadida sud topshirig'i yuboradi.*



## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Sudyaning ichki ishonchi bo'yicha baholash mazmunini tushuntiring.*
- 2. Nizo vujudga kelgan, da'vogar sudga dalil taqdim eta olmayapti? Munosabat bildiring.*
- 3. Mutaxassisning maslahati (tushuntirishi), ushbu ikki tushunchani izohlang.*
- 4. Qaysi holatlarda yozma dalillarning aslini taqdim etishga (sud talab etishga) zarurat tug'iladi?*
- 5. Sudning ajrimiga muvofiq, ashyoviy dalillarni saqlash jarayonida ularga zarar yetkazilsa, oqibatlar uchun javobgarlik masalasini tahlil qiling?*

**Annotatsiya:** mazkur bobda da'vo tartibida yuritiladigan ishlar, xususan da'vo tushunchasi va elementlari, da'vo talablarini birlashtirish va ajratish, javobgar manfaatlarini himoya qilish vositalari, da'voni ta'minlash asoslari va tartibi haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** da'vo, da'vo predmeti, da'vo asosi, talablarni birlashtirish va ajratish, e'tiroz, qarshi da'vo, da'voni ta'minlash.

### **1-§. Sudda da'vo tartibida ko'riladigan ishlar**

Hozirgi vaqtda vujudga kelayotgan nizolarning aksariyati taalluqlilik va sudlovlilik qoidalariga binoan fuqarolik, iqtisodiy, hakamlik sudlarida ko'rib hal qilinmoqda. Shuningdek, nizolarni mediatsiya protsedurasi orqali hal qilish amaliyoti shakllanmoqda. Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolar bilan fuqarolar, fuqarolar bilan yuridik shaxslar o'rtasidagi nizoli masalalarni hal qilish fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar vakolatiga tegishli. Bu borada Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasida, jumladan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga quyidagi ishlar taalluqlidir: fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasnoligi ko'rsatilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasiga ko'ra, da'vo tartibidagi ishlarni ko'rish fuqarolik sud ishlarini yuritishning muhim va asosiy turlaridan biri sanaladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 2-kichik bo'limi 19-bobi da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, uning 182-moddasiga ko'ra, sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlarga, agar qonun hujjatlarida ularni ko'rishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolik, mehnat, oilaviy, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da'volar bo'yicha ishlar kiradi.

### **Da'vo tartibida yuritiladigan ishlarning o'ziga xos moddiy va protsessual xususiyatlari mavjud:**

- bunday toifadagi nizolar asosan moddiy huquq normalari (fuqarolik, oila, uy-joy, mehnat, yer va boshqa munosabatlar) ning buzilishi oqibatida vujudga kelishi;
- bunday toifadagi ishlar bo'yicha umumiy va maxsus subyektlarning sudga murojaat qilishi (tegishli Kodekslarda belgilangan) asosida ish qo'zg'atilishi;
- huquqni himoya qilish vositasi sifatida da'vo muddatlari hamda protsessual muddatlar (sudga murojaat qilish muddatlari) belgilanadi;
- nizolashuvchi subyektlar (da'vogar, javobgar, uchinchi shaxslar, sherik ishtirokchilar va boshq.) va tegishli nizoli talabning mavjudligi;
- sudga murojaat qilish tegishli tartibda rasmiylashtirilgan da'vo arizasi asosida amalga oshirilishi va ish qo'zg'atishga asos bo'lishi;
- bunday toifadagi ishlar tarkibida da'vo elementlari va da'vo turlarining mavjudligi;
- bunday toifadagi ishlar bo'yicha da'voga bo'lgan huquq va da'vo qo'zg'atish huquqining mavjudligi;
- bunday toifadagi ishlar bo'yicha da'voga qarshi e'tiroz bildirish va qarshi da'vo berish vositalarining mavjudligi;
- bunday toifadagi ishlar bo'yicha yarashtiruv tartib-taomillarining qo'llanilishi;
- da'voni birlashtirish va ajratish tartib-taomillari mavjudligi;
- bunday toifadagi ishlar bo'yicha da'voni ta'minlash choralarining belgilanganligi va boshqalar bilan ahamiyatlidir.

Da'voli ishlar asosan moddiy huquq normalari (fuqarolik, oila, uy-joy, mehnat va boshqa normalar)ning buzilishi oqibatida vujudga kelib, bunday toifadagi ishlar bo'yicha umumiy va maxsus subyektlarning sudga murojaat qilishi asosida ish qo'zg'atiladi.


**Sudga murojaat qiluvchi umumiy subyektlar deganda** FPKning 50; 52-moddalarda nazarda tutilgan shaxslar (boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilayotgan) prokuror; davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar) tushunilsa, maxsus subyektlarning sud va boshqa organlarga murojaat qilishga vakolatligi haqida nizo vujudga kelgan munosabatni tartibga soluvchi moddiy qonun (masalan, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi va boshq.)ning tegishli normalarida ko'rsatilgan bo'ladi. Jumladan, Oila kodeksining 61, 62-moddalarida bolaning nasl-nasabini belgilash, Oila kodeksining 80, 82, 83-moddalarida ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ushbu huquqni cheklash, tiklashga oid nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish vakolatiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar haqida ko'rsatilgan. Ayrim nizolar bo'yicha sudga murojaat qilishda prokuror hamda davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarni «protsessual ma'nodagi da'vogarlar» sifatida ham umumiy, ham maxsus subyektlar toifasida qonun hujjatlarida bevosita ko'rsatilgan.

## **2-§. Da'vo tushunchasi, elementlari va turlari**

Da'vo tushunchasini ochib berish uchun da'vo mazmuni haqida bilish lozim. Da'vo elementlari da'vo mazmunini belgilaydi. Da'vo elementlari da'vo predmeti va da'vo asosidan iborat. Da'vo – buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqni himoya qilish vositasi, sud va boshqa organlarga murojaat qilish shakli sanaladi, ammo fuqarolik protsessual huquqining taalluqlilik instituti ushbu da'vo bilan qaysi idoralarga murojaat qilish mumkinligini ajratib beradi. **Da'vo predmeti** – bu da'vo talabi, sudga murojaat qilishga undagan talab, sud orqali himoya qilishga muhtoj bo'lgan murojaat sanaladi. Masalan,

undirish, qoplash, tiklash, huquqni belgilash, bekor qilish, tan olish va boshq. **Da'vo asosi** – da'vo predmetini, huquqni kimga tegishli ekanligini yoki uning aksincha ekanligini belgilovchi dalil, isbotlash shakli yoki vositasi sanaladi.

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi va amaliyotida undirish va tan olish haqidagi da'volar uchraydi.



### *Masalan*

*Undirish haqidagi da'vo ishlarida da'vo talabi undirishga qaratilgan, Majburiy ijro byurosida ixtiyoriy va majburiy ijroni talab etadigan da'vo turi sanaladi. Tan olish to'g'risidagi da'volarda undiruvni talab etmaydi, ammo tegishli organlarda hokimiyat, FHDYO kabi tegishli idoralarda sudning hal qiluv qarorida ko'rsatilgan holat qayd etilishi yoki ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladi. Biroq hal qiluv qarorini ijrosi yuzasidan nizo kelib chiqqan holatlarda bunday sud qarorlari ham majburiy ijro etilishi mumkin.*

Qator yuridik adabiyotlarda huquqni hosil qilish (to'xtatish va tugatish) haqidagi da'vo turi ham uchraydi va aynan ushbu tasnif ijro etilish xususiyatiga qarab emas, balki huquqni vujudga keltirish yoki tugatish xususiyatiga ko'ra belgilangan.

*Asarning muallifi deb topish, farzandlikka olish, otalikni belgilash yangi huquqni vujudga keltirsa, vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish, uy-joydan ko'chirish, farzandlikka olishni bekor qilish kabi fuqarolik ishlari huquqni tugatuvchi xususiyatga ega.*

### **3-§. Da'vo talablarini birlashtirish va ajratish**

Fuqarolik sudlov ishlarini yuritish nazariyasi va amaliyotida da'vo talablarini birlashtirish va ajratishga yo'l qo'yiladi. Bunda da'vogar bir arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talabni birlashtirishga haqli yoki sudya tomonidan hal qilinishga molik.

**ESDA TUTING!**

**Bir necha talabni birlashtirish uchun quyidagi asoslar kerak:**

- talablar bir xil moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqishi zarur;
- talablar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak;
- taraflarning bir xilligi e'tiborga olinishi zarur;
- ayni bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir nechta ish mavjud bo'lsa;
- bir shaxsning turli javobgarlarga nisbatan arizalari bo'yicha bir nechta ish mavjud bo'lsa;
- bir nechta da'vogarning ayni bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir nechta ish mavjud bo'lsa.

Ushbu protsessual harakatlar ariza berish vaqtida da'vogar tomonidan e'tiborga olingan holda amalga oshiriladi. Masalan, nikohdan ajratish, mol-mulkni bo'lish, bolani kimda qoldirish, aliment undirish haqidagi talablar bir da'vo arizada birlashtirilgan holda berilishi mumkin.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida sudya boshqa protsessual harakatlar bilan birgalikda da'vogardan da'volarni

ajratish (FPK 198-moddasi) yoxud ularni birlashtirish va birgalikda ko'rish (FPK 196, 197-moddalari) maqsadida shu yoki boshqa javobgarga nisbatan bir-biri bilan bog'liq boshqa talablari bor-yo'qligini aniqlashi lozimligi belgilangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 197-moddasida sudyaning bir turdagi ishlarni birlashtirish huquqi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra sudya mazkur sudning ish yuritishida ayni bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir nechta ish yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir nechta da'vogarning ayni bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir nechta ish mavjudligini aniqlasa, bu ishlarni birgalikda ko'rish uchun bitta ish yuritishga birlashtirishga, agar bunday birlashtirish ishning o'z vaqtida va to'g'ri hal qilinishiga olib kelsa, haqli. Ishlarni birlashtirish to'g'risida ajrim chiqariladi. Birlashtirilgan ishlarni ko'rish muddati keyinroq qo'zg'atilgan ish bo'yicha belgilanadi.

**Bir turdagi ishlarni birlashtirish:**

- ✓ sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vaqtini tejaydi;
  - ✓ ishning haqiqiy holatini ochishga xizmat qiladi;
  - ✓ ortiqcha sud xarajatlari to'lash (undirish)ni oldini oladi;
- ishlarni o'z vaqtida, to'g'ri va har tomonlama ko'rilishini ta'minlaydi.

Agar sudda aynan bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdagi bir necha ish yuritilayotgan yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir necha da'vogarning aynan bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir necha ish yuritilayotgan bo'lsa, sudya o'z ajrimi bilan bir turdagi ishlarni birlashtirishi mumkin.

***Masalan***

*Da'vogar Sobirov Mirza Tursunovich javobgar Najimova Go'zal Xolovnaga nisbatan mol-mulkni taqsimlash*



haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Ishni sud majlisida ko'rish jarayonida Sobirov Mirza Tursunovich javobgar Najimova Go'zal Xolovnaga nisbatan uy-joylar, avtomashinani bo'lish haqidagi qo'shimcha da'vo ariza bilan murojaat etgan. Ishni sud majlisida ko'rish jarayonida Najimova Go'zal Xolovna mazkur fuqarolik ishini da'vogar Najimova Gulnor Xolovnaning javobgarlar Najimova Go'zal Xolovna, Sobirov Mirza Tursunovich, Galimov Yuriy Nikolayevich va Toshkent shahar notariusi A. Abishovaga nisbatan uy-joyni oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish va uy-joyga nisbatan egalik huquqini belgilash haqidagi da'vo arizasi yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishi bilan birlashtirib ko'rishni so'ragan.

Bunday holatda sud, qayd etilgan fuqarolik ishi bo'yicha bir taraflar ishtirok etayotganligini, taraflar bir xonadon bo'yicha nizolashayotganligini inobatga olib, yuqoridagi qonun talablaridan kelib chiqib, mazkur fuqarolik ishlarini o'z vaqtida va to'g'ri hal qilish maqsadida birlashtirishni lozim topadi.

Yuqoridagilarga asosan hamda protsessual qonun normalariga ko'ra sud da'vogar Najimova Go'zal Xolovnaning iltimosnomasi qanoatlantirilishi, da'vogar Sobirov Mirza Tursunovichning javobgar Najimova Go'zal Xolovnaga nisbatan mol-mulkni taqsimlash haqidagi 1-2985/10-sonli hamda da'vogar Najimova Gulnor Xolovnaning javobgarlar Najimova Go'zal Xolovna, Sobirov Mirza Tursunovich, Galimov Yuriy Nikolayevich va Toshkent shahar notariusi A. Abishovaga nisbatan uy-joyni oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish va uy-joyga nisbatan egalik huquqini belgilash haqidagi 1-5546/10-sonli fuqarolik ishlari bir ish yurituva birlashtirilib, birgalikda mazmunan ko'rilishi haqida ajrim qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni hal qilishda

sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi Qarorida voyaga yetmaganing manfaatlarini nazarga olib, manfaatdor shaxslarning javobgarining jamiyatda yashash qoidalarini muttasil ravishda buzib kelayotganligi va u bilan birgalikda yashash imkoniyati yo'qligi sababli turar joyidan ko'chirish to'g'risidagi da'vosini ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi da'vo bilan birgalikda ko'rishga haqli (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 81-moddasi). Bunday talab keyinchalik mustaqil da'vo qo'zg'atish yo'li bilan ham taqdim etilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 81-moddasiga muvofiq, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarini ta'minlash majburiyatidan ozod qilmaydi. Shu sababli sud javobgarni ota-onalik huquqidan mahrum qilishda, ota-onadan aliment undirish to'g'risidagi masalani, bunday da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar, birgalikda hal etishi shart.

## ESDA TUTING!

Da'vogar tomonidan bitta arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta talab birlashtirilgan va ulardan bittasi uchun qonunda ko'rish va hal qilishning qisqartirilgan, boshqalari uchun esa, umumiy muddati belgilangan bo'lsa, ish umumiy muddatda ko'rilishi va hal qilinishi lozim. Bitta ish yuritishga birlashtirilgan ishlarni ko'rish va hal qilish muddati keyin qo'zg'atilgan ish bo'yicha belgilanadi. Talablarning bir qismi alohida ish yuritishga ajratilganda, ajratilgan talab bo'yicha ishni ko'rish va hal qilish muddati talabni ajratish to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

**Bir necha talabni ajratish.** Agar arizani qabul qilayotgan sudya talablarni alohida ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, birlashtirilgan talablardan birini yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

Bir necha da'vogar tomonidan yoki bir necha javobgarga nisbatan talablar taqdim etilsa, arizani qabul qilayotgan sudya, agar talablarni alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topsa, ulardan biri yoki bir nechtasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

Bir necha talabni ajratish taraflar, uchinchi shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazmasligi shart.

### *Masalan*

*Nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo bilan bir vaqtda er-xotin o'rtasidagi umumiy mulkni bo'lish to'g'risidagi nizoni ko'rishda, sudlar bunday nizo uchinchi shaxslar huquqlariga daxl qilish-qilmasligini aniqlashlari lozim. Er-xotinning mulkni bo'lish haqidagi talabi, agar bu nizoni to'g'ri hal qilish uchun ishga uchinchi shaxsni jalb qilish zarur bo'lsa, nikohni bekor qilish haqidagi ish bilan birga ko'rilishi mumkin emas.*

Agar nizo uchinchi shaxslar huquqlariga daxl qilsa (masalan, mol-mulk dehqon (fermer) xo'jaligi mulki bo'lib, uning tarkibida er-xotin va ularning voyaga yetmagan bolalaridan tashqari boshqa a'zolar ham bo'lsa) sud taraflarga ularning umumiy tartibda alohida da'vo taqdim etish huquqlarini tushuntirishi lozim, chunki qonun (OK 44-moddasi) bunday hollarda nikohdan ajratish va mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablarni bitta ish yurituvda hal etishga yo'l qo'ymaydi. Oila kodeksi 44-moddasida nazarda tutilgan qoida er-xotin tomonidan banklar yoki boshqa kredit-moliya tashkilotlariga qo'yilgan omonatlarni bo'lish hollariga (pul mablag'lari er-xotindan qaysi birining nomiga qo'yilganligidan qat'iy nazar) tatbiq etilmaydi, chunki bunday omonatlarni bo'lishda banklar yoki boshqa kredit tashkilotlari huquqlariga daxl etilmaydi.

Agar er yoki xotinga uchinchi shaxslar pul mablag'lari bergan va uni er yoki xotin o'z nomiga bank yoki boshqa kredit-moliya tashkilotiga qo'ygan bo'lsa, Fuqarolik kodeksi (qisqartma FK) normalariga muvofiq uchinchi shaxslar pul

summasini qaytarish to'g'risida (omonatni bo'lish to'g'risida emas) da'vo qo'zg'atishga haqli bo'lib, u alohida ish yurituvda hal etilishi lozim. Dehqon (fermer) xo'jaligi a'zolarining va boshqa shaxslarning dehqon (fermer) xo'jaligi a'zosi bo'lgan er yoki xotinga nisbatan talablari ham shu tartibda hal etilishi mumkin.

Agar da'vo arizasida nikohdan ajratish ishi bilan bir vaqtda ko'rilishi mumkin bo'lmagan talab qo'yilgan bo'lsa (masalan, nikoh tuzilgunga qadar topilgan mol-mulkni olib berish, uyga kiritish va h.k.), bunday da'vo alohida ish yuritishga ajratiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo rad etilgan taqdirda, mazkur da'vo bilan birga berilgan boshqa talablar sud tomonidan alohida ish yuritishga ajratilishi lozim. Agar da'vogar nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vodan voz kechsa, ishning shu qismi ish yuritishdan tugatilishi, er yoki xotinning mazkur da'vo bilan birga bergan boshqa talablari esa, mazmunan ko'rilishi lozim.

Sudya lozim deb topgan holatlarda ko'rsatilgan talablarni ajratish sudya uchun ham majburiyat, ham huquq sanaladi. Mazkur holatda sudya ishning holati, nizoli (nizosiz) talab kelib chiqqan moddiy-huquqiy munosabat xarakteri, da'vo predmeti, da'vo mazmuni, subyektlar tarkibi hamda talablarni ajratish haqida taraflarning murojaati mavjud-mavjud emasligini e'tiborga oladi.

Bir turdagi ishlarni birlashtirish, bir necha talabni ajratish haqidagi ajrimlar alohida protsessual hujjat ko'rinishida chiqarilishi shart bo'lgan ajrimlar toifasiga kiradi, bunday ajrimlar ustidan sudning hal qiluv qaroridan ajratilgan holda shikoyat va protest berilmasligi belgilangan.

Bir necha da'vogar tomonidan yoki bir necha javobgarga nisbatan talablar taqdim etilsa, arizani qabul qilayotgan sudya, agar talablarni alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topsa, ulardan biri yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli. Bu holatda sudya da'vo talabining mazmuni va ish holatiga e'tibor beradi.

*Nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qilgach, sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlash tartibida barcha tayyorlash harakatlarini amalga oshirar ekan, er-xotin o'rtasida nikohdan ajratish da'vosi bilan bir vaqtda hal qilinishi lozim bo'lgan boshqa nizolar bor-yo'qligini ham tekshirishi shart.*

#### **4-§. Javobgar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalari: e'tiroz va qarshi da'vo**

Fuqarolik protsessual huquqida fuqarolik protsessual huquqiy munosabatning muhim subyektlari bo'lgan da'vogar va javobgarning teng huquqiy maqomga egaligi belgilangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 10-moddasiga binoan fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi. Taraflarning teng huquqliligi prinsipi javobgarning berilgan da'vodan himoyalaniş huquqini kafolatlaydi. Ushbu prinsip sudda ishtirok etayotgan bir necha da'vogarlar va bir necha javobgarlarga nisbatan tatbiq etiladi. Mazkur kafolatlar da'voga qarshi e'tiroz bildirish va qarshi da'vo berish vositalari orqali amalga oshiriladi.

Sud jarayonida da'vogar ham, javobgar ham keltirilgan talablar, taqdim etilgan dalillarga nisbatan moddiy yoki protsessual huquqiy e'tiroz bildirishi mumkin.

Aynan da'voga qarshi himoyalanişning subyekti faqat javobgar va uning vakili bo'la olishi nazarda tutilgan bo'lib, «da'voga qarshi e'tiroz bildirish» tushunchasi mazmunida da'vo talabi, uning hajmi va doirasi, da'vo asosiga nisbatan e'tirozlar mavjud deb baholash mumkin.

Da'voga qarshi e'tiroz bildirish ikki turga, ya'ni moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy e'tirozga ajratiladi. E'tirozning maqsadi – sud tomonidan da'voni to'liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etishga erishishga qaratilgan.

**Moddiy-huquqiy ma'nodagi e'tiroz** – nizoli talab vujudga kelgan moddiy-huquqiy munosabatga tegishli bo'lib, aynan da'vo talablariga qarshi yo'naltirilgan bo'ladi va bunday e'tirozlar moddiy huquq normalariga havola berish orqali asoslantiriladi.

### *Masalan*

*Moddiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator Kodekslardagi normalarga (talabga, da'vo talabiga) nisbatan e'tiroz bildirish, rad etish, qo'shilmaslik harakatlarida ifodalanadi. Da'vo talabiga e'tiroz, da'vo talabi miqdoriga e'tiroz. Shartnomani haqiqiy emas deb topish, bekor qilish yoki muayyan bandlariga o'zgartirish kiritish. Yoxud yetkazilgan zarar miqdorini (bahosini) o'zgartirish kabi e'tirozlar.*

**Protsessual-huquqiy ma'nodagi e'tiroz** – nizoli talabni hal qilishga qaratilgan, protsessual qonun hujjatlarida ko'rsatilgan protsessual harakatlarga nisbatan vujudga kelib, aynan sud jarayonining borishi, amalga oshirilayotgan protsessual harakatlarga qarshi yo'naltirilgan bo'ladi.

### *Masalan*

*Ish yuritishni tugatish asoslari bo'yicha e'tiroz (ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilish to'g'risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa; taraflar o'rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa va boshq.); arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari bo'yicha e'tiroz (manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs bergan bo'lsa; sud ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo*

*yuzasidan ish yuritayotgan bo'lsa va boshq.); da'vo talablarini birlashtirish yoki ajratishga e'tiroz yoki qarama-qarshi taraf iltimosnomalarini rad etish yoki qanoatlantirishga nisbatan e'tiroz va boshq.*

**Fuqarolik protsessual kodeksining 39-moddasiga** ko'ra taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi. Shunga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida **Fuqarolik protsessual kodeksining 40-moddasiga** binoan taraflar boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e'tirozlar bildirish huquqiga egadirlar.

**Fuqarolik protsessual kodeksining 44-moddasiga ko'ra**, taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar. Mazkur qoidaning isboti sifatida dastlabki da'voga nisbatan e'tiroz va qarshi da'vo berish masalalarini ko'rsatish mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 199–200-moddalari qarshi da'vo taqdim etish institutiga bag'ishlangan. Protsessual kodeksda qarshi da'voni taqdim etish hamda qarshi da'voni qabul qilish shartlari ko'rsatilgan. Qarshi da'voning subyekti dastlabki da'voga qarama-qarshi talab qo'yayotgan shaxs sanaladi. Asosan bunday talab bilan javobgar (lar) murojaat qiladi hamda qarshi da'voni taqdim etish huquqi javobgar (lar) ning asosiy dispozitiv huquqlaridan biri sanaladi.

**Qarshi da'vo** – bu mustaqil da'vo sifatida rasmiylashtiriladigan, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida javobgar tomonidan da'vogar boshlagan protsessda dastlabki da'vo bilan birga ko'rib chiqilishi uchun hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar berilgan talab sanaladi.

**Qarshi da'vo berishdan maqsad** – da'vogar tomonidan berilgan dastlabki da'vo talabiga nisbatan himoyalani, ishning haqiqiy holatini ochish, ishni tez va to'g'ri ko'rinishini ta'minlash, ish bo'yicha kam xarajat sarflab, vaqtni tejash,

qarama-qarshi manfaatli hal qiluv qarorlari chiqarishning oldini olishga qaratilgan.

**Qarshi da'vo** – bu shunchaki javobgarning da'vogarga nisbatan beradigan oddiy da'vosi yoki e'tirozi emas, balki da'voga qarshi himoyalalanish vositasidir.

Javobgar da'vogarning talabini to'liq yoki qisman tan olishga, qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Sud tomonidan ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar javobgar dastlabki da'vo bilan birgalikda ko'rib chiqish uchun da'vogarga nisbatan qarshi da'vo taqdim etishga haqli.

Fuqarolik protsessual kodeksining 200-moddasida qarshi da'voni qabul qilish shartlari ko'rsatilgan bo'lib, **sudya quyidagi hollarda qarshi da'voni qabul qilishi shart**, agar:

1) qarshi da'vo dastlabki da'voni qoplashga qaratilgan bo'lsa;

2) qarshi da'voning qanoatlantirilishi dastlabki da'voning qanoatlantirilishini butunlay yoki qisman istisno etsa;

3) qarshi va dastlabki da'vo o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud bo'lsa hamda ularni birgalikda ko'rish nizoning tezroq va to'g'ri ko'rib chiqilishiga yordam bersa.

Qarshi da'voni qabul qilish uchun yuqorida keltirilgan uchta asosdan birining bo'lishi yetarli sanaladi.

### Qarshi da'voni qabul qilish shartlari





Qarshi da'vo sudlovga tegishliligidan qat'i nazar, dastlabki da'vo ko'rilayotgan joydagi sudda taqdim etiladi.

Qarshi da'vo taqdim etish da'vo taqdim etish to'g'risidagi umumiy qoidalarga binoan amalga oshiriladi. «Da'vo taqdim etish to'g'risidagi umumiy qoidalar» deganda Fuqarolik protsessual kodeksining 5-bobidagi sudlovga taalluqlilik, 13-bobida mustahkamlangan sud xarajatlariga doir, 20-bobida belgilangan ish qo'zg'atish va boshqa tegishli boblarga doir qoidalarni qo'llash tushuniladi.

**Qarshi da'voning xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:**

- ✓ da'vo predmeti va asosiga ega ekanligi;
- ✓ da'vo arizalariga qo'yilgan talablar asosida rasmiylashtirilishi;
- ✓ qarama-qarshi taraflar manfaatlarini to'qnashuvining vujudga kelishi;
- ✓ da'vogar talabiga nisbatan javobgar talabning qarshi qo'yilishi;
- ✓ boshlangan protsessga nisbatan taqdim etilishi;
- ✓ dastlabki da'voning sudlovligiga asoslanishi;
- ✓ hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar berilishi;
- ✓ dastlabki da'vo bilan birgalikda ko'rilishi;
- ✓ qarshi da'voni qabul qilishga qo'yilgan asoslardan birining qanoatlantirilishi;
- ✓ qarshi da'vo taqdim etilganda, ish muhokamasi keyinga qoldirilishi.

**Dastlabki da'vo bilan qarshi da'voning o'zaro bog'liqligi quyidagilarda ko'rinadi:**

- ✓ da'vo predmeti bo'yicha;
- ✓ da'vo asosi bo'yicha (masalan, aliment undirish to'g'risidagi ishlarda javobgarning bolaning otasi ekanligi; bolaning nikohda tug'ilganligi; otaning bolaga nisbatan aliment to'lamayotganligi);

nizoni vujudga keltiruvchi moddiy huquqiy munosabat bo'yicha (masalan, dastlabki da'vo nikohdan ajralish to'g'risida, qarshi da'vo esa nikoh davomida orttirilgan mol-mulkni bo'lish haqida berilgan).

### *Masalan*

*Da'vogar Mamajonov Sobirning javobgarlar Shodiyev Rustam Djurayevich, Shodiyeva Gulchexra Azimovna, Shodiyeva Lola Rustam qizi, Shodiyeva Nozima Rustam qizi va Shodiyev Suxrob Rustam o'g'liga nisbatan uy-joydan boshka turar-joy bermasdan ko'chirish haqidagi da'vo arizasi, Shodiyev Rustam Djurayevich va Shodiyeva Gulchexra Azimovnalarning javobgar Mamajonov Sobirga nisbatan uy-joyga nisbatan yashash va foydalanish huquqini belgilash haqidagi qarshi da'vo arizasi yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudi tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan.*

E'tiroz va qarshi da'voni dalillarsiz asoslab bo'lmaydi, jumladan qonun bo'yicha merosxo'r deb topish haqidagi dastlabki da'voga nisbatan da'vogarga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning qarori chiqqanligi dastlabki da'voni rad etish haqida qarshi da'vo berishga asos bo'lgan.

### *Masalan*

*Da'vogar ota bola bilan uchrashish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan bo'lsa, javobgar ona esa otani otalik huquqidan mahrum qilish haqidagi qarshi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Yoki da'vogar Sattorova N. sudga murojaat qilib, nikoh davomida orttirilgan mol-mulkni bo'lishni so'ragan, bunga javoban javobgar B. Sattorov ham turmushlari davomida olingan Behbudiy ko'chasi 12-uy 8-xonadonni umumiy mulk deb topilishini, undan*

*foydalanish tartibini belgilash va uyga kiritish haqidagi qarshi da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.*

Qarshi da'vo arizasi mustaqil ariza sifatida qabul qilinadi hamda umumiy asoslarda rasmiylashtiriladi. Ammo qarshi da'vo berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi cheklangan bo'ladi. Shunga ko'ra qarshi da'vo arizasiga nisbatan Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli moddalarida mustahkamlangan arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish, arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish, arizani qaytarish, arizani ko'rmasdan qoldirish, davlat bojini to'lash kabi protsessual harakatlar va oqibatlar qo'llaniladi.

Qarshi da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish haqida sudya ajrim chiqaradi. Qarshi da'voni taqdim qilishga sudning istalgan bosqichida hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar (aniqrog'i alohida xonaga kirgunga qadar) yo'l qo'yilishi belgilangan. Sudya javobgarga qarshi da'vo taqdim etish huquqi borligini ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida tushuntirishi lozim. Da'voga qarshi e'tiroz va qarshi da'vo taqdim etish harakatlari aynan da'vo tartibida ko'riladigan ishlarda uchraydi va mazkur sud ishlarini yuritish turining muhim elementlaridan biri sanaladi. Ushbu protsessual harakatlar aynan javobgar huquqlari va manfaatlari bilan bog'liq. Boshqa sud ishlarini yuritish turlarida ushbu protsessual vositalardan foydalanish deyarli uchramaydi, chunki ish bo'yicha javobgar bo'lmaganligi oqibatida ishda arizachi va manfaatdor shaxs uchraydi. Sud ishlarini yuritishning boshqa turlarida e'tiroz bildirish harakati amalga oshiriladi, bu harakatlar sudga taqdim etilgan talabga, keltirilgan dalillarga, olib borilayotgan protsessual harakatlarga nisbatan bildirilishi mumkin.

### **5-§. Da'voni ta'minlash tushunchasi, choralari va huquqiy oqibatlari**

Da'voni ta'minlash instituti Fuqarolik protsessual kodeksining 9-bobi bevosita 105-115-moddalarini o'z ichiga olgan.

**Da'voni ta'minlash** deb ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida ish holatlariga ko'ra sudning tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan ishni sudda ko'rishga tayyorlash yoki sudda mazmunan ko'rish jarayonida javobgarga nisbatan qonunda belgilangan ta'minlash choralarining qo'llanilishiga aytiladi. Da'voni ta'minlashga nafaqat sudda ishni ko'rish vaqtida, balki ijro bosqichida ham yo'l qo'yiladi va bu jarayon ijroni ta'minlash harakatlari orqali ham amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessual huquqining nazariy qoidalariga ko'ra, da'voni ta'minlash alohida institut sanalib, asosan da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda taraflar o'rtasida vujudga kelgan nizolarni hal qilish hamda talab yuzasidan chiqarilgan sud qarorining ijrosini ta'minlash va uni mustahkamlash maqsadida faoliyat yuritadi. Ayni paytda fuqarolik sudlarida uyga kiritish, mol-mulkni bo'lish, qarzni undirish kabi ishlarda «mol-mulkka ta'qiq (arest) solish», uy-joyga egalik huquqini belgilash, turar-joydan ko'chirish to'g'risidagi ishlarda «qurilish ishlarini to'xtatib qo'yish», asarning muallifi deb topishda «asarning chop etilishini to'xtatish», turli toifadagi fuqarolik ishlari bo'yicha «javobgarni O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketishini ta'qiqlash» kabi choralarni qo'llash haqida ajrim chiqarilib, tegishliligiga qarab, ushbu ajrimni darhol ijrosini ta'minlash maqsadida majburiy ijro byurosi, notarial organlarga yoki davlat xavfsizlik xizmati, ichki ishlar organlariga yuboriladi.

FPKning 105-moddasi mazmunidan kelib chiqib, da'voni ta'minlash asoslarini ikki shaklda: **birinchidan**, da'voni ta'minlashning moddiy asoslariva **ikkinchidan**, da'voni ta'minlashning protsessual asoslari deb turlarga bo'lish mumkin bo'ladi. **Da'voni ta'minlashning moddiy asoslari** da'voni ta'minlash zaruriyatining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lib, bevosita ish bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarining keyinchalik ijrosi qiyinlashsa yoki umuman ijrosi ta'minlanmasa degan asos bilan oldindan yo'l qo'yiladi. **Da'voni ta'minlashning protsessual asoslari** deganda sud tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning

arizasiga ko'ra amalga oshirilishi va ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Da'voni ta'minlashning moddiy asoslari	Da'voni ta'minlashning protsessual asoslari
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/> zaruratning vujudga kelishi	<input type="checkbox"/> sudning tashabbusiga ko'ra
<input type="checkbox"/> ijroning qiyinlashuvi	<input type="checkbox"/> da'vogar (uning vakili) arizasiga ko'ra
<input type="checkbox"/> ijro etish imkoni bo'lmasligi	<input type="checkbox"/> ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning arizasiga ko'ra

FPKning 106-moddasida da'voni ta'minlash choralari belgilangan bo'lib, unga ko'ra quyidagilar **da'voni ta'minlash choralari bo'lishi mumkin:**

1) javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulkni yoxud pul mablag'larini xatlash;

2) javobgar muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;

3) boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;

4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risida da'vo arz qilingan taqdirda, uni realizatsiya qilishni to'xtatish;

5) qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashayotgan bo'lsa va agar bunday nizolashishga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilsa, bu hujjat bo'yicha undiruvni to'xtatish;

6) nizoli mol-mulk buzilishi, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatish;

7) nizoli mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxsga (saqlovchiga) topshirish.

Zarur hollarda, sud (sudya) da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralar ham ko'rishi mumkin.

Da'voning ish haqini, daromadni, pensiya va stipendiyani xatlash yo'li bilan ta'minlanishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan aliment undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik, shuningdek

boquvchisining o'limi oqibatida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi, o'zgalar mol-mulkini talon-toroj qilganlik natijasida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar mustasno.

Da'voni ta'minlash choralari da'vogar arz qilgan talabga mutanosib bo'lishi kerak. Zarur hollarda, sud da'voni ta'minlash chorasining bir nechta turini qo'llashi mumkin, lekin ularning umumiy summasi da'voning bahosidan oshib ketmasligi kerak.

<b>Da'voni ta'minlash maqsadlari</b>	Davoni ta'minlash fuqarolarning sudga murojaat qilish maqsad va vazifalarini, harakatlarini oxiriga yetkazadi va himoya qiladi
	Da'vogarning huquq va manfaatlarini muhofaza qiladi
	Tegishli talablar asosida harakat qilmagan javobgarga qonunda belgilangan mulkiy va protsessual xarakterdagi majburlov choralari qo'llash vositasi sanaladi

Da'voni ta'minlash tartibi
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sudya (sud) tomonidan ariza tushgan kuniyoq ko'rib chiqiladi;</li> <li>• Javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi.</li> <li>• Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.</li> </ul>

Da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirishi mumkin.</li> <li>• Da'voni ta'minlash turini almashtirish ishda ishtirok etayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.</li> <li>• Almashtirish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi</li> </ul>

Da'voni ta'minlash choralari bekor qilish
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.</li> <li>• Ishda ishtirok etayotgan shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi.</li> <li>• Natijalar bo'yicha ajrim chiqariladi.</li> <li>• Da'vo rad qilingan taqdirda, da'voni taminlash choralari hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgungina qadar saqlanib qoladi.</li> <li>• Da'vo qanoatlantirilgan taqdirda, da'voni ta'minlash choralari hal qiluv qarori amalda ijro etilguniga qadar o'z kuchini saqlab qoladi.</li> </ul>

## **Da'voni ta'minlash xususiyatlari:**

- **Birinchidan**, da'voni ta'minlash mustaqil institut hisoblanib, bevosita bu Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoyat, Jinoyat protsessual, Iqtisodiy protsessual kodekslari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Hakamlilik sudlari to'g'risida»gi qonuni, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi, «Notariat to'g'risida»gi qonun va boshqa tegishli qonunlar bilan huquqiy tartibga solinadi.

- **Ikkinchidan**, da'voni ta'minlash fuqarolik sud ishlarini yuritishning da'vo qo'zg'atish va hakamlilik sudlari hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi ishlarda qo'llaniladi.

- **Uchinchidan**, da'voni ta'minlash javobgarga nisbatan mulkiy va nomulkiy xarakterdagi protsessual majburlov chorasi sanaladi.

- **To'rtinchidan**, Fuqarolik protsessual kodeksida da'voni ta'minlash asoslari va choralari aniq ko'rsatilgan, ammo chorani bir turini boshqasi bilan almashtirish mumkin.

- **Beshinchidan**, sud (sudya) da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralar ham ko'rish mumkin.

- **Oltinchidan**, da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim darhol ijroga qaratiladi.

- **Yettinchidan**, sudning da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yok xususiy protest keltirilishi mumkin.

- **Sakkizinchidan**, da'voni ta'minlash choralariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik belgilangan.

## **Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimlar ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) va uning oqibatlari**

- ✓ Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

- ✓ Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berish muddati ajrimning ko'chirma nusxasi topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.

- ✓ Sudning da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi ushbu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi.

✓ Sudning da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almash-tirish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi ushbu ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yadi.

✓ Sud (sudya) da'voni ta'minlash bilan birga da'vogardan javobgarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning o'rnini qoplashni talab qilishi mumkin.

✓ Javobgar da'voni rad qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin da'vogardan da'vogarning iltimosnomasiga ko'ra da'voni ta'minlash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida o'ziga yetkazilgan zararning o'rnini qoplashni talab qilishga haqli.

## **FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA DA'VONI TA'MINLASH VA DALILLARNI TA'MINLASH**

*(O'xshash va farqli jihatlar)*

№	DA'VONI TA'MINLASH	DALILNI TA'MINLASH
1.	FPK da alohida bob ajratilgan: 9-bob. Da'voni ta'minlash (105–115-moddalar).	FPKning «Dalillar» bobi (8-bob) da 76–79-moddalarda «Dalillarni ta'minlash» ifodalangan.
2.	Asosan da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda qo'llaniladi.	Barcha sud ishlarini yuritish turlarida qo'llaniladi
3.	Sudga berilgan talab (da'vo)ni ta'minlash, saqlash, muhofaza qilish, ish bo'yicha chiqarilajak hal qiluv qarorining ijrosini bekamu ko'st bajarish, muayyan ma'noda javobgar harakatlariga chek qo'yish, davom etayotgan harakatlarni (nizolarni) to'xtatish maqsadini ko'zlaydi.	Dalillar (isbotlash vositalari) ga nisbatan qo'llanilib, mavjud dalillarni yo'q bo'lib ketmasligi, foydalanib bo'lmaydigan darajaga kelmasligi, sifatsiz holga kelmasligini oldini olish, dalilni muhofaza qilish, saqlash, ta'minlash maqsadiga qaratilgan
4.	Da'voni ta'minlash deb ish bo'yicha chiqariladigan hal qiluv qarorlarining ijrosini ta'min-	Dalillarni ta'minlash deb o'zlari uchun zarur bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim



	<p>lash (sud hujjati ijrosini qiyinlashtirish yoki uni bajarib bo'lmaydigan qilib qo'yish holatlarini oldini olish) maqsadida ish holatlariga ko'ra sudning tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan sud protsessining har qanday bosqichida javobgarga nisbatan qonunda belgilangan choralarining qo'llanilishiga aytiladi.</p>	<p>etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi, deyishga asosi bo'lgan shaxslar ariza berishidan oldin ham yoki keyin ham suddan bu dalillarni ta'minlashni iltimos qilishi mumkinligiga aytiladi.</p>
5.	<p>Sud (sudya) ning tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan qo'llaniladi.</p>	<p>Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan yo'l qo'yiladi.</p>
6.	<p>Sudyaning da'voni ta'minlash haqidagi ajrimi asosida qo'llaniladi.</p>	<p>Sudyaning dalillarni ta'minlash haqidagi ajrimi asosida qo'llaniladi.</p>
7.	<p>Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqayotganda sud (sudya) da'voni ta'minlash choralari ko'rish shart</p>	<p>Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudgacha bo'lgan jarayonda notarial tartibda dalillarni ta'minlash choralari ko'rishga haqli. Chet davlatlar organlarida ish yuritish uchun zarur bo'lgan dalillarni ta'minlash qonunda belgilangan tartibda notariuslar tomonidan amalga oshiriladi.</p>
8.	<p>Da'voni ta'minlash haqidagi ariza ish ko'rilayotgan sudga beriladi.</p>	<p>Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza dalillarni ta'minlash bilan bog'liq protsessual harakatlar amalga oshirilishi kerak bo'lgan hududda faoliyat olib borayotgan sudga beriladi.</p>

9.	Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizada da'voni ta'minlash choralari ko'rish asoslari va zaruriyati ko'rsatilgan bo'lishi lozim.	Arizada ta'minlanishi zarur bo'lgan dalillar, bu dalillar bilan tasdiqlanishi zarur bo'lgan holatlar, dalillarni ta'minlash to'g'risida arizachini iltimosnoma bilan murojaat qilishga undagan sabablar, shuningdek ta'minlanadigan dalillar zarur bo'lgan yoki ular keyinchalik asqatishi mumkin bo'lgan ish ko'rsatilishi kerak.
10.	Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash choralari hakamlik muhokamasi tarafining tanloviga ko'ra, hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar turgan joydagi yoki yashaydigan joydagi yoinki javobgarining mol-mulki turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ajrim asosida ko'rilishi mumkin.	Qonunda nazarda tutilmagan, ammo keyinchalik ishni ko'rish jarayonida hakamlik sudi qarorlarini taqdim etishi mumkin.
11.	FPKning 106-moddasida «Da'voni ta'minlash choralari» (7 ta asos) belgilangan	Dalillarni ta'minlashning asoslari mavjud emas, faqat dalillarga nisbatan amalga oshiriladi.
12.	Zarur hollarda, sud (sudya) da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralar ham ko'rishi mumkin.	Dalillarni ta'minlashning alohida belgilangan choralari yo'q, bu holatda sudya dalillarni vujudga keltirishning umumiy asoslarini qo'llaydi, masalan, guvoh ko'rsatmalari olinadi, ashyoviy dalillar ko'zdan kechiriladi va rasmiylashtiriladi, yozma dalillar asli va nusxalari saqlanadi, zarur dalillar nusxasi ko'chiriladi, suratga olinadi, ekspertiza tayinlanadi va hokazo

13.	<p>Da'voning ish haqini, daromadni, pensiya va stipendiyani xatlash yo'li bilan ta'minlanishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan alimment undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik, shuningdek boquvchisining o'limi oqibatida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi, o'zgalar mol-mulkini talon-toroj qilganlik natijasida ko'rilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar mustasno.</p>	<p>Dalillarni ta'minlashga istinolok yo'q, uni ta'minlashni so'rayotgan arizachi tomonidan ishga oid va zarur deb hisoblanishi kerak.</p>
14.	<p>Da'voni ta'minlash choralari da'vogar arz qilgan talabga mutanosib bo'lishi kerak.</p>	<p>Dalillarni ta'minlashda bunday tartib va qoida yo'q.</p>
15.	<p>Zarur hollarda, sud da'voni ta'minlash chorasining bir nechta turini qo'llashi mumkin, lekin ularning umumiy summasi da'voning bahosidan oshib ketmasligi kerak.</p>	<p>Dalillarni ta'minlashda ham bir necha turdagi dalillarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.</p>
16.	<p>Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sudya (sud) tomonidan ariza tushgan kuniyoq javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi.</p> <p>Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirishi mumkin.</p> <p>Da'voni ta'minlash turini almashtirish ishda ishtirok etayotgan shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.</p>	<p>Dalillarni ta'minlash ta'minlanishi zarur bo'lgan isbotlash vositalari (dalillar) ishtirokida amalga oshiriladi.</p>

17.	Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.	Dalilni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.
18.	Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almash-tirishi mumkin. Da'voni ta'minlash turini almashtirish ishda ishtirok etayotgan shaxsning iltimosno-masiga ko'ra, ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.	Dalillarni ta'minlashda bun-day harakatga hojat yo'q.
19.	Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro etiladi.	Dalillarni ta'minlash taraffar, manfaatdor shaxslar, guvohlar va boshqa isbotlash subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda sudya, ekspert, mutaxassis ham ishtirok etadi, sud topshiriqlari berish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.
20.	Da'voni ta'minlash choralariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik	Ushbu Kodeks 106-moddasi birinchi qismining 2, 3, 6 va 7-bandlarida ko'rsatilgan taqiqlar buzilganda aybdor shaxslar ushbu Kodeksning 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda sudning ajrimi bilan jarimaga tortiladi. Da'vogar bu shaxslardan sudning da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrimini bajar-maganliklari oqibatida o'zi ko'rgan zararining o'rni qop-lanishini umumiy asoslarda talab qilishga haqli.

21.	Da'voni ta'minlash choralari ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.	Dalilni ta'minlash choralari murojaat qilingan sud yoki ishni ko'rib chiqayotgan sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.
22.	Dalillarni ta'minlashda sudgacha va suddagi jarayoni mavjud	Da'voni ta'minlash choralari saqlanish muddati mavjud
23.	Da'vo rad qilingan taqdirda, da'voni ta'minlash choralari hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar saqlanib qoladi. Biroq sud da'voni ta'minlash choralari bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori bilan bir vaqtda yoki u qabul qilinganidan so'ng ajrim chiqarishi mumkin.	Da'vo qanoatlantirilgan taqdirda, da'voni ta'minlash choralari hal qiluv qarori amalda ijro etilguniga qadar o'z kuchini saqlab qoladi.
24.	Dalillarni ta'minlash haqidagi masala (majburiyat) ish holatiga ko'ra ta'minlanishi, amalga oshirilishi va tugatilishi bilan yakuniga yetgan sanaladi. Hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar yoki hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirishi muddati bilan cheklanmaydi.	Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.
25.	Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat (protest) berish muddati ajrimning ko'chirma nusxasi topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran hisoblanadi.	Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Da'vo talablaridan voz kechish asoslarini tushuntiring?*
2. *Moddiy va protsessual huquqiy e'tirozning o'xshash va farqli jihatlarini tushuntiring?*
3. *Dastlabki va qarshi da'vo talablari berilgan fuqarolik ishini sirdan hal qilish tartibi qanday?*
4. *Yuqori sudlov bosqichlarida ham qarshi da'vo talabi bilan murojaat qilishga yo'l qo'yiladi (mi)?*
5. *Da'voni ta'minlash choralari o'zgartirish borasida tahliliy fikr bering.*

## 13-mavzu: SUD XARAJATLARI

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlari tushunchasi va turlari, davlat boji, uni to'lashdagi imtiyozlar, ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar va ularning turlari haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** fuqarolik ishi, sud xarajatlari, da'vo ariza, davlat boji, oddiy davlat boji, proporsional davlat boji, ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar, protsessual imtiyozlar, iltimosnoma.

### 1-§. Sud xarajatlari tushunchasi va turlari

Fuqarolik ishlari bo'yicha, sudlov faoliyatini tashkil etish, davlat byudjetini shakllantirish, sud ishlarini yuritishni og'ishmay amalga oshirish, sud hujjatlari aylanmasini tashkil etish, shuningdek, sudga murojaat qiluvchilarning protsessual majburiyatlari bajarilishini ta'minlash, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual mas'uliyatini yanada oshirish, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarni amalga oshirilgan protsessual harakatlari uchun moddiy rag'batlantirish va boshqa sudga oid harakatlar uchun tushum bo'ladigan, undiriladigan, to'lanadigan, taqsimlanadigan va sarflanadigan mablag'larga **sud xarajatlari deyiladi.**

Fuqarolik protsessual kodeksining **13-bobi (127–142-moddalari)** «Sud xarajatlari» ga bag'ishlangan.


Sud xarajatlari davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlardan iborat bo'ladi.



Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli

muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to'lovdur (*O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi «Davlat boji to'g'risida»gi O'RQ-600-sonli Qonuni 3-moddasi*).

## 2-§. Davlat boji va uning turlari



### Davlat boji quyidagilardan undiriladi:

fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'ziboshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan arizalardan (shikoyatlardan),

alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan, chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv



qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan hujjatlarning dublikatlarini va ko'chirma nusxalarini berganlik uchun va boshq.

Davlat boji ariza, da'vo arizasi shikoyat (bundan buyon ariza) sudga berilgunga qadar to'lanadi, agar qonunda boshqacha belgilanmagan bo'lsa (masalan, to'lovchi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan, davlat boji to'lash kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib to'lanadigan hollarida).

Davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti qog'ozdagi yoki elektron shakldagi to'lov hujjati bilan tasdiqlanadi.

Davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti:

bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya bilan;

belgilangan shaklda to'lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoki davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi.

Da'vo bahosi chet el valyutasida belgilangan mulkiy nizo bo'yicha sudga ariza berilganda, davlat bojining miqdori ariza taqdim etilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada belgilanadi va undiriladi.

Agar muayyan sudda ko'rilishi kerak bo'lgan bir necha arizalar bo'yicha davlat boji bir to'lov topshiriqnomasi bilan to'langan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi ishlardan biriga ilova qilinadi. Qolgan ishlarga sudya tomonidan to'lov topshiriqnomasi sanasi va raqami ko'rsatilgan asosda to'lov topshiriqnomasi qo'shib qo'yilgan ishga havola qilingan holda davlat boji to'langanligi to'g'risida belgi qo'yiladi (ma'lumotnoma tuziladi).

**Davlat boji umumiy asoslarda undiriladi** (davlat boji to'g'risidagi Qonunning 19-moddasi)

- qarshi da'vo arizalaridan;
- uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan;

● ishga kirishgan da'vogarning huquqiy vorisidan, agar da'vogar tomonidan boj to'lanmagan bo'lsa.

### *Masalan*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha davlat boji rekvizitlari Toshkent shahri Shayxontoxur tumani kodi 26277, shaxsiy g'azna hisobvarag'i 4014108600262773422956011*

Da'voning bahosi da'vogar tomonidan ko'rsatiladi. Da'vogar ko'rsatgan baho talab qilinayotgan mol-mulkning haqiqiy qiymatiga muvofiq emasligi yaqqol bo'lsa, da'voning bahosini sudya belgilaydi.

Da'vo taqdim etilgan vaqtda uning bahosini belgilash qiyin bo'lsa, davlat bojining miqdorini sudya dastlabki tarzda belgilaydi va keyinchalik ishni hal qilish chog'ida sud belgilagan da'vo bahosiga muvofiq, davlat bojining to'lanmagan qismi undiriladi yoki ortiqcha olingan qismi qaytariladi.

To'langan davlat boji da'vogar o'z talablarini kamaytirgan, arz qilingan talablaridan voz kechgan, taraflar ishni kelishuv bitimi bilan tamomlagan hollarda qaytarilmaydi.

Arz qilingan talablar ko'paytirilganda yetishmayotgan summa da'voning ko'paytirilgan bahosiga muvofiq ravishda qo'shimcha tarzda to'lanadi.

### *Masalan*

*Da'voning bahosi quyidagicha belgilanadi:*

- 1) pul undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – undiriladigan summaga qarab;*
- 2) mol-mulkni talab qilib olish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – talab qilinayotgan mol-mulkning qiymatiga qarab;*
- 3) bir nechta mustaqil talabdan iborat da'volar bo'yicha – barcha talablarning umumiy summasiga qarab;*
- 4) aliment undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – bir yillik to'lovlarning yig'indisiga qarab va boshq.*

Agar arizachi qonunga ko'ra davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan va arizada uni to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib

to'lash haqida iltimosnoma mavjud bo'lmasa, shuningdek, pochta xarajatlari to'lanmaganda, sudya arizani qaytarish haqida ajrim chiqarishi shart (FPK 195-moddasi). Ajrimda to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji, pochta xarajatlari summasi ko'rsatilishi va ushbu kamchilik bartaraf qilingandan so'ng takroran murojaat qilish imkoniyati mavjudligi tushuntirilishi shart.

### **3-§. Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar**

Sudda ishlar ko'rilishida faqat davlat boji emas, balki ish ko'rish davomida vujudga keladigan chiqimlar ham undiriladi. Davlat boji sudga murojaat qilish jarayonida undirilsa va qonunda belgilangan imtiyozli holatlardan tashqari, undirilishi majburiy bo'lgan (hattoki da'vogar ozod qilingan bo'lsa, javobgardan undirishga yo'l qo'yiladi) xarajat turi sanaladi. Davlat boji hamma da'vo talablari (mulkiy va nomulkiy turlari) ga nisbatan qat'iy belgilangan bo'lib, uni undirish shart. Ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar ham turlariga ko'ra majburiy hamda ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan holatda undirishga yo'l qo'yiladi. Agar ishni ko'rish davomida ko'rsatilgan chiqimlar sarflangan bo'lsa, unda undirishga yo'l qo'yiladi.

#### *Masalan*

*Hamma fuqarolik ishi bo'yicha sud majlisini video-konferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar vujudga kelmaydi. Ammo sud xabarnomalarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlari deyarli barcha fuqarolik ishlari bo'yicha amalga oshiriladi va undiriladi.*

Fuqarolik protsessual kodeksi (132-moddasi) ga ko'ra,

#### **Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar:**

- 1) guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar;
- 2) joyida ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- 3) javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar;

3) sud xabarnomalarini va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlari;

5) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;

6) sud tomonidan tan olingan boshqa zarur xarajatlar.

Pochta xarajatlarining summasi sud tomonidan belgilanadi, biroq bu summa bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismidan oshmasligi kerak va sudning depozit hisobvarag'iga kiritilishi lozim.

Sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar summasi sud tomonidan belgilanadi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo arizasi (ariza, shikoyat) bilan murojaat qilinganda quyidagi miqdorda pochta xarajatlari to'lanishi belgilandi:**

- sud buyrug'i berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilinganda – bazaviy hisoblash miqdorining besh foizi miqdorida;

- boshqa barcha ishlar bo'yicha ariza va da'vo arizasi bilan murojaat qilinganda – bazaviy hisoblash miqdorining yetti foizi miqdorida;

- ko'rilgan ishlar bo'yicha chiqarilgan sud qarorlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berilganda – bazaviy hisoblash miqdorining 3,5 foizi miqdorida to'lanadi.

### *Masalan*

*Toshkent shahri uchun Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga pochta xarajatlarini to'lash uchun shaxsiy hisobvaraqlar to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi*  
*g'azna h/r: 23 402 000 300 100 001 010*

*MFO: 00 014*

*STIR: 201 122 919*

*bank: MB BB XKKM Toshkent shahar*

*sh/hv: 401 410 860 262 877 033 232 011 002*

*STIR: 207 251 889*

**Boshqa sud xarajatlari** deganda sud tomonidan oqilona miqdorlarda belgilanadigan, haqiqatda yo'qotilgan vaqt uchun undiriladigan kompensatsiya, vakilning yordami uchun to'lanadigan xarajatlar va boshq. kiradi.

**Yo'qotilgan vaqt uchun haq sud tomonidan ishda mavjud hujjatlar asosida:**

da'vogardan – insofsizlik bilan asossiz da'vo taqdim etilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda;

javobgardan – insofsizlik bilan da'voga qarshi e'tiroz bildirilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda undirilishi mumkin.

- Umumiy qoidaga ko'ra, ish bo'yicha sud xarajatlarini nizoda nohaq bo'lib chiqqan taraf to'laydi.
- Da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechganda u qilgan xarajatlarning o'zni javobgar tomonidan qoplanmaydi.

**Ekspertlarga, mutaxassislarga, guvohlarga, tarjimonlarga tegishli ho'lgan summalarni to'lash va ularning o'rtacha ish haqini saqlab qolish (FPK 134-modda).**


Ekspertlar, mutaxassislar, guvohlar va tarjimonlarga tegishli bo'lgan summalar ular o'z vazifalarini bajarib bo'lganidan so'ng sud tomonidan to'lanadi. Ekspertlar va mutaxassislar sudning topshirig'i bo'yicha bajargan ishi uchun, agar bu ish ularning xizmat vazifalari doirasiga kirmasa, haq oladi. Ekspertlar, mutaxassislar, guvohlar va tarjimonlarning sudga borishi munosabati bilan ularning ishda bo'lmagan vaqtida ish joyidagi o'rtacha ish haqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanadi.

#### 4-§. Sud xarajatlarini to'lashda imtiyozlar

##### Sud xarajatlarini to'lashda imtiyozlar:

- Sud xarajatlarini to'lashni kechiktirish;
- Sud xarajatlarini bo'lib-bo'lib to'lash;
- Sud xarajatlari miqdorlarini kamaytirish;
- Depozit hisobvarag'iga oldindan kiritish;
- Qonunda belgilangan hollarda davlat bojini to'lashni kechiktirish;
- Davlat bojidan ozod qilish;
- Davlat bojini qaytarish;
- Yo'qotilgan vaqt uchun haq undirish;
- Xarajatlar o'rnini qoplash;
- Sud xarajatlarini taqsimlash.

**Sud xarajatlarga doir imtiyozlarni qo'llashda e'tibor qaratadi:**



**Sud xarajatlarini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va ularning miqdorini kamaytirish (FPK 133-modda).**

Davlat bojini to'lashni kechiktirishga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi. Sud taraflarning mulkiy ahvoliga qarab, ulardan birining yoki ikkalasining

davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.



### *Masalan*

*Da'vogar tuman fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari kengashining javobgar Soliyev Solih Soatmurot o'g'luga nisbatan o'zboshimchalik bilan qurilgan binoshootlarni buzish va yer maydonini fermer xo'jaligi ixtiyoriga qaytarish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorida keltirilgan:*

*3. Javobgar Soliyev Solih Soatmurot o'g'lidan da'vogar tuman fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari kengashining foydasiga dastlab pochta xarajatlari uchun to'langan 15 610 so'm undirilsin.*

### **Sud chiqimlarini to'lash uchun mablag'larni kiritish tartibi (FPK 135-modda).**

Guvohlar, ekspertlar va mutaxassislarga, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar yoki joyida ko'zdan kechirishni o'tkazishga doir xarajatlar uchun zarur bo'lgan summalar tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilgan taraf tomonidan sudning depozit hisobvarag'iga oldindan kiritiladi. Agar bu iltimosnoma ikkala taraf tomonidan berilgan bo'lsa yoki guvohlarni, ekspertlarni, mutaxassislarni, tarjimonlarni



chaqirish, joyida ko'zdan kechirish sudning tashabbusi bilan amalga oshirilsa, talab qilinadigan summani taraflar teng miqdorda kiritadi. Agar ekspertiza sudning tashabbusi bilan tayinlansa, to'lanishi lozim bo'lgan summa ekspertga sud tomonidan depozit hisobvarag'idan to'lanishi mumkin.

**ESDA TUTING!**

- ✓ Qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.
- ✓ Sud dastlabki da'vogarni uning roziligiga ko'ra boshqa shaxs bilan almashtirganda bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to'lashi kerak.
- ✓ Ishdan dastlabki da'vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da'vogar tomonidan to'lanmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda huquqiy vorisdan undiriladi.
- ✓ Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talabini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

**Sud xarajatlarini taraflar o'rtasida taqsimlash (FPK 138-modda).**

✓ Hal qiluv qarori qaysi tarafning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdan, garchi bu taraf davlat daromadiga tushadigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa-da, ish bo'yicha qilingan hamma xarajatlarni undirib beradi.

✓ Agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan bo'lsa, ushbu moddada ko'rsatilgan summalar javobgardan da'vogarga talablarning sud tomonidan qanoatlantirgan qismiga mutanosib ravishda, javobgarga esa da'vogar arz

qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirib beriladi.


✓ Da'vogarning talablari u sudga murojaat qilganidan so'ng javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda qanoatlantirilganda sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

✓ Agar da'vogar tomonidan neustoykani undirish haqidagi talab asosli ravishda arz qilinib, biroq uning miqdori sud tomonidan kamaytirilgan bo'lsa, sud xarajatlari neustoykaning kamaytirilishi hisobga olinmagan holda undirilishi lozim bo'lgan neustoyka summasidan kelib chiqqan holda, javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

✓ Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlarini ko'zlanib da'vo taqdim etilgan shaxslardan da'vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

✓ Agar yuqori turuvchi instansiya sudi ishlarni yangidan ko'rib chiqish uchun yubormay, chiqarilgan hal qiluv qarorini o'zgartirsa yoki yangi hal qiluv qarorini qabul qilsa, u sud xarajatlari taqsimotini tegishincha o'zgartiradi.

✓ Ushbu qoidalar apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini berganda taraflar to'lagan davlat bojiga ham taalluqlidir.



## **Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilish**

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) da'vogarlar – ish haqini undirish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar – alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar – mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar – qonunga xilof ravishda hukm etganlik, jinoiy javobgarlikka tortganlik, ma'muriy jazo berganlik tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

5) da'vogarlar – jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5<sup>1</sup>) da'vogarlar – tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

***Izoh: Ushbu ro'yxatni davom ettirish mumkin.***

40) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil – tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar, arizalar va shikoyatlar yuzasidan.

***(O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi «Davlat boji to'g'risida»gi O'RBQ-600-sonli Qonuni 8-moddasi)***

### **Davlat bojini qaytarish tartibi**

**Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:**

1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida;

- 2) sud da'vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarganda yoki qabul qilishni rad etganda, shuningdek, notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;
- 3) apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyati qaytarilganda yoki uni qabul qilish rad etilganda;
- 4) davlat boji to'langan da'vo arizasi (ariza, shikoyat) yoki apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyati sudga kelib tushmaganda;
- 5) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;
- 6) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 7) sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 8) agar taraflar o'rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to'g'risida hakamlik bitimi tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 9) agar taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;
- 10) ishda ishtirok etgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;
- 11) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (e'tiroz bildirish) tartibiga rioya etmaganda, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa;
- 12) voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinning nikohi o'zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to'langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo'lsa;
- 13) agar ishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;
- 14) sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda;

15) O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda.

***(O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi «Davlat boji to'g'risida»gi O'RQ-600-sonli Qonuni 18-moddasi)***

Davlat boji summalarini qaytarish to'lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o'z hisobvaraqlariga o'tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini to'lovchining yozma arizasi olingan kundan e'tiboran besh kun ichida yoki sud hujjatlari asosida qaytaradi. O'z navbatida davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo'lgan, ilgari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadiga o'tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to'g'risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadiga o'tkazilgan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi qaror soliq organi tomonidan davlat organi yoki tashkilotning tegishli xabarnomasi olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida qabul qilinadi. Davlat bojini qaytarish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda soliq organi davlat bojini to'lovchiga qaytarishni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining G'aznachiligiga qaytarish to'g'risida tegishli topshiriqnomaga yuboradi.

Bunday holatda taraf yuqori instansiyaga emas, balki ishni ko'rgan va hal qiluv qarori chiqargan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud xarajatlari noto'g'ri undirilgan holatlar aniqlanganda, apellyatsiya, kassatsiya instansiyalari sudlarida protsessual qonunda ko'rsatilgan hollarda va tartibda, sud xarajatlarini undirishga, ularni to'lashdan ozod qilishga, shuningdek, undirilgan summa miqdorini kamaytirishga yoki ularni taraflar o'rtasida qayta taqsimlashga haqli.

## **AJRIM**

*(davlat bojini qaytarish to'g'risida)*

2020-yil dekabr oyining 20-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining sudyasi Sh.Sh.Sh. arizachi Muratova Munira Maxammadjonovnaning davlat bojini qaytarib berish haqidagi arizasini ko'rib chiqib, quyidagilarni

## **ANIQLADI:**

Sudga Muratova Munira Maxammadjonovna fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining hisob raqamiga xatolik bilan to'langan 498.230 so'm davlat bojini qaytarib berishni so'ragan.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat boji to'g'risida»gi Qonuni 18-moddasiga ko'ra, davlat boji to'langan da'vo arizasi (ariza, shikoyat) sudga kelib tushmaganda, qaytarilishi kerak.

Arizachi o'z arizasida 498.230 so'm davlat bojini noto'g'ri to'langanligini va taqdim etilgan 18.11.2020-yildagi to'lov pattasiga asosan tasdiqlanishini bayon qilgan.

Bunday holatda arizachi tomonidan to'langan davlat boji qaytarilib berilishi kerak deb hisoblanadi.

Sud, yuqoridagilarga ko'ra hamda O'zbekiston Respublikasi «Davlat boji to'g'risida»gi Qonuni 18-moddasi va O'zbekiston Respublikasi FPKning 271–272-moddalariga asosan

## **AJRIM QILADI:**

Muratova Munira Maxammadjonovnaning noto'g'ri to'langan davlat bojini qaytarish to'g'risidagi arizasi qanoatlantirilsin.

Muratova Munira Maxammadjonovna tomonidan 2020-yil 18-noyabrdagi to'lov pattasiga asosan MFO 00014, h/r: 23402000300100001010 (4014228601262733422956011) sonli hisob raqamiga to'langan 498.230 so'm miqdordagi to'langan davlat boji uchun to'langan pullar qaytarilsin.

Ajrim ijro qilishlik uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departament Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga yuborilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kunlik muddat ichida fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirishi mumkin

**Sudya:**

**Sh.Sh.Sh.**

Nusxasi asliga to'g'ri, sudya:

## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Davlat boji qaytarilmaydigan holatlarni izohlab bering?*
- 2. Sud xarajatlari bilan bog'liq qanday protsessual hujjatlarni bilasiz?*
- 3. Tarjimonga to'lanadigan xarajatlar qanday qoplanadi?*
- 4. «Yo'qotilgan vaqt uchun haq undirish» qanday isbotlanadi va undiriladi?*
- 5. «Protsessual ishtirokchilar tomonidan qoplanmaydigan xarajatlar» deganda nimani tushunasiz. Tahlil qiling.*

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik sud ishlarini yuritishda muddatlar, turlari, o'tkazib yuborish oqibatlari, sudga murojaat qilish muddatlari, ish ko'rish muddatlari, shikoyat berish muddatlari kabilar haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari berilgan.

**Tayanch so'zlar:** da'vo muddati, protsessual muddat, havolaki muddat, qisqartirilgan muddat, muddatni o'tkazib yuborish, muddatni tiklash, tiklashni rad etish, oqilona muddat.

### **1-§. Fuqarolik protsessida muddatlar tushunchasi va ahamiyati**

Fuqarolik protsessual kodeksining 15-bobi bevosita «Protsessual muddatlar» deb nomlanib, 151–155-moddalarni o'z ichiga oladi. Ammo mazkur institut bu bilan cheklanmasdan, protsessual kodeksning boshqa normalarida, xususan fuqarolik sud ishlarini yuritish, sud qarorlarini qayta tekshirish bosqichlariga oid maxsus boblarda ham bunday mazmundagi normalar mustahkamlangan, bundan tashqari, sudga kelib tushgan yoki ko'rilayotgan fuqarolik ishlari bilan bog'liq moddiy kodeks va qonunlarda da'vo muddati va protsessual muddatlarga doir masalalar batafsil yoritilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 2-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari ko'rsatilib, unga ko'ra, fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdan iboratligi ta'kidlangan. Shunga ko'ra, kelib tushgan fuqarolik ishlarini «o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish» muhim mezonlardan biri sanaladi.

Protsessual muddatlar institutini nazariy, amaliy va ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masala. Mavzuni o'rganishning nazariy jihatida shundaki, fuqarolik ishlari bo'yicha protsessual muddatlar deganda fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida protsessual harakatlar bajariladigan vaqt oralig'i tushuniladi. «Protsessual» atamasi sudga murojaat qilish orqali vujudga keladi. Qonun hujjatlarida umumiy da'vo muddatlari



hamda ayrim nizolar (holatlar) yuzasidan maxsus sudga murojaat qilish muddatlari belgilangan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish va mazkur nizolarni hal qilishda da'vo muddati muhim ahamiyat kasb etadi. Da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Da'vo muddati Fuqarolik kodeksi bo'yicha umumiy, maxsus, qisqartirilgan, uzaytirilgan turlarga bo'linadi, bundan tashqari, FKda da'vo muddati joriy etilmaydigan talablar ham borki, huquqni himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilishda bu holat albatta e'tiborga olinadi hamda muayyan ma'noda ayrim imtiyozlarni ham keltiradi. Xususan, da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablarga shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno; omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga; fuqaroning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablar kiradi. Da'vo muddati o'tganidan keyin qo'zg'atilgan talablar da'vo qo'zg'atilishidan oldingi ko'pi bilan uch yil bo'yicha qondiriladi; jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga; mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni bartaraf etish haqidagi talablariga; mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga; qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga nisbatan tatbiq etiladi.

Fuqarolik kodeksida da'vo muddatini qo'llash haqida ko'rsatilgan bo'lib, buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizolashuvchi tarafning sud qaror chiqargunigacha bergan arizasiga muvofiq qo'llanadi.


## **Protsessual muddatlarning ahamiyati:**

- fuqarolar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarini o'z vaqtida himoya qilinishini ta'minlaydi;
- sud va boshqa protsess ishtirokchilarining protsessual tartib-intizomga bo'ysunishini ta'minlaydi;
- fuqarolik ishlarini sudda ko'rish jarayonida sifat va tezkorlikni oshiradi;
- protsessual sudlov faoliyatida ijro intizomini mustahkamlaydi.

## **2-§. Protsessual muddatlarning turlari**

### **Protsessual muddatlar tasnifi:**

- ✓ umumiy (bir oy, ikki oy va boshq.);
- ✓ maxsus (o'n kun, yigirma kun va boshq.);
- ✓ qonunda belgilangan (FPKda belgilangan muddatlar);
- ✓ sud tomonidan tayinlanadigan (FPKda aynan ko'rsatilmagan, ammo sud tayinlashi mumkinligi haqidagi ko'rsatma berilgan);
- ✓ havolaki (sud majlisi boshlangunga qadar, darhol, qonuniy kuchga kirgach, ariza tushgan kuniyoq, ish mazmunan hal qilinguncha, pandemiya sharoiti, fors-major holatlari bartaraf etilishi va boshq.);
- ✓ qisqartirilgan muddatlar (bir kun, uch kun, o'n kun va boshq.)




Da'vo muddatlari;

Sudga murojaat qilish muddatlari;

Sudda ish ko'rish muddatlari;

Shikoyat berish, protest keltirish muddatlari;

Ijroni amalga oshirish muddatlari.



### **Tarablarning protsessual faoliyati uchun belgilangan muddatlar:**

- ✓ Taraflar tomonidan bayonnoma yuzasi dan fikr-mulohaza bildirish – 5 kun.
- ✓ Taraflar tomonidan sud hujjatlarining ko'chirma nusxalarini olish – 5 kun.
- ✓ Sirtidan hal qiluv qarori ustidan javobgar uni qayta ko'rib chiqish to'g'risida ariza berish – 15 kun.
- ✓ Qarzdor tomonidan sud buyrug'i yuzasidan e'tiroz bildirish – 10 kun.

*Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 179, 180–181, 270, 279, 284, 285-moddalari.*

### **Muddatlar bo'yicha tarablarning huquqlari:**

- O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma berish;
- Protsessual muddatni uzaytirish haqida iltimosnoma berish;
- Iltimosnoma rad etilgan ajrimlar ustidan xususiy shikoyat berish;

*Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 151, 153–155-moddalari.*

### **3-§. Protsessual muddatlarni hisoblash, to'xtatib turish, kechiktirish, uzaytirish va tiklash, uni o'tkazib yuborish oqibatlari**

Umuman muddat, jumladan protsessual muddatlar ham qat'iy tartib-intizomni talab etadi.

Protsessual muddatlarga rioya qilmaslik oqibatlari:

- o'tkazib yuborish;
- to'xtatib turish;
- uzaytirish;
- kechiktirish;
- tiklash;
- tiklashni rad etish va boshq.

Protsessual muddatlar amal qilish shakli va vaqtiga ko'ra:


- birinchi instansiya,
- apellyatsiya;
- kassatsiya;
- yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritish;
- ijro bosqichida qo'llaniladigan muddatlarga ajratiladi.

Protsessual muddatlarni tatbiq etish subyektiga ko'ra:

- yakka tartibdagi sudya;
- hay'at tarkibidagi sudya;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi

shaxslar;

- davlat ijrochisi tomonidan qo'llaniladigan muddatlarga aytiladi.



## **Protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish oqibatlari:**

- qonunda belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatning o'tishi bilan bekor bo'ladi; protsessual muddatlarning o'tishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ularning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi;

- ishtirokchilar o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma bilan sudga murojaat qiladilar;

- sud o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish haqida ajrim chiqaradi.

### *Masalan*

*2020-yil avgust oyining 18-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi o'z binosida, ochiq sud majlisida, raislik etuvchi, sudya: Ya.Ya.Ya., sudya yordamchisi B.B. ning kotibligida, da'vogar Davurova Dilnoza Daniyarovnaning javobgar Matiyev Maxmud Mirshayevichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi hamda Matiyev Maxmud Mirshayevichning javobgar Davurova Dilnoza Daniyarovnaga nisbatan uyga kiritish va order asosida egalik huquqini belgilash haqidagi qarshi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan sudning 30.06.2020-yilda chiqarilgan hal qiluv qaroriga nisbatan Davurova Dilnoza Daniyarovna tomonidan keltirilgan apellyatsiya shikoyatini berish muddatini tiklash to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqib, Davurova Dilnoza Daniyarovnaning apellyatsiya shikoyati keltirish muddatini tiklashni lozim topadi va bu haqda ajrim chiqaradi. Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 155-moddasiga ko'ra, sud tayinlangan muddatlar sud tomonidan uzaytirilishi mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar*

*qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan bo'lsa, mazkur muddat tiklanadi.*

**Protsessual muddatlarni to'xtatib turish** – qonunda belgilangan asoslar va sabablarga binoan sudyaning tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalariga asosan sudyaning ajrimiga ko'ra amalga oshiriladigan protsessual harakat. Mazkur holatda sudya ish yuritishni to'xtatish haqida ajrim chiqaradi. Ish yuritishni to'xtatish asoslarini ikki turga ajratish to'g'ri bo'ladi, majburiy (obyektiv) asoslar (bunda hech kimga bog'liq bo'lmagan, ammo holat, vaziyat shuni taqozo etadigan asoslar) vujudga keladi va unda ish yuritishni to'xtatish majburiy ahamiyatga ega. Fakultativ (subyektiv) asoslar (bunda holat, vaziyat ishda ishtirok etuvchi shaxslar harakatlari, ixtiyori bilan bog'liq bo'ladi) da ishni to'xtatish nomajburiy xarakterga ega bo'ladi. Protsessual qonunchilikda ayrim holatlarda (protsessual harakatlarni o'z vaqtida bajara olmaslik, taraflarning huquq va manfaatlarini o'z vaqtida himoya qila olmaslik, taraflarning o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyat va hodisalarning yuz berishi, xususan, tabiiy ofat, pandemik sharoit, kasallik, muomalaga layoqatsizlik, harbiy xizmatga chaqirilish va boshq.) olib borilayotgan sud majlisini to'xtatishga olib keladi. Ish yuritishni to'xtatish harakati barcha fuqarolik sud ishlarini yuritishga nisbatan tatbiq etiladi va sud protsessining barcha bosqichlariga nisbatan tatbiq etiladi. Faqat sud buyrug'i bundan istisno.

Ish yuritish tiklanguniga qadar sud biror-bir protsessual harakatlarni amalga oshirishga haqli emas, bundan da'voni va dalillarni ta'minlashga qaratilgan harakatlar mustasno.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash asoslarini tahlil qiling.*
- 2. Da'vo muddati qo'llanilmaydigan ishlar toifasini tushuntiring.*
- 3. Fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida muddatlar belgilanmagan protsessual harakatlarga izoh bering.*
- 4. Yarashtiruv tartib-taomillarini qo'llash jarayonida qanday muddatlar belgilangan?*
- 5. Ekspertiza o'tkazish, mutaxassis tayinlash, ulardan xulosa, tushuntirish, maslahatlar olish, ish natijalarini baholashga oid muddatlarni tushuntiring.*

## 15-mavzu: **PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI**

**Annotatsiya:** mazkur bobda protsessual majburlov choralari tushunchasi, maqsadi va turlari, sud amaliyotida qo'llanilishi, majburlov choralari qo'llash asoslari va tartibi haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** sud, protsessual majburlov choralari, majburiy keltirish, ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, sud jarimasi, ajrim.

### **1-§. Protsessual majburlov choralari tushunchasi va maqsadi**

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda barcha protsess ishtirokchilari tegishli protsessual tartib-intizomga rioya qilgan holda fuqarolik ishlarini mazmunan hal qiladi. Protsessual kodeksda belgilangan huquq va majburiyatlar ijrosini ta'minlash har bir subyektdan chuqur mas'uliyat, muayyan majburiyat, oqilona muddat va natija talab etadi. Mazkur talablar sudya va protsessning boshqa ishtirokchilari uchun majburiy sanaladi. Ammo aksariyat adabiyotlarda (milliy va xorijiy) protsessual huquq va majburiyatlarni bajarish (bajartirish) atamasi «Protsessual javobgarlik», «Protsessual majburlov choralari» sifatida ko'rinadi. Biroq bu ikki tushuncha ikki xil atama, turlicha mazmun kasb etadi, ammo ikkisi bir-birini mazmunan va tizimli to'ldiradi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga yangi **14-bob[4] (143–150-modda)** «**Protsessual majburlov choralari**» kiritildi. **Unga ko'ra, protsessual majburlov choralari (soercive procedural measures)ning turlari sifatida** Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish; ogohlantirish; sud majlisi zalidan chiqarib yuborish; sud jarimasi ko'rsatilgan.

Shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralarining qo'llanilishi uni Fuqarolik protsessual kodeksida yoki sud tomonidan belgilangan tegishli majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.



## **Ushbu institutning kiritilish zarurati:**

- fuqarolik protsessual huquqiy institutlarni yagona, tizimli, alohida bobda ifodalanishini ta'minlaydi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual tartibga og'ishmay rioya qilishini ta'minlaydi;
- sud protsessining o'z vaqtida va sifatli olib borilishiga ko'maklashadi;
- protsessual majburlov choralari instituti nufuzini oshirishga xizmat qiladi;
- protsessual muddat (vaqt)ni tejaydi;
- protsessual majburiyat va intizomni mustahkamlaydi.


**ESDA TUTING!**

**Protsessual majburlov choralarini kiritish-dan asosiy maqsad** – taraflarning protsessual majburiyatlari bajarilishini ta'minlash; ishni o'z vaqtida, sifatli ko'rilishini ta'minlash; majburlov choralarining tizimli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Protsessual majburlov choralarini nafaqat birinchi instansiya sudlarida, balki ish holatiga ko'ra yuqori instansiya sudlarida ham ishni hal qilish bosqichida qo'llashga yo'l qo'yiladi.

## 2-§. Protsessual majburlov choralari turlari

Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, **protsessual majburlov choralari turlari:**



Aksariyat ilmiy adabiyotlarda protsessual majburlov choralari **mulkiy va nomulkiy xarakterdagi choralar** sifatida turlarga ajratiladi.

Mulkiy xarakterdagi majburlov chorasiga sud jarimasi, nomulkiy xarakterdagi majburlov choralariga esa Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda **majburiy keltirish, ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish** kiradi. Biroq protsessual majburlov choralari, xususan, majburiy keltirishni qo'llash doirasi nuqtai nazaridan ayrim **ilmiy munozaralar va mushohadalar** mavjud.

**Sud amaliyoti materiallari tahlillari hamda bajarilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra**, fuqarolik sud ishlarini yuritish amaliyotida protsessual choralarni qo'llash natijalari, jumladan, o'rganilgan sud hujjatlari doirasida **ogohlantirish (48%), sud majlisi zalidan chiqarib yuborish (36%), jarima (13%), majburiy keltirish (3%)**ni tashkil etadi.



### 3-§. Majburiy keltirish

**Majburiy keltirish** – shaxs (keltirilishi shart bo'lgan) ning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan holatlarda qo'llaniladigan majburlov chorasi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 143-moddasida «ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish» normasini sharhlash, bunda Fuqarolik protsessual kodeksining aynan qaysi moddalari nazarda tutilganligini izohlash birmuncha qiyin kechmoqda.

Ammo Oliy sud Plenumi qarorining 21-bandida bu haqida shunday ko'rsatiladi: Fuqarolik protsessual kodeksining

144-moddasiga muvofiq majburiy keltirish protsessual majburlor chorasi sifatida faqat shaxs sud majlisi vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan, uning sud muhokamasida ishtiroki qonunga ko'ra shart bo'lgan yoki sud tomonidan shart deb topilgan hollarda qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi. Majburiy keltirish haqidagi sud ajrimi ijrosi unda ko'rsatilgan ichki ishlar organiga yuklatiladi. Majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlarni undirish masalasi sud tomonidan ajrim chiqarilgan paytda yoki ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinayotgan paytda hal qilinishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasida majburiy keltirish berilgan. Unga ko'ra, agar Fuqarolik protsessual kodeksining 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma'lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin. Mazkur ajrimning ijrosi hududiy ichki ishlar organining zimmasiga yuklatiladi.

Majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlarni undirish Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda hududiy ichki ishlar organining tegishli arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimida Fuqarolik protsessual kodeksining 272-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari, shaxs majburiy keltirilishi lozim bo'lgan sana, vaqt va joy, shuningdek, majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko'rsatiladi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi darhol ijro etilishi lozim va ish yuritiladigan joydagi yoki majburiy keltirilishi kerak bo'lgan shaxsning yashash joyi, turgan joyi (joylashgan yeri), ish, xizmat yoxud o'qish joyidagi hududiy ichki ishlar organiga ijro uchun yuboriladi. Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to'xtatmaydi.

**Majburiy keltirish** voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

**Amaliyot materiallari tahlili.** Sud amaliyotida uyjoydan ko'chirish, nikohdan ajratish, shaxsiy mulklarni o'zganing noqonuniy egaligidan olish to'g'risidagi ishlar bo'yicha taraf (javobgar)ni majburiy keltirish haqidagi ajrimlar chiqarilmoqda.

### *Masalan*

*Da'vogar N.N.ning javobgar T.T.ga nisbatan shaxsiy mulklarni o'zganing noqonuniy egaligidan olish to'g'risidagi fuqarolik ishini ko'rib chiqib, garchand ish hujjatlarida javobgar T.T. tomonidan otasi A.T.ga sudda vakil tariqasida qatnashishi uchun ishonchnoma taqdim etilgan bo'lsada, sud, da'vo arizaga obyektiv baho berish maqsadida javobgarning shaxsan o'zini sudda ishtirok etishini lozim topdi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan agar ishning holatlari bo'yicha zarur bo'lsa, sud taraflarning sud majlisida ishtirok etishini shart deb topishi mumkin. Javobgar T.T. 2018-yil 7-mart, 2018-yil 23-mart, 2018-yil 3-aprel va 2018-yil 5-apreldagi sud majlislariga kelishi haqida tegishli tartibda ogohlantirilgan hamda javobgarni sudga kelishini ta'minlash ish joyi «T.» MCHJga chaqiruv xatlari yuborilgan bo'lishiga qaramay javobgar sud majlisiga hech bir uzrli sabablarsiz kelmadi va kelmaganlik sababini ma'lum qilmadi. Shu bois sud majlisi boshqa kunga qoldirildi.*

*Sudning 2018-yil 5-aprel kunidagi ajrimiga asosan T.T. fuqarolik ishi yuzasidan 2018-yil aprel oyining 12-kuni soat 15–30 da tayinlangan sud majlisiga majburiy tartibda keltirish belgilangan va ajrimni ijro qilish tuman ichki ishlar bo'limi zimmasiga yuklatilgan.*

*Ish holatidan kelib chiqib, sud javobgarni sud majlisida shaxsan o'zining ishtirokini lozim deb topganligi, uning sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasligi mazkur fuqarolik ishini ko'rishni qasddan cho'zish deb baholab, uni navbatdagi sud majlisiga yashash va ish joyi bo'yicha hududiy ichki ishlar organi xodimlari tomonidan majburiy tartibda keltirishni hamda ichki ishlar organiga kelgusida sarf-xarajatlarni undirishni so'rab sudga ariza bilan murojaat qilish huquqi borligini lozim topadi.*

*Sud ajrimida «B» manzilda yashovchi, «G.» manzilda ishlovchi 1989-yil 23-martda tug'ilgan T.T. fuqarolik ishi yuzasidan 2018-yil aprel oyining 16-kuni soat 17:00 ga tayinlangan sud majlisiga majburiy tartibda keltirilishi, ajrimni ijro qilish javobgar T.T.ning yashash va ish joyi hududi bo'yicha tuman ichki ishlar bo'limi zimmasiga yuklatilishi, tuman ichki ishlar bo'limiga kelgusida majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlarni undirish haqidagi ariza bilan murojaat qilish huquqi borligi tushuntirilishi, ajrim darhol ijroga qaratilishi, ajrimdan norozi tomon 10 kunlik muddat ichida Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirishi mumkinligi ko'rsatilgan.*

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, «Sudlar to'g'risida»gi, «Prokuratura to'g'risida»gi hamda «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq, shuningdek surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha topshiriqlarni ijro etish tartibini takomillashtirish maqsadida 2018-yil 15-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha topshiriqlarni ijro etish tartibi to'g'risida»gi

nizomni tasdiqlash haqidagi 1024-son qarori qabul qilinib, unga ilova tarzida «Surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo'yicha topshiriqlarni ijro etish tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi.

### **Majburiy keltirishning tashkiliy (texnik) jihatlari.**

Nizomga ko'ra, majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim) kelib tushgan kunning o'zida ichki ishlar organining kotibiyatida yuritilgan maxsus jurnalda ro'yxatga olinishi va ichki ishlar organi boshlig'i, u bo'lmaganda uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxs tomonidan ijro etish uchun profilaktika (katta) inspektori yoki jinoyat qidiruv xodimiga topshirilishi va ijrosi nazorat qilinishi lozim. Majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim)ning ijrosini ta'minlash maqsadida boshqa tuman yoki viloyatga borib kelish zarurati tug'ilganda birlashtirilgan hududni tashlab ketish lozim bo'lgan holatlarda profilaktika (katta) inspektorlariga qaror (ajrim)ni ijro etish uchun topshirilishi qat'iy taqiqlanadi. Ichki ishlar organi xodimi majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxsni majburiy keltirish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan vaqtda va joyga olib borish choralarini ko'rish shart. Ichki ishlar organi xodimi majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim)ni ijro etishda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlariga amal qilishi, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi hamda majburiy keltirilayotgan shaxsga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shart. Shaxsni majburiy keltirish soat 06.00 dan 22.00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxs topilgan taqdirda ichki ishlar organi xodimi unga majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim)ni tanishtirib, tilxat olishi va mazkur qaror (ajrim)ni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga olib kelishi shart. Bunda qaror (ajrim)ga shaxs topilgan vaqt va joy, uni olib kelib topshirilgan vaqt, shuningdek, uning majburiy keltirilishi bilan bog'liq ariza, shikoyat va iltimoslar haqidagi ma'lumotnoma ilova qilinishi lozim. Majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxs o'qisa yoki ishlasa, majburiy keltirish to'g'risidagi qaror (ajrim)

uning o'qish yoki ish joyidagi ma'muriyatga ma'lum qilinadi va ijrosini ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatishi yuzasidan ko'rsatma beriladi.

#### 4-§. Ogohlantirish

**Ogohlantirish.** Nomulkiy xarakterdagi protsessual choralar sifatida ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborishni keltirish mumkin. Ogohlantirish protsessual harakatlar (protsessual tartib) buzilgan hollarda alohida yoki ketma-ket qo'llaniladigan nomulkiy xarakterdagi protsessual majburlov chorasi sanaladi. Ishni muhokama qilish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi. Garchi u og'zaki e'lon qilinsada, yozma yoziladi va sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmagan taqdirda ular ogohlantiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana bo'ysunmasa, agar ularni ishga zarar yetkazmagan holda boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo'lmasa, ishni ko'rish sudning ajrimiga binoan keyinga qoldirilishi mumkin. Sud bir vaqtning o'zida xususiy ajrim chiqaradi, ushbu ajrim tegishincha yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuboriladi.

#### *Masalan*

*Sudda ko'rilgan otalik faktini belgilash haqidagi sud majlisida manfaatdor shaxs sifatida qatnashayotgan fuqaro T.G. ning protsessual tartibga rioya qilmaganligi, bir necha marta ogohlantirilganligiga qaramay, o'zining nomunosib xulq-atvorini ko'rsatayotganligi sababli sud uni muayyan vaqtga sud majlisi zalidan chiqarib yubordi. Yoki vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha qatnashayotgan «O.A.» advokatlik byurosi advokati S.S. suddagi protsessual tartibga bo'ysunmaganligi uchun sud majlisida ogohlantirildi.*



## **5-§. Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish**

**Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish.** Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish protsessual harakatlar (protsessual tartib) buzilgan hollarda alohida qo'llaniladigan nomulkiy xarakterdagi protsessual majburlov chorasi sanaladi. Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish tartibni buzgan ishda ishtirok etuvchi shaxsga qo'llaniladigan chora hisoblanib, bu yerda birinchi marta ogohlantirish berilgandan keyin qo'llanilishi-qo'llanilmasligi haqida protsessual qonun hujjatlarida hech qanday ko'rsatma berilmagan. Sud majlisida taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzgan taqdirda, sud tartibbuzarni ishni ko'rishning hamma vaqtiga yoxud uning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi. Vaqtincha chiqarib yuborilgan shaxs sud majlisi zaliga qaytadan qo'yilganda raislik qiluvchi uni zalda yo'q bo'lganda amalga oshirilgan protsessual harakatlar bilan tanishtiradi. Sud majlisida har ikki taraf yoki uchinchi shaxslar tartibni buzgan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

**Sud majlisi zalidan chiqarib yuborishning birinchi holatida quyidagi xususiyatlar e'tiborga olinadi:**

- Subyektlar doirasi (taraf yoki uchinchi shaxs);
- Qancha vaqtga (butun majlis davomida yoki muayyan bir qismiga);
- Necha marta buzilganligi (birinchi marta);
- Qaysi protsessual hujjat bilan rasmiylashtiriladi;
- Ish muhokamasi keyinga qoldiriladi (har ikki taraf yoki uchinchi shaxslar tartibni buzgan taqdirda).

Taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzgan taqdirda, sud tartibbuzarni ishni ko'rishning hamma vaqtiga yoxud uaning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi


Ishda ishtirok etayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda, sudning ajrimiga binoan sud majlisi zalidan chiqarib yuboradi

Fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin

Ishda ishtirok etayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda, sudning ajrimiga binoan, ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda, sud ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

### **Sud majlisi zalidan chiqarib yuborishning ikkinchi holatida quyidagi xususiyatlar e'tiborga olinadi:**

- Subyektlar doirasi (ishda ishtirok etayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar);
- Qancha vaqtga (ko'rsatilmagan);
- Necha marta buzilganligi (takroran);
- Qaysi protsessual hujjat bilan rasmiylashtiriladi (sudning ajrimiga binoan);
- Ish muhokamasi keyinga qoldiriladi (fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda).



## 6-§. Sud jarimasi

**Sud jarimalari. Sud jarimalari** protsessual chora sifatida Fuqarolik protsessual kodeksining 146–149-moddalarida o'z ifodasini topgan. Fuqarolik protsessual kodeksining 146-moddasiga ko'ra, sud jarimalari Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda solinadi. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 57-moddasi (Guvohning majburiyatlari va javobgarligi), 60-moddasi (Ekspertning majburiyatlari va javobgarligi), 62-moddasi (Mutaxassisning huquq va majburiyatlari), 63-moddasi (Tarjimonning huquq va majburiyatlari), 86-moddasi (Yozma dalillarni taqdim etish majburiyati), 110-moddasi (Da'voni ta'minlash choralariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik), 186-moddasi (Alimentlar undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarning sudga kelishi) kabi ushbu normalarda belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun jarimalar solinadi. Sud jarimasini solish to'g'risida ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi jarima solingan shaxsga darhol yuboriladi. Sud tomonidan solinadigan sud jarimasining miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oshmasligi kerak. Sud jarimasi nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, balki sud majlisi ishtirokchisi bo'lmagan, ammo sud topshirig'i (sudning talabi) ga ko'ra tegishli majburiyatlarni (masalan, dalillarni taqdim qilish majburiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yoki mansabdor shaxslarga ham) bajarishi lozim bo'lgan shaxslarga ham qo'llaniladi.

Sud jarimalari davlat daromadiga undiriladi. Mansabdor shaxslarga sud tomonidan solingan sud jarimalari ularning shaxsiy mablag'laridan undiriladi. Jarima solingan shaxs jarima solgan suddan jarimadan ozod qilishni yoki uning miqdorini kamaytirishni sud ajrimining ko'chirma nusxasini olganidan keyin besh kun ichida iltimos qilishi mumkin. Bu ariza jarima solingan shaxsni xabardor qilgan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq uning sudga kelmaganligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi. Sudning jarima solish,

jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimlari ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

### **Sud jarimalari solishning o'ziga xos jihatlari:**

- Jarima faqat sud tomonidan va sudyaning ajrimi asosida solinadi;
- Jarima faqat Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollardagina solinadi;
- Jarimaning miqdori protsessual qonunchilikda cheklangan, jumladan (eng kam ish haqi) BHM ning besh baravaridan oshmasligi kerak;
- Protsessual majburiyat yuklangan shaxslargagina va ular belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda qo'llaniladi;
- Jarima solish haqidagi ajrim ustidan xususiyat shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin;
- Jarimaga oid ajrimlarni jarima solish, jarimadan ozod qilish, jarima miqdorini kamaytirish, jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimlar sifatida tasniflash o'rinli.

*Xorijiy qonunchilik va amaliyot.* Xorijiy davlatlar (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston) fuqarolik protsessual qonun hujjatlari, xususan, protsessual kodekslarida asosan ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish choralari qo'llanilmoqda. ***Birgina Rossiya*** Fuqarolik protsessual kodeksida sud majlisida tartibni buzuvchilarga qo'llaniladigan choralar (ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, jarima qo'llash, jinoyat alomatleri aniqlansa, materiallarni prokurorga yuborish, ommaviy tarzda sud tartib buzilsa, ish ko'rishni keyinga qoldirish); ***Ukraina*** Fuqarolik protsessual kodeksida ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, sud tomonidan o'rganish uchun dalillarni vaqtincha olish; guvohni majburiy keltirish;

**Qozog'iston** Fuqarolik protsessual kodeksida esa sudga hurmatsizlik ko'rsatganlik uchun majburlov choralari, sudga keltirish, sud majlisi zalidan chiqarish; **Turkmaniston** Fuqarolik protsessual kodeksida ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, advokat va prokurorni ogohlantirish va bu haqida yuqori turuvchi organga xabar berish; **Qirg'iziston** Fuqarolik protsessual kodeksida sud jarimasi hamda sud majlisida tartibni buzuvchilarga qo'llaniladigan (ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, jarima qo'llash, jinoyat alomatlari aniqlansa, materiallarni prokurorga yuborish, ommaviy tarzda sudda tartib buzilsa, ish ko'rishni keyinga qoldirish) choralar mavjud. Mulkiy va nomulkiy xarakterdagi protsessual majburlov choralari protsessual tartibni mustahkamlaydi, protsessual majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi, ishni o'z vaqtida va puxta ko'rilishini ta'minlaydi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kim va qanday protsessual mavqega ega bo'lishidan qat'i nazar, odil sudlovning prinsiplariga og'ishmay rioya qilishga undaydi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Fuqarolik protsessual kodeksiga «Protsessual majburlov choralari» bobining kiritilish zaruratini ifodalang.*
- 2. Protsessual majburlov choralari va protsessual javobgarlik tushunchalarining o'xshash va farqli jihatlari izohlang.*
- 3. Protsessual majburlov choralari institutiga bag'ishlangan qanday ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarni bilasiz?*
- 4. Protsessual majburlov choralari sud faoliyatining har bir bosqichida qo'llaniladi(mi?).*
- 5. Protsessual majburlov choralari qo'llashga doir qaysi protsessual hujjatlarni rasmiylashtirasiz?*

## 16-mavzu: SUDDA FUQAROLIK ISHINI QO'ZG'ATISH

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishini qo'zg'atish, asoslari va tartibi, ushbu bosqichda chiqariladigan ajrimlar, da'vo arizasi va unga qo'yilgan talablar haqida fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** sudya, sudya yordamchisi, ariza, da'vo ariza, arizani qabul qilish, arizani qabul qilishni rad etish, arizani qaytarish, ish qo'zg'atish, ajrim.

### 1-§. Fuqarolik ishini qo'zg'atish asoslari va tartibi

Ma'lumki, har qanday fuqarolik ishi ish qo'zg'atish orqali boshlanadi. Fuqarolik protsessual kodeksining 20-bobi (188–200-moddalar) ish qo'zg'atish jarayoniga bag'ishlangan.

Ish qo'zg'atish – birinchi instansiya sudida ish yuritishning dastlabki va muhim bosqichi sanalib, sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi.

**Sudga murojaat qilishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:**

- ✓ Talab (murojaat) ning sud va boshqa organlar vakolatiga tegishlilikini aniqlash;
- ✓ Arizani (da'vo ariza) ni tayyorlash;
- ✓ Ilova hujjatlarini tayyorlash;
- ✓ Davlat boji miqdorini aniqlash va to'lash;
- ✓ Arizani (da'vo ariza) ni topshirish.

**Sudga ariza topshirish tartibi:**

- ✓ Sudlarda fuqarolarni qabul qilish orqali;
- ✓ Pochta xizmati orqali;
- ✓ Elektron shaklda (E-XSUD, E-SUD) axborot tizimi orqali.

**Sudga murojaat qilishda quyidagi hujjatlar beriladi:**

- ✓ Da'vo tartibida yuritiladigan ishlar bo'yicha – **da'vo arizasi shaklida** (fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar);

✓ Buyruq tartibida, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha, shuningdek, protsessual qonunda belgilangan boshqa hollarda (hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq bo'lgan ishlar, chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda – **ariza shaklida**;

✓ Sud qarorlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida qayta ko'rishda – **shikoyat (protest) shaklida**.



Sudda ishlar yozma shaklda, shu jumladan pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi.

Ish qo'zg'atish – fuqarolik protsessining mustaqil, dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxslarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida belgilangan «sudga murojaat qilish huquqi» ni amalga oshirishga qaratilgan protsessual harakat sanaladi.

Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi ajrim alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladi va bunday ajrim ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilinmaydi.

#### **Sudya:**

- arizani ish yuritishga qabul qilish;
- arizani qabul qilishni rad etish;



- arizani qaytarish to'g'risida ajrim chiqaradi.
- ushbu masalalarni ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yakka tartibda hal etadi.
- arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga arizachiga ajrim chiqarilgandan keyingi kundan kechiktirmay yuboradi.

**Sudya arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish haqida ajrim chiqaradi, agar:**

- ish (talab) bo'yicha sudlovlik qoidalariga rioya qilingan bo'lsa,
- ariza (da'vo ariza) belgilangan talablarga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa;
- arizaga ilova qilinadigan hujjatlar to'liq bo'lsa;
- sudga murojaat qiluvchi shaxs (lar) protsessual huquq va protsessual muomala layoqatiga ega bo'lsa;
- sudga murojaat qiluvchi shaxs (lar) ish yuritishga vakolatli bo'lsa;
- talab (ish) bo'yicha da'vo muddati o'tmagan bo'lsa;
- ishni sudga qadar hal qilish tartibiga rioya qilingan bo'lsa.

### AJRIM

*(arizani qabul qilish va fuqarolik ishini qo'zg'atish haqida)*

2020-yil iyun oyining 26-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi Ya.Ya.Yarashev

Da'vogar Odilov Orifjon Olimjonovichning javobgar Shoimov Shavkatjon Shaxobiddinovichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi bilan tanishib chiqdi.

Da'vo arizasi O'zbekiston Respublikasi FPKning 189–190-moddalari talablariga javob beradi va uni rad etish uchun asoslar mavjud emas.

### **AJRIM QILADI:**

Da'vogar Odilov Orifjon Olimjonovichning javobgar Shoimov Shavkatjon Shaxobiddinovichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi yuzasidan to'plangan hujjatlar ish yuritish uchun qabul qilinsin hamda 2-3434/20-sonli fuqarolik ishi qo'zg'atilsin.

**Sudya:**

**Ya.Ya.Yarashev**

## **2-§. Da'vo arizasi, uning tuzilishi va mazmuni**

Sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish uchun da'vogar, uning vakili va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan beriladigan ariza asos bo'ladi. Ammo fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari va xususiyatlariga ko'ra ish qo'zg'atish uchun asos bo'luvchi protsessual hujjatlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, da'vo qo'zg'atish tartibida ko'riladigan ishlar bo'yicha da'vo arizasi, alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha – ariza, buyruq tartibida ish yuritishda – sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni yuritish bo'yicha – ariza asos bo'ladi.

Arizaning yozma shakliga qo'yiladigan talablar haqida Fuqarolik protsessual kodeksining 189, 190 va 191-moddalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bevosita bir-birini to'ldiruvchi normalar hisoblanadi.

### **189-modda. Arizaning mazmuni**

Arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) da'vogarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar da'vogar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan

yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari, shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;

3) javobgarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar javobgar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari;

4) da'vogarning talabi;

5) agar da'vo baholanishi kerak bo'lsa, da'voning bahosi;

6) da'vogar o'z talabiga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va da'vogar tomonidan bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;

7) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

8) arizaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizada ushbu moddada sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi) hamda manzili ko'rsatilishi kerak.

Arizada da'vogarni yoki uning vakilining, shuningdek boshqa tarafning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada elektron manzili ko'rsatilganligi arizachining sud chaqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarorlarining hamda ajrimlarining ko'chirma nusxalarini elektron hujjat tarzida olishga bo'lgan roziligidir.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha  
Mirobod tumanlararo sudiga**

**Da'vogar:** Karimberdiyev Kamol  
Komilovich, 1977-yil tug'ilgan.

**Manzili:** Toshk.sh.,  
Yashnobod tumani  
Sokin ko'chasi, 20 uy.

**Telefon:** 97/925-15-05

**Javobgar:** Nodirova Nigora  
No'mon qizi, 1980-yil tug'ilgan.

**Manzili:** Tosh.sh., Mirobod tumani,  
Taraqqiyot ko'chasi, 55-uy.

**Telefon:** 97/922-12-02

**DA'VO ARIZA**

*(Aliment miqdorini kamaytirish haqida)*

Men va javobgar o'rtamizdagi qonuniy nikoh Yashnobod tuman FHDYO bo'limi tomonidan 2010-yil 10-sentabrda I-AA 0050005-son bilan qayd etilgan.

Birgalikdagi turmushimizdan 2011-yil 10-dekabrda tug'ilgan va Yashnobod tuman FHDYO bo'limi tomonidan berilgan (tug'ilganlik haqida guvohnoma seriyasi I-AA 0000001) Komilov Komronjon Kamol o'g'li hamda 2014-yil 10-mayda tug'ilgan Komilova Karima Kamol qizi ismli (tug'ilganlik haqida guvohnoma seriyasi I-AA 0000005) farzandlarim bor.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining 2019-yil 10-apreldagi sud buyrug'iga asosan mendan voyaga yetmagan ikki nafar farzandlarim: Komilov Komronjon Kamol o'g'li va Komilova Karima Kamol qizi ismli farzandlarimning moddiy ta'minoti uchun aliment undirish belgilangan.

Aliment miqdorini kamaytirish uchun quyidagi asoslarni taqdim etaman:

- Aliment olayotgan farzandlarim onasi, javobgar Nodirova Nigora No'mon qizi mustaqil daromadga ega, ishdan tashqari vaqtda ingliz tili fanidan repititorlik bilan shug'ullanadi, Oliy

ta'lim muassasalaridan birida katta o'qituvchi bo'lib ishlayapti va ish haqi oladi.

- Mening qaramog'imda onam (2-guruh nogironi) va xotinim homiladorlik ta'tilida va 2017-yilda tug'ilgan o'g'lim Komilov Kozimjon Kamol o'g'li yashaydi.

- O'zim IIV tizimi idoralaridan birida tezkor vakil sifatida ishlayman, ish haqim oyiga 3 400 000 so'm.

- Xotinim o'rta maxsus ma'lumotli hamshira, ayni paytda homilador, yaqinda yana bitta farzand tug'iladi va u ham ma'lum muddat bola tarbiyasi ta'tilida bo'ladi.

- Boshqa qo'shimcha daromadim yo'q, alimentga ushlab qolingan summadan keyin oladigan oyligim oilam ta'minoti uchun yetmayapti.

Javobgar bilan o'rtamizda farzandimiz (farzandlarimiz)ni moddiy ta'minoti haqida kelishuv mavjud emas.

Yuqorida qayd etilgan holatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 105-moddasiga va 188–191-moddalariga binoan

### **SO'RAYMAN:**

1980-yilda tug'ilgan javobgar Nodirova Nigora No'mon qizi foydasiga 2011-yil 10-dekabrda tug'ilgan Komilov Komronjon Kamol o'g'li hamda 2014-yil 10-mayda tug'ilgan Komilova Karima Kamol qizi ismli farzandlarimning moddiy ta'minoti uchun Fuqarolik ishlari bo'yicha Miroybod tumanlararo sudining 2019-yil 10-apreldagi sud buyrug'iga asosan asosan mendan undirilayotgan aliment miqdorini kamaytirishni.

#### **Ilova qilinadi:**

1. Da'vo ariza nusxasi.
2. Pasport nusxalari
3. Davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi xujjat.
4. Sud buyrug'i nusxasi
5. Aliment miqdorini kamaytirishga asos qilib keltirilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi.

**Da'vogar**

(imzo)

**Nodirova N.N.**

**2020-yil** «\_\_» \_\_\_\_\_

### **1) ariza berilayotgan sudning nomi;**

Arizada ariza berilayotgan sudning nomi ko'rsatiladi. Ammo sud amaliyotida sudga murojaat qiluvchilar tomonidan tegishli tartibda sud raisining nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi) ham ko'rsatilishi mumkin, bu albatta protsessual tartibga zid hisoblanmaydi.

**2) da'vogarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar da'vogar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari, shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;**

Mazkur talabdan maqsad – sudlovlikni belgilash, da'vogarning sudga chaqirilishini o'z vaqtida ta'minlash, da'vogarning ish yuritishga vakolatligini aniq belgilash, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

**3) javobgarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar javobgar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari;**

Arizada javobgarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi), yashash joyi (doimiy, vaqtincha) ko'rsatiladi. Ayrim holatlarda javobgarning yashash joyi noma'lumligi ko'rsatiladi. Masalan, javobgar: Karimova Oysha Po'latovna, doimiy yashash joyi – Toshkent shahar Furqat ko'chasi, 34-uy 28-xonadon.

Javobgar tashkilot bo'lsa, uning yuridik manzili ko'rsatilishi kerak. Masalan, «Yuksalish» MCHJ, yuridik manzili: Toshkent shahar Uchtepa tumani Dilkash ko'chasi, 2 -uy.

### **4) da'vogarning talabi;**

Sudga murojaat qilishdan asosiy maqsad – da'vogar talabining mavjudligi sanaladi. Da'vogarning da'vo arizasida ko'rsatilgan talab: mulkiy va nomulkiy xarakterdagi talab,

sud orqali da'vogar tomonidan javobgardan talab qilinayotgan narsa, predmet, huquq va boshq.

**5) agar da'vo baholanishi kerak bo'lsa, da'voning bahosi;**

Bu yerda da'vo talabining bahosi nazarda tutiladi. Da'vo bahosi to'lanadigan davlat boji uchun muhim ahamiyatga ega. Odatda da'voning bahosi da'vogar tomonidan ko'rsatiladi. Da'vogar ko'rsatgan baho da'vo qilinayotgan mulkning haqiqiy qiymatiga muvofiq emasligi yaqqol bo'lsa, da'voning bahosini sudya belgilaydi.

**6) da'vogar o'z talabiga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va da'vogar tomonidan bayon qilingan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;**

Da'vogar tomonidan o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar (taqdim etilgan dalillar) turkumi tushuniladi.

*Masalan*

*Hadya shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi da'volar bo'yicha hadya oluvchi tomonidan hadya qiluvchi va uning oila a'zolari, yaqin qarindoshlari hayoti va sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etganligini tasdiqlovchi sudning hukmidan nusxa, hadya qilingan mulkni yo'q bo'lib ketish xavfini soluvchi holatlarni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinadi. Mulkni ro'yxatdan (arest)dan chiqarish haqidagi da'volar bo'yicha mulkni ro'yxat (arest) ga olingani va baholangani to'g'risidagi dalolatnoma nusxasi, mulkni ro'yxatga olish uchun asos bo'lgan hujjatlar (sudning hukmidan nusxa, da'voni ta'minlash to'g'risidagi cud ajrimi, ijro varaqasi, ijroga taalluqli notarial nizolar va boshq). Talab qilinadigan mulkning da'vogarga tegishlilikini tasdiqlovchi dalillar (hokimlik qarori, oldi-sotdi, ayirboshlash yoki hadya shartnomalari, merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomalar, mulkning kreditga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma, mulk pasporti va boshqalar) ilova qilinadi.*

**7) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;**

Mazkur shart nizoni hal qilishning sudga qadar hal qilish protsedurasiga rioya qilingan-qilinmaganligini ifodalaydi. Taalluqlilik qoidalariga rioya qilishni kafolatlaydi. Qonun yoki shartnoma intizomini mustahkamlaydi. Masalan, da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, bunday asosga binoan arizani qaytarish haqida ajrim chiqariladi.

### **8) arizaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.**

Arizaga ilova qilinadigan hujjatlarning barchasi ham ishga doir dalil sifatida qaralmaydi, balki sud ishlarini yuritishga, ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari chiqarishga ko'maklashadi. Masalan, xizmat turar-joyidan ko'chirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha quyidagi hujjatlar: xizmat turar-joyiga berilgan order, mehnat shartnomasi nusxasi, oila tarkibi haqida ma'lumotnoma, da'vogar va javobgarning pasport nusxalari, turar-joyini da'vogarga tegishlilikini hamda bu turar-joy javobgarga xizmat vazifasi yuzasidan berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ish beruvchi tomonidan chiqarilgan buyruq nusxasi, davlat boji to'langanligi haqida chipta.

Qoidaga ko'ra, ishonchnomadan tashqari, vakillik vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar deganda shartnomali vakillarda order, qonuniy vakilda pasport, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, vasiy yoki homiy etib tayinlanganligi haqidagi qaror, farzandlikka olinganligi haqidagi qaror va boshqalar tushuniladi. Albatta, ushbu hujjatlarda imzolar haqiqiy, ko'rsatilgan muddatlar esa o'tmagan bo'lishi lozim. Da'vo talabi turlicha: tan olish, tugatish, o'zgartirish, undirishga oid bo'lishi mumkin, talab doirasiga ko'ra bir necha yoki yagona da'vo talablari bo'lishi mumkin.



Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizalarda, yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari, ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili ko'rsatilishi lozim.

### **3-§. Arizani qaytarish va rad qilish asoslari**

Arizani qabul qilib, ish qo'zg'atish jarayonida sudya tomonidan uchta ajrim chiqarishga yo'l qo'yiladi, xususan arizani ish yuritishga qabul qilish, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risida ajrim chiqariladi. Ushbu masalani arizani ish yuritishga qabul qilish to'g'risidagi, qabul qilishni rad etish yoki qaytarish haqidagi masalani ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yakka tartibda hal etadi.

Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga arizachiga ajrim chiqarilgandan keyingi kundan kechiktirmay yuboriladi.

Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risidagi ajrimlar sudga murojaat qilishda protsessual tartib-intizomga rioya qilishni ta'minlaydi, mavjud kamchiliklarni tuzatishga imkon beradi, amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni kafolatlaydi.

Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish yoki qaytarish to'g'risidagi ajrimlar muayyan protsessual asoslari va oqibatlariga ko'ra bir-biriga o'xshaydi hamda farq qiladi.

#### **Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish:**

- Protsessual asoslariga ko'ra ushbu talab (lar) yuzasidan yana qayta (ikkinchi marta) sudga murojaat qilib bo'lmaydi.

#### **Arizani qaytarish:**

- Kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga yo'l qo'yiladi.

- Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladi.

- Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.
- Arizani qaytarish yoki qabul qilishni rad etish haqidagi ajrimlar ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida apellyatsiya yoxud kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.
- Arizani qaytarish yoki qabul qilishni rad etish haqidagi ajrimlar yuzasidan sud davlat bojini qaytarish masalasini hal qilishi lozim.

## **A J R I M**

*(ariza qaytarish haqida)*

2021-yil yanvar oyining 26-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi S.S. Soliyev da'vogar Xoshimov Xayrulla Ziyadullayevichning javobgar Xaqberdiyev Fozil Xaqqulovichga nisbatan yetkazilgan zararni undirish haqidagi №2-2002-2202/777-sonli arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, quyidagilarni

## A N I Q L A D I :

Da'vogar X. Xoshimov javobgar F. Xakberliyevga nisbatan yetkazilgan zararni undirish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etgan.

Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar o'rganilganda, mazkur ariza O'zbekiston Respublikasi FPKning 191-moddasi talablariga rioya qilinmagan holda taqdim etilganligi aniqlandi.

Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 191-moddasiga muvofiq sudga kiritiladigan arizaga da'vogar tomonidan belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji hamda pochta harajati to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

X. Xoshimovning arizasiga ilova qilingan hujjatlar o'rganilganda, u tomonidan 15.610 so'm pochta harajati to'lanmaganligi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 195-moddasi ko'ra, agar arizaga belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji va pochta harajati to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa, sudya arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytaradi.

Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi.

Shularni inobatga olib, sud da'vogarga qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etib, sudga ushbu mazmundagi ariza bilan takroran murojaat etish huquqini tushuntirishni lozim topadi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi FPKning 189–191, 195, 271, 272-moddalariga asosan, sud

### A J R I M Q I L A D I:

Da'vogar Xoshimov Xayrulla Ziyadullayevichning javobgar Xakberdiyev Fozil Xaqqulovichga nisbatan yetkazilgan zararni undirish haqidagi № 2-2002-2202/777-sonli arizasi va unga ilova qilingan hujjatlar qaytarilsin.

Arizachiga qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etib, sudga ushbu mazmundagi da'vo arizasi bilan takroran murojaat etish huquqi tushuntirilsin.

Ajrimga nisbatan u topshirilgan yoki yuborilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida Toshkent shahar sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya shikoyati (protesti) berilishi mumkin.

Apellyatsiya tartibida ko'rilgan ajrim hamda apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil ichida kassatsiya shikoyati (protesti) berilish mumkin.

**Sudya:** /imzo/ **S.S.Soliyev.**  
*Nusxasi asliga to'g'ri, sudya*

**AJRIM**

*(arizani qabul qilishni rad qilish haqida)*

2020-yil noyabr oyining 14-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudi sudyasi R.R. Ravshanov, Baxodirov Bekbo'ta Boliyevichning yer maydoniga nisbatan egalik huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyatini yuklash haqidagi arizasini ko'rib chiqib, quyidagilarni

**ANIQLADI:**

B. Baxodirov sudga ariza bilan murojaat etib, unda Uchtepa tuman Chorbog' ko'chasi 14-uyda joylashgan 500,0 kv.m. yer maydoniga nisbatan egalik huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyatini yuklash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etgan.

Sud tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar o'rganib chiqilganda, mazkur ariza O'zbekiston Respublikasi FPKning 26-moddasi talablariga rioya qilinmagan holda taqdim etilganligi aniqlandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha sudga fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lsa taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 26-moddasiga muvofiq ma'muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir.

Shu kodeksning 27-moddasida ma'muriy sudlar quyidagi toifadagi ishlarni hal etadi:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

2) davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma'muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

5) davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni hal qiladi.

Sud fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan, qonun bilan o'zining vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ham hal qiladi.

Arizaga ilova qilingan hujjatlarga qaraganda, B. Baxodirov yer maydoniga egalik huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish masalasida

dastlab Uchtepa tuman hokimiyatiga murojaat qilishi lozim.

Agar tuman hokimiyatining bu boradagi javobidan yoki qaroridan norozi bo'lsa, ushbu masalada yuqoridagi qonun talabidan kelib chiqib, tuman hokimiyatining mansabdor shaxslari xatti-harakatlari ustidan Toshkent shahar ma'muriy sudiga murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Arizaga ilova qilingan hujjatlarda B. Baxodirov tuman hokimiyatiga murojaat etganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 194-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq, agar arz qilinayotgan talab sudga taalluqli bo'lmasa sudya arizani qabul qilishni rad qiladi.

Qayd etilganlarga ko'ra, sud B. Baxodirovning arizasini fuqarolik ishi sudloviga qabul qilishni rad qilishni va unga ushbu masalada tegishli tartibda dastlab tuman hokimiyatiga, keyinchalik ma'muriy sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishni lozim hisoblaydi.

Yuqoridagilarga va O'zbekiston Respublikasi FPKning 26, 194-moddasi, 271–272-moddalariga asosan, sud

### **AJRIM QILADI:**

Baxodirov Bekbo'ta Boliyevichning yer maydoniga nisbatan egalik huquqini belgilash va davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyatini yuklash haqidagi arizasini qabul qilish rad qilinsin.

Baxodirov Bekbo'ta Boliyevichga ushbu talab bilan tuman hokimiyatiga murojaat qilish, keyinchalik berilgan javobdan norozi bo'lgan taqdirda tegishli tartibda ma'muriy sudga shikoyat berish huquqi tushuntirilsin.

Ajrim ustidan o'n kun ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat berilishi yoxud xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya: /imzo/  
Asliga to'g'ri, sudya

**R.R. Ravshanov**

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, qanday protsessual-huquqiy oqibatlar yuzaga keladi? Javobingizni misollar yordamida tahlil qiling.*

2. *Sudga murojaat qilishda ayrim holatlarda hujjatlarning nusxasi, ba'zi holatlarda ularning asli talab etiladi. Ushbu qoidani tahlil qiling.*

3. *Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar, shuningdek prokuror tomonidan beriladigan arizalar bilan sudga murojaat qilishda fuqarolik ishlari va protsessual tartib yuzasidan muayyan cheklovlar mavjud (mi)?*

4. *Pandemiya sharoitida arizalarni qabul qilishda qanday yangiliklar vujudga keldi?*



## 17-mavzu: FUQAROLIK ISHLARINI SUD MUHOKAMASIGA TAYYORLASH

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash, ushbu bosqichda amalga oshiriladigan protsessual harakatlar, ishni sud muhokamasiga tayinlashga doir fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch soʻzlar:** sud, taraflar, sud muhokamasiga tayyorlash, protsessual harakat, kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, sud xabarnomasi, sud chaqiruv qogʻozi.

### **1-§. Fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlash tushunchasi, maqsadi va vazifalari**

Har bir fuqarolik ishining har taraflama, oʻz vaqtida va toʻgʻri hal qilinishi ishni sud muhokamasiga tayyorlash harakatlariga bogʻliq. Sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qoʻzgʻatganidan soʻng, ishni oʻz vaqtida va har taraflama koʻrib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sud muhokamasiga tayyorlaydi.

**Ishni sudda koʻrishga tayyorlash** – fuqarolik protsessining mustaqil va zaruriy bosqichlaridan biri hisoblanib, bu bosqichda har bir fuqarolik ishi oʻziga xos tarzda sudda koʻrishga tayyorlanadi.

**Ishni sudda koʻrishga tayyorlash maqsadi** – sudga kelib tushgan arizani oʻz vaqtida va har taraflama koʻrib chiqilishini taʼminlash, ishning haqiqiy holatini ochish, ishni sud majlisida puxta koʻrilishiga erishish, ishga oid barcha isbotlash (dalillar) doirasini toʻgʻri belgilashga qaratilgan. Ushbu bosqichda sudya va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, zarur hollarda odil sudlovni amalga oshirishga koʻmaklashuvchi shaxslarning harakatlari namoyon boʻladi.

**Ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatlari**– fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash ariza qabul qilingan va fuqarolik ishi qoʻzgʻatilgan kundan eʼtiboran oʻn kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Alohida hollarda, bu muddat o'ta murakkab ishlar bo'yicha sudyaning asoslantirilgan ajrimiga binoan yigirma kunga uzaytirilishi mumkin, bundan aliment undirish haqidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi, shuningdek, boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararining o'rnini qoplash hamda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar to'g'risidagi ishlar mustasno.

Sudya arizani qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risida ajrim chiqarganidan so'ng ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sud muhokamasiga tayyorlaydi.

### **Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari:**

✓ taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunni aniqlash;

✓ taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek nizoni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash;

✓ ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniqlash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash;

✓ ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi to'g'risidagi masalani hal qilish;

✓ taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan zarur bo'lgan dalillarni taqdim etilishi;

✓ taraflarni yarashtirish.

**Taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunni aniqlash deganda** sudya tomonidan arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo'zg'atganidan so'ng, ish bo'yicha mavjud bo'lgan va tatbiq etilishi lozim bo'lgan moddiy va protsessual qonun normalarini aniqlash tushuniladi.

**Taraflarning talab va e'tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek nizoni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash deganda** ish bo'yicha da'vogarning talabi va javobgarning e'tirozlari nimadan iborat ekanligi, uni asoslovchi faktlar (dalillar) ning mavjudligi, ularni aniqlash, jalb qilishga oid harakatlar tushuniladi.

**Ishni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniqlash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash deganda** ishga oid dalillar (isbotlash vositalari) doirasini aniqlash va ularning sud majlisiga jalb qilish masalasini hal qilish tushuniladi. Ishning mazmuni bo'yicha ushbu dalillar doirasi keng va tor darajada bo'lishi mumkin.

**Ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi masalasini hal etish deganda** FPKning 39-moddasida belgilangan (Ishda ishtirok etuvchi shaxslar) hamda 54-moddasida belgilangan (Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar) tushuniladi.

**Taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan zarur bo'lgan dalillarni taqdim etilishi deganda** ish bo'yicha zarur bo'lgan dalillarni sud muhokamasiga qadar sudga taqdim etish imkoniyati tushuniladi. Chunki dalillarning aksariyatini ariza (da'vo ariza) ga ilova qilgan holda da'vogar o'zi taqdim etadi. Bu yerda nafaqat da'vogar, balki javobgar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan ishga oid dalillarni sudning tashabbusi (so'rovi) ga ko'ra yoki taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidantaqdim etishlari tushuniladi.

**Taraflarni yarashtirish deganda** kelib chiqqan nizoni sud muhokamasi o'tkazmasdan turib, tinch va murosa yo'li bilan hal etish, bartaraf etishga yana bir marotaba taraflarga imkoniyat berish demakdir.

Taraflarni yarashtirish fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkinligini inobatga olib, sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida taraflarga kelishuv bitimini tuzish orqali nizoni o'zaro to'liq yoki qisman hal etishlari mumkinligi va kelishuv bitimi tuzish afzalliklari va oqibatlarini tushuntirishi lozim.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlashning yuqorida sharhlangan har bir vazifasi ushbu bosqichning majburiy belgisi hisoblanadi. Tayyorlash vazifalaridan birortasi bajarilmasligi sud muhokamasining asossiz cho'zilishiga va sud xatoligiga olib kelishi mumkin.

## **2-§. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar**


Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar amalga oshirishi lozim bo'lgan aniq protsessual harakatlar va bu harakatlarni amalga oshirish muddatini ko'rsatgan holda ajrim chiqarishi shart.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrim ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmasligi bois, uning ustidan shikoyat berilmaydi.

Dastlab (FPKning 203-moddasi) ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida sudya taraflarni so'roq qilishi mumkin. Mazkur harakatlarni bajarish orqali sudyada ish bo'yicha dastlabki xulosa hosil bo'ladi.

Sudya mazkur harakatlarni amalga oshirish orqali FPKning 204-moddasida ko'rsatilgan ish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan harakatlarga zamin yaratadi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash jarayoni sudyaning va taraflarning, shuningdek ishda ishtirok etishi lozim bo'lgan boshqa shaxslarning harakatlarini o'z ichiga oladi.



Ushbu bosqichda sudya dastlab ish bo'yicha isbotlash predmetini aniqlaydi, isbotlash doirasi uchun zarur bo'ladigan dalillar turkumini belgilaydi. Shunga asosan, da'vogarni arz qilgan talablarining mohiyati bo'yicha so'roq qiladi, undan javobgar bildirishi mumkin bo'lgan e'tirozlarni aniqlaydi va, agar zarur bo'lsa, da'vogarga qo'shimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi, shuningdek, uning arz qilgan talablaridan voz kechish huquqiga ega ekanligini va bu voz kechishning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi, qoida tariqasida, javobgarni chaqiradi, ishning holatlari bo'yicha uni so'roq qiladi, da'vogarning talabiga qarshi qanday e'tirozlari borligini va bu e'tirozlar qanday dalillar bilan isbotlanishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek unga da'vogarning talablarini tan olish yoxud qarshi talablar qo'zg'atish huquqiga ega ekanligini tushuntiradi, alohida murakkab ishlar bo'yicha esa, javobgarga ish yuzasidan yozma tushuntirishlar taqdim etishni taklif qiladi. Javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, uning tomonidan yozma tushuntirishlar va dalillar taqdim etilmaganligi ishni

ishdagi mavjud dalillar bo'yicha ko'rish uchun to'squinlik qilmaydi;

Ish bo'yicha tayyorlash bosqichida taraflardan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish ehtimolini aniqlaydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi. Lozim bo'lganda ish bo'yicha sud muhokamasi o'tkazmasdan turib, tayyorlash bosqichida kelishuv bitimi tuzishga yo'l qo'yiladi. Mediatsiya protsedurasini qo'llash mumkinligi haqida tushuntirish beradi.

Agar ushbu bosqichda taraflar o'rtasida taraflar kelishuv bitimi tuzgan va u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, sudning ajrimiga binoan ish yuritish tugatiladi.

Agar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnoma bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa yoki taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, sudning ajrimiga binoan ariza ko'rmasdan qoldiriladi.

### **Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari:**

1) ishga uchinchi shaxslarning jalb etilishi yoki kirishishi to'g'risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan, mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarni so'roq qiladi;

2) ishni ko'rishda vakillarning qatnashishi masalasini hal qiladi;

3) ishda prokurorning ishtirok etishi to'g'risidagi va sud protsessida ishtirok etish uchun tegishli davlat boshqaruvi organini jalb etish haqidagi masalani hal qiladi;

4) sherik da'vogarlarning, sherik javobgarlar va uchinchi shaxslarning ishga kirishishi to'g'risidagi masalani hal qiladi, shuningdek, ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish haqidagi masalani hal qiladi;

5) guvohlarni sud majlisiga chaqirish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

6) tashkilotlardan yoki fuqarolardan yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib oladi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarga

sudga taqdim etish uchun bu dalillarni olishga doir so'rovlar beradi;

7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini inobatga olgan holda, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb etish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

8) kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, joyga chiqib ko'zdan kechirishni amalga oshiradi;

9) boshqa sudlarga sud topshiriqlari yuboradi;

10) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;

11) bir turdagi ishlarni birlashtirish va bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish to'g'risidagi masalani hal qiladi;

12) da'voni va dalillarni ta'minlash masalasini hal qiladi;

13) taraflarni yarashtirish choralarini ko'radi;

14) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish to'g'risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bunday sud majlisida ishtirok etish huquqini tushuntiradi.

Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida boshqa zarur protsessual harakatlarni ham amalga oshiradi.

Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari sudya tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmagan holda ajrim bilan rasmiylashtiriladi.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrim ishning keyingi harakatlanishiga to'sqinlik qilmasligi bois, uning ustidan shikoyat berilmaydi.

Shuningdek, tayyorlash bosqichida **sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi)** sudyaning topshirig'iga binoan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) sudyaga kelib tushgan arizalarni o'rganadi va ularni ko'rish yuzasidan takliflar kiritadi, sud hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi;

2) ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda, shu jumladan ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlashda va boshqa shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi masalani hal etishda ishtirok etadi;

3) sud protsessini tayyorlashni va o'tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi;

4) arizalar va murojaatlar, shuningdek, ko'rilishi keyinga qoldirilgan yoki ish yuritish to'xtatib turilgan ishlar o'z vaqtida ko'rilishi ta'minlanishini tashkil etadi;

5) taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **AJRIM**

*(fuqarolik ishini sudda ko'rishga tayyorlash haqida)*

2020-yil iyun oyining 26-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi Ya.Ya.Yarashev

Da'vogar Odilov Orif Olimjonovichning javobgar Shoimov Shavkat Shaxobiddinovichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasini o'rganib chiqib, ishni sud majlisida ko'rish uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish lozim deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi FPKning 201–203-moddalariga asosan, sud

## **AJRIM QILADI:**

Quyidagi tayyorgarlik harakatlari olib borilsin:

Taraflar suhbatga chaqirtirilsin;

Da'vogarning talablarni ajratish haqidagi arizasi ko'rib chiqilsin. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Sudya:**

**Ya.Ya. Yarashev**



### **3-§. Ishni sud muhokamasiga tayinlash. Sud xabarnomalari va chaqiruvlari**

Sudya ish yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida muhokama qilishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi hamda taraflar va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qilish yuzasidan choralar ko'radi.

#### **Ishni sud muhokamasiga tayinlash haqidagi ajrim:**

✓ Ishni sud muhokamasiga tayyorlash harakatlari yakuniga yetganligidan dalolat beradi;

✓ taraflarga va boshqa protsess ishtirokchilariga sud xabarnomalari va chaqiruvlari yuborishga asos bo'ladi;

✓ ishni mazmunan sud majlisida muhokama qilishga asos bo'ladi.

#### **AJRIM**

*(Ishni sud muhokamasiga tayinlash haqida)*

2020-yil iyun oyining 26-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi Ya.Ya. Yarashev

Da'vogar Odilov Orif Olimjonovichning javobgar Shoimov Shavkat Shaxobiddinovichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasini ko'rib chiqib, ishni sud muhokamasiga tayyor deb topib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 205-moddasiga asosan, sud

#### **AJRIM QILADI:**

Ishni o'z yurituviga qabul qilinsin va sud muhokamasiga ko'rish 2020-yil iyul oyining 23-kuni soat 10:00 ga tayinlansin.

Ishda ishtirok etuvchi taraflarga sud majlisining kuni va vaqti haqida ma'lum qilinsin.

**Sudya:**

**Ya.Ya. Yarashev**

Fuqarolik protsessual kodeksining 16-bobi (156-165-moddalari) «**Sud xabarnomalari va chaqiruvlari**»ga bag'ish-

langan. Sud xabarnomalari va chaqiruv qog'ozlarini yetkazish muhim ahamiyatga molik. Chunki ushbu hujjatlar orqali protsess ishtirokchilari (manfaatdor shaxslar) sudga qachon, qaysi ish bo'yicha va qaysi joyga kelishni, kim sifatida chaqiralayotganligini, kelmaslik oqibatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

### **Sud xabarnomalari va chaqiruvlarining ahamiyati:**

- sudga oid protsessual hujjatlar;
- bajarilishi majburiy bo'lgan hujjatlar;
- protsessual tartib-intizomni mustahkamlaydi;
- alohida rasmiylashtirish qoidalari mavjud;
- ma'lum protsessual oqibatlar (o'zini ishtirokisiz ko'rish haqidagi ariza bilan murojaat qilish, kelishdan bosh tortish, majburiy keltirish, sirdan hal qiluv qarori chiqarish va boshq ni vujudga keltiradi;


- muayyan ajrimlar chiqarilishi (arizani ko'rmasdan qoldirish, sirdan ish ko'rish haqidagi va boshq.) ga sabab bo'ladi;

- tegishli javobgarlik choralari belgilangan.

FPKning 156-moddasida kimlarga sud xabarnomasi, kimlarga sud chaqiruv qog'ozlari yuborilishi haqida alohida ko'rsatma yo'q. Ammo sud xabarnomalari va chaqiruv qog'ozlari ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va guvohlarga yuborilishi ko'rsatilgan.

**Ishda ishtirok  
etuvchi shaxslarga**

**Ekspertlar, mutaxassislar,  
tarjimonlar, guvohlarga**



**Sud xabarnomalari va  
chaqiruv qog'ozlari  
yuboriladi**

Ularni sud chaqiruv qog'ozlari, zarur hollarda esa buyurtma xatlar, telefonogrammalar, telegrammalar va xabardor qilinganlik fakti qayd etilishini ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali sudga chaqiriladi



**Boshqa aloqa vositalari deganda** elektron pochta, SMS, MMS xabarlar va boshqa onlayn muloqotni tashkil qiluvchi vositalar tushuniladi.

### TELEFONOGRAMMA

Men, fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudya yordamchisi Komilov K.K. 30.03.2020-yil soat 16:40 da 71/256-31-39 raqamidan 91/911-19-19 raqamiga R.R. Rashidovning ishonchli vakili Karimov Qaxramon Kabirovichga qo'ng'iroq qilib, da'vogar Naimova Nazira Nazirovnaning javobgar Ravshanbek Raimovich Rashidovga nisbatan ko'p qavatli bino qurilishini shaharsozlik normalari qoidalari talablariga moslashtirishhaqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan sudning 14.03.2020-yilda chiqarilgan ajrimga nisbatan keltirilgan xususiy shikoyat apellyatsiya tartibida fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudida 10.04.2020-yil soat 14:00 da ko'rib chiqishlik uchun tayinlanganligi va tayinlangan sud majlisiga yetib borishi haqida ogohlantirdim.

**Sudya yordamchisi:**  
30.03.2020-yil

**Komilov K.K.**

Shuningdek,

✓ sudning ayrim protsessual harakatlari to'g'risida xabardor qilinadi;

✓ javobgarga da'vo arizasining (arizaning) ko'chirma nusxasini va unga ilova qilingan hujjatlarning ko'chirma nusxalarini yuboradi.

✓ javobgarning yozma tushuntirishining ko'chirma nusxasini yuboradi.

### **Sud chaqiruv qog'ozining mazmuni:**

Sudga chaqirish to'g'risidagi sud chaqiruv qog'ozida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

1) sudning nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili;

2) kelish joyi va vaqti;

3) shaxs qanday ish yuzasidan chaqirilayotganligi;

4) shaxsning kim tariqasida chaqirilayotganligi;

5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish bo'yicha o'zlari ega bo'lgan hamma dalillarni taqdim etish to'g'risidagi taklif;

6) chaqiriluvchi yo'qligi sababli chaqiruv qog'ozini qabul qilib olgan shaxsning imkoniyat bo'lishi bilanoq uni darhol chaqiriluvchiga topshirishga majburligi;

7) sudga kelmaganlikning ushbu Kodeksning 220, 221 va 222-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlari. Sudga chaqirish to'g'risida elektron hujjat tarzida yuborilayotgan sud chaqiruv qog'ozida ushbu modda birinchi qismining 1–5, 7-bandlarida sanab o'tilgan ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak (**FPKning 157-moddasi**).

**SUD CHAQIRUV QOG'OZI**

*Marka  
o'rni*

**FIB Mirobod tumanlararo sudi. 71/256-61-61:**

**Faks: 71 2563218; pochta indeksi 100005,**

**e-mail: f.mirobod@sud.uz.**

**Sizni (da'vogar, javobgar) sifatida 12-iyun 2020-yil soat 10-00 ga «Otalikni belgilash to'g'risida»**

**Qayerga: FIB Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sifatida 12-iyun 2020-yil soat**

**O'z.Res. FPKning 133-mod-dasi bo'yicha**

**Sudya: Ya.Ya.Yarashev**

**Kimga: Fayziyev F.F  
Toshkent shahar, Mirobod t-ni Mirobod ko'ch., 19-uy 3-xona manzilga chaqiradi.  
Sud kotibi: Sh.Sh.Shamsiyev**

**Pasport bilan  
Manzilgohga taqdim etiladi.**

**2-2233/20-FUQAROLIK ISHI BO'YICHA**

**TILXAT**

**2020-yil 12-iyun soat 10:00 ga da'vogar (javobgar) sifatida FIB Mirobod tumanlararo sudiga borish to'g'risida Fayziyev F.F. nomiga berilgan chaqiruv qog'ozini 2020-yil 7-iyunda oldim.**

**1. Shaxsan \_\_\_\_\_**

*(Adresatning imzosi)*

**2. Berib qo'yish uchun oldim \_\_\_\_\_**

*(qabul qiluvchining adresatga munosabati)*

*(ko'rsatilgan holda imzosi)*

**Oluvchining imzosini tasdiqlayman:**

**Xat tashuvchi: \_\_\_\_\_**

**3. Chaqiruv qog'ozini \_\_\_\_\_ sababga ko'ra topshirilmadi.**

**Xat tashuvchi: \_\_\_\_\_**

**Tasdiqlayman:** \_\_\_\_\_

**Sudga qaytarilishi lozim** (*ikkinchi nusxasi*)

**Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani topshirish muddati:**

- sudga o'z vaqtida kelish va ishga tayyorlanish uchun yetarli vaqtga ega bo'lishini mo'ljallab topshirilishi yoki yetkazib berilishi kerak.

**Sud chaqiruv qog'ozlari va sud xabarnomalarini yetkazib berish (topshirish) usullari:**

- Elektron shaklda;
- Aloqa tashkilotlari orqali;
- Taraflardan biri orqali.

**Sud chaqiruv qog'ozlari va sud xabarnomalarini topshirish tartibi:**

- Taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ko'rsatgan manzil bo'yicha;

- Ish yoki o'qish joyiga (sudga ma'lum qilingan manzilda yashamasa);

- Oila a'zolari yoki boshqa voyaga yetgan birga yashaydigan shaxslarga;

- Ish yoki o'qish joyidagi tashkilot rahbariyatiga (vaqtincha ushbu joyda yo'qligi ma'lum qilinsa);

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga (vaqtincha bu joyda yashamayotganligi ma'lum qilinsa);

Fuqaroga sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma sudga qaytarilishi lozim bo'lgan ikkinchi nusxasiga u topshirilgan vaqtini ko'rsatgan holda tilxat olib shaxsan topshiriladi.

Tashkilot nomiga yo'llangan sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma tegishli mansabdor shaxsga topshiriladi, u hujjatning ikkinchi nusxasiga imzo qo'yadi.

Hujjatni yetkazib berish majburiyatini olgan shaxslar ham o'zi haqidagi ma'lumotlarni to'liq yozib va darhol yetkazish majburiyatini ma'lum qilib, hujjatning ikkinchi nusxasini imzolab qaytaradi.

Chaqiriluvchi vaqtincha biror joyga ketgan bo'lsa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) yoxud o'quv muassasasi sud chaqiruv qog'ozining yoki boshqa xabarnomaning ikkinchi nusxasiga chaqiriluvchi qayerga ketganligi va qachon kelishi kutilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etadi, bu ma'lumotlar tegishincha imzo va muhr bilan tasdiqlanadi hamda guvohlantiriladi.

### **Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortish oqibatlari:**

- Chaqiriluvchi o'z nomiga yuborilgan sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortsa, uni keltirgan shaxs sudning chaqiruv qog'oziga yoki boshqa xabarnomaga bosh tortganlik haqida tegishli belgi qo'yib, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) yoxud o'quv muassasasi tomonidan yoki kamida ikki nafar fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi va sudga qaytariladi.

- Chaqiriluvchi sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortganligi yoki axborot tizimi orqali elektron tarzda xabardor qilingan shaxsning uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi ishni muhokama qilishga to'sqinlik qilmaydi.

### **Tegishli tartibda xabardor bo'lgan deb topilishi yoki yetkazib berilgan deb topilishi asoslari:**

- Sudning chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnoma shaxsan yoki voyaga yetgan oila a'zolaridan biri, mazkur manzilda yashovchi boshqa shaxs tomonidan olingan, shuningdek, sud tomonidan matnli xabarning elektron pochta manzili orqali yoki xabarnomaning qayd etilishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda yetkazilganligini tasdiqlovchi hisobot olingan hollarda, agar bunday xabarnoma kelib tushmaganligi yoki kechroq kelib tushganligi isbotlanmasa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar tegishli tartibda xabardor qilingan hisoblanadi;

- Sudning chaqiruv qog'ozi yoki boshqa xabarnoma chaqiriluvchi uni olishni rad etganda ham, agar bunday rad etish qayd etilgan bo'lsa, yetkazilgan hisoblanadi;

- Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish yuritish vaqtida familiyasini, ismini, otasining ismini o'zgartirganligi, manzili o'zgarganligi haqida sudga xabar qilishi shart. Bunday xabar mavjud bo'lmagan taqdirda, sudning chaqiruv qog'ozi yoki boshqa xabarnoma sudga ma'lum bo'lgan oxirgi manzil bo'yicha yuboriladi va, garchi chaqiriluvchi bu manzilda ortiq yashamasa yoki bo'lmasa ham, u yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

- Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar telefonlari va fakslari raqamlarini, elektron pochta manzilini sudga ma'lum qilgan bo'lsa, ish yuritilayotgan vaqtda ularning o'zgarganligi to'g'risida sudni xabardor qilishi kerak;

- Javobgarning amaldagi turish joyi noma'lum bo'lsa, javobgarning oxirgi yashash joyidagi aloqa tashkiloti, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoxud oxirgi ish joyidagi ish beruvchi (ma'muriyatning mansabdor shaxsi) sud chaqiruv qog'ozining yoki boshqa xabarnomaning ikkinchi nusxasiga mazkur organlar yoki tashkilotlar sud chaqiruv qog'ozini yoki boshqa xabarnomani olganligi va uni chaqiriluvchining turish joyi noma'lumligi sababli unga topshirishning imkoni bo'lmaganligi haqida yozib yuborgan ma'lumot sudga kelib tushgach, sud ishni muhokama qilishga kirishadi.

### **Tegishli tartibda xabardor bo'lgan deb topilishi yoki yetkazib berilgan deb topilishining ahamiyati:**

- Ishda ishtirok etuvchi shaxslarni tegishli tartibda xabardor qilingan deb topish uchun;

- Ishni sud muhokamasida ko'rish uchun;

- Ishda ishtirok etuvchilarni kelmaganlik sabablarini uzrli yoki uzrsiz deb topish uchun;

- Ishni ular ishtirokisiz ko'rishni ta'minlash uchun;

- Ish yuritishni to'xtatish uchun;

- Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun;



- O'zining arizasiga ko'ra ishni taraflar ishtirokisiz ko'rish uchun;
- Sirdan ish ko'rish uchun.

## **FUQAROLIK ISHLARI BOYICHA TOSHKENT SHAHAR**

### **MIROBOD TUMANLARARO SUDI**

100031, Toshkentshahar, Mirobod tumani,  
Mirobod ko'chasi, 19-uy. Tel: 71, 256-31-39

---

03.07.2020-yil № 2-3434/20

#### **Odilov Orif Olimjonovichga**

Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani,  
Fayziobod ko'chasi, 100-uy, 10-xonadon

#### **Shoimov Shavkat Shaxobiddinovichga**

Manzil: Toshkent viloyati, Bo'ka tumani,  
Ko'kdala qishlog'i, Rivojlanish ko'chasi 2-uy

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudining ish yurituvida da'vogar Odilov Orif Olimjonovichning javobgar Shoimov Shavkat Shaxobiddinovichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi mavjud.

Shunga ko'ra, Siz(lar) dan 23.07.2020-yil soat 10:00da bo'lib o'tadigan sud majlisiga shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat bilan kelishingiz so'raladi.

Ilova: da'vo ariza nusxasi

**Sud raisi**

**Ya.Ya. Yarashev**

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. *Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida ish yuritishni to'xtatish yoki arizani ko'rmasdan qoldirish haqidagi ajrimlar chiqarishga yo'l qo'yiladi (mi)?*

2. *Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv: o'xshash va farqli jihatlarini ifodalang.*

3. *Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida taraflar yoki taraflardan biri sudga dastlabki so'roq jarayoniga kelmasa, qanday oqibatlar vujudga keladi?*

4. *Mavsumiy (vaqtinchalik) ishlayotgan xodimlarga sud chaqiruv qog'ozi yoki sud xabarnomasini yetkazish tartibini tushuntiring.*

5. *Buyruq tartibida ish yuritishda birgalikda ishtirok etuvchi taraflardan biri ularni dastlabki so'roq qilish haqida sudga murojaat qildi? Vaziyatni tahlil qiling.*

## **18-mavzu: FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA MUHOKAMA QILISH**

**Annotatsiya:** mazkur bobda fuqarolik ishlarini sudda mazmunan ko'rish, sud majlisi qismlari, protsessual harakatlar, videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisi, sud majlisining bayonnomasini yuritishga oid fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili berilgan.

**Tayanch so'zlar:** sud muhokamasi, sud majlisi, sudya, sud majlisi kotibi, videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisi, sud majlisining bayonnomasi, hal qiluv qarori, ajrim.

### **1-§. Sud muhokamasi tushunchasi va uning ahamiyati**

Sudda ishni ko'rish (sud muhokamasi) – fuqarolik protsessining mustaqil va zaruriy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Har bir fuqarolik ishi bo'yicha ishlarni mazmunan sudda muhokama qilish protsess ishtirokchilaridan o'ta mas'uliyat bilan qarashni talab etadi. Chunki fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali yechimi aynan mana shu bosqichda amalga oshiriladi. Ana shu maqsadda ishning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilikini to'g'ri aniqlash, protsessual huquqiy munosabat subyektlarining huquqiy maqomini to'g'ri belgilash, tarafarga protsessual huquq va majburiyatlarini to'liq tushuntirish, ishni sudga qadar yoki sud jarayonida hal qilishda yarashtiruv tartib-taomillarini qo'llash, pandemiya sharoitida sudga murojaat qiluvchilarga yana qulaylik yaratish, shuningdek, sud hujjatlari chiqarishda adolatli demokratik prinsiplarga rioya qilish talab etiladi.

#### **Sud muhokamasi bosqichining ahamiyati:**

- mazkur bosqichda fuqarolik ishi mazmunan ko'riladi;
- ishning haqiqiy holatini ochish va o'rganish zaruriyati tug'iladi;

- jismoniy va yuridik shaxslarda sudga murojaat qilish maqsadini amalga oshirish va vujudga kelgan nizoning yechimini topish imkoniyati vujudga keladi;

- sud ishlarini yuritish prinsiplarining faol harakati kuzatiladi;

- taraflar o'rtasida nizoli munosabatni tartibga soladi;

- sud faoliyatining tarbiyaviy tasirini kuchaytiradi;

- sudya va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning barcha protsessual harakatlari to'liq namoyon bo'ladi;

- sud majlisi zalida yoki alohida (maslahat) xonada protsessual hujjatlar (sud majlisi bayonnomasi yuritiladi, ajrim va hal qiluv qarorlari va boshq.) chiqarishga yo'l qo'yiladi;

- barcha isbotlash vositalari (dalillar) tekshiriladi, tushuntirish va ko'rsatuvlar, fikr va xulosalar olinadi, iltimoslar va e'tirozlar o'rganiladi;

- ishga oid barcha protsessual harakatlar ketma-ketligi oshkora va shaffof amalga oshiriladi.

## 2-§. Sud majlisi va uning qismlari

**Sud majlisi to'rt qismdan:** sud majlisining tayyorlov, mazmunan ko'rish, muzokara, hal qiluv qarori chiqarish va e'lon qilish qismlaridan iborat.



## **Sud majlisining tayyorlov qismida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar:**

- raislik qiluvchi tomonidan sud majlisini ochish;
- sud protsessi ishtirokchilarining kelgan-kelmaganligini tekshirish; (sud majlisining kotibi mazkur ish bo'yicha chaqirilganlardan kimlar kelganligini, kelmaganlarga sudning chaqiruv qog'ozlari yoki boshqa xabarnomalar topshirilgan-topshirilmaganligini (yetkazib berilganligini) va ularning kelmaganligi sabablari to'g'risida qanday ma'lumotlar borligini sudga ma'lum qilish;
- sudya kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek, mansabdor shaxslar va vakillarning vakolatini (order, ishonchnoma, vakolatnoma va boshqa hujjatlari)ni tekshirish;
- tarjimonga uning vazifalarini, protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarish;
- sud tarkibini e'lon qilish va ularga rad qilish huquqini tushuntirish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- ekspert va mutaxassislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomalarini hal qilish;
- sud majlisiga kelmagan shaxslarning kelmaslik oqibatlarini belgilash: ish ko'rishni keyinga qoldirish, arizani ko'rmasdan qoldirish yoki ish ko'rishni davom ettirish;
- ish ko'rish keyinga qoldirilganda guvohlarni so'roq qilish.

## **Sud majlisining mazmunan ko'rish qismida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar:**

- raislik etuvchining ish to'g'risida ma'ruza qilishi;
- taraflarga maxsus huquq va majburiyatlarini tushuntirish ( da'vodan voz kechish, javobgarning da'vo talablarini tan olish, taraflarning kelishuv bitimini tuzishiyoki mediativ kelishuvi va ularni hal qilish);

- taraflarning tushuntirishlarini eshitish;
- dalillarni tekshirish tartibini belgilash;
- guvohlarni so'roq qilish;
- yozma va ashyoviy dalillarni tekshirish;
- ekspertni so'roq qilish;
- mutaxassisni so'roq qilish;
- davlat boshqaruv organlarining hulosalarini eshitish;
- ishni mazmunan ko'rishni tamomlash;

**Sud majlisining muzokara qismida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar:**

- da'vogar, uning vakili;
- javobgar, uning vakili;
- uchinchi shaxs va uning vakili;
- davlat boshqaruvi organlari vakili nutqlari;
- prokuror fikri eshitaladi;
- ish uchun ahamiyatli yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirishni zarur deb topilsa, ishni mazmunan muhokama qilishni tiklash.


**Sudning hal qiluv qarori chiqarish va e'lon qilish qismida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar:**

- sudning hal qiluv qarorini chiqarish uchun alohida (maslahatxona) xonaga kirish;
- hal qiluv qarorini o'qib eshittirish;
- sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish hamda sud hujjati (hal qiluv qarori) ustidan shikoyat berish tartibi va muddatini tushuntirish;
- chiqarilgan sud hujjati (hal qiluv qarori)ni tushuntirish, undagi xatoliklarni tuzatish, qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish imkoniyati haqida tushuntirish;
- sud majlisini yopiq deb e'lon qilish.

**Sud majlisida raislik qiluvchining vazifalari:**

- sud majlisini ochadi va boshqaradi;
- sudda ishni bevosita mazmunan ko'radi;
- sud majlisida tegishli tartibni ta'minlaydi;
- protsessual majburlov choralari qo'llaydi;

- tegishli protsessual hujjatlar chiqaradi;
- sud majlisi bayonnomasi yuritilishini ta'minlaydi;
- sud hal qiluv qarori chiqaradi va e'lon qiladi;
- sud hal qiluv qarorining qonuniy kuchi va oqibatlarini tushuntiradi.



Sudya (sudyalar) majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib ketayotganida, sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning hammasi o'rnidan turadi. Bu Konstitutsiya va qonunlarga, sudga, odil sudlov faoliyatiga nisbatan hurmat belgisi sanaladi. Sud majlisi kotibi tomonidan sudya (sudyalar) majlis zaliga kirib kelganida va undan chiqib ketayotganida sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning hammasi o'rnidan turishi so'raladi.

Sud jarayoni ishtirokchilari sudga «Hurmatli sud!» degan so'zlar bilan murojaat qiladi. Ular sudga o'z tushuntirishlari va ko'rsatuvlarini, savollarga javoblarini tik turib beradi. Bu qoidadan chetga chiqishga faqat raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Alohida xonada (maslahatxonada) qabul qilingan sud hal qiluv qarorini sud majlisi zalida hozir bo'lganlarning barchasi tik turib eshitadi. Bu holat davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga, sudga, odil sudlov faoliyatiga nisbatan hurmat, sud hujjatlarini ijrosini bajarishga bo'lgan mas'uliyat va majburiyat ekanligini anglatadi.

### **3-§. Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisi**

Respublikamiz sudlari faoliyatida shu kunga qadar sudlar faoliyatiga axborot-kommunikativ texnologiyalarini joriy etish borasida quyidagi amaliyot mavjud edi va ulardan samarali foydalanib kelinmoqda:

- sudlarga masofadan turib murojaat qilish;
- sud majlislarida videokonferensaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish;
- sudyalarning o'rtasida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash;
- sud hujjatlarini belgilangan tartibga rioya qilgan holda internet tarmog'ida e'lon qilish;
- ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijro byurosiga yuborish kabi mexanizmlar (protsessual harakatlar) mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4818-son qarori ham nafaqat fuqarolarga, balki sudya va sud xodimlariga ham muayyan qulayliklar yaratadi, tizimda protsessual tartib-intizomga rioya qilish ustuvorligi belgilandi.

Endilikda sudlar faoliyatiga axborot-kommunikativ texnologiyalarini keng joriy etish, bu tizimda ham elektron munosabatlarni yo'lga qo'yish, eng asosiysi sudlar faoliyatini raqamlashtirishning huquqiy asoslarini belgilash va mustahkamlash imkoniyati berildi.

Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida sud ishlarini yuritishda sud faoliyatiga va aholiga yana qulaylik yaratish maqsadida masofadan turib sud ishlarini yuritish amaliyoti kengaymoqda. Bu sohada axborot-kommunikativ vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish va ularni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu jarayon pandemiya sharoitida yanada qulay imkoniyatlar yaratdi va hattoki sud majlisleri ham uzoq va yaqin hududlardan turib, ishlarni hal etish katta samara berdi.

Pandemiya sharoitida ushbu usul orqali aholining sog'ligini asrash, muammolarini tezkorlik bilan, o'z vaqtida ko'rib hal qilishga erishildi. Ishlarni hal qilishda masofadan turib ishni



ko'rish, sud topshiriqlarini bajarish, da'voni ta'minlash, dalillarni ta'minlash, taraflarni tushuntirishlarini masofadan turib olish, guvohlar ko'rsatuvlarini masofadan turib olish va ishga oid boshqa isbotlash vositalaridan foydalanishda zaruriy vosita sanaldi.

Sudlarda videokonferensaloqani amalga oshirishning texnik imkoniyati bo'lgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar sudning videokonferensaloqa rejimidagi majlisida bu haqda o'zlari iltimosnoma berganda yoki sudning tashabbusiga ko'ra ishtirok etishi mumkin. Ko'rsatilgan shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishi to'g'risida sud ajrim chiqaradi, ajrimning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxslarga va o'z ko'magida ushbu shaxslar bunday majlisda ishtirok etishi mumkin bo'lgan tegishli sudga yuboriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi yoki joylashgan yeri va turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan foydalaniladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlayotgan sud ushbu shaxslarning kelgan-kelmaganligini tekshiradi va kelgan shaxslarning shaxsini aniqlaydi, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi to'g'risida ulardan tilxat oladi. Mazkur tilxat u olingan kundan keyingi kundan kechiktirmay sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yish uchun ishni ko'rayotgan sudga yuboriladi.

Ochiq sud majlislari videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin. Sudning videokonferensaloqa rejimidagi majlisida bevosita ishtirok etish og'zaki shaklda o'tkaziladigan sud majlisida ishtirok etishga tenglashtiriladi.

**Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisi** – real vaqt rejimida telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida

audio- va video- axborotlar almashinuvi imkoniyatlaridan foydalangan holda ishni ko'rayotgan sud va sud majlisini o'tkazishga ko'maklashayotgan sud o'rtasidagi interaktiv o'zaro ta'sir qilish yo'li bilan masofadan turib, sud majlisini o'tkazish tushuniladi.

**Ishni ko'rayotgan sud deganda** tegishli ish yurituvda bo'lgan sud tushuniladi. **Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazishga ko'maklashadigan sud deganda** videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisini o'tkazish uchun texnik va boshqa sharoitlarni ta'minlayotgan va ishni ko'rayotgan sud hududidan tashqarida joylashgan O'zbekiston Respublikasi sud (lar) i tushuniladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning videokonferensaloqa rejimidagi **sud majlisida ishtirok etishlari ularning majburiyati emas, balki huquqi hisoblanadi.**

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning barchasi bitta ma'muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahri, tuman, shahar), ya'ni ishni ko'rayotgan fuqarolik sudi joylashgan hududda joylashgan bo'lsa-da, boshqa sud binosidan turib videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida ishtirok etish uchun sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishga haqli. Bunda, sud majlislarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishning zaruriy sharti ishda ishtirok etuvchi shaxslardan loqal bittasi boshqa ma'muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) hududida, ya'ni ishni ko'rayotgan sud joylashgan hududdan tashqarida joylashgan bo'lishi lozimligi hisoblanadi.

**Videokonferensaloqaning maqsadi va afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi:**

- sudlar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga erishiladi;
- zamon talablari va xalqaro standartlarga uyg'unlashtirishga qaratilgan mexanizm yaratildi;
- subyektlarning sudga murojaat qilishlariga erkinlik yaratiladi;
- sudlar faoliyatini raqamlashtirishga erishiladi;

- sudlar faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlashga erishiladi;
- turli vazirlik va idoralar bilan ma'lumotlar almashinuviga erishiladi;
- vaqtni tejashga olib keladi;
- ortiqcha xarajatlarning oldi olinadi;
- sudlar faoliyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi;
- sudlarga masofadan turib murojaat qilishga erishiladi;
- sud majlisini masofadan turib o'tkazishga qulay sharoit yaratiladi;
- turli hududdagi sudlar o'rtasi o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi;
- sudda ish ko'rish protsedurasini soddalashtirishga olib keladi;
- boshqa sudlarga sud topshiriqlari yuborish imkoniyati ta'minlanadi yoki ushbu harakatlar amalga oshirilishi kamayib boradi;
- sud majlisiga uzrsiz (uzrli) sabablarga ko'ra kela olmaslik holatlari oldi olinadi.

#### **4-§. Sud majlisining bayonnomasi**

Sudda ish ko'rishda majlis bayonnomasining yuritilishi va uning majburiyligi ish ko'rishdagi muhim xususiyatlardan biri sanaladi. Chunki umumiy qoidaga ko'ra, birinchi instansiya sudida ish ko'rishda raislik qiluvchining o'rni, protsessual harakatlarning ahamiyatini, fuqarolik protsessual huquq prinsiplarining harakatini, sud majlisi bayonnomasining yuritilishini, isbotlash vositalarining harakatga kelishini, vakil, prokurorning muzokara nutqlari mohiyatini, ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilishi va e'lon qilinishini alohida protsessual hususiyatlar sifatida qaraladi.

Sud majlisi bayonnomasi asosiy protsessual hujjat, sudlarda ish ko'rish jarayonining muhim oynasi sanaladi, unda sud majlisida amalga oshirilgan barcha protsessual huquqiy munosabatlar ifodalanadi.

Fuqarolik protsessual kodeksining **25-bob (276–279-mod-dalari) «Sud bayonnomalari»**ga bag'ishlangan.

Har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek, sud majlisi zalidan tashqarida qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida bayonnoma tuziladi.

**Sud majlisi bayonnomasining o'ziga xosligi shundaki**, undan faqat sud jarayonida foydalaniladi va shu bilan boshqa turdagi bayonnomalardan farqlanadi. Sud majlisi bayonnomasiga qo'yiladigan talablar, uning mazmuni va huquqiy oqibatlarini bir qadar murakkab va o'z navbatida mas'uliyatli hujjat sifatida ko'rinadi. Sud majlisi bayonnomasi sudlarda birinchi instansiya sifatida, shuningdek, yuqori (apellyatsiya, kassatsiya) instansiyalarida ish ko'rishda yuritilishi majburiydir.

Sud majlisi bayonnomasida ish muhokamasining yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi kerak. Sud majlisi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy;
- 2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;
- 3) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, hamda sud majlisining kotibi;
- 4) ishning nomi va raqami;
- 5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 6) sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;
- 7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarga sud chaqiruv qog'ozlari va boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'risidagi hamda ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma'lumotlar;
- 8) raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;

9) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;

10) sudga taqdim etilgan barcha yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarining maslahatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

11) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalarini og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarining tushuntirishlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko'zdan kechirishga taalluqli ma'lumotlar;

12) sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;

13) sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o'qib eshittirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Sud majlisi bayonnomasida boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan taqdirda, sud majlisi bayonnomasida yuqorida nazarda tutilganlardan tashqari:

sud majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi to'g'risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishda ko'maklashayotgan sudning nomi haqidagi;

ishda ishtirok etuvchi shaxslar va sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga ko'maklashayotgan, sudga kelgan sud protsessining boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi;

sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishiga ko'maklashayotgan sudning va ishni ko'rayotgan sudning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha xodimlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak.

Bayonnoma sud majlisi kotibi tomonidan sud majlisining o'zida yoki sud majlisi zalidan tashqarida alohida protsessual harakat bajarilganida yuritiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlari ish uchun ahamiyatga ega deb hisoblangan holatlarni bayonnomaga kiritish to'g'risida iltimosnomalar berishga haqli.

Taraflarning, uchinchi shaxslarning o'zlari qo'ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi haqidagi, qo'yilgan talablarni tan olishi, ishni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv bilan tamomlash to'g'risidagi arizalari bayonnomaga kiritiladi. Bayonnoma sud majlisi tamom bo'lganidan yoki alohida protsessual harakat amalga oshirilganidan keyin kechi bilan uch kunda raislik qiluvchi va sud majlisining kotibi tomonidan imzolanishi kerak. Kiritilgan barcha o'zgarishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar bayonnomada izohlanishi kerak.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining bayonnomasi bilan tanishib chiqishga va unda yo'l qo'yilgan xatoliklarni yoki uning to'liq emasligini u imzolangan kundan e'tiboran besh kun ichida ko'rsatib, bayonnoma yuzasidan yozma ravishda fikr-mulohazalar bildirishga haqli.

Bayonnomaga doir berilgan fikr-mulohazalarni raislik qiluvchi ko'rib chiqadi va u ushbu fikrlarga qo'shilgan taqdirda, bu fikr-mulohazalarning to'g'riligini tasdiqlaydi hamda ularni sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yadi.

Raislik qiluvchi berilgan fikr-mulohazalarga qo'shilmasa, ular sud majlisida ko'rib chiqiladi. Berilgan fikr-mulohazalar barcha hollarda ham ishga qo'shib qo'yilishi kerak.

Bayonnomaga doir fikr-mulohazalar ular topshirilgan kundan e'tiboran yetti kun ichida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Biroq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmaganligi bayonnoma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Sud protsessi ishtirokchilari sud majlisining audio- yoki videoyozuvi bilan tanishish huquqiga ega.

Sud majlisining audio- yoki videoyozuvlari ko'chirma nusxasi sud protsessi ishtirokchilariga ishni ko'rgan sudning ruxsati bilan beriladi.

2020-yil avgust oyining 18-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi o'z binosida, ochiq sud majlisida, raislik etuvchi, sudya: Ya.Ya. Ya., sudya yordamchisi B.B. ning kotibligida, da'vogar Davurova Dilnoza Daniyarovning javobgar Matiyev Maxmud Mirshayevichga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasi hamda Matiyev Maxmud Mirshayevichning javobgar Davurova Dilnoza Daniyarovnaga nisbatan uyga kiritish va order asosida egalik huquqini belgilash haqidagi qarshi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan sudning 30.06.2020-yilda chiqarilgan hal qiluv qaroriga nisbatan Davurova Dilnoza Daniyarovna tomonidan keltirilgan apellyatsiya shikoyatini berish muddatini tiklash to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqadi.

Raislik etuvchi sud majlisini ochib, qanday ish ko'rilishini e'lon qildi.

Kotib sud majlisiga taraflar kelmaganligini ma'lum qildi. Taraflarni sud majlisiga kelmaganligi kelib tushgan arizani ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Sud ish hujjatlari bilan tanishib, alohida xonada qoldi va raislik etuvchi chiqib, sudning ajrimini o'qib eshittirdi.

Sud majlisi yopiq deb e'lon qilindi.

**Raislik etuvchi, sudya:**  
**Sudya yordamchisi:**

**Ya.Ya.Ya.**  
**B.B.**

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Sud majlisining tayyorlov qismida qarshi da'vo arizasi berildi, qanday protsessual harakatlar amalga oshiriladi?

2. Sud majlisi jarayonida ommaviy axborot vositalari vakillarining ishtirokiga oid qanday normativ-huquqiy va protsesual-huquqiy hujjatlarni bilasiz?

3. Fuqarolik protsessual kodeksining 219-moddasida «Sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomalarini hal qilishi» belgilangan. Ushbu normani tahlil qiling.

4. Fuqarolik protsessual kodeksining 240-moddasida «Sudya (sudyalar) ekspert so'roq qilinayotganida unga istalgan vaqtda savollar berishga haqli» normasi mustahkamlangan. Tahlil qiling.

5. Sud qonunda belgilangan asoslarga ko'ra ish muhokamasini keyinga qoldiradi? Uning ish yuritishni to'xtatishdan qanday farqli va o'xshash jihatlari mavjud. Izohlab bering.



## 19-mavzu: BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HUJJATLARI

**Annotatsiya:** mazkur bobda sud hujjatlari tushunchasi, turlari, ularga qo'yilgan talablar, sudning hal qiluv qarori, uning qismlari, hal qiluv qaroridagi kamchiliklarni tuzatish va tushuntirish, qo'shimcha hal qiluv qarori, darhol ijro, ajrimlar haqidagi fikr-mulohazalar, amaliyot materiallari tahlili o'rin olgan.


**Tayanch so'zlar:** sud hujjati, sudning hal qiluv qarori, ajrim, sud buyrug'i, qaror, qo'shimcha hal qiluv qarori, hal qiluv qarorini tushuntirish, kamchilikni tuzatish, ijro varaqasi, darhol ijro.

### 1-§. Sud hujjatlari tushunchasi va turlari

Umumiy qoidaga binoan sud ishlarini yuritishda ishni yakuniga ko'ra sud hujjati chiqariladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 6-moddasiga ko'ra, sud ko'rilayotgan va hal etilayotgan masala bo'yicha hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq qabul qiladi.

Mazkur hujjatlar ish yuritish turi, ishni ko'rish instansiyasi, ishni mazmunan hal qilish imkoniyati, hujjat shakli va mazmuni, shikoyat va protest keltirish tartibi, oqibatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi va ayrim jihatlarida o'xshashlik ham uchraydi.



## **Birinchi instansiya sudi ishni mazmunan ko'rish natijalari bo'yicha:**

- da'vo tartibida ish ko'rish – hal qiluv qarori;
- alohida tartibida ish ko'rishda – hal qiluv qarori;
- hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar-da – hal qiluv qarori;
- chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda – hal qiluv qarori;
- korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolarni ko'rishda – hal qiluv qarori;
- buyruq tartibidagi ishlarda – sud buyrug'i.

Sud qonunda o'zining vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish natijalari bo'yicha qaror chiqaradi.

Sud ish mazmunan hal etilmaydigan masalalarni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi.

### *Masalan*

*Arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish; arizani qaytarish; ishni sud muhokamasiga tayyorlash; ishni sud muhokamasiga tayinlash; ishni yopiq sud majlisida ko'rish; ishni sirtidan ish yuritish tartibi ko'rish; ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish; sud topshirig'i; da'voni ta'minlash, majburiy keltirish; sud jarimasini solish to'g'risida va boshq.*

Apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqaradi.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rilganda – **hal qiluv qarori**;

Apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarining qaysi ajrimlari va qarorlari bo'yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori o'zgartirilgan yoxud yangi hal qiluv

qarori qabul qilingan bo'lsa, o'sha qarorlar va ajrimlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda o'zgargan hujjat shakliga ko'ra – **hal qiluv qarori yoki ajrim chiqariladi.**

**Hal qiluv qarori** – birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan sud hujjatiga aytiladi.

**Ajrim** – birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qilmaydigan sud hujjatiga aytiladi.

**Sud buyrug'i** – birinchi instansiya sudining qonunda belgilangan doiradagi nizosiz talablar bo'yicha sud muhokamasi o'tkazmasdan beriladigan (chiqariladigan) sud hujjatiga aytiladi.


**Qaror** – qonunda sudning o'z vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rish natijalari bo'yicha chiqaradigan sud hujjatiga aytiladi.

## **2-§. Sudning hal qiluv qarori tushunchasi, mazmuni va ahamiyati**

Fuqarolik protsessual kodeksining 23-bobi (249–270-mod-dalari) sudning hal qiluv qaroriga bag'ishlangan bo'lib, birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan sud hujjatiga aytiladi. Ammo apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ham hal qiluv qarori chiqarishga yo'l qo'yiladi. Masalan, apellyatsiya sudining vakolatlarida sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan (FPKning 399-moddasi. 2) ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoki hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga) haqli ekanligi belgilangan.

**Hal qiluv qarorlari mazmuni va shakliga ko'ra,** umumiy, qo'shimcha, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlariga, **ijro usuli va muddatiga ko'ra** oddiy (umumiy asosda) va darhol ijro etiladigan hal qiluv qarorlariga bo'linadi.

Hal qiluv qarori (mazmuni va shakliga ko'ra)	Hal qiluv qarori (ijro usuli va muddatiga ko'ra)
<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
<input type="checkbox"/> umumiy	<input type="checkbox"/> umumiy
<input type="checkbox"/> qo'shimcha	<input type="checkbox"/> darhol
<input type="checkbox"/> sirtidan	<input type="checkbox"/>



Ishni ko'rgan sudyaga sud majlisining oxirgi (yakuniy) qismida hal qiluv qarori chiqarish va uni e'lon qilish vakolati berilgan.

Hal qiluv qarori sudya tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) ishning muhokamasi tugaganidan keyin qabul qilinadi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Hal qiluv qarorini chiqarish jarayonida alohida xona (maslahatxona) da sud maslahatlashuvining sir tutilishi kafolatlanadi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida boshqa shaxslar (sudyaning tashqari hech kimning, hatto sud majlisi kotibi) ning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra, alohida xonada (maslahatxonada) hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sudyaning telefon va boshqa aloqa vositalari orqali aynan shu vaqtda (mazkur masalaga oid yoki boshqa masalaga doirligidan qat'iy nazar) o'zga shaxslar bilan muloqot qilishi ham mumkin emasligi nazarda tutiladi.

Sudning hal qiluv qarori ishning sud muhokamasi tugaganidan keyin darhol qabul qilinadi (FPKning 249-moddasi).

### **«Darhol»lik talabining maqsadi:**

- hal qiluv qarorini chiqargan sudyaning va protsess ishtirokchilarining protsessual manfaatlarini himoya qilish;
- protsessual tartibga og'ishmay, qat'iy rioya qilish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hal qiluv qaroriga nisbatan xatoliklarni tuzatish, tushuntirish, qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarishga imkoniyat yaratish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hal qiluv qarori ustidan shikoyat va protest berish muddatlarini o'tkazib yubormaslik va boshq.

Odatda «darhol» jumlasini shu vaqtning, shu kunning o'zida tayyorlanishi, alohida maslahatxonadan chiqishi bilan e'lon qilinishi va bu o'z navbatida tanaffuslarsiz, hal qiluv qarorini keyingi kunga qoldirmasdan chiqarish va e'lon qilishni nazarda tutadi.

Alohida hollarda, o'ta murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash ko'pi bilan besh kunga kechiktirilishi mumkin, ammo hal qiluv qarorining xulosa qismini sud ishning muhokamasi tugallangan majlisning o'zidayoq e'lon qilishi kerak. Ayni vaqtda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishib chiqishi mumkinligini e'lon qiladi. Hal qiluv qarorining e'lon qilingan xulosa qismi sudya tomonidan imzolanadi va ishga qo'shib qo'yiladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismi e'lon qilinganda, raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari asoslantirilgan hal qiluv qarori bilan qachon tanishishlari mumkinligini tushuntirishi shart va bu sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi.

Hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismlari ish muhokamasi tugallangan kuni e'lon qilingan, matni to'liq bo'lmagan, hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismiga so'zma-so'z mos kelishi lozim. Ish bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorining sanasi, u e'lon qilingan kun hisoblanadi.

**Hal qiluv qarorini qabul qilishda yechiladigan masalalar:**

Sudya hal qiluv qarorini chiqarish vaqtida alohida xonada (maslahatxonada)

dalillarga baho beradi;

ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan qanday holatlar aniqlanganligini yoki qaysi holatlar aniqlanmaganligini aniqlaydi;

ish bo'yicha qanday qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjat qo'llanilishi mumkinligini hal qiladi; arz qilingan talabni qanoatlantirish lozimligi yoki lozim emasligini aniqlaydi;


**Sud yuqoridagilar birga** sud xarajatlarini taqsimlaydi; hal qiluv qarorini ijro etish tartibi va muddatini belgilaydi; boshqa qo'shimcha masalalarni hal etadi.

Agar ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirish zarur bo'lib qolsa, sud hal qiluv qarorini qabul qilmasdan, sud muhokamasini tiklaydi, bu haqda ajrim chiqaradi. Bunday holda sud muhokamasi faqat qo'shimcha tekshirish ehtiyoji bo'lgan holatlar doirasida olib boriladi.

Sudning hal qiluv qarori ishni ko'rib chiqqan sudning majlisida raislik qiluvchi tomonidan yozma shaklda bayon etiladi va u tomonidan imzolanadi.

Sudning hal qiluv qarori bir nusxada tuziladi va ish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

**Sudning hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat (FPKning 253-moddasi).**



**Hal qiluv qarorining kirish qismida** ish raqami, hal qiluv qarori qabul qilingan vaqt va joy, hal qiluv qarorini qabul qilgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ko'rsatiladi.

### *Masalan*

## **HAL QILUV QARORI**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2020-yil sentabr oyining 18-kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi, o'z binosida, ochiq sud majlisida, raislik etuvchi, sudya: Sh.Sh.Sh., B.B.ning kotibligida, da'vogar Aliyev Ulug'bek Yoqubovichning javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjonovnaga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi yuzasidan yuritilgan 1-1391/20-sonli fuqarolik ishini ko'rib chiqib, quyidagilarni

### **A N I Q L A D I:**

**Hal qiluv qarorining bayon qismida** da'vogarning talabi, javobgarning e'tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlari ko'rsatiladi.

### *Masalan*

*«Sudga da'vogar Aliyev Ulug'bek Yoqubovich javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjonovnaga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi bilan murojaat etgan.*

*Sud majlisida da'vogar U.Yo. Aliyevning vakili U.Ulashev da'vogarning da'vo talablarini quvvatlab, da'vogar uning o'g'li bo'lishini, da'vogar U.Yo. Aliyev bilan javobgar F.S. Aliyeva (Xamitova) 2006-yil 7-oktabr kuni qonuniy nikohdan o'tib turmush qurishganligini, taraflarning birgalikdagi turmushlaridan ikki nafar – 2010-yil 30-iyulda*

*tugʻilgan Aliyev Davronbek Ulugʻbek oʻgʻli va 2013-yil 6-sentabrda tugʻilgan Aliyeva Sarvinoz Ulugʻbek qizi ismli farzandlari borligini, taraflar oʻzaro xarakterlari bir-birlariga toʻgʻri kelmaganligi sababli oʻrtalaridagi munosabatlari buzilib ketganligini, taraflar 2014-yil noyabr oyidan buyon birga yashamasliklarini, taraflarning oilasini tiklashni iloji yoʻq deb hisoblashini, chunki, javobgar oilasiga xiyonat qilganini, sud tomonidan oilani saqlab qolish maqsadida berilgan muddat davomida taraflar oʻz oilasini saqlab qolishga umuman harakat qilmaganliklarini, mulkiy nizolar mavjud emasligini bayon qilib, daʼvogarning daʼvo talablarini qanoatlantirishni soʻradi».*

**Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida** ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, sudning ish holatlari toʻgʻrisidagi xulosalari asoslangan dalillar, sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligi haqidagi xulosalari, sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalari koʻrsatilishi kerak. Arz qilingan talab javobgar tomonidan tan olingan taqdirda, asoslantiruvchi qismda faqat arz qilingan talabning tan olinganligi va uning sud tomonidan qabul qilinganligi koʻrsatilishi mumkin.

### *Masalan*

*«Sud majlisida javobgar F.S. Aliyeva (Xamitova) daʼvogarning daʼvo talablarini tan olib, haqiqatan ham daʼvogar bilan 2006-yil 7-oktabr kuni qonuniy nikohdan oʻtib turmush qurganligini, birgalikdagi turmushlaridan ikki nafar farzandlari borligini, daʼvogarning daʼvo arizasini tan olishligini, daʼvogar bilan ajrashishga noroziligini, daʼvogarga xiyonat qilmaganligini, sud tomonidan oilani saqlab qolish maqsadida berilgan muddat ichida oilani tiklab qolishga harakat qilmaganligini, daʼvogar bilan oʻrtalaridagi er-xotinlik munosabatlari 2014-yilda*



*tugatilganligini, da'vogar farzandlari uchun nafaqa to'lamasligini, farzandlari hozirgi kunda o'zining tarbiyasida ekanligini, nikohdan ajratilgan taqdirda «Xamitova» familiyasiga o'tishini bayon qilib, da'vogarning da'vo arizasini qanoatlantirishni so'radi.*

*Sud, taraflarning bayonotlarini tinglab, ish hujjatlarini muhokama qilib va mavjud dalillarga huquqiy baho berib, quyidagi asoslarga ko'ra da'vogarning da'vo talablarini qanoatlantirishni lozim deb hisoblaydi.*

*Aniqlanishicha, taraflar Aliyev Ulug'bek Yoqubovich va Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovna 2006-yil 7-oktabr kuni oila qurganlar va ular o'rtasidagi qonuniy nikoh Toshkent shahar Mirobod tumani FHDYO bo'limi tomonidan 405-sonli dalolatnoma yozuvi bilan qayd qilingan.*

*Taraflarning birgalikdagi turmushlaridan ikki nafar voyaga yetmagan 2010-yil 30-iyulda tug'ilgan Aliyev Davronbek Ulug'bek o'g'li va 2013-yil 06-sentabrda tug'ilgan Aliyeva Sarvinoz Ulug'bek qizi farzandlari bor.*

*Taraflar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va janjallar o'zaro hurmat-ishonch, bir-birini tushunish va mehr-muhabbat tuyg'ularini yo'qolishiga hamda oilani barbod bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu sababli taraflar, 2014-yilning noyabr oyidan buyon birga yashamaydilar va umumiy ro'zg'or yuritmaydilar. Shu paytdan e'tiboran ular o'rtasidagi er-xotinlik munosabatlari tugatilgan.*

*O'zaro mulkiy xarakter kasb etuvchi nizolar mavjud emas.*

*Sud tomonidan taraflarga yarashib olishlari uchun berilgan muddat davomida taraflar o'z oilani saqlab qolishga harakat qilmaganlar hamda taraflar o'zaro munosabatlarida hech qanday ijobiy o'zgarishga erishilmagan. Aksincha, taraflarning birga yashashga xohish-istaklari qolmagan. Ularning har ikkisi suddan qat'iy tarzda nikohdan ajratishni talab qilmoqda.*

*Ushbu holatlar esa oilaning batamom barbod bo'lganligidan va uni saqlab qolish imkoniyatlari qolmaganligidan dalolat beradi.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi «Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli qarori 16-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 41-moddasida «agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratishi mumkin»ligi ko'rsatilgan.*

*Bunday holatlarda sud, da'vogarning da'vo talablarini qanoatlantirib, da'vogar Aliyev Ulug'bek Yoqubovich bilan javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovnalari o'rtasida 2006-yil 7-oktabr kuni Toshkent shahar Mirobod tumani FHDYO bo'limi tomonidan 405-raqamli dalolatnoma yozuvi bilan qayd qilingan nikohdan ajratishni va javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovnaning nikohdan oldingi qizlik «Xamitova» familiyasiga qaytarishni lozim topadi.*

*Shuningdek, sud nikohni bekor qilishni rasmiylashtirishda da'vogar U.Yo. Aliyevdan davlat foydasiga 617.065 so'm davlat boji undirishni, javobgar F.S. Aliyeva (Xamitova) ni esa davlat boji to'lovlari-dan ozod qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.*

*Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 40–41, 44–45-moddalarini, Fuqarolik protsessual kodeksining 249-253-moddalarini qo'llab, sud*

## **Q A R O R   Q I L A D I :»**

**Hal qiluv qarorining xulosa qismida** sudning arz qilingan talablardan har birini to'liq yoki qisman qanoatlantirish to'g'risidagi yoxud qanoatlantirishni rad etish haqidagi xulosasi

bo'lishi, sud xarajatlarini taqsimlash, hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi ko'rsatilishi kerak.

### *Masalan*

*«Da'vogar Aliyev Ulug'bek Yokubovichning javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovnaga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi qanoatlantirilsin.*

*Da'vogar Aliyev Ulug'bek Yokubovich bilan javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovnalari o'rtasida 2006-yil 7-oktabr kuni Toshkent shahar Mirobod tumani FHDYO bo'limi tomonidan 405-raqamli dalolatnoma yozuvi bilan qayd etilgan nikoh bekor qilinsin.*

*Javobgar Aliyeva (Xamitova) Feruza Salimjanovnaga nikohdan oldingi qizlik «Xamitova» familiyasi qaytarilsin.*

*Nikohni bekor qilishni rasmiylashtirishda da'vogar U.Yo. Aliyevdan davlat foydasiga 617.065 so'm davlat boji undirilsin.*

*Javobgar F.S. Aliyeva (Xamitova) davlat boji to'lashdan ozod qilinsin.*

*Hal qiluv qaroridan norozi taraflar 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishi yoki protest keltirishi mumkin.*

*Raislik etuvchi: /imzo/ Sh.Sh.Sh.*

*Nusxa asliga to'g'ri, sudya: imzo*


*Hal qiluv qarori 2020-yil 8-oktabr kuni qonuniy kuchga kirdi.*

*Sudya: imzo»*

Sud hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradi. Mazkur talab odil sudlov hujjatiga nisbatan qo'yilgan eng mas'uliyatli va jiddiy talab sanaladi. Protsessual hujjatlar ichida hukm va hal qiluv qaroriga nisbatan «O'zbekiston Respublikasi nomidan» jumlasini qo'llaniladi.

Sudning hal qiluv qarorini O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilishini hal qiluv qarorining qat'iy, majburiy, rad etib bo'lmaydigan xususiyatga ega ekanligi hamda Fuqarolik protsessual kodeksining 6-moddasida belgilangan sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari, buyruqlari qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozimligi kabi xususiyatlar (talablar) bilan izohlash mumkin.

Sudning hal qiluv qarori **qonuniy, asoslantirilgan va adolatli** bo'lishi kerak.



**Hal qiluv qaroriga  
qoyilgan talablar**

**Sud hal qiluv qarorining qonuniyligi deganda** ishni ko'rish natijalariga ko'ra protsessual huquq normalariga qat'iy rioya qilingan holda chiqarilgan, ko'rib chiqilgan nizoga yechim berishda moddiy va protsessual huquq normalari, Plenum qarorlarining tegishli normalariga mos ravishda qabul qilingan, zarur hollarda qonun o'xshashligi yoki huquq o'xshashligini qo'llashga asoslangan talab.

**Sud hal qiluv qarorining asoslantirilganligi deganda** ishning haqiqiy holatini ochishga qaratilgan protsessual harakatlarning to'liq ifodalanishi, har bir harakat, holat, faktning sud tomonidan tekshirilgan dalillar bilan tasdiqlanganligi, ularning aloqadorligi va maqbulligi qonun talablariga javob beradigan yoki sud hammaga ma'lum deb topgan, isbotlashga muhtoj bo'lmagan holatlar, shuningdek, aniqlangan faktlardan kelib chiqadigan yakuniy xulosalar aks

ettirilganligi va ularning sudya tomonidan baholanganligini ifodalovchi talab.

**Sud hal qiluv qarorining adolatliligi deganda** fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini bajarishga undaydigan, sudga murojaat qilishdan boshlab, ishni yakunlashga bo'lgan jarayonda amalga oshiriladigan protsessual harakatlarning inson manfaatlariga mos tarzda olib borilishi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bir qator protsessual imkoniyatlarning ta'minlanganligi, ishlarni ko'rishda prinsiplarga va protsessual muddatlarga og'ishmay rioya qilish, taraflarning tengligini ta'minlash, nizoni hal qilishda qonuniy, asoslantirilgan va oqilona yechim berishga qaratilgan talab.

**Sudning arz qilingan talablar doirasidan chetga chiqish huquqi (FPKning 254-moddasi).**

Sud ishni da'vogar tomonidan arz qilingan talablar doirasida hal qiladi. Biroq, agar sud da'vogarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun zarur deb topsa, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda da'vogar tomonidan bildirilgan talablar doirasidan chetga chiqishi mumkin.

Mazkur normada sudning arz qilingan talablar doirasidan chetga chiqishi ikki holatda: sud da'vogarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni shart deb topsa hamda qonun yo'l qo'ygan boshqa hollarda da'vogarning arz qilgan talablari doirasidan chetga chiqishi mumkin.

### *Masalan*

*Oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish (mol-mulkka nisbatan egalik huquqini haqiqiy emas) haqidagi da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan fuqarolik ishini ko'rib chiqib, FPKning 254-moddasi asosida oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish bilan birgalikda, garchi da'vogar da'vo talablarida ko'rsatmagan bo'lsa-da, kadastr reyestridan ushbu shartnomani chiqarish,*

*kadastr orderini haqiqiy emas deb topish haqida hal qiluv qarorida ko'rsatilishi mumkin.*

Ilmiy manbalarda mazkur normaning mazmuni biroz munozarali talqin etiladi. Chunki protsessual huquqda har doim ham sudning arz qilingan talablar doirasidan chetga chiqishiga ruxsat berilmaydi.

**Hal qiluv qarorlarining yana bir qator turlari (nizolashuvchi subyektlar tarkibi, da'vo turi, ijro usuliga ko'ra) mavjud:**

- Javobgar zimmasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatadigan hal qiluv qarori;
- Mol-mulkni yoki uning qiymatini undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori;
- Pul mablag'larini undirishga qaratilgan hal qiluv qarori;
- Bir nechta da'vogarga yoki bir nechta javobgarga nisbatan qabul qilingan hal qiluv qarori.

**Javobgar zimmasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatadigan hal qiluv qarori (FPKning 259-moddasi).**

Sud javobgar zimmasiga mol-mulkni yoki pul summalarini olib berish bilan bog'liq bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatishni nazarda tutuvchi hal qiluv qarorini qabul qilish chog'ida, qarorning o'zida, agar javobgar hal qiluv qarorini belgilangan muddat ichida bajarmasa, da'vogar shu harakatlarni javobgarining hisobidan amalga oshirishga va zarur xarajatlarni keyinchalik javobgardan undirib olishga haqli ekanligini ko'rsatishi mumkin. Agar mazkur harakatlar faqat javobgar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lsa, sud hal qiluv qarorida uni ijro etish kerak bo'lgan muddatni belgilab qo'yadi.

Hal qiluv qarorida javobgarga yuklanishi lozim bo'lgan (javobgar bajarishi lozim bo'lgan) protsessual harakatlar va shu orqali protsessual majburiyatlarni bajarish imkoniyatini nazarda tutadi. Bundan tashqari, hal qiluv qarorining xulosa qismini aniq bayon qilinishiga hamda uning ijrosini o'z vaqtida

ta'minlanishiga sharoit yaratadi. Bunday holatlar ko'proq undirish to'g'risidagi da'voli ishlar yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlarida uchraydi.

### *Masalan*


*Fuqarolik ishlari buyicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi da'vogarlar Bekturdiyeva Barno Botirovna, Ravshanova Mehriqiyo Xafiz qizi va Bekturdiyeva Zarnigor Zaynitdin qizilarning javobgar Bekturdiyeva Asolat Asilbek qiziga nisbatan xona eshigiga qo'yilgan qulfni olib tashlash, xonaga kirib undan foydalanishga qarshilik qilmaslik majburiyatini yuklash haqidagi da'vo arizasi yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishini ko'rib chiqib, sud hal qiluv qarorining xulosa qismida da'vogarning da'vo talabini asosli deb topib, uni qanoatlantirishni, javobgar Bekturdiyeva Asolat Asilbek qiziga Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Izzat ko'chasi 22-uy, 11-xonadonning 1A-sonli xonasida xona eshigiga qo'yilgan qulfni olib tashlash, xonaga kirib undan foydalanishga qarshilik qilmaslik majburiyatini yuklashni lozim deb hisoblaydi.*

*Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudining 2019-yil 17-oktabrdagi hal qiluv qarori bilan da'vogar Chilonzor tuman hokimligining javobgar Mehrangiz Musurmonovaga nisbatan noqonuniy qurilmani majburiy tartibda buzish, yer maydonini asl holiga qaytarish haqidagi da'vo talablari qanoatlantirilib, javobgar hisobidan Toshkent shahar Chilonzor tumani Tantana ko'chasi 55-uy, 22-xonadon atrofida qurilgan 3/111-sonli garaj qurilmasi va tandirxonani buzib tashlash, yer maydonini dastlabki holiga keltirish, nizoli yer maydonidagi qurilish chiqindilarini tozalab, olib chiqib ketish majburiyati yuklatilgan.*

Protsessual qonunga ko'ra (FPKning 260-moddasi) hal qiluv qarori o'qib eshittirilganidan keyin shu qarorni qabul qilgan sud tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

### **Sud quyidagi hollarda o'zi qabul qilgan hal qiluv qarorini bekor qilishga haqli:**

- ish sirtidan ish yuritish tartibida ko'rilganda (FPK 286-moddasi);
- qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishda (FPK 443-moddasi);
- fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi ariza ko'rilganda (FPK 309-moddasi).



### **Hal qiluv qarori ahamiyati:**

- ishni mazmuni bo'yicha hal qiluvchi;
- sud majlisini yakunlovchi;
- fuqarolik ishini tugatuvchi;
- qonuniylikni va huquq-tartibotni mustahkamlovchi;
- qonunga va sudga hurmatni shakllantiruvchi.
- nizoni hal qilish natijadorligini o'zida ifodalovchi;
- nizolarning oldini olishga ta'sirlantiruvchi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ma'naviy-axloqiy, ruhiy, huquqiy jihatdan tarbiyalovchi odil sudlov hujjati.



### **3-§. Hal qiluv qaroridagi kamchiliklarni tuzatish va tushuntirish**

Fuqarolik protsessual kodeksining 261-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarga hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni va aniq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish imkoniyati berilgan bo'lib, unga ko'ra sud hal qiluv qarori yozuvida yo'l qo'yilgan xatolarni yoki ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni o'z tashabbusi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra tuzatishi mumkin. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish yoki boshqa matematik hisoblashlarda yo'l qo'yilgan xatolar ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolar hisoblanadi.

#### *Masalan*

*Voyaga yetmagan bola ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi da'vo talabi yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorining xulosa qismida to'lanadigan aliment miqdori o'tgan yillar uchun undirilganda «2018-yil 20-fevral» sanasi «2018-yil 02-fevral» deb topilishi haqidagi ochiq ko'rinib turgan texnik xatolik tuzatilishi haqida ariza bilan murojaat qilgan.*

Hal qiluv qarori yozuvida yo'l qo'yilgan xatolarni yoki ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish haqidagi ariza u topshirilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni yoki ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi. Biroq, bu shaxslarning kelmaganligi tuzatishlarni kiritish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun to'stinlik qilmaydi.

Hal qiluv qaroriga tuzatishlar kiritish yoxud tuzatishlar kiritishni rad qilish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qaroriga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Hal qiluv qarorida, shu jumladan, qonunni noto'g'ri qo'llash yoki tushunish natijasida yo'l qo'yilgan boshqa barcha xatolar, faqatgina yuqori instansiya sudi tomonidan qonunda belgilangan tartibda tuzatilishi mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga tuzatish kiritish masalasi sud tomonidan ijro bosqichida ham, lekin qonunda belgilangan, majburiy ijroga taqdim etish mumkin bo'lgan muddat doirasida hal qilinishi mumkin.

### **Hal qiluv qarorini tushuntirish.**

Hal qiluv qarori noaniq bo'lsa, ishni hal qilgan sud o'z tashabbusiga yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga, shuningdek, hal qiluv qarorini ijro etish zimmasiga yuklatilgan organlar va davlat ijrochisining arizasiga ko'ra hal qiluv qarorini uning mazmunini o'zgartirmagan holda tushuntirishga haqli.

Agar hal qiluv qarori ijro etilmagan va uni majburiy ijro ettirish mumkin bo'lgan muddat o'tmagan bo'lsa, hal qiluv qarorini tushuntirishga yo'l qo'yiladi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq, bu shaxslarning sudga kelmaganligi hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Sud hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi arizani u kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ko'rib chiqadi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi.

Hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

*Yashnobod tuman MIB davlat ijrochisi D.D. tomonidan tumanlararo sudga tushuntirish so'ralganlik haqidagi ariza bilan murojaat qilgan. 2016-yildan buyon qarzdor Sergey Pavlov aliment to'laydi. 2020-yil noyabr oyida Sergey Pavlov tomonidan taqdim etilgan sudning hal qiluv qarorida faqat Sergey Pavlovni bolaga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish haqidagi masala hal qilingan. Aliment to'lovi haqida hech qanday ko'rsatma yo'q. Davlat ijrochisining 2016-yildagi ijro varaqasiga asosan amalga oshirayotgan ijro harakatlariga Sergey Pavlov norozi. Ammo Oila qonun hujjatlarida otalik huquqidan mahrum qilinishi otani aliment to'lovlaridan ozod etmaydi. Davlat ijrochisi sudga ikkinchi hal qiluv qarori yuzasidan tushuntirish so'rab murojaat qildi.*

ESDA TUTING!

Hal qiluv qarorini tushuntirishda sud haqli emas

hal qiluv qarorining mazmunini o'zgartirishga haqli emas

hal qiluv qaroriga qo'shimcha masalalarni sudga o'tkazish haqli emas

#### **4-§. Qo'shimcha hal qiluv qarori**

Odatda har doim ham qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarilavermaydi, bunday sud hujjati dastlabki chiqarilgan hal qiluv qaroriga qo'shimcha ravishda chiqarilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarori faqatgina qonunda to'g'ri nazarda tutilgan hollarda chiqarilishi mumkin (FPK 262-moddasi).

Ish bo'yicha hal qiluv qarorini qabul qilgan sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarishi mumkin, agar:

1) huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summaning miqdorini, olib berilishi kerak bo'lgan mol-mulkni yoki javobgar amalga oshirishi shart bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan bo'lsa;

2) arz qilingan talablarning birortasi bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar taqdim etgan va tushuntirishlar bergan bo'lsalarda, biroq bu xususda hal qiluv qarori qabul qilinmagan bo'lsa;

3) hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash ko'rsatilmagan bo'lsa. Qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarish to'g'risidagi masala hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay qo'zg'atilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi masalani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi. Qo'shimcha hal qiluv qarori ustidan asosiy hal qiluv qarori bilan birga shikoyat qilinishi va protest keltirilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarori asosiy hal qiluv qarori bilan birga qonuniy kuchga kiradi.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarish rad etilgan taqdirda, ajrim chiqariladi.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarishni rad etish haqidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish ko'rinishida hal qiluv qarorining mazmunini o'zgartirishga yoxud sud majlisida o'rganilmagan yangi masalalarni hal qilishga haqli emas.

Qo'shimcha hal qiluv qarori ishni ko'rgan sud tomonidan, faqatgina hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar chiqarilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasi sudyalarning boshqa tarkibida ham ko'rilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarish to'g'risidagi masala hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e'tiboran o'n

kundan kechiktirmay qo'yilishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra o'tkazilgan holda, u FPK 155-moddasi qoidalariga muvofiq tiklanishi mumkin.

Agar sudning hal qiluv qaroriga nisbatan apellyatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgan bo'lsa va bir vaqtning o'zida qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasi qo'yilgan bo'lsa, sud dastlab qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish masalasini hal etadi, shundan so'ng ishni apellyatsiya instansiyasi sudiga yuboradi.

Asoslar tahlili:

1) huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summaning miqdorini, olib berilishi kerak bo'lgan mol-mulkni yoki **javobgar amalga oshirishi shart bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan bo'lsa;**

### *Masalan*

*Merosxo'r deb topish, meros mol-mulkini bo'lish, uydan ko'chirish haqidagi da'vo talablari bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi bo'yicha da'vogar Karimxonov Komil Kayumovich merosxo'r deb topilgan, ammo merosning qaysi qismiga nisbatan egalik huquqini belgilashni ko'rsatmagan.*

**2) arz qilingan talablarning birortasi bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar dalillar taqdim etgan va tushuntirishlar bergan bo'lsalarda, biroq bu xususda hal qiluv qarori qabul qilinmagan bo'lsa;**

### *Masalan*

*Da'vogar Xaqberdiyev Xolto'ra javobgar Jasurov Sobirga nisbatan uyga kiritish hamda Jasurov Sobirning Xakberdiyev Xolto'raga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vosi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi yuzasidan sud majlisida da'vogar Xakberdiyev Xolto'ra nizoli*

uyga kiritib, yashash va foydalanish huquqini be-  
lgilab berishni hamda Jasurov Sobirdan 30 000  
000 (o'ttiz million) so'm ma'naviy zararni undirib  
berishni so'ragan bo'lsa-da, sudning hal qiluv  
qarorida da'vogarning ma'naviy zararni undirish  
haqidagi da'vo talabi muhokama qilinmay qol-  
dirilgan. Aniqlanishicha, sud da'vogar tomonidan  
mazkur vajlarni isbotlovchi biror bir dalil sudga  
taqdim qilinmaganligiga alohida e'tibor qaratadi.

### **3) hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsimlash ko'rsatilmagan bo'lsa.**

#### *Masalan*

*Tumanlararo suddida ko'rilgan otalikka e'tiroz  
bildirish va to'lanayotgan alimentni bekor qilish  
haqidagi da'vo talabi yuzasidan o'tkazilgan otalikni  
aniqlashga doir Odam DNK si sud ekspertizasi  
bo'yicha ekspertiza xarajatlari taqsimoti yuzasidan  
sud muhokamasining muzokara qismida xarajatlarni  
tarafklar o'rtasida taqsimlash haqida da'vogar  
Baxtiyev Baxtiyor Baxshullo o'g'li tomonidan og'zaki  
iltimos bayon etilganligiga qaramay, ushbu masala  
ochiq qolgan. Hal qiluv qarori xulosasida «Ekspertiza  
xarajatlari da'vogar Baxtiyev Baxtiyor Baxshullo  
o'g'li tomonidan to'langanligi e'tiborga olinsin» deb  
ko'rsatilgan.*

### **5-§. Darhol ijro qilinadigan sud hal qiluv qarorlari**

Hal qiluv qarorlari ijro usuli va muddatiga ko'ra umumiy  
asoslarda va darhol ijroga qaratiladi.

Umumiy asoslarda ijro etish deganda protsessual qonun  
hujjatlarida qonuniy kuchga kirgach, ijroga qaratilishi  
nazarda tutiladi. Darhol ijro etishda esa hal qiluv qarori  
qonun bo'yicha darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hollarda  
yoki hal qiluv qarorining darhol ijroga qaratilishi sud

tomonidan yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu haqda hal qiluv qarorining asoslantiruvchi va xulosa qismida ko'rsatiladi. Sudning havolasi bo'yicha hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish zaruriyati, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'ladigan yoki ijro etish mumkin bo'lmay qoladigan holatlar keltirilgan holda asoslantirilishi lozim (masalan, da'vogarga undirilgan mulkning yo'qotilishi yoxud begonalashtirilishi).

Zarur hollarda sud, da'vogarning roziligi bilan sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda, uning qaytarma ijrosini ta'minlash choralari ko'rishi mumkin. Sud hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish masalasini u qabul qilinganidan so'ng ham, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda sud majlisida ko'rib chiqishi mumkin. Biroq, ularning kelmaganligi ushbu masalani hal qilish uchun to'sqinlik qilmaydi. Hal qiluv qarorini darhol ijroga qaratish haqidagi ajrim maslahatxonada chiqariladi va ishga qo'shib qo'yiladi.

### *Masalan*

*Sud amaliyoti materiallari tahliliga ko'ra, sud hujjatlarining darhol ijro qilinishi lozim bo'lgan sud hujjatlari ichida eng yuqorisi – sud buyruqlari bo'lib, qolgani qonunda belgilangan sudning hal qiluv qarorlariga to'g'ri kelgan. Ularning ichida da'vogar va javobgarning roziligi asosida darhol ijroga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan hal qiluv qarorlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda taraflarning arizasi asosida va sud majlisi bayonnomasiga kiritilgan holda masala hal qilinadi.*

Fuqarolik protsessual kodeksining 264-moddasida ko'rsatilishicha, sudning hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat qilinmagan (protest keltirilmagan) bo'lsa, apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Hal qiluv qarori ustidan

apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori instansiya sudi ko'rib chiqqanidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 265-moddasiga ko'ra, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ijro etiladi, bundan darhol ijro etish hollari mustasno.

Fuqarolik protsessual kodeksining 266-moddasida darhol ijro etilishi shart bo'lgan hal qiluv qarorlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra alimentlar undirish to'g'risidagi; xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi; mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek, boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi; mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi; sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagisudda ishni ko'rish vaqtida javobgar da'voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi.

Qonun darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlarini belgilashda fuqarolarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash, ularning oilaviy va moddiy sharoitini hisobga olish, fuqarolik ishining davlat va jamiyat uchun foydalilik xususiyati, fuqarolik ishining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini e'tiborga oladi.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida ushbu qarorning darhol ijro etilishi ko'rsatib o'tiladi.



**«Ishga tiklash haqidagi da'vo arizasi bo'yicha yuritilgan fuqarolik ishi hujjatlari»dan ilova**

**QAROR QILADI:**

1. Da'vogar Yevgeniy Yepiskop Yenayevich javobgar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Nukus shahar boshqarmasiga nisbatan buyruqni bekor qilish va ishga tiklash to'g'risidagi da'vo arizasi qanoatlantirilsin.

2. Majburiy ijro byurosi Nukus shahar boshqarmasining 2019-yil 27-yanvardagi da'vogar Ye.E. Yepiskopni lavozimidan ozod qilish haqidagi 99-sonli buyrug'i g'ayriqonuniy deb topilsin va bekor qilinsin.

3. Da'vogar Yevgeniy Yepiskop Yenayevich O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Nukus shahar bo'limiga elektr-energiya va tabiiy gazdan foydalanish tartibini nazorat qilish sho'basi davlat inspektori lavozimiga ishga tiklansin.

4. Hal qiluv qarorining ishga tiklash qismi darhol ijro etilishi lozim.

5. Hal qiluv qarori ustidan ushbu qaror chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga apellyatsiya tartibida yoki apellyatsiya tartibida ko'rilmagan va qaror qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida kassatsiya tartibida shikoyat berilishi yohud protest keltirilishi mumkin.

**Raislik qiluvchi: (imzo) Sh.Sh.Sh.**

*Nusxasi asliga to'g'ri, sudya*

*Hal qiluv qarori 13.05.2019-yilda qonuniy kuchga kirdi.*

*Sudya:*

**Sud qarorlarini darhol ijro etishning afzalliklari:**

- Hal qiluv qarori ijrosini ta'minlashda tezkorlikni oshiradi;

- Taraflarning (ayniqsa undiruvchining) oilaviy va moddiy imkoniyatlarini hisobga oladi;

- Ijroni kechiktirish, keyinga qoldirish yoki to'xtatish holatlari kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish yoki ijroning bajarilishi mumkin bo'lmay qolgan holatlarning oldini oladi;

- Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytiradi, sudda protsessual huquq va majburiyatlar takroran buzilishining oldini oladi;

- Odil sudlovni yuritishning ijobiy yakunlanishiga olib keladi.

«Darhol ijro etish muddatini oqilona muddat deb hisoblasak bo'ladimi?», degan haqli savol tug'iladi. Tahlillarga ko'ra, oqilona muddat vaziyatni tahlil qiladigan, subyektlar manfaatlarini hisobga olinadigan, tez bajarish imkoniyati bo'ladigan, qisqartirilgan muddat sanaladi. Qonun hujjatlarida obyektiv va subyektiv holatlar hisobga olinib, darhol ijro qilinishi shart bo'lgan va darhol ijro qilinishi mumkin bo'lgan holatlar (fuqarolik ishlari) toifalarga ajratilgan.

Hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga sudning yo'l qo'yish huquqi haqida Fuqarolik protsessual kodeksining 267-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra sud quyidagi hal qiluv qarorlari butunlay yoki qisman darhol ijro etilishiga yo'l qo'yishi mumkin: da'vogar va javobgar chiqarilgan hal qiluv qaroriga hamda uning darhol ijro etilishiga rozi bo'lgan hollarda; muallifning intellektual faoliyati natijalaridan foydalanlik uchun unga haq undirib berish to'g'risidagi hal qiluv qarori; alohida holatlar natijasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish undiruvchi uchun ko'p zarar keltirishi mumkin bo'lgan yoki ijro etish mumkin bo'lmay qolgan barcha boshqa ishlar bo'yicha.

Yuqoridagi modda mazmuniga ko'ra, hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga sudning yo'l qo'yish huquqi nazarda tutiladi. Ko'rsatilgan asoslarga ko'ra da'vogar va javobgarining huquq va manfaatlarini nuqtai nazaridan darhol ijro etishga ularning arizalari va roziliklari asos bo'ladi.

Protsessual kodeksda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda, taraflarning roziligi sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va taraflar tomonidan imzolanadi. Agar taraflarning roziligi sud nomiga yuborilgan yozma arizalarda ifodalangan bo'lsa, bu arizalar ishga qo'shib qo'yiladi, bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

Qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilganida sud da'vogardan sudning qarori bekor qilingan taqdirda, undirilgan narsalar qaytarilishini ta'minlashni talab qilishi mumkin.

Hal qiluv qarori chiqarilgandan so'ng apellyatsiya shikoyati berish va protest keltirish muddati ichida hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yish masalasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Biroq, bu shaxslarning kelmasligi darhol ijro etish masalasini hal qilishga to'sqinlik qilmaydi.

Hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalasi bo'yicha sudning chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin. Hal qiluv qarorini darhol ijro etish to'g'risidagi ajrim ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki keltirilgan protest bu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 268-moddasida hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilmasligini nazarda tutadi.

### **Mazkur norma mazmuniga ko'ra:**

- darhol ijroni qonun asosida rad etadi;
- aholini ijtimoiy huquqiy himoyasini ta'minlashga ko'maklashadi;
- mol-mulkni (da'vo predmetini) hajmi, sifati o'zgarishidan saqlaydi;
- fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;
- shaxslarning mulkiy manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash maqsadlarini ko'zlaydi.

Xususan, quyidagi hollarda hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga yo'l qo'yilmaydi:

1) darhol ijro etish natijasida mulkning holati o'zgarib, hal qiluv qarori bekor qilingan taqdirda mol-mulkni ilgarigi holatiga keltirish mumkin bo'lmasa yoki juda qiyin bo'lsa;

2) fuqarolarni binodan ko'chirish to'g'risidagi ishlarga taalluqli bo'lsa.

Hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalasi bo'yicha sudya ajrim chiqaradi. Hal qiluv qarorini darhol ijro etish alohida protsessual hujjat ko'rinishida chiqarilishi shart bo'lgan ajrimlar toifasiga kiradi.

## **6-§. Birinchi instansiya sudining ajrimlari tushunchasi va turlari**

Fuqarolik protsessual kodeksining **24-bobi (271–275-moddalari) birinchi instansiya sudining ajrimlariga** bag'ishlangan.

**Birinchi instansiya sudining ajrimlari** – ishni mazmunan hal qilmaydigan sud hujjatiga aytiladi.

### *Masalan*

*Arizani ish yurituviga qabul qilish va ish qo'zg'atish; arizani qaytarish; ishni sud muhokamasiga tayyorlash; ishni sud muhokamasiga tayinlash; bir turdagi ishlarni birlashtirish va bir nechta talablarni alohida ish yurituviga ajratish; ishni yopiq sud majlisida ko'rish; ishni sirdan ish yuritish tartibi ko'rish; ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish; sud topshirig'i; da'voni ta'minlash, da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish, shuningdek, da'voni ta'minlash choralari bekor qilish; rad qilish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to'g'risidagi ajrimlar va boshq.*

**Birinchi instansiya sudi** – ariza (da'vo ariza) larni birinchi marta qabul qilib, ishni protsessual tartibga binoan ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan sud tizimi (sud bosqichi) sanaladi, jumladan tuman, shahar, tumanlararo va boshq. Shuningdek, qonunda belgilangan asoslarga muvofiq,

yuqori sudlov instansiyalari ham alohida holatlarda sudlovlilik qoidalariga binoan birinchi instansiya sudi sifatida ish yuritiladi.

### **Ajrimlarning turlari:**

- alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladigan va alohida protsessual hujjat shaklidagi ajrimlar;
- sud majlisi zalida chiqariladigan va sud majlisi bayonnomasiga kiritiladigan ajrimlar;
- xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltiriladigan ajrimlar;
- umumiy tartibga muvofiq apellyatsiya shikoyati yoki protesti keltiriladigan ajrimlar;
- Shikoyat berilmaydigan yoki protest keltirilmaydigan ajrimlar

### **Alohida protsessual hujjat sifatida:**

- majburiy keltirish to'g'risida;
- sud jarimasini solish to'g'risida;
- javobgarni (qarzdorni) qidirish to'g'risida;
- ish bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish va tiklash to'g'risida;
- arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida;
- ish yuritishni tugatish to'g'risida;
- ishni mazmunan muhokama qilishni tiklash to'g'risida;
- hal qiluv qarori yozuvidagi xatolarni va aniq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish to'g'risida;
- hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risida;
- hal qiluv qarorini darhol ijro etish haqida;
- sirdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rish to'g'risida;
- protsessual muddatlarni uzaytirish va tiklash to'g'risida;
- sudning xususiy ajrimi.

Sudning alohida xonada (maslahatxonada) chiqarilgan ajrimi kirish, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat. Alohida sud hujjati ko'rinishida chiqarilgan ajrim, u chiqarilgandan so'ng darhol e'lon qilinadi va ishga qo'shiladi.

Sudya murakkab bo'lmagan masalalarni hal etish bo'yicha maslahatxonaga kirmasdan joyida (sud muhokamasi zalida) ajrim chiqarishga haqli.

### *Masalan*

- uchinchi shaxslar, taraflar vakillarini ishga jalb qilish yoki kirishishi to'g'risida;
- guvohlarni chaqirish to'g'risida;
- sud muhokamasini keyinga qoldirish;
- dalillarni tekshirish tartibini belgilash;
- dalillarni talab qilib olish yoki ishga qo'shib qo'yish va boshq.

**Birinchi instansiya sudining quyidagi ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat qilinmaydi:**

- arizani ish yurituviga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risida;
- ishni sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risida;
- ishni sud muhokamasiga tayinlash to'g'risida;
- bir necha ishlarni birlashtirish va bir necha talablarni ajratish to'g'risida;
- ishni yopiq sud majlisida ko'rish to'g'risida;
- dalillarni ta'minlash to'g'risida;
- sud topshirig'i to'g'risida;
- javobgarni (qarzdorni) qidirish to'g'risida;
- ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish to'g'risida;

**ESDA TUTING!**

Shikoyat qilinayotgan ajrim, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirishi uchun nazarda tutilgan tartibda qonuniy kuchga kiradi.

Alohida shikoyat qilinmaydigan ajrimlar e'lon qilingandan so'ng darhol qonuniy kuchga kiradi.

**Sudning hal qiluv qaroridan alohida apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan ajrimlar:**

- arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida;
  - arizani qaytarish to'g'risida;
  - ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risida;
  - majburiy keltirish to'g'risida;
  - sud jarimasini solish to'g'risida;
  - jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to'g'risida;
  - ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish to'g'risida;
  - ish yuritishni tugatish to'g'risida;
  - o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirish yoki tiklashni rad etish to'g'risida;
  - hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq arifmetik xatolarni tuzatish to'g'risida;
  - qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilishni rad etish to'g'risida;
  - hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risida;
  - hal qiluv qarorini darhol ijro etish masalalari bo'yicha;
  - hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish va uning bo'lib-bo'lib ijro etilishi, uni ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risida;
  - hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi to'g'risidagi masala bo'yicha;
  - ijro varaqasining yoki sud buyrug'ining dublikatini berish to'g'risida;
  - hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi arizani qanoatlantirish yoki rad etish to'g'risida;
  - xususiy ajrim (qaror);
  - dalillarni ta'minlashni rad etish to'g'risida;
  - da'voni ta'minlash masalalari bo'yicha;
  - sud buyrug'ini bekor qilishni rad etish to'g'risida;
  - sud xarajatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha;
- Sudning xususiy ajrimi (FPKning 275-moddasi).**

Ishni ko'rish chog'ida davlat organining yoki boshqa organning, tashkilotning, mansabdor shaxsning yoki fuqaroning faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, sud xususiy ajrim chiqarishga haqlidir.

Xususiy ajrim bilan sud tegishli organdan yoki mansabdor shaxsdan qonun hujjatlarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani o'zlarining vakolatiga muvofiq ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin.

### **272-modda. Ajrimning mazmuni**

Sud ajrimida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) ajrimning chiqarilgan vaqti va joyi;
- 2) sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majlisining kotibi;
- 3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- 4) nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinadigan masalaning mohiyati;
- 5) sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud amal qilgan qonunlar hamda boshqa qonun hujjatlariga havolalar;
- 6) sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi;
- 7) ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati.

#### **ESDA TUTING!**

FPK bilan alohida masalalar bo'yicha ajrimlar mazmuniga nisbatan qo'shimcha talablar belgilangan (FPK 95, 96, 103, 122, 125, 144, 167, 168, 181, 194, 226, 353, 358-moddalari).

Masalan, FPK 95-moddasining uchinchi qismi talablariga muvofiq ekspertiza tayinlash to'g'risidagi sudning ajrimida qanday masalalar bo'yicha ekspertlarning xulosasi talab qilinayotganligi va ekspertiza o'tkazish kimga topshirilayotganligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.



Ajrim alohida sud hujjati tarzida chiqarilgan hollarda, uning ko'chirma nusxalari taraflarga, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga, shuningdek u daxldor bo'lgan o'zga shaxslarga ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida yuboriladi. Sud ajrimi, agar qonunda yoki sud tomonidan boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, darhol ijro etiladi.

### **AJRIM**

*(Arizani qabul qilish va fuqarolik ishini qo'zg'atish haqida)*

2020-yil iyun oyining 24-kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi Sh.Sh. Sh. Da'vogar «SADAF-SAVDO» texno-savdo markazi xususiy firmasining javobgar Ablyazova Alimaris Arimadzega nisbatan moddiy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan tanishib chiqdi. Da'vo ariza O'zbekiston Respublikasi FPKning 189–190-moddalari talablariga javob beradi va uni rad etish uchun asoslar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi FPKning 189–193-moddalariga asosan, sud

### **AJRIM QILADI:**

Da'vogar «SADAF-SAVDO» texno-savdo markazi xususiy firmasining javobgar Ablyazova Alimaris Arimadzega nisbatan moddiy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi yuzasidan to'plangan hujjatlar ish yuritish uchun qabul qilinsin hamda 1-3366/20-sonli fuqarolik ishi qo'zg'atilsin.

**Sudya:**

**Sh.Sh.Sh.**

### **AJRIM**

*(Ishni sud muhokamasiga tayinlash haqida)*

2020-yil iyul oyining 5-kuni Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi sudyasi B.B.B. Da'vogar Abdullayev Abubakir Abdulloh o'g'lining javobgar

Azizov Asilbek Anvar o'g'liga nisbatan uy-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqidagi da'vo arizasini ko'rib chiqib, ishni sud muhokamasiga tayyor deb topib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 205-moddasiga asosan, sud

### **AJRIM QILADI:**

Ish o'z yurituviga qabul qilinsin va sud muhokamasiga ko'rish 2020-yil iyul oyining 23-kuni soat 10:00 ga tayinlansin.

Ishda ishtirok etuvchi tarafdorlarga sud majlisining kuni va vaqti ma'lum qilinsin.

**Sudya:**

**B.B.B**

### **NAZORAT SAVOLLARI**

- 1. Qaysi ajrimlar mazmuni to'rt qismdan iborat bo'ladi?*
- 2. Sudning xususiy ajrimi chiqarilgan holatlarda sud ish yurituvda qanday oqibatlar vujudga keladi?*
- 3. «Sud xarajatlari bilan bog'liq» masalalar bo'yicha qaysi ajrimlarni bilasiz?*
- 4. Ishni sud muhokamasida ko'rish jarayonida qanday ajrimlar chiqariladi?*
- 5. «Qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarish rad etilgan taqdirda, ajrim chiqariladi». Mana shu qoidani mantiqiy-huquqiy tahlil qiling.*

# **«FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI» MODULINI O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN PEDAGOGIK-TEXNOLOGIK USULLAR**

## **«AQLIY HUJUM» USULI:**

1. Ma'ruzachi tomonidan savol tashlanadi. Masalan, «Siz hayotingizda (faoliyatingizda) uchratgan, boshdan kechirgan, eshitgan, ko'rgan fuqarolik nizosi qanday vujudga kelgan?!».

2. Savolga javoblar, fikrlar, g'oyalar, mulohazalar eshitiladi va olinadi.

3. Javoblar yozma shakllarda, audio yoki video yozuv shaklida, doskaga mustahkamlanadi.

4. Javoblar mazmuniga ko'ra guruhlanadi.

5. Aniq va to'g'ri javob tanlanadi va e'lon qilinadi.

## **«MUAMMOLI VAZIYAT» USULI:**

1. Ma'ruzachi tomonidan savol tashlanadi. Masalan, «Advokatura nega oqsaydi?»

2. Talaba muammoli vaziyatga baho berishi zarur.

3. Muammoli vaziyatni tahlil qilishi kerak.

4. Muammoning kelib chiqish sabablarini keltirishi shart.

5. Muammoning oqibatlarini o'rganishi lozim.

6. Muammoga yechim berishi shart.

7. Yakuniy xulosa qilinadi.

## **«NIMA UCHUN» USULI:**

1. Ma'ruzachi tomonidan savol tashlanadi. Masalan, «Nima uchun sudga berilgan ariza qaytarilgan?»

2. «Nima uchun davlat boji va pochta xarajatlari to'lanmagan?»

3. «Nima uchun sud xarajatlari to'loviga oid huquqiy bilimi yetarli emas?»

4. «Nima uchun da'vogarga davlat boji va pochta xarajatlari to'lashda imtiyozlar yo'q?»

5. «Nima uchun da'vogar oylik ish haqi va yetarli daromadga ega emas?»

6. «Nima uchun?» ketma-ketligida savollar berilishi va javoblarga qarab yana davom etishi mumkin.

### **«ROLLI O'YIN» USULI:**

1. Muammoli vaziyat (fuqarolik ishi) sahnalashtirish orqali ko'rsatib beriladi. Masalan, «Nikohdan ajralish to'g'risida»gi fuqarolik ishi.

2. Ssenariy ishlab chiqiladi yoki aniq fuqarolik ishi hujjatlari asosida sahnalashtiriladi.

3. Maqsad va vazialar tushuntiriladi.

4. Rollar taqsimlandi.

5. Rollar ijro etiladi

6. Kuzatuvchilar (ekspertlar) fikri eshitaladi.

7. Yakuniy xulosa qilinadi.

### **«LOYIHA» USULI:**

1. Ma'ruzachi tomonidan mavzu yoki mavzular e'lon qilinadi. Masalan, «Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki».

2. Individual yoki guruhlarda ishlanadi.

3. Shartlari e'lon qilinadi: belgilangan vaqt, belgilangan mavzu, belgilangan talab.

4. Maqsad: rejalashtirish, axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish, mavzuning mohiyatini ochib berish, xulosani asoslash, natijalarni baholash.

5. Belgilangan talab: mavzuga doir manbalar haqida ko'rsatish, mavzu yuzasidan islohotlarga qisqacha to'xtalish, mavzuni mazmun-mohiyatini ochib berish, mavzuga doir muammolarni sanab o'tish, mavzuni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish.

6. Yakuniy baholanadi.

## «BBB» – «BILAMAN – BILISHNI XOHLAYMAN – BILIB OLDIM» (BBB) USULI:

1. Doskaga jadval shakllantiriladi. Masalan, «Mavzu yuzasidan nima bilasiz va nimalarni bilishni xohlaysiz?»

2. Mavzu: «Suddagi vakillik»

<b>BILAMAN</b>	<b>BILISHNI XOHLAYMAN</b>	<b>BILIB OLDIM</b>
– Sudda vakil ishtirok etishi, vakil tanlashim mumkinligini, malakali yuridik yordam olish huquqim borligini bilaman.	– Vakil olish asoslari; – Vakillik turlari; – Ishga kirishish tartibi; – Vakil vakolatlari; – Vakillik xarajatlari; – Vakildan voz kechish asoslari va tartibi va boshq.	

## VENN DIAGRAMMASI USULI:

1. Ma'ruzachi tomonidan mavzu tanlanadi. Masalan, «Da'voni ta'minlash va dalilni ta'minlash» aloqadorligini tavsiflang.

2. Individual yoki guruhlarda ishlanadi.

3. Da'voni ta'minlashning moddiy va protsessual xususiyatlari yoritiladi.

4. Dalilni ta'minlashning moddiy va protsessual xususiyatlari yoritiladi.

5. Da'voni ta'minlash va dalilni ta'minlash» aloqadorligi (o'xshash va farqlari) qiyoslanadi.

6. Yakuniy baholanadi.

## KLASTER USULI

1. Protsessual norma yoki institut ma'ruzachi tomonidan e'lon qilinadi. Masalan, «Prinsip» so'zi nimani anglatadi? Tezkor tavsiflang.


2. Ma'ruzachi tomonidan belgilangan vaqt, belgilangan talab qo'yiladi.

3. Talaba so'z haqida nima o'ylagan bo'lsa, shuni qog'ozga yoki doskaga yozadi.

4. Talaba bilimi doirasida so'zni tavsiflaydi.

5. So'zning tavsiflarini talaba sharhlaydi.

6. Yakuniy baholanadi.





# TAVSIYA QILINGAN ADABIYOTLAR:

## 1. Rahbariy adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

5. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 486 b.

6. Sh.M. Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

7. Sh.M. Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

8. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.



## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4850-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 43-son, 497-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4966-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 109-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashini shakllantirish to'g'risida»gi PF-5006-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 15-son, 244-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi «Sudlar va adliya organlari faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3240-son Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 35-son, 922-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi «Sud – huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5482-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.07.2018-y., 06/18/5482/1506-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-yanvardagi «Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2019-y., 07/19/4096/2427-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-martdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4236-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.03.2019-y., 07/19/4236/2762-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020-y., 06/20/6034/1103-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.11.2020-y., 06/20/6118/1562-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.09.2020-y., 07/20/4818/1255-son.

### **III. O'quv va ilmiy adabiyotlar:**

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2001. – 512 b.

2. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.

3. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga Sharhlar. – Toshkent: TDYUI, 2010. – 960 b.
4. Якубов С.А. Стороны в гражданском процессе. – Toshkent: Konsaudition form-Nashr, 2006. – 170 c.
5. Egamberdiyev E.E. Sud ishlarini yuritish muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. – 72 b.
6. Egamberdiyev E.E., Kamalov O.A., Tillayev T.N., Qo'ldashev N.A., Xolmuminov O.J. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 296 b.
7. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: AQHMI, 2009. – 124 b.
8. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. O. Okyulov. – Toshkent: TDYUI, 2010. – 534 b.
9. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining rivojlanishi: (ilmiy-amaliy qo'llanma) / 2 – nashr, o'zgartish va qo'shimchalar bilan. – Toshkent: AL-FABA-SERVIS. 2010. – 164 b.
10. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: AL-FABA-SERVIS nashriyoti, 2010. – 122 b.
11. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2011. – 322 b.
12. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessida taraflar, ularning huquq va majburiyatlari (ilmiy-amaliy qo'llanma) – Toshkent: YUMOM nashriyoti, 2012. – 36 b.
13. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi va sudlovga taalluqliligi masalalari (ilmiy-amaliy qo'llanma). – Toshkent, YUMOM nashriyoti, 2013. – 64 b.
14. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. –T.: TDYUI, 2012. – 516 b.

15. M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Yu.Xabibullayev. Fuqarolik protsessual huquqi. Mualliflar jamoasi. Yuridik kollejlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent.: ILM ZIYO, 2012. – 336 b.

16. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan yangiliklar (ilmiy-amaliy qo'llanma). Ma'sul muharrir yu.f.n., dos. A.B. G'afurov. – Toshkent: YUMOM nashriyoti, 2012. – 60 b.

17. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash (ilmiy-amaliy qo'llanma). – Toshkent, YUMOM nashriyoti. 2013. – 60 b.

18. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. –T.: TDYUI, 2014. – 316 b.

19. Mamasiddiqov M.M., Mirzayev U.S. Buyruq tartibida ish yuritish. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2015. – 64 b.

20. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi: fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalikka zaxiraga olingan nomzodlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Baktria press, 2014. – 424 b

21. Mamasiddiqov M.M. Hakamlilik muhokamasi haqida nimalar bilish kerak? Amaliy qo'llanma. (mualliflar jamoasi). – Toshkent: infoCOM.UZ MCHJ nashriyoti. 2010. – 146 b.

22. Мамасиддиқов М.М., С.А.Марипова. Комментарий к основным положениям судопроизводства. – Tashkent: Adabiyot uchqunlari, nashriyoti, 2014. – 208 s.

23. Mamasiddiqov M.M., Shodmonov F.Yu., Alimardonov X. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki. O'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari, 2014. – 66 b.

24. M.M. Mamasiddiqov, U.Mirzayev. Buyruq tartibida ish yuritish. Ilmiy – amaliy qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. 2015. – 204 b

25. Mamasiddiqov M.M., Miraxmedova N.A. Fuqarolik protsessida prokuror ishtiroki: milliy amaliyot va xorijiy tajriba// Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2016. – 216 b

26. Mamasiddiqov M.M. Mehnat nizolari va ularni sudda

ko'rish xususiyatlari. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent. Lesson-press nashriyoti, 2016. – 146 b.

27. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik ishlari bo'yicha masalalar va test savollari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat, 2016. – 284 b

28. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi / Fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalalar uchun qo'llanma. 2-nashr. Qo'shimcha va o'zgarishlar bilan. – Toshkent. Noshirlik yogdusi, 2017. – 480 b

29. Mamasiddiqov M.M., Rustamboyev M.X. Harakatlar strategiyasi: konstitutsiyaviy islohotlarni jadal rivojlantirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 30 b.

30. Mamasiddiqov M.M., Umarov N.T. Sud orqali himoyalanişga oid konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash / Risola. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 38 b.

31. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X.B., Davletov O'.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 400 b.

32. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X.B., Davletov O'.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 322 b.

33. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlari. O'quv qo'llanma – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 166 b.

34. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash masalalari // Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: Bosh prokuratura Akademiyasi Tahririy-nashriyot bo'limi, 2019. – 256 b.

35. Tuxtasheva U.A. Ijro ishi yuritish. Darslik. – T.: TDYUI nashriyoti. 2008. – 211b.

36. Марипова С.А. Гражданский процесс. – Ташкент: ТГЮУ, 2009. – 412 с.

37. Маряпова С.А. Гражданский процесс. – Ташкент: ТГЮУ, 2009. – 560 с.

38. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). – Toshkent: TDYUI, 2010. – 280 b.

39. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYUI, 2012. – 300b.

40. Xabibullayev D. Alohida tartibda ish yuritish. O'quv qo'llanma. – Toshkent.: TDYuI 2012. – 90 b.

41. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDYUI 2018. – 300 b.

42. Xabibullayev D.Yu., J.T.Allayorov. Fuqarolik protsessual huquqi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. – 110 b.

43. Ayrim turkumdagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Toshkent, TDYUI, 2010. – 83 b

44. Fuqarolik ishlari bo'yicha protsessual hujjatlar. Mualliflar jamoasi. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: TDYUI, 2011. – 230 b.

45. Ayrim turkumdagi fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDYUI 2011. – 309 b.

46. Z.N. Esanova. Fuqarolik protsessual huquqi. O'quv uslubiy majmua (Lotin yozuvida). – Toshkent: TDYUI, 2012. – 151 b.

47. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Maxsus qism. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrir: yu.f.d. Z.N. Esanova. – Toshkent, 2013. – 435 b.

48. Z.N. Esanova, D.Yu. Xabibullayev, I.M. Salimova Sud qarorlarini qayta tekshirish institutlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDYUU 2016. – 215 b.

49. Esanova Z.N., Mamasiddiqov M.M., D.Yu.Xabibullayev. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – T.: TDYUU, 2019. – 250 b.

50. Комментарий к Гражданскому процессуальному кодексу Республики Узбекистан (постатейный) // Верховный Суд

Республики Узбекистан. – Ташкент: Адолат, 2016. – 912 с.

51. Oila va nikoh munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar bo'yicha sud amaliyoti. Amaliy qo'llanma. – Toshkent, 2017. – 275 b.

52. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi. Amaliy qo'llanma. // X. Yodgorov, B. Saidmuratov. – Toshkent: Baktria press, 2017. – 208 b.

53. Fuqarolik ishlari bo'yicha protsessual hujjatlar. Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018. – 333 b.

54. Fuqarolik ishlari bo'yicha protsessual hujjatlar. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2018. – 280 b.

55. Sud qarorlarini majburiy ijro etish: fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlari misolida. // Mualliflar: Z. Esanova, D. Xabibullayev, K. Avezov, A. Matmurotov, D. Artikov. Axborot-tahliliy material. – Toshkent: TDYUU, 2018. – 100 b.

56. Iqtisodiy protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2018. – 537 b.

57. Fuqarolik protsessual huquqi (savol-javoblar). O'quv qo'llanma. TDYUU. 2018. – 205 b.

58. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent. TDYUU, 2019. – 250 b.

59. Prokuror nazorati. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYUU, 2019. – 190 b.

60. Прокурорский надзор. Учебник. Коллектив авторов. – Ташкент: ТГЮУ, 2019. – 188 б.

61. Sud qarorlarini ijro etish: fuqarolik va iqtisodiy sudlarning qarorlari misolida. Monografiya. Toshkent, 2019. – 188 b.

62. Sud qarorlari ijrosi (fuqarolik ishlari bo'yicha). Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent. TDYUU, 2019. – 170 b.

63. Avezov Q.S. Iqtisodiy sudlarning qarorlarini ijro etish (nazariya va amaliyot). Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: TDYUU, 2019. – 68 b.

64. Z.N. Esanova, D.Yu. Xabibullayev, F.B. Ibratova, S.S. Niyazova, D.R. Artikov. Sud qarorlari ijrosi: (fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy ishlar misolida). Monografiya.

// Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z.N. Esanova. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020. – 205 b.

65. S.S. Niyozova, D. Artikov. Sud qarorlarini ijro etish: jinoyat va ma'muriy sudlar hujjatlari misolida. Monografiya. // Mas'ul muharrir: yu.f.d., professor Z.N. Esanova. – T.: TDYUU nashriyoti, 2020. – 160 b.

66. Z.N. Esanova, D.Yu. Xabibullayev, A.O. Xamidov, Q.S. Avezov, S.S. Niyozova. Ijro ishi yurituvi: konseptual g'oyalar, sohadagi muammolar, amaliy takliflar. Monografiya. // Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z. N.Esanova. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020. – 180 b.

67. F.B. Ibratova. Tadbirkorlik subyektlarini bankrot deb topishning o'ziga xos xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020. – 248 b.

68. Ибратова Ф.Б. Экономическое процессуальное право Республики Узбекистан. (Общая часть): (учебник). Том 1. – Ташкент. «Innovatsiya-Ziyo», 2020. – 420 с.

69. Ибратова Ф.Б. Экономическое процессуальное право Республики Узбекистан. (Особенная часть): (учебник). Том 2. – Ташкент. «Инновация-Зиё», 2020. – 414 с.

70. Ибратова Ф.Б. Экономический процесс (практикум). учебно-практическое пособие / Под. ред. проф. Д. Хабибуллаева. – Т.: ТГЮУ, 2020. – 158 с.

71. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYUU, 2020. – 534 b.

72. Xamidov A.O. Majburiy ijro byurosida foydalaniladigan protsessual hujjatlar namunalari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2020. – 313 b.

73. K. Avezov, I. Salimova, G. Mamaraimova. Ijro ishi yurituvi // O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z. Esanova. – Toshkent: TDYUU, 2020. – 104 b.

74. Esanova Z.N., Xabibullayev D.Yu. Sudga murojaat qilish (tartibini bilib oling). Ommabop risola. – Toshkent: TDYUU, 2020. – 50 b.



#### IV. Xorijiy adabiyotlar:

1. Давыденко Д.Л. Примириительные процедуры в европейской правовой традиции. Монография. – М.: Инфотропик Медиа, 2013. – 232 с.

2. Friedenthal Jack H., Miller Arthur R., Sexton John E., Hershkoff Helen. Civil Procedure: Cases and Materials West Academic Publishing, 2013. – 1442 p.

3. Макаров П.Н. Концентрация процессуального материала при разрешении гражданских споров (опыт Германии). Монография. – М.: Статут, 2014. – 335 с.

4. Гражданский процесс зарубежных стран (Франция и Англия). Учебное пособие для аспирантов. Кулакова В.Ю., Мирзоян М.Э., Соловьев А.А. – М.: Проспект, 2017. – 361 с.

5. Гражданский процесс. Учебник и практикум для академического бакалавриата. //А.А. Власов. – М.: Юрайт, 2019. – 470 с.

6. Гражданский процесс: Учебник // Под ред. М.К. Треушников. – 7-е изд., перераб. – М.: Городец, 2020. – 992 с.

7. Гражданский процесс. Учебник и практикум для среднего профессионального образования // М. Ю. Лебедев [и др.]; Под редакцией М.Ю. Лебедева. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Юрайт, 2020. – 446 с.

8. Гражданский процесс. / И.В. Решетникова, В.В. Ярков. – 8-е изд., перераб. – М.: Норма: ИНФРА-М, 2021. – 272 с.

9. Гражданский процесс. Учебник и практикум для вузов./ М.Ю. Лебедев [и др.] // Под редакцией М.Ю. Лебедева.– 5-е изд., перераб. и доп.– Москва: Юрайт, 2021. – 428 с.

Z.N. ESANOVA

# FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI

DARSLIK

Muharrirlar:

A. Ahmedov,

D. Ahmedov

Sahifalovchi:

Sh. Rasulov



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik  
Adabiyotlar  
Publish**

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lits. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99893 554-63-70.

Elektron manzil: yuridknashr@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi: 25.04.2022-y.

Qog'oz bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ .

«Antiqua» garniturasida.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 20,5.

Nashriyot hisob tabog'i 18,5.

Adadi 1000 nusxa.

DDA-buyurtma.

«MasterBooks» MCHJ bosmaxonasida

chop etildi. Toshkent shahri, Yakkasaroy

tumani, Xushtepa ko'chasi, 22-a.